

Pedagogika

UDK 372.800.2

PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITIES BASED ON INTERNATIONAL ASSESSMENT CRITERIA

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH MEZONLARI ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ

Turdiboyev Dilshod Xamidovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: dilshod.turdiboyev.82@mail.ru

Abstract. In this article, special attention is paid to the preparation of future primary school teachers for pedagogical activities based on international assessment criteria, preparation of didactic educational materials and assignments, preparation of students for international research, and clarification of the main pedagogical factors that develop their mathematical literacy.

Key words: international assessment, criterion, logical, creative, creative, pedagogical factor, international research.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqara baholash mezonlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash bunda, fanlardan didaktik o‘quv materiallari hamda topshiriqlar tayyorlash, o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda ularning matematik savodxonligini rivojlantiruvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, mezon, mantiqiy, ijodiy, kretiv, pedagogik omil, xalqaro tadqiqot.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется подготовке будущих учителей начальных классов к педагогической деятельности на основе международных критериев оценки, подготовке дидактических учебных материалов и заданий, подготовке учащихся к международным исследованиям, а также выяснению основных педагогических факторов, формирующих их математическая грамотность.

Ключевые слова: международная оценка, критерий, логический, творческий, педагогический фактор, международное исследование.

KIRISH. Mamlakatimizda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash va ularning didaktik imkoniyatlarini oshirish, sohada mavjud muammolarni tahlil qilish hamda pedagogik va psixologik talablarni aniqlashtirish, xalqaro baholash mezonlari asosida fanlardan didaktik o‘quv materiallari hamda topshiriqlar tayyorlash, o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda ularning matematik savodxonligini rivojlantiruvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlashtirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Bu borada, “Xalq ta‘lim va oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida” O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha xalqaro dasturlar reytingida jahonning ilg‘or mamlakatlari qatoridan joy olish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan[1]. Ushbu konsepsiyasida belgilangan vazifalarni bajarishni amalga oshirish masalasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash va xalqaro baholash dasturi mezonlari asosida ta‘lim jarayonini tashkil qilish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot ishi olib borish zaruriyatini paydo qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash, xalqaro baholash mezonlari asosida boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishning pedagogik imkoniyatlarini oshirish, xalqaro baholash mezonlari asosida fanlardan didaktik o‘quv materiallari hamda topshiriqlar tayyorlash uslubi, o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirish metodikasi, o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy, ijodiy-kreativ va kognitiv fikrlashini rivojlantirish masalalariga bog‘liq ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida doimiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy-kreativ va kognitiv fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish asosida ularning matematik savodxonligini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi: xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish va didaktik talablarni aniqlashtirish; boshlang‘ich ta‘lim fanlaridan didaktik o‘quv materiallari tayyorlashda, xalqaro baholash mezonlari asosida pedagogik tamoyillardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash bunda, o‘quvchilarning tabiiy,

matematik, o'qish, global kompetentlik, molyaviy va kreativ fikrlash savodxonligini rivojlantirish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy, matematik, o'qish, global kompetentlik, molyaviy va kreativ fikrlash savodxonligini oshirishda asosiy pedagogik omillarni aniqlashtirish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish, amaliyotda qo'llash hamda ularning samaradorligini tajribada aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Hozirgi vaqtda, umumta'lim muassasalarida xalqaro baholash mezonlari asosida fanlarni o'qitishning didaktik imkoniyatlarini oshirish, o'qitishda mavjud pedagogik va tashkiliy muammolarni o'rganish hamda didaktik talablarni belgilash, xalqaro baholash mezonlari asosida boshlang'ich ta'lim fanlaridan o'quv mazmun yaratish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda ularning matematik va tabiiy savodxonligini rivojlantiruvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlashtirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu sohada, o'quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishning mantiqiy tafakkur qilish bilan bog'liqligi bo'yicha S.R.Rubinshteyn o'zining tadqiqotlarida, V.A.Krutetskiy o'quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishda quyidagi qobiliyatlarni asosiy omillar deb ta'kidlaydi: qo'yilgan masalani tez va keng ma'noda tushunish; matematik mulohaza yuritishni tizimli amalga oshirish; matematikadan qo'yilgan masalani yechish jarayonida mulohazani teskaridan tahlil qilish; geometrik tasavvur qilish.

A.Kovalev esa o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishni ijodiy-kreativ yondashilgan vositalar asosida amalga oshirish ahamiyati to'g'risida fikrlarini bayon qiladi.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqot natijasidagi fikrlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida, xalqaro baholash mezonlari asosida o'quvchilar savodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan ilmiy-metodik tavsiyalar va shu tavsiyalar asosida o'quv va uslubiy qo'llanmalar, yangi o'quv adabiyotlari va pedagogik vositalar yaratish hamda ularni ta'lim jarayoniga tadqiq qilish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ma'lumki, har bir o'quvchilarning yoshi, fikrlash doirasi, o'zlashtirish qobiliyati, psixologik holati nuqtai nazaridan kelib chiqib, fanlardan o'quv mazmun yaratishga qo'yiladigan talablar belgilanadi. Jumladan, xalqaro tadqiqot dastur(PISA, PIRLS, TIMS)lari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqishda quyidagi pedagogik va psixologik talablar belgilanadi: xalqaro ilmiy bazalarga kiritilgan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning mantiqiy bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, yuzaki bilim olishga zid bo'lgan va o'quvchilarni amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi; o'quv fanlar mavzularining o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda sodda va tushunarli bayon qilinishi; o'quvchilarning fiziologik jihatdan yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlarini, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim. Xalqaro baholash dasturlari mazmuniga mos o'quv materiallari va topshiriqlar ishlab chiqishda o'quvchilarning quyidagi ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Shaxsiy fikrini bayon qilish – o'quvchining ijtimoiy muhitda va kundalik mashg'ulotlaridagi vaziyatlarda shaxsiy fikrini bayon qila olish ko'nikmasini shakllantiruvchi pedagogik jarayon. Ushbu pedagogik jarayon, o'quvchining turmush hayoti bilan bog'liq ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan va o'quvchining ijtimoiy muhitda duch keladigan kundalik mashg'ulotlaridagi vaziyatlarga shaxsiy fikr bildirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Kasbiy professionallik – o'quvchining oiladagi yaqinlari (ota-ona va yaqin qarindoshlar) kasbiy faoliyatidan, ro'zg'ordagi yumushlardan, savdo va pul munosabatlaridan kelib chiqib, kelajakda kasb tanlash va professional kasb egasi bo'lish imkoniyatini beruvchi ko'nikma. Mazkur ko'nikma, o'quvchining oiladagi yaqinlari (ota-ona va yaqin qarindoshlar) kasbiy faoliyatidan, kundalik hayot va ro'zg'ordagi yumushlardan, savdo va pul munosabatlaridan kelib chiqib o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Ijtimoiy fikrlash – jamiyat hayoti, mahalla, urf-odat va qadriyatlarga oid muammolar va vaziyatlardan mantiqiy xulosa yuritish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Ilmiy tadqiqotchilik – o'quvchilarni dunyodagi fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq, tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlar, nazariy xarakterga ega bo'lgan muammolarni tahlil qilish va ularning yechimini topish malakasini rivojlantiradi. Ushbu omil, o'quvchilardagi ilmiy izlanuvchanlik va evristik xarakterlilik qobiliyatlarini shakllantiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolar va ularning yechimlariga oid keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish maqsadida, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda xalqaro tadqiqot dasturlaridagi mezonlar asosida o'quv jarayonini amalga oshirishning hozirgi kundagi pedagogik imkoniyatlari, mavjud muammolar va didaktik talab (ilmiy, metodik va kognitiv)larni aniqlashtirishni tavsiya qilamiz. Bundan tashqari, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini tashkil qilish va fanlardan o'quv materiallari hamda topshiriqlar tayyorlashda xalqaro baholash ko'nikmalari (shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy, ilmiy) asosida xalqaro baholash mezonlari(tabiiy va ilmiy savodxonlik, matematika savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kreativlik, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, yetakchilik, o'qib tushinish)dan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim fanlaridan, jumladan, matematika fanidan yangi o'quv adabiyotlarini

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

yaratishda o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalari (ijodkorlik va kreativ, tanqidiy fikrlash, tizimli tafakkur qilish, AKT savodxonligi) rivojlantirishga qaratilgan o'quv mazmun yaratish texnologiyasini takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini oshirishda asosiy pedagogik omillar (ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, tizimli tafakkur qilish) ning bog'liq (uzviy)lik darajasi pedagogik korrelyatsion va regression tahlil qilingan va asosiy muhim omillarni aniqlashtirishni tavsiya etamiz.

Tadqiqotimiz davomida belgilab olingan mezonlarga ko'ra umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini xalqaro baholash mezonlari asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish metodikasi bo'yicha, boshlang'ich ta'lim fanlarining o'quv mazmunini quyidagi talablar asosida takomillashtirish muhimligi aniqlashtirildi:

xalqaro ilmiy bazalarga kiritilgan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning mantiqiy bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, yuzaki bilim olishga zid bo'lgan va o'quvchilarni amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fanlar mavzularining o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda sodda va tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning fiziologik jihatdan yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlarini, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro mezonlari bo'yicha pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi tajriba guruhi natijalari nazorat guruhi natijalaridan yuqori ekan. 1-jadvaldagi natijalarni umumlashtirib quyidagi natijani yozishimiz mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro mezonlari bo'yicha pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi

Baholash	Xalqaro baholash mezonlari															
	Tabiiy va ilmiy yondashuvchanlik		Matematik savodxonlik		Tanqidiy tafakkur qilish		Qiziquvchanlik		Tashabbuskorlik		Moslashuvchanlik		Etakchilik		O'qib tushunish	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
	48	48	48	48	48	48	48	48	48	48	48	48	48	48	48	48
Yuqori	12	7	11	6	13	8	12	5	15	8	11	5	12	6	14	7
O'rta	20	15	19	15	21	13	22	16	18	16	24	17	22	18	23	16
Quyi	13	26	18	27	13	27	14	27	15	24	13	26	14	24	11	25

XULOSA

Olib borilgan matematik-statistik hisoblash natijalaridan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, tajriba guruhlaridagi natijalarga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasidan, nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, balki umumta'lim muassasalari uchun didaktik o'quv materiallari ishlab chiqishda foydalanish xalqaro tadqiqotlarda samarali natijaga erishishda muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi № PF-5712-sonli Farmoni.//Xalq so'zi, 2019-yil, 30-aprel.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018-йил 8-декабрдаги 997-сонли Қарори.
3. PISA–2021 Mathematics Framework (second draft), 46th meeting of the PISA Governing Board, 5-7 November 2018 Prague, Czech Republic.
4. PISA Mathematics in 2021, An analysis of the center for curriculum redesign (CCR), 2016.
5. Implementing the Proposed Mathematics Framework: Recommendations for PISA-2021, Peggy G. Carr, Ph.D., Vice Chair, PISA Governing Board Associate Commissioner, National Center for Education Statistics (NCES) May 25, 2018.

Muallif:

Turdiboyev Dilshod Xamidovich - Guliston davlat universiteti dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

E-mail: dilshod.turdiboyev.82@mail.ru.

UDK 372.878

EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE TECHNIQUES IN NON-TRADITIONAL MUSIC LESSONS

NOAN' ANAVIY MUSIQA DARSLARIDA INTERFAOL USLUBLARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА НЕТРАДИЦИОННЫХ УРОКАХ МУЗЫКИ

Annakulova Dildora Baymuratovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: annakulovadildora@gmail.com

Abstract. The article describes how our country gained independence and there were fundamental changes in the social, economic, political, cultural, educational and other spheres. These changes have given a great impetus to rising youth to better understand our history, present and future, as well as to increase our national spirituality. The modern age means that a person has to face many complex problems and find effective solutions to them. It can be seen that today the issues of expanding people's worldview, further developing their knowledge and thinking, discovering new aspects of education and science, and achieving great achievements are put in first place. This begins directly with educating our growing youth in the national spirit, with providing them with fundamental knowledge. Our word is confirmed by the fact that in our country, from the 29th time in 2019, scientific and practical conferences are being held under the slogan "The Century of the Intellectual Generation of the 21st Century". At this conference, young researchers in the areas of "Social and Humanitarian Sciences", "Natural Sciences", "Exact Sciences", "Technical Sciences", academicians of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, scientists and professors of leading higher educational institutions will present their scientific research, discussion with participation experts. Listening to music is one of the important tools of artistic education, which is carried out throughout the entire lesson. Listening develops in children the ability to understand and experience life and existence. In this musical language, the teacher's use of interactive methods during the lesson, the use of interesting and experiential teaching methods, is illustrated with practical examples.

Keywords: Interactive, Case-study, Blitz-survey, Modeling, Creative work, Problem-based learning, 4K model.

Аннотация: В статье рассказывается об обретении нашей страны независимости, о коренных изменениях в социальной, экономической, политической, культурной, образовательной и других сферах. Эти перемены дали большой толчок подрастающей молодежи к лучшему пониманию нашей истории, настоящего и будущего, а также к повышению нашей национальной духовности. Современный век означает, что человеку приходится сталкиваться со многими сложными проблемами и находить их эффективное решение. Видно, что сегодня на первое место ставятся вопросы расширения мировоззрения людей, дальнейшего развития их знаний и мышления, открытия новых сторон образования и науки, достижения великих достижений. Это начинается непосредственно с воспитания нашей подрастающей молодежи в национальном духе, с предоставления ей фундаментальных знаний. Подтверждением нашего слова является тот факт, что в нашей стране с 29-го раза в 2019 году под лозунгом «Век интеллектуального поколения XXI века» проводятся научно-практические конференции. На этих конференциях свои научные исследования представляют молодые исследователи по направлениям «Социально-гуманитарные науки», «Естественные науки», «Точные науки», «Технические науки», академики Академии наук Республики Узбекистан, ученые и профессора ведущих высших учебных заведений, обсуждение с участием экспертов. Прослушивание музыки является одним из важных инструментов художественного воспитания, которое осуществляется на протяжении всей деятельности урока. Слушание развивает у детей способность понимать и познавать жизнь, существование. В этом музыкальном языке средства выразительности использовании педагогом интерактивных методов в ходе урока, использовании интересных и основанных на опыте методов обучения, иллюстрируется практическими примерами.

Ключевые слова: Интерактив, Case-study, Блиц-опрос, Моделирование, Творческая работа, Проблемное обучение, Модель 4K.

Kirish. Bugungi g'loballashuv vaqtida rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo'lgan barcha davlatlar dunyo miqyosida o'zining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, jahon bozorida tutgan rolini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Shuningdek, yildan yilga yuksalib borayotgan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, sport, san'at, madaniyat singari barcha sohalarida o'sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundanda yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasini" [1] keltirishimiz mumkin.

Hozirda yurtimizni bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga olib chiqish va undagi rolini mustahkamlash maqsad va muddaomizga aylangan. Ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz

mumkin. Chunki dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim hamda ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yimoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual, ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda uch yuzdan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy-moliyaviy infratuzilmaga oid islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish, sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan muammolarning yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallashtirish tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi kerak. Zero, dunyoda yuzaga kelayotgan mana shunday murakkab vaziyatda ham mamlakatimiz jahonda tutgan o'rni va rolini yanada mustahkamlab bormog'i lozim.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun tegishli qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi [2].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi [3]. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarasi yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish; ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi; ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va xatti-harakatlariga muvofiqlashtirilishi; ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashtirishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi [4]:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blist-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lim” va boshqalar.

Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategiyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi dars mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash o'quvchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari xilma - xil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo'lib, uning o'rniga boshqa metodni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emas ekanligi ma'lum. Shu sababli ta'lim metodlarining qaysinisidan qaysi maqsad uchun foydalanish ko'zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega. Lekin bu masala hozirgacha to'liq o'rganilgan emas. Bu masala avvalo ta'lim metodlarini ma'lum belgilariga ko'ra turlarga ajratib olish va ularning asosiy xarakteristikalarini aniqlashni talab qiladi. Shuni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim metodlarini turlarga ajratish dolzarb masaladir. Buni hal qilish uchun zamonaviy ta'lim metodlarining turlarga ajratish uchun zarur bo'lgan asosiy belgilarini aniqlab olish lozim. Bu belgilar quyidagilar bo'lishi mumkin: bajaradigan vazifasiga; ko'zda tutiladigan natijaga; ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga; pedagogik va psixologik yo'nalishlariga; ta'lim oluvchilarning yoshiga muvofiqligiga; ayrim fanlarni (ijtimoiy, tillar, tabiiy, aniq, amaliy va boshqa fanlarni) o'qitishga; nazariy va amaliy bilim; ko'nikma va malakalarni o'rgatishga; o'zlashtirishni nazorat qilishga tegishli va boshqa belgilar.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqliklari quyidagicha qayd qilinadi: o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq; bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog'liq; ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq; o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq; oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq; o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq; o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Xulosa

"Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam ushla" [5], - degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus. Darhaqiqat, kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, xaqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim jarayonida o'qitish metodlari markaziy o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 8-fevral: www.lex.uz.
2. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. - T., 2020. – 240 b.
3. Turdiyev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. (I-qism). - Toshkent, 2015. – 180 b.
4. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. - T., 2010. – 144 b.
5. Abduqodirov A., Ishmuxamedov R., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2008. – 108 b.

Muallif:

Annakulova Dildora Baymuratovna - Guliston davlat universiteti, An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari kafedrasida stajyor o'qituvchi.

UDK 372.834

METHODICAL ANALYSIS OF THE TENDENCY OF YOUNG PEOPLE TO CRIME AND IMPROVEMENT OF THE WORLDVIEW AIMED AT CRIME PREVENTION.

YOSHLARNING JINOYATGA MOYILLIGI VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHGA QARATILGAN DUNYOQARASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TAHLILI.

МЕТОДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СКЛОННОСТИ МОЛОДЕЖИ К ПРЕСТУПНОСТИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ, НАПРАВЛЕННОЕ НА ПРОФИЛАКТИКУ ПРЕСТУПНОСТИ.

Sagdullayev Jaxongir Axmadjon o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, 140104, Bustansaroy kochasi 93.

E-mail: gabasagdul1222@gmail.com

Abstract. In this article, feelings of tendency to various manifestations of social behavior, emotional appeals, mass actions, group motivation, preventive work with young people with wrong lifestyle, education and development of the young generation, influence on consciousness and emotions are discussed in this article. Many other mysterious factors, self-affirmation leads to socially dangerous consequences, issues that can lead to group commission of crime are discussed.

Key words: criminologists, our values, psychoactive substances, group motivation, emotional appeals, criminological-psychological, drugs, young generation, education - negative consequences of psychoactive substances.

Аннотация. В данной статье рассматриваются чувства склонности к различным проявлениям социального поведения, эмоциональные призывы, массовые действия, групповая мотивация, профилактическая работа с молодежью с неправильным образом жизни, воспитание и развитие молодого поколения, влияние на сознание и эмоции. Обсуждаются многие другие загадочные факторы, самоутверждение, приводящие к общественно опасным последствиям, вопросы, которые могут привести к групповому совершению преступлений.

Ключевые слова: криминологи, наши ценности, психоактивные вещества, групповая мотивация, эмоциональные призывы, криминологическо-психологические, наркотики, молодое поколение, образование - негативные последствия психоактивных веществ.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida fikr bildirib, jarayonga qo'yidagicha baho berdi: "Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo'lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatlarini o'ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma'rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo'lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak. Shu o'rinda men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo'lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da'vat etaman" [1].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "...o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar - bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim" deya ta'kidlab, yosh avlodni ma'naviy va g'oyaviy tarbiyasiga kompleks yondashuv g'oyasini ilgari suradi [2].

Atrof-muhitning yosh o'smirga ta'siri sezilarli darajada katta bo'lib, uning shaxsiyati, kelajagi muhit ta'siriga bog'liq bo'ladi. Kriminologlarning kam o'rganilgan "ruhiy infeksiya" hodisasi bunga misol bo'la oladi. Ijtimoiy psixologiyada "infeksiya" tushunchasi "semantik ta'sirning psixofiziologik aloqa darajasida hissiy holatni bir shaxsdan boshqasiga o'tkazish jarayoni"ni anglatadi [3]. Yoshlar ijtimoiy xulq-atvorining turli xil ko'rinishlariga moyillik hislari, hissiy murojaatlar, ommaviy harakatlar, guruh motivatsiyasi, ko'pincha, "olomon effekti"ga olib keladi. Ba'zi ommaviy axborot vositalari ta'siri, fe'l-atvor (zo'ravonlik, jinsiy aloqa, noqonuniy boyib ketish, jamoat ongini ezish) ta'sirlari va boshqa tashqi ta'sirlar asosida shakllanadi. Yoshlar orasida spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish odati keng tarqalgan. Bugungi kunda odatda yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan yoshlar alkogolizmi, giyohvandlik muammolari muammoli holatlardan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, Samarqandda 2022-yilda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari bilan bog'liq 685 ta jinoyat ro'yxatga olingan. Giyohvandlik yoshlar submadaniyatining elementi sifatida yoshlarning shaxsiyatini tobora murakkablashtirib borayotgan salbiy odatlardan hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot jarayonida huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi konseptual fikrlarni tahlil qilish, qarashlarni o'rganish, analiz va sintez, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, suhbat, modellashtirish, so'rovnomalar o'tkazish, monitoring, intervyu, test, pedagogik tajriba-sinov, analitik obzor, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bundan kelib chiqadiki, yoshlar faqat psixofaol moddalarni deyarli ishlatmaydilar. "O'smirlar bir o'zi psixoaktiv moddalarni iste'mol qilgan holatlarni uchratish qiyin" deb yozadi E.Kapashinova. "Ularga, albatta, tomoshabinlar kerak, ularning oldidagi harakatlar alkagol va giyohvandlikning mohiyatini ko'rsatib turadi" [4].

Shu bilan birga, noto'g'ri hayot tarzi yoshlar bilan profilaktika ishlari olib borishni taqozo etadi. Ko'pincha o'smir va psixofaol moddalarni iste'mol qilish o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmi istak-xohishlar moyilligi tushunchasidan kelib chiqadi. Yoshlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilishining yana bir kriminologik-psixologik mexanizmi kattalarning o'zini-o'zi tasdiqlash zarurligiga asoslanadi. Bunday o'zini-o'zi tasdiqlash ijtimoiy xavfli oqibatlariga olib kelishi, jinoyatning guruhli sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarlik muammosi, uni aniqlash va oldini olish masalalari borasida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot ishi yuzasidan O'zbekistonlik olimlardan M.Quronov, A.Abduqodirov, T.Abdullayeva, A.Pardayev, R.Djo'rayev, G.Ibragimova, M.Inomova, A.Isimova, Z.Ismoilova, S.Yo'ldosheva, O.Musurmonova, U.Mahkamov, M.Mahkamov, M.Mahmudova, N.Ortiqov, A.Raxmatov, Q.Sodiqov, G.Shoumarov, D.Sharipova, N.Musayeva, Q.Nazarov, A.Saidov, S.Toshtemirova, F.Xusainova, M.Tairova, D.Raximboyeva, K.Najmiddinova, N.Musayeva, Y.Jo'maboyev kabi tadqiqotchilarning ilmiy natijalari o'rganildi, tahlil qilindi, amaliy tavsiyalaridan foydalanildi.

Mamlakatimizda oilaviy tarbiya masalalari sog'lom tafakkur, sog'lom madaniyatning ijtimoiy-falsafiy jihatlari O.Buriyev, M.Ochilov, M.Shodmonova, D.Sharipova, S.Yo'ldosheva, X.Shayxova, X.Mo'minov, P.Xudoyberganova tadqiqotlarida, ayrim psixologik xususiyatlari Z.Nishonova, N.Egamberdiyeva, D.Kenjayeveva kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda, mavzu yuzasidan milliy qadriyat va muqaddas islom dini asosida yoshlar tarbiyasini jinoyatchilikka qarshi immunitet bilan qurollantirishga ko'maklashuvchi manbalardan ham unumli foydalanildi. Voyaga yetayotgan shaxslar tarbiyasiga oid tadqiqotlarda yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlarning o'rni alohida ko'rsatib o'tildi.

Xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlari tadqiqotchilari A.Plotnikov, A.Nuykin, N.Burlakov, D.Shestakov, M.Molchanova, S.Sibiryakov, A.Dolgova, D.Rivman, G.Gorshenkov, Yu.Avrutin, R.Baymurzayeva yoshlarda jinoyatga moyillikni so'ndirish yoki antikriminal immunitetni takomillashtirishning pedagogik jihatlari va muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borishgan. Yoshlar orasida giyohvandlik muammosini oddiy odatga qisqartirib bo'lmaydi, garchi odat bolalarni spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va ularning o'rnini bosuvchi mast qiluvchi moddalarga berilishini anglatadi. Bu jarayonning asosiy omili shaxsiyatning muvofiqligi - "shaxsning o'z xatti-harakatlarini boshqa odamlarning ta'siri ostida, fikriga mos keladigan tarzda o'zgartirishga moyillikdir". Odatlarga suyanib nomoyishkorona maqtanishning kriminogenligi, uning ko'rsatgan salbiy oqibatlari hisob-kitoblar bo'yicha to'liq o'rganib chiqilmagan.

Yoshlar bilan tushuntirish ishlari olib borilishi muqarrar ravishda qarama-qarshilik, norozilik hissini keltirib chiqaradi va bu psixologik ta'sir, ayniqsa, aksariyat yoshlar tomonidan "noto'g'ri tushunish"ga sabab bo'ladi. O'smirlar shaxsiyatining ruhiy infeksiyasi boshqa ko'plab omillar, jumladan, hayotni tushunish, hodisalarning ruhiy holatiga ta'siri, mish-mishlar, yomon so'zlar, jargonlar bilan belgilanadi. Bu ro'yxatga ong va tuyg'ularga ta'sir qiluvchi boshqa ko'plab omillarni qo'shish mumkin. Professor S.L.Sibiryakov norasmiy yoshlar birlashmalarini tashkiliy darajasiga ko'ra tasniflashni taklif qiladi: a) yetarlicha aniq tuzilishga, atributlarga ega; b) "soxta norasmiy uyushmalar", masalan, o'smirlar o'zlarini ba'zi bir uyushmalar bilan tanishtiradilar, ularga taqlid qiladilar, modaga ergashadilar; v) "ko'cha" o'smirlari ko'rinishida "soxta" guruh tuzib olishadilar va hokazo.

"Norasmiy yoshlar uyushmalari: o'tmishda va hozirda" risola muallifi E.S. Sibiryakov ushbu birlashmalarni yo'naltirilganlik tabiati va darajasiga ko'ra tasniflaydi va ularning quyidagi ikki turini belgilaydi: a) ijtimoiy yo'naltirilgan, ya'ni sog'lom turmush tarzini olib boradigan qonunga bo'ysunuvchi; b) neytral yo'naltirilgan, o'z qiziqishlariga ko'ra, - ko'pincha, spirtli ichimliklar ichish, deviant xatti-harakatlar bilan bog'liq holda o'z-o'zidan birlashgan; v) g'ayriijtimoiy - yo'naltirilgan jamiyatdagi tub o'zgarishlarga yo'naltirilgan, g'ayriijtimoiy harakatlarga, namoyishkorona tajovuzkor xatti-harakatlarga moyil; d) jinoiy yo'naltirilgan, tushuntirishga muhtoj bo'lmagan.

Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan norasmiy birlashmalar kriminal xavfsizlikni ta'minlash subyekti uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ular boshqaruv ta'siri obyekti haqida maqsadli ma'lumotlarni oladi. Ba'zi norasmiy yoshlar uyushmalari turli darajada jinoiy xavf manbai hisoblanadi. Sotsiologlar bunday uyushmalarni salbiy yo'naltirilgan yoki asotsial (panklar, skinxedlar, sport muxlislari, xakerlar) deb atashadi. Olimlarning qayd etishicha, keyingi yillarda milliy-shovinistik oqim tarafdori bo'lgan yoshlar soni ortib bormoqda [5].

Jinoyatdan "o'rtacha" yoki haqiqiy xavfga mutanosib qo'rquv, shuning uchun foydaliki, "himoya" odatlarni takomillashtirishga yordam beradi va shu bilan, xususan, jinoyat qurboni bo'lish xavfini kamaytiradi. Ammo, boshqa

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

tomondan, qo'rquv odamni fiziologik disfunksiyaga va hatto jinoiy xavfga qarshi to'liq harakatsizlikka olib kelishi mumkin. Agar odam tahdid qiluvchi (qo'rqituvchi) manba bilan hech narsa qila olmasa, psixologlar bunday vaziyatni "o'rganilgan nochorlik effekti" vositasida ko'rib chiqishga harakat qiladi. Psixologiya sohasida mutaxassis E.A.Mensh jinoiyatdan qo'rqish oqibatlarini tahlil qilib, quyidagi holatga e'tibor qaratadi: "Odamlar ma'lum qo'rquvlarni osonlikcha yengishga qodir bo'lib, bolalikdan ma'lum qo'rquvlar to'planishi holatlari bundan mustasno. Rebound infeksiyasi bilan kuchaygan holatlarda tanishlar, qo'shnilar va ommaviy axborot vositalarini yaqin va tanqidsiz qabul qilish yuzaga keladi. Bunday hollarda subyektning har qanday obyektidan qo'rqishiga tabiiy reaksiyasi vahima, nevroz, psixikaning reaktiv holati paydo bo'lishi mumkin" [6].

Yoshlar o'rtasidagi ekstremistik g'oyalar tarqalishida ularning kriminalogik xususiyatlari emas, balki, jinoiy immunitetning kamligi katta rol o'ynaydi.

Ekstremizm haqidagi ayrim ommaviy axborot vositalarining yosh o'smirlar shaxsiga buzg'unchi ta'siri ishtirokchilarning bevosita niyati bilan, shu jumladan tegishli tashkilotlar, elatlar, buzg'unchi diniy birlashmalarning manfaatlarini ifoda etgan holda yoki beparvolik, ya'ni o'yalmaslik oqibatida amalga oshiriladi. Biroq, har qanday holatda, ommaviy axborot vositalari odamlarning "allergik reaksiyalari"ning boshqa tabiatiga sabab bo'ladi. Ba'zi yoshlarda ommaviy axborot vositalari tomonidan yo'naltirilgan obyektga nisbatan murosasizlik, nafrat hissi paydo bo'lishi mumkin. Qo'rquv tuyg'usiga ega skinxedlar, millatchilar, sektachilar va boshqa jinoiy xavf manbalari oldida zaifliklaridan qo'rqishadi.

Xulosa

Bu yerda biz shartli texnogen deb atash mumkin bo'lgan texnik ommaviy axborot vositalarining yana bir muhim xususiyatiga e'tibor qaratamiz. Bugungi kunda yangi ommaviy axborot texnologiyalari oqimi ochildi. Ushbu xususiyatni bilish, bolaning ongi va irodasiga kriminogen (viktimogen) ta'sirning tashqi manbalarini o'rganish, baholashni talab etadi. Bu holat ajoyib ta'sir ko'rsatadi, shaxsiy himoya qobiliyatini pasaytiradi. Buning natijasida o'smirlar shaxsiyatiga nisbatan haqiqiy jinoiy xavf yuzaga keladi. Ommaviy axborot ta'siri kommunikatorni taklif qilish usullaridan foydalanganda, jalb qilganda yanada xavfli bo'ladi. Ko'p ma'lumotning hissiy (lotincha *sensus* - tuyg'u) ta'sirchanligi insonning murakkab biologik dunyosiga chuqurroq kirib borishini anglatadi. Axborot ta'sirining bunday tabiati mutaxassislar tomonidan "subsensur" deb ataladi.

Hozirgi hodisani tahlil qilib, O.A.Ovsyannikov va I.V.Shehekotixina [7] "bugungi kunda zo'rvonlik va shafqatsizlik sahnalari bilan to'ldirilgan teleko'rsatuvlar bolaning ruhiyatida jiddiy buzilishlarni keltirib chiqaradi" degan xulosaga keladi. Bolada yaxshi uyqu yo'qoladi, qorong'ulikdan qo'rqish, shafqatsizlik, tajovuzkorlik, qo'zg'aluvchanlik va asabiylashish paydo bo'ladi. Tajribada 3-sinf o'quvchilarining 41,4 foizi uyda yolg'iz qolishdan eng ko'p qo'rqishlarini ta'kidladilar. Moskva davlat universiteti professori A.Podolskiy o'zining psixologik konsultatsiyasida bemorlarni tekshirar ekan, bola o'z xohishiga qarshi televizorni salbiy ta'kidlab, ushbu holatga e'tibor qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega. Yangi O'zbekiston. 2023-yil 19- mart.-2 b.
2. Ш.Мирзиёев. "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш - давр талаби". 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида анжуманда сўзлаган нутқи. <http://uza.uz/oz/politics>.
3. Конев А.А. Психическое заражение антисоциальным поведением в сфере межличностных отношений: Монография. - Нижний Новгород: Изд-во Волго-Вятской академии государственной службы, 2006.
4. Капашинова Э. Криминологическо-психологические механизмы преступлений совершаемых несовершеннолетними, злоупотребляющими наркотическими и психоактивными веществами (ПАВ) //http://www.enet.ru / ufsnp /diskus .htm.
5. Сибиряков, С.Л. Предупреждение девиантного поведения молодежи (методологические и прикладные проблемы): Дис.докт. юрид. наук: 12.00.08. - М., 1998.-С. 16.
6. Mensh E.A. Value-motivational priorities of the medical students of the university in respect of a healthy way of life. Fundamental research. Scientific journal. ISSN 1812-7339. Certificate- PI №77-15598. Pg.-16-19.
7. Овсянникова О. А., Щекотихин И. В. Анализ причин психолого-педагогического характера отклоняющегося поведения детей Орловской области// Социальная работа по профилактике безнадзорности и правонарушений несовершеннолетних в Орловской области. - М., 1996. - С.23 – 27

Muallif:

Sagdullayev Jaxongir Axmadjon o'g'li - Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil tadqiqotchi.

UDK 372.815.99

THEORETICAL FOUNDATIONS OF PSYCHOLOGICAL WELL-BEING: THE EXISTENTIAL-HUMANISTIC APPROACH

ПСИХОЛОГИК ФАРОВОНЛИКНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ: ЭКЗИСТЕНЦИАЛ-ГУМАНИСТИК ЁНДАШУВ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ: ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНО-ГУМАНИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Абдукадилова Лаура Юльбарсовна

Ферганский государственный университет. Ферганская область, г. Фергана, ул. Туркестон 14/18.

E-mail: L-abdukodirova@inbox.ru

Abstract. This article presents an analysis of the existential-humanistic approach to psychological well-being as a factor that enhances work capacity, labor productivity, reduces social tension in society, and contributes to the successful implementation of educational reforms and the training of qualified specialists in Uzbekistan. The relevance of analyzing theoretical approaches is justified by the significance of developing effective strategies and programs aimed at improving the quality of life of school students, university students, and educators. The article reviews perspectives on psychological well-being from scholars such as Carl Rogers, Abraham Maslow, N. Bradburn, E. Diener, R.M. Shamionov, L.V. Kulikova, N.V. Usova, O.S. Shiryayeva, Y.I. Pavlotskaya, K. Riff, and others. The author believes that the most developed concept of psychological well-being is the theoretical position of K. Riff, which identifies components of psychological well-being as 1) inner harmony (self-acceptance), 2) positive relationships with others, 3) independence, 4) control over circumstances, 5) having a purpose in life, and 6) personal growth. It is concluded that special attention needs to be paid to the development of these components among school and university students. Under these conditions, higher, secondary-specialized educational institutions, and schools can become not only sources of knowledge transfer but also centers for the support and development of a healthy personality, which forms the basis for creating a stable and productive society.

Keywords: education, academic requirements, psychological well-being, students, schoolchildren, educators, inclusion, students in difficult life situations, psychological loads, existential-humanistic theory, self-actualization, personal growth, eudaimonia, life satisfaction, subjective well-being, self-determination theories, deprivation of basic needs.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yosh avlodga musiqiy tarbiya berishning kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiiq etishga alohida ahamiyat bermoqda. Respublikamizda ham so'nggi yillarda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida musiqa sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Respublika qo'shiqlar tanlovi, "Botir Zokirov nomidagi zamonaviy estrada" qo'shiqchilar tanlovi, "Yosh maqomchilar" tanlovi, "Yoshlar ovozi" tanlovi, "Yosh ijrochilar" tanlovi, "San'atim senga, obod yurtim!" ijodiy ko'rik-tanlovi, "Xalq cholg'ulari ijrochilari" ko'rik-tanlovi, "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilari va musiqa festivali, "Xor festivali"ni respublika miqyosida o'tkazishning me'yoriy asoslari, moddiy texnika bazasi yaratilmoqda. "Ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" [1] ustuvor vazifalar etib belgilangan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Musiqa – insonning ichki hissiy kechinmalari, ruhiyati, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (nag'ma)lar izchilligi va majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi hisoblanadi. Musiqani tinglayotgan inson bevosita, uning og'ushiga, ya'ni boshqa olamga g'arq bo'ladi. U insonni o'ylashga, fikrlashga, hayol surishga, xursand bo'lishga, darddan forig' bo'lishga va shirin xotiralar ila ko'z yosh to'kishga ham majbur qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Musiqaning ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari Sharq mutafakkirlaridan Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Al-Farobiy, Najmiddin Kavkabiyy va tasavvuf arboblari Kalobodiy Buxoriy, Imom G'azzoliy hamda yunon olimlaridan Aristotel, Pifagor, Platonlar tomonidan ilmiy tadqiq qilinib, yuqori baholangan.

Yunon faylasufi Platon: "Davlatning kuch-qudrati – unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir", - deb hisoblagan. Platon va uning izdoshlari: "Davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak", deb hisoblaganlar. Qadimgi Xitoyda musiqa – tartib va sivilizatsiya ramzi hisoblangan, u tarbiyaning eng muhim vositasidir. Musiqa psixologiyasi o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiyy kabi buyuk mutafakkirlar ijodida o'z rivojini topdi. Ular musiqadan davolash vositasi sifatida ham foydalanishgan [2].

Aristotel o'zining "Poetika" asarida badiiy ijodning me'yoriy qonunlarini falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Aristotel san'atning borliqdagi imkoniyatini faol, ijodiy, yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashda ko'radi. Uning fikricha, "San'atning vazifasi voqe'likni mexanistik tarzda qayta tiklamay, balki uni ijodiy aks ettirishdan iborat" [3].

Suqrot "Ijodning asosida haqiqat va uning mohiyatini tushunish yotadi", - deb ta'kidlaydi. Shuning uchun u "Har bir odam o'z fikriga ega bo'lishi mumkin, ammo haqiqat barcha uchun bitta bo'lishi lozim", - deb hisoblaydi [4].

Gegelning fikricha, "Ijod mushohada qilish qobiliyati, tasavvurning samarali va reflektiv faoliyati bo'lsagina amalga oshadi" [5].

L.A.Grevtsovaning tadqiqotida "Ijodiy jarayon barcha botiniy kuchlar oliy darajada jamlangan lahzada vujudga keladigan nogahoniy "bashorat" tarzida anglanadi. Shuning uchun ham Yunon faylasufi Platon ijodning asl manbaini bilimda emas, ilhomda deb hisoblaydi. Xudo insonni yaratib, uning o'ziga o'xshashini istasa, inson ham o'z ijod mahsulining o'ziga o'xshash bo'lishini xohlaydi", - deb ta'kidlangan [6].

O'zbek xalqi ma'naviyatida millat o'tmishi, hozirgi kuni o'z ifodasini topgan bo'lib, jahonshumul kashfiyotlarni yarata olgan minglab allomalarni etishtirib bergan o'lka hisoblanadi. Ular umumbashariy ahamiyatga ega ma'rifatning shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Shuning uchun ham o'zbek milliy-ma'naviy merosi jahon madaniyatining ajralmas qismi, uzviy bo'lagidir.

Sharq allomalari va mutafakkirlarining asarlarida ifodalangan ma'naviy-axloqiy qarashlar insonlar ruhiyati va ma'naviyati taraqqiyotida, yoshlarda ezgulik va iftixor tuyg'usining rivoj topishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Sharq musiqasi – Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan oʻrni benihoya buyuk. Musiqa ming yillardan beri odamlar dilini xushnud etib, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. Oʻzining nozik jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qoʻshmoqda.

Oliy taʼlim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda Sharq allomalari va mutafakkirlarining musiqiy merosidan foydalanish oʻz oʻrnida metodologik mazmun kashf etib, talabalarning maʼnaviy-estetik fikrlashlarini, nazariy bilimlarga ega boʻlishini taʼminlaydi.

Sharq allomalarining bebaho va tengsiz asarlari jamiyatni rivojlanishida, maʼnaviyatimizni yuksalishida, komil insonni kamol topishida muhim jarayon hisoblanadi. Ular tadqiqotlarida falsafa tabobat, falakiyot, musiqa, ahloq, taʼlim-tarbiya, mantiq, tilshunoslik, adabiyot va boshqa fan sohalariga bagʻishlab asarlar yozishgan.

Musiqa sanʼati haqida koʻplab allomalar izlanishlar olib borgan boʻlib, musiqa nazariyasi, musiqaga oid qoidalar bevosita Oʻrta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan.

Bu borada Farobiyning “Musiqa haqida katta kitob” va boshqa asarlari, Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining musiqa haqidagi boʻlimlari, Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqa” kitobi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning musiqa haqidagi qarashlari talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim manbaa hisoblanadi. Abu Nasr Farobiy qomusiy olim hisoblanib, uning 160 dan ortiq ilmiy asarlari mavjud. Abu Nasr Farobiy Oʻrta asr davri ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan olim. Farobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Farobiy oʻzidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan [7].

Ijodkorlik talabalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodiy malakalarni oʻstirib borish uchun katta ahamiyatga ega. Hozirda oʻsib ulgʻayayotgan yoshlarimiz orasida ham har tomonlama mukammal, yetuk, qobiliyatli ijodkorlar yoʻq emas. Musiqa ijodkorligi sohasida koʻplab yoshlarimiz tahsil olib, keyinchalik musiqa pedagogikasi sohasida oʻz faoliyatlarini davom ettirib kelmoqdalar. Qalbida musiqaga mehri boʻlgan insonlardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Shunday ekan, yoshlarimizda musiqaga boʻlgan qiziqishlarini orttirish darkor.

Farobiy “Musiqa haqida katta kitob” asari bilan Oʻrta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur boʻldi. U musiqa ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Farobiy oʻzining “Musiqa haqida katta kitob” asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha, bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi xili esa ehtirolarni qoʻzgʻab, joʻshqin qiladi va nihoyat, uchinchi xil musiqa borki, oʻyga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi [7].

Talaba ongiga alloma va mutafakkirlarning musiqiy qarashlarini singdirishda ideallar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog talabani kelajakda kimning oʻrnida koʻrishni xohlasi, uni talaba koʻzida ideal darajasiga etqaza olishi kerak boʻladi. Masalan, talabani idealni uning otasi, u otasiday uchuvchi boʻlmoqchi, u yaqin orada bu maqsadga erishish yoʻlini izlaydi, unga intiladi, oʻzida otasida bor xislatlarni takrorlashga harakat qiladi.

Talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish taʼlim jarayonining negizi boʻlib, talabalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, uning dunyoqarashini va eʼtiqodini shakllantirishga qaratilgan pedagogik muammolardan biridir. Eʼtiqodning predmeti turlicha boʻlishi mumkin: Vatanga eʼtiqod, dinga, fanga, kasbga, oilaga, axloq meʼyorlariga, goʻzallikka va shunga oʻxshash. Agarki, insonda biror narsaga eʼtiqod shakllangan boʻlsa, u yaxshi, odamlarga, jamiyatga nafi tegadigan boʻlib etishadi. Masalan, Alisher Navoiyning butun hayoti xalqqa va millatga fidoiyligining namunasi sifatida turkiy xalqlar adabiyotiga asos solishga bagʻishlanganligi, Muhammad Al-Xorazmiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulugʻbek kabi buyuk allomalarimizning ilm va ijod yoʻlidagi qatʼiyatlari, erishgan yutuqlari eʼtiqodlilikning yorqin namunasi. Sharq allomalari va mutafakkirlarining musiqiy merosi orqali oliy taʼlim muassasalari talabalarining musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil taʼlim mashgʻulotlariga eʼtibor qaratish lozim.

Demak, talabalarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda allomalarimizning fikr-mulohazalari va manbaalari juda muhim ahamiyatga ega. Har bir oʻrgatilayotgan kuy, qoʻshiq, asar yashab turgan zaminimizni madh etishi, insonda yaxshi xislatlarni uygʻotishi, ezgulikka chorlashi va qolaversa, doʻstlik, mardlikka undashi lozim. Ammo, hozirgi kunda musiqasi yoqimli, maʼno-mazmuni sayoz, yoshlarga xos boʻlmagan, na zarar, na foyda keltirmaydigan, ezgulikka undamaydigan, vaqtincha huzur bagʻishlaydigan “ermak qoʻshiqlar” ommalashib, insonlar ongiga salbiy taʼsir etkazib kelmoqda. Kuy-qoʻshiq kishilarning inson boʻlib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy, maʼnaviy omil hisoblanadi.

Xulosa. Insonning manaviy kamolotga erishuvida fan, adabiyot va boshqa muhim tarmoqlar kabi sanʼatning, xususan musiqaning faqat oʻzigagina xos boʻlgan alohida oʻrni bor. Oʻzbek xalqi qadimdan oʻzining boy musiqiy merosi, manaviy-musiqiy qadriyatlariga ega boʻlib kelgan. Bu bisot turli yoʻnalish va janrlarda allomalarimiz yaratgan musiqiy risolalar, qoʻlyozmalar, yaratilgan cholgʻu asboblari, qoʻshiq, kuy, baxshichilik, ustoz-shogirdlik ananalari, bayramlar, sayllar, festivallar tarzida oʻz ifodasini topgan. Yuqorida talqin qilinganlardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga

kelish mumkinki, musiqa asarlarida estetik hislar axloqiy hislar bilan chambarchas bog'lanib ketadi va ularning biri ikkinchisini to'ldirib boruvchi muhim komponentlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017- yil 7- fevral. – B.39.
2. Qodirov. R. Musiqa pedagogikasi. – T. : Tafakkur qanoti, 2014. – B.27.
3. Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т. 4. - М.: Мысль, 1983. С. 376-644.
4. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf / Taqdirilar, hikmatlar, aforizmlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. – 398 b.
5. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа. Пер.с нем. Г.Г. Шпета, Комментар. Ю.Р. Селиванова. - М.: Академический Проект, 2008. – С.67.
6. Гревцова Л.А. Междусубъектная природа творчества в науке, философии и религии: Дис. ... канд. филос. наук. Барнаул, 2005. – Б.166.
7. Abu Nasr Farobiy. Risolai musiqa. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. – B.37.

Muallif:

Azamkulov Gayrat Otakuziyevich - Guliston davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti, "An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari" kafedrasini o'qituvchisi.

UDK 372.815.99

FORMING TYPES OF EDUCATION THROUGH TOURISM ACTIVITIES IN YOUTH

ЁШЛАРДА ТУРИЗМ ФАОЛИЯТИ ОРҚАЛИ ТАРБИЯ ТУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

ФОРМИРОВАНИЕ ВИДОВ ОБРАЗОВАНИЯ У МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ ТУРИСТСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Исламова Дурдонахон Рустамхон кизи

Гулистон давлат педагогика институти. Гулистон давлат университети, 120100. Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 4-мавзе

E-mail: islamovadurdona24@gmail.com

Abstract. The article aims to implement a healthy lifestyle by demonstrating the forms of tourist activities of schoolchildren. Tourism is of great importance in the effective organization of children's and youth's free time, and properly organized tourism activities help the social status of people of all age groups, and the organization of a healthy lifestyle. In addition, tourism helps to protect young people from foreign ideas and develop national immunity, and the socio-pedagogical foundations of tourism are reflected in this aspect.

Key words: tourism, social sphere, pedagogy, development, youth, national consciousness, thinking, idea, healthy lifestyle.

Аннотация. Мақолада мактаб ўқувчи ёшларининг туристик фаолияти шакллари намоён этиш орқали соғлом турмуш тарзини татбиқ этишдан иборат. Болалар ва ёшларнинг бўш вақтларини унумли ташкил этиш давомида туризмнинг аҳамияти катта бўлиб, тўғри ташкил этилган туризм фаолияти барча турдаги ёш тоифасидаги инсонларнинг ижтимоий ҳолатига, соғлом турмуш тарзини ташкил этишига ёрдам беради. Ундан ташқари, ёшларни ёт ғоялардан сақлаш, миллий иммунитетни ривожлантириш учун ҳам айнан туризм ёрдамга келади ва туризмнинг ижтимоий педагогик асослари шу жаҳада ўз аксини топиб боради.

Калит сўзлар: туризм, ижтимоий соҳа, педагогика, ривожлантириш, ёшлар, миллий онг, тафаккур, ғоя, соғлом турмуш тарзи.

Аннотация. Статья направлена на реализацию здорового образа жизни путем демонстрации форм туристской деятельности школьников. Туризм имеет большое значение в эффективной организации досуга детей и молодежи, а правильно организованная туристская деятельность способствует повышению социального статуса людей всех возрастных групп, организации здорового образа жизни. Кроме того, туризм способствует защите молодежи от чужеродных идей и выработке национального иммунитета, и в этом аспекте находят свое отражение социально-педагогические основы туризма.

Ключевые слова: туризм, социальная сфера, педагогика, развитие, молодежь, национальное самосознание, мышление, идея, здоровый образ жизни.

Кириш. Мамлакатда туризмни миллий иқтисодий диверсификация қилиш, ҳудудларни жадал ривожлантириш, янги иш ўринларини яратиш, аҳолининг даромадлари ва турмуш даражасини ошириш, мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлигини оширишни таъминловчи стратегик тармоқлардан бири сифатида ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирлар босқичма-босқич амалга оширилмоқда.[1] Айнан, шу чора-тадбирлар асосида мактабгача ва мактаб ёшидаги ўқувчиларда туризм фаолиятини ривожлантириш аҳамиятга молик тадбирлардан биридир. Туризмни ривожлантириш орқали атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва аҳоли

маданиятининг қанчалик ўсиб боришини кузатиш мумкин. Жойларда туризмнинг ташкил этилиши куйидаги тарбия турлари ҳамда сифатларни, қобилиятларни ривожланишига ўз таъсирини ўтказмай қолмайди:

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Мактаб ўқувчиларида ташкил этилган туризм ўқувчиларнинг ақлий фаолиятига ижобий таъсир этади. Уларнинг индивидуал психик жараёнлари характери, диққати, ақлий салоҳияти туризм жараёнида такомиллашиб боради. Бу жараёни қандай амалга ошади деган табиий савол туғлиши мумкин? Бунда ақлий тарбия — шахснинг ҳар томонлама тараққиёти, уни турмуш ва меҳнатга тайёрлашнинг муҳим таркибий қисми. Ақлий тарбия билимларни тўплаш, бирор нарсани таҳлил ва синтез қилиш, нарса ва ҳодисаларни таққослаш ҳамда таснифлаш, умумлаштириш, мавҳумлаштириш, уларни бир тизимга солишни назарда тутати. Ақлий тарбия вазифаси интеллектуал кўникмалар, яъни ҳар қандай фанни ўрганишда қўлланиладиган умумий ўқув кўникмалари — ўқиш, тинглаш, ўз фикрини оғзаки баён этиш, ёзиш, манба билан ишлаш, мустақил ишлаш малакаларини шунингдек бирор фанни эгаллаш бўйича зарур бўлган махсус кўникмалар (чизма, хариталарни ўқий билиш, уларнинг натижаларини чиқара олиш)ни эгаллашдан иборат. Илмий дунёқарашни шакллантириш, яъни болаларга олам илмий манзараси, табиат ва жамият тараққиётининг асосий қонунларини тушунтириш ҳам ақлий тарбиянинг муҳим вазифасидан биридир. Бунда болалар ҳаётининг дастлабки йилидаёқ атрофни ўраб турган барча нарсалар билан таништириб бориш муҳим аҳамиятга эга. Ақлий тарбия таълим, ўйин, меҳнат жараёнида, ҳаётий вазиятларни ҳал этиш, катталар ва тенгдошлар билан бўлган мулоқотда, оммавий ахборот воситалари орқали олинган ахборотларни қабул қилиш ва ўзлаштиришда рўй беради. Туризм жараёнида айнан шу кўникмалар ривожланиб боради.[2] Йўл хариталарини тузиш, ўзаро жамоавий ҳамкорлик, аҳиллаштирувчи ўйинлар, қийин вазиятларда шерикларига ёрдам бериш, ўзаро гуруҳларда мулоқатчанликнинг шаклланиши, нутқ маданиятининг ўсиши, ўқувчи ёшларнинг физиологик жиҳатдан янада соғломлашиб бориши кузатилади. Ахлоқий тарбия тамойиллари ҳам шу принципларга асосланган ҳолда, оммавий маданиятнинг бузғунчи ғояларидан йироқ бўлишни талаб этади. Ўқувчи ёшлардаги ахлоқий хусусиятлар, уларнинг ўзаро мулоқот доирасида маълум бўлиб, ҳаракатларида ўз аксини топади. Ўғил болалар ва қиз болаларнинг умумий гуруҳда туризмни ташкил этиши эса ўзаро жинс вакиллари ҳамжиҳатликка, жинсий тарбия тамойилларига бўйсунушга мажбур қилади. Эстетик тарбия эса табиат ва инсон ҳамоҳанглигида шахснинг индивидуаллигини, унинг табиат манзараларидан завқ ола билиш кўникмаларини ривожлантиради.

Эстетика (юн-ҳис қилувчи, ҳиссий тарбияга доир) инсон билан дунё ўртасидаги қадрият муносабатининг ўзига хос томонларини ва кишиларнинг бадий фаолияти соҳасини ўрганувчи фалсафий фан. «Эстетика» терминини немис файласуфи А. Баумгартен (1714—62) илмий муомалага киритган. Эстетиканинг синоними сифатида гўзаллик фалсафаси, санъат фалсафаси, бадий ижод фалсафаси иборалари қўлланиб келинган.[3] Кейинги пайтларда нафосатшунослик ёки нафосат фалсафаси атамалари ҳам Эстетикани англатадиган бўлди. Эстетика ўз ичига санъат эстетикаси, табиат эстетикаси, техника эстетикаси, дизайн, спорт эстетикаси, турмуш эстетикаси, атроф-муҳитни гўзаллаштириш ва бошқалар соҳаларни қамраб олади. Эстетика нафосат, дид, гўзаллик, хунуқлик, улугворлик, тубанлик, фожеавийлик, кулгилик, мўъжизавийлик, ҳаёлийлик сингари категориялар билан иш қўради. Улар орасида нафосат тушунчаси алоҳида ўрин эгаллайди. У бир томондан, эстетик англашнинг барча жиҳатларини (эстетик ҳиссиёт, эстетик завқ, эстетик дид, эстетик муҳокама ва бошқалар), иккинчи томондан, эстетик хусусиятларни — амалдаги гўзаллик, улугворлик, фожеавийлик, кулгилик ва ҳ. к. жиҳатларни ўз ичига олади. Ана шу кейинги жиҳати билан нафосат баъзан эстетиканинг предмети сифатида ҳам қабул қилинади. Туризм давомида ҳар қандай табиат мўжизаларидан завқлана олиш, гўзалликни ҳис қилиш ва баҳраманд бўлиш шахсда эстетик тарбияни ривожлантиради.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Ҳар йили дунёнинг кўплаб мамлакатларида 15 апрель санаси Экологик билимлар кун сифатида нишонланиб келинмоқда. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1992 йилда Рио-де-Жанейро шаҳрида бўлиб ўтган атроф муҳит муаммолари муҳокамасига бағишланган конференциясида дунёнинг барча мамлакатларида инсониятнинг ҳаёт тарзи ва барқарор ривожланиши стратегиясини амалга оширишда экологик таълимнинг улкан аҳамиятга эга эканлиги таъкидланган эди. Экологик таълимнинг муҳимлиги ҳозирги замонавий дунёда ҳеч кимда шубҳа уйғотмаслиги билан биргаликда кўплаб мамлакатларда таълим ва тарбия беришнинг устувор йўналиши ҳисобланади. Аҳолининг экологик маданиятини ва атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишни шакллантиришга қаратилган ушбу фаолият – бутун инсоният келажаги хавфсизлигининг гаровидир. Туризм жараёнида ҳам экологик тарбия тамойилларига эътибор беришлари керак. Туризм жараёнида ёшларнинг табиат билан тарбиявий алоқалари ҳамда табиатга зиён етказмаслиги қоидалари ўрганилади. Айнан, туризм фаолиятида ёшларнинг кузатувчанлик қобилияти ривожланиб боради. Кузатувчанлик фақатгина фаолият йўналишига қараб эмас балки, шахслараро кузатувчанлик ҳам фойдадан холи эмас. Масалан, педагог томонидан бевосита ёки билвосита кузатиш режасида бўлса айнан шу туристик фаолият уларга қўл келади. Бунда улар боланинг индивидуал хусусиятлар, шахслараро муносабатлари каби томонларини кузатиш имкониятига эга бўлади.[4]

Креативлик бу – чуқурроқ кидириш, эътиборлироқ қараш, хатоларни тўғрилаш, мушуклар билан суҳбатлашиш, чуқурликка шўнгиш, деворлар ичра ўтиш, куёшни ёқиш, кумдан қасрлар қуриш, келажакка саёҳат қилишдир. (Е.Торренс).[5] Туризм жараёнида креативликни ривожлантириш тренинги. Тақдим этилаётган креативлик тренинги катта мактаб ёшидаги ўқувчиларга ва кичик босқич талабаларига мўлжалланган, лекин дастурга айрим қайта ишланмалар киритилса бошқа ёш тоифасидагилар билан ҳам ўтказиш мумкин. Гуруҳдаги иштирокчиларнинг энг оптимал сони 8–16 киши, айрим ҳолатларда 25–30 гача ҳам бўлиши мумкин. Дастурдаги асосий урғу қуйидаги муаммолар ечимига қаратилган:

1. Креативлик таркибига кирувчи хусусиятларни ривожлантириш: кўз югуртириш, эгилувчанлик ва тафаккурнинг ўзига хослиги, қутилмаган ассоциацияларни қидириб топишга;

2. Ҳаётий муаммоларни ҳал қилишда креативликдан фойдаланиш имкониятларини намоён этиш, шунингдек, шахсий ва касбий мақсадларга эришишга;

3. Жамоавий ижодий иш қўникмасини шакллантиришга.

Тренинг машқлари 12 машғулотга бирлаштирилган бўлиб, уларнинг ҳар бири 3 академик соатга мўлжалланган. Шундай қилиб, дастурнинг умумий давомийлиги 36 соатни ташкил этади.

Бироқ, унутмаслик лозимки, кўрсатилган вақт нисбий бўлиб, ишнинг ҳақиқий давомийлиги бир қатор омилларга қарам, хусусан, гуруҳдаги иштирокчилар сонига боғлиқ бўлади.[6] Кўпинча, аксарият машқларда вақт белгилаб берилган бўлса-да, уларнинг умумий давомийлиги машқларни бажаришда аниқ босқичларга (ғояларни яратиш, чизиш, тақдимотни тайёрлаш ва ҳ.к.) боғлиқ. Кўрсатилган вақт берилган машқлар сонидан кўпроқ бўлиш эҳтимоли юқори бўлиб, тренер учун машқларни танлаш имконияти туғилади.

Хулоса. Ҳар бир машғулотни таснифлаш қисқа тушунтиришлардан бошланади, шундан сўнг унинг таркибига кирувчи машқлар тасвирланади. Улар ягона тизим бўйича бажарилган: машқни ўтказиш жараёни, унинг психологик моҳияти, муҳокама ва айрим ҳолатларда бажариш мисолларини келтиришдан иборат. Машғулотлар ва унинг таркибидаги машқларнинг кетма-кетлиги маълумотларни тақдим этишда тизимлилик тамойилига, ҳамда ижтимоий-психологик тренингларни ташкил этиш қонун-қоидаларига амал қилган ҳолда тузилади. Албатта, айнан бундай кетма-кетлик ягона меъёр эмас, малакали тренерлар машқлар жамланмасидан “конструктор” сифатида фойдаланиб, аниқ вазифа ва фаолият талабларидан келиб чиқиб, шахсий тренинг дастурларини ишлаб чиқишлари мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.01.2019 йилдаги ПФ-5611-сон
2. Аристотель, Поэтика, Т. 1981. – Б. 37.
3. Маҳмудов Т., Гўзаллик ва ҳаёт. 1974. – 180 б.
4. Нурматов М., Танқид ва эстетика, Т. 1976. – 204 б.
5. Маҳмудов Т., Эстетика и духовные ценности. Т. 1993. – 240 б.

Муаллиф:

Исламова Дурдонахон Рустамхон қизи - Гулистон давлат педагогика институти магистранти.

УДК:371.38

EDUCATIONAL AND COGNITIVE METHODS IN EXPERIMENTAL CHEMISTRY

EKSPERIMENTAL KIMYODA TA'LIMIY VA KOGNITIV METODLAR

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ И КОГНИТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ХИМИИ

**Умирова Нилуфар Аманбаевна, Махамадиева Қундизой Хонимкул қизи,
Мусакаева Сабина Ришатовна**

Гулистанский государственный университет, 120100. г. Гулистан, 4-микрарайон.

E-mail: qunduzoy1993@gmail.com

Abstract. The article presents the differences of the new concept of chemical education. The gradual formation of ideas about chemical analysis will help improve the quality of mastery of all sections of the school curriculum, the full disclosure of cause-and-effect relationships such as composition of substances, properties of substances, as well as composition-structure and structure-properties. Recommendations are given for the formation of the concept of “chemical analysis”. The concept of “chemical analysis” is presented on the basis of its two types: qualitative and quantitative analysis. The ability to use quantitative and qualitative methods and to distinguish many types of analysis on these and other classification grounds (for example, by objects of analysis, by accuracy and duration of analysis). Methods of cognition and experimental foundations in analytical chemistry in a school chemistry course are presented. The following analytical knowledge and skills have been identified, which can and should be developed in the process of teaching

chemistry in high school. Introduction to the gravimetry method. Explanation that the results of quantitative analysis today make it possible to control technological processes and evaluate product quality. And also, chemical analysis can be used when studying related courses, for example, in biology lessons.

Key words: teaching methods, school chemistry course, chemical analysis, concept formation.

Аннотация. В статье представлены отличия новой концепции химического образования. Поэтапное формирование представлений о химическом анализе будет способствовать повышению качества усвоения всех разделов школьной программы, полноценное раскрытие причинно-следственных связей типа состав веществ, свойства веществ, а также состав –строение и строение –свойства. Даны рекомендации для формирования понятия «химический анализ». Понятие «химический анализ» представлен на основе двух его видах: качественном и количественном анализе. Умение использовать количественный и качественный метод и выделять множество видов анализа по этим и другим классификационным основаниям (например, по объектам анализа, по точности и продолжительности анализа). Представлены методы познания и экспериментальные основы в аналитической химии школьном курсе химии. Выделены следующие знания и умения аналитической направленности, которые можно и нужно формировать в процессе обучения химии в старшей школе. Знакомство с методом гравиметрии. Объяснение, что результаты количественного анализа сегодня позволяют контролировать технологические процессы и оценивать качество продукции. А также химический анализа можно использовать и при изучении смежных курсов, например, на уроках биологии.

Ключевые слова: методика преподавания, школьный курс химии, химический анализ, формирование понятий.

Введение. Представления о зависимости свойств веществ от их состава и строения являются важнейшим интегративным результатом общеобразовательной подготовки по химии и составляют основу целостной химической картины мира [1, 5]. Ещё М.В. Ломоносов говорил, что «для познания частных качеств тел и их изменений обязательно требуется познание их состава». У школьников должны быть сформированы представления о химическом анализе как основном источнике наших знаний о составе веществ. Но в ходе методической подготовки будущего учителя вопросы, связанные с химическим анализом, практически не рассматриваются [4]. Не уделяется должного внимания этим вопросам и в системе дополнительного профессионального образования. Анкетирование на курсах повышения квалификации показывает, что учителя соотносят вопросы химического анализа в основном с внеурочной деятельностью. Некоторые даже высказывают мнение о том, что «химический анализ в школе не изучают». Одной из причин этого является то, что в структуре школьного курса химии аналитическая химия (в отличие от химии неорганической или органической) не представлена в качестве самостоятельного раздела. Есть и другая причина: составители программ и авторы учебников ранее не уделяли достаточного внимания вопросам, связанным с химическим анализом. Лишь в последние годы стандарты школьного образования и соответствующие учебники существенно изменились, и теперь формирование представлений о химическом анализе становится актуальной задачей. К сожалению, далеко не все школьные учителя готовы решать ее на уроках химии.

Объект исследования и используемые методы

Химический анализ в новых стандартах и учебниках. Принципиальным отличием новой концепции химического образования является то, что за четыре года обучения учащиеся имеют возможность изучать состав веществ дважды в основной и в старшей школе. Доля времени на его изучение существенно увеличена. Появилась реальная возможность рассказать школьникам, каким образом когда-то был установлен состав веществ, как и зачем анализируют вещества сегодня. В обязательный минимум основных общеобразовательных программ дополнительно введены такие элементы содержания, как методы познания и экспериментальные основы химии [2, 3]. Их появление в структуре общего образования по химии позволяет усилить прикладной характер химических знаний, создаёт условия для реализации личностно ориентированной модели обучения, способствует достижению нового качества общеобразовательной подготовки по химии. Поэтому дидактическая ценность представлений о химическом анализе, формируемых в школьном курсе химии, существенно возрастает. Внимание к химическому анализу усилено и в новых учебниках. Так, в учебники И.Р. Аскараров и соавторов включены качественные реакции на ионы Cl^- , SO_4^{2-} , NH_4^+ , Fe^{2+} , Fe^{3+} , CO_3^{2-} , реакции на углекислый газ, на крахмал и многоатомные спирты. В аналитическом аспекте рассматриваются свойства индикаторов, аминокислот, взаимодействие этилена с бромной водой и перманганатом калия, реакция глюкозы с аммиачным раствором оксида серебра и даже цветные реакции белков. В старшей школе к ним добавляются аналитические свойства непредельных соединений, фенолов и других веществ. Предусматривается выполнение экспериментальных задач по распознаванию индивидуальных веществ сложного состава (смесей). Впрочем, в рамках профильного обучения иногда рекомендуются такие задачи, которые достаточно трудны даже для профессионального аналитика, обоснованность их включения в школьные учебники вызывает серьёзные сомнения.

Формирование представлений о методах и результатах анализа

К сожалению, в методической литературе трудно найти ответы на вопросы, что именно должны знать школьники о химическом анализе, как лучше формировать и использовать эти знания при изучении различных разделов школьного курса химии, для профессиональной ориентации выпускников, для воспитания необходимых личностных качеств? Анализ обязательного минимума содержания основных общеобразовательных программ по химии [2, 5] позволяет выделить следующие знания и умения аналитической направленности, которые можно и нужно формировать в процессе обучения химии в основной и старшей школе (на базовом уровне):

- знание понятий: «химический анализ», «качественный анализ», «количественный анализ»;

- знания о простейших способах (методах) химического анализа;

- знания об объектах обнаружения: элементах, функциональных группах (группах атомов), молекулах, ионах;

- умение разделять смеси, определять качественный состав вещества опытным путём, решать экспериментальные задачи аналитической направленности, исследовать состав некоторых природных объектов;

- умение определять формулу химического соединения по результатам его анализа и, наоборот, рассчитывать количественное содержание элемента в чистом веществе по формуле соответствующего соединения.

Совершенно иной набор знаний и умений химико-аналитического характера должен быть сформирован при изучении факультативных и элективных дисциплин, а также на внеклассных (учебно-исследовательских) занятиях. Методика формирования понятия «химический анализ». Целесообразно начинать формировать это понятие ещё в основной школе, одновременно с понятиями «чистое вещество» и «смесь». Раскрывая содержание понятия «чистое вещество», имеет смысл ввести представление о качественных реакциях как о реакциях, с помощью которых распознают химические вещества [3]. При изучении состава и свойств кислот и оснований примером будет распознавание кислот и оснований с помощью индикаторов. То есть вначале закладывается представление о химическом анализе как о способе установления качественного состава химических объектов.

Следующий этап в формировании понятия «химический анализ» может быть реализован в основной школе при введении понятия «смесь». Отмечая, что в природе вещества в чистом виде практически не встречаются, учитель определяет смесь как совокупность нескольких чистых веществ, сохраняющих свою химическую индивидуальность. Он называет примеры наиболее распространённых и известных смесей: воздух, водные растворы, сплавы и т. Характеризуя свойства смесей, состоящих из одних и тех же чистых веществ (компонентов), важно отметить, что свойства смесей зависят не только от качественного состава, но и от количественного соотношения компонентов. Это соотношение может быть установлено с помощью химического анализа. Здесь должны быть использованы вводимые в основной школе понятия «массовая» и «объёмная доля» компонента в смеси.

Таким образом, понятие «химический анализ» теперь рассматривается шире как способ установления качественного и количественного состава химических объектов. В старшей школе по мере усвоения знаний об основных классах неорганических и органических соединений, а также о количественных характеристиках смесей и различных химических процессов – понятие «химический анализ» должно быть углублено и конкретизировано на основе представлений о двух его видах: качественном и количественном анализе. Так, учащиеся должны осознать, что количественному анализу подвергают не только смеси, но и чистые вещества (химические соединения), и результаты такого анализа позволяют вывести формулы соединений. Отметим, что поэтапное формирование понятия «химический анализ» в основной школе соответствует логике возникновения и развития этого понятия в истории аналитической химии [3]. В обоих случаях формирование представлений о химическом анализе было бы невозможно без эксперимента. В школе химический эксперимент позволяет реально продемонстрировать причинно-следственную связь состава вещества и его свойств, а также усилить прикладной характер получаемых химических знаний. Так, наблюдая изменение окраски индикатора или образование характерных осадков, учащиеся способны сделать выводы о природе (качественном составе) того или иного химического объекта. Это позволит им прогнозировать свойства объекта, понять особенности обращения с ним, способы его применения в практике, последствия его воздействия на окружающую среду. Естественно, качество знаний учащихся будет выше, если параллельно формированию понятия «химический анализ» учитель будет использовать теоретические представления об атомах, группах атомов, молекулах, ионах как об объектах обнаружения и количественного определения. Однако не следует стремиться к формированию этих понятий, выделять множество видов анализа по этим и другим классификационным основаниям (например, по объектам анализа, по точности и продолжительности анализа). Объем фактических знаний, которыми располагают учащиеся, и временные рамки обязательных занятий недостаточны для такого углублённого изучения. Сам же

учитель должен понимать, что при освоении содержания неорганической и органической химии учащиеся реально знакомятся с результатами разных видов анализа элементного, молекулярного и структурно группового.

Важной составляющей представлений, формируемых в основной и старшей школе на уроках химии, являются знания о способах изучения состава веществ. В обязательном минимуме содержания предусмотрено знакомство с некоторыми методами анализа, а именно методами идентификации, разделения и даже концентрирования. Основное внимание обычно уделяется проведению качественных реакций, что вполне логично. Однако, говоря о них, надо подчеркнуть, что выполнение качественных реакций лишь один из многих методов качественного анализа, самый простой, самый старый, но далеко не самый важный. Иначе у учащихся сложится ошибочное мнение, что любой химический анализ сводится к использованию пробирок, реагентов и индикаторов. Преодолеть этот ошибочный стереотип потом будет трудно. Методы количественного анализа в школьном курсе представлены (на профильном уровне) лишь одним примером определением pH водных растворов кислот, щелочей, солей с помощью универсальной индикаторной бумаги. С точки зрения логики формирования представлений желательнее знакомство старшеклассников ещё с одним - двумя методами количественного анализа, особенно с гравиметрией. Гравиметрическое определение содержания воды в каких-либо материалах (по результатам взвешивания до и после прокаливания)-более наглядный пример количественного анализа, чем определение pH. При нехватке времени на уроках химии соответствующий эксперимент можно провести в ходе изучения элективных и факультативных дисциплин. Школа должна знакомить учащихся и с применением отдельных методов анализа в практике. В старшей школе учителю необходимо подчеркнуть, что результаты химического анализа важны для изучения природных и техногенных смесей, состояния окружающей среды и техногенных выбросов, что вся информация о химических реакциях (стехиометрия, равновесия, кинетика, механизм) получена в ходе анализа соответствующих реакционных смесей. Надо указывать, что результаты количественного анализа сегодня позволяют контролировать технологические процессы и оценивать качество продукции [2, 3]. На результаты химического анализа нужно ссылаться и при изучении смежных курсов, например, на уроках биологии. Вместе с тем, следует подчеркнуть, что данные о качественном и количественном составе веществ необходимы, но не достаточны для полного объяснения свойств веществ. Самый очевидный пример различия физических свойств ряда веществ с одинаковым качественным и количественным составом. Следовательно, для прогнозирования свойств веществ, кроме результатов их анализа, нужно знать строение соответствующих молекул. Подведём итоги.

Выводы. В современных образовательных программах по химии присутствует относительно самостоятельное содержание аналитической направленности, которое обобщенно можно представить следующим образом: химический анализ-виды анализа-методы анализа-использование результатов анализа. Поэтапное формирование представлений о химическом анализе по такой схеме будет способствовать повышению качества усвоения всех разделов программы, полноценному раскрытию причинно-следственных связей типа состав-свойств вещества, а также состав-строение и строение-свойства. Безусловно, усиление внимания школьников к химическому анализу потребует определенных изменений в методике подготовки учителей химии. Этот вопрос рассмотрен нами в предисловии и приложении к новому учебнику по аналитической химии для педагогических вузов [3].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Методика преподавания химии. Под общей редакцией профессора Н.Е. Кузнецовой. Уч.пос. для студ. пед. институтов. – М., Просвещение, 1985. – 280 с.
2. Муталибов А. Органическая химия. 10-класс / А. Муталибов, Э. Муродов, С. Машарипов и др. – Ташкент, ИПТД им. Г. Гуляма, 2017. – 160 с.
3. Чернобелская, Г.М. Основы методики обучения химии /– М.: «Просвещение», 2000. – 320 с.
4. *Abraham Harold Masloou. Motivation and Personality. Year of the edition: 2011. – 204 p.*
5. Paul T. Anastas. *Innovations in Green Chemistry and Green Engineering.* / Paul T. Anastas, Julie B. Zimmerman // Hardcover, Springer. Germany. 2013. – 144 p.

Авторы:

Умирова Нилуфар Аманбаевна - Гулистанский государственный университет, старший преподаватель, PhD.

Махамадиева Кундизой Хонимкул кизи - Гулистанский государственный университет, преподаватель.
qunduzoy1993@gmail.com

Мусакаева Сабина Ришатовна - Гулистанский государственный университет, преподаватель.

UDK 372.8

PEDAGOGICAL APPROACHES IN PROVIDING YOUNG PEOPLE'S GUIDANCE TO THE CHOICE OF A PROFESSION

YOSHLARNI KASB TANLASHGA YO`NALTIRISHNI TA`MINLASHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ СПРАВОЧНОЙ ПРИ ВЫБОРЕ ПРОФЕССИИ

Ibragimova Shoira Kosimovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti. 100014.Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko`chasi 27 uy.

E-mail: shoiraibragimova003@gmail.com

Abstract. The right choice of profession helps to achieve the highest performance in work and social activity, and satisfaction in the work process and its results is the most manifestation of creativity, being in the best emotional mood, not only for a single person, but also for society as a whole. also allows you to fully implement all your life plans. Society has always cared about giving the young generation social and professional experience. With the development of production, the demands placed on a person also increased, which necessitated the development of scientific bases for the selection of employees to work in various professions.

Key words: vocational selection formula, factor, future, re-diagnosis, quality, vocational training, vocational adaptation.

Annotatsiya. Kasbni to`gri tanlash mehnatda va ijtimoiy faollikda eng yuksak ko`rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko`p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo`lish, tanxo bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini birmuncha to`la amalga oshirish imkonini beradi. Jamiyat hamma zamonlarda yosh avlodga ijtimoiy va kasbiy tajribani berish to`grisida g`amxo`rlik qilib keldi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamga nisbatan qo`yilgan talablar ham oshdi, bu esa turli kasblarda ishlash uchun xodimlarni tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini takozo etdi.

Kalit so`zlar: kasb tanlash formulasi, omil, kelajak, qayta tashxislash, sifat, kasb tarbiyasi, kasbiy adaptatsiya.

Аннотация. Правильный выбор профессии помогает добиться наивысшей производительности в труде и общественной деятельности, а удовлетворенность трудовым процессом и его результатами является наиболее проявлением творчества, нахождения в наилучшем эмоциональном настрое не только для отдельного человека, но и также для общества в целом. также позволяет полностью реализовать все свои жизненные планы. Общество всегда заботилось о том, чтобы дать молодому поколению социальный и профессиональный опыт. С развитием производства возрастали и требования, предъявляемые к человеку, что вызвало необходимость разработки научных основ подбора работников для работы по различным профессиям.

Ключевые слова: формула профессионального выбора, фактор, будущее, повторный диагноз, качество, профессиональная подготовка, профессиональная адаптация.

Kirish. Zamonaviy ta`lim-tarbiyani yo`lga qo`yishda asosiy vazifalaridan biri yoshlarni kasb-hunarga o`rgatish, o`z istagi va xohishi, qiziqishi va qobiliyatiga qarab kasb tanlash, butun hayoti davomida o`z kasbiga sadoqatli bo`lish hislarini shakllantirishdan iboratdir. Yoshlarni kasbga yo`naltirishda kasbiy tayyorgarlik yo`nalishidagi bilim, ko`nikma va malakalarga, shuningdek, ma`lum tajribaga ham ega bo`lishda zaruriy shart-sharoitlarni yaratish. Zamonaviy mutaxassis o`z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo`nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo`llarini ko`ra bilishi lozim va o`z tajribasiga ega bo`lishi kerak.

Tadqiqot ob`ekti va qo`llanilgan metodlar

Tadqiqot ob`ekti sifatida bugungi kunda yoshlarni kasbga yo`naltirish jarayoni olindi. Ularni kasbiy qobiliyatini rivojlantirish bo`yicha ijobiy ishlar amalga oshirilmogda. Tadqiqotning asosiy masalalari yoshlarni kasb tanlashga yo`naltirishning uzviyligini ta`minlash texnologiyalari asosida o`qitishning shakl va usullarini takomillashtirish, uzluksiz ta`limi tizimida yoshlarni kasb tanlashga yo`naltirish. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

“Agar inson biror kasbni mukammal egallamasa, mehnati unga huzur bag`ishlamaydi”. Andre Morza. O`zbekistan Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq yoshlarni kasb tanlashga yo`naltirish masalalariga katta e`tibor berildi. K.D. Davlatov, N.N.Shodiyev, P.T.Magzumov, A.R.Xujaboyev, A.Sh.Magdiyev va boshqalar yoshlarni kasbga yo`naltirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bilan shug`ullandilar. Kasb tanlash inson hayotidagi eng

muhim masalalardan biridir. Real turmushda inson biror kasbni mukammal egallab yetuk mutaxassis bo'lishi zaruriy holdir. Insonning tanlagan kasbi bolalikdagi his-tuyg'ulari, orzu-xayollari yoshga xos psixologik xususiyatlari bilan bog'liq. O'smirlik yoshida kasb tanlash yetakchi faoliyat sanaladi. Chunki ular oldida jiddiy hayot masalasi – kasb tanlash muammosi turadi. Ular kasb sohalarining ahamiyatli jihatlariga alohida e'tibor qarata boshlaydilar, albatta kasb tanlashga va kasbning ahamiyatiga chuqur nazar sola boshlaydilar. Bugungi kunda yoshlarni kasbga yo'naltirish – davlat tadbirlari jumlasiga kirib, shaxs tomonidan o'zining mehnat yo'lini tanlashni hamda ishining mohiyatiga ko'ra hayotda o'z o'rnini topishini ta'minlaydi.

Biroq kasb tanlash jiddiy va mas'uliyatli ishdir. O'z hayot yo'lini jiddiy suratda belgilab olish – oson ish emas, ayniqsa yoshlarga. Kasb tanlashda ko'pincha shu kasbning ayni vaqtda nufuzga ega bo'lishlik omili katta rol o'ynaydi. Biroq bugungi kun uchun ta'sir kuchiga, nufuziga ega bo'lgan kasb yaqin vaqtda bu jamiyatda o'z nufuzini yo'qotib oddiy kasbga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun bunga tayanish ishonchli yo'l emas. Chunki jamiyat taraqqiyoti shiddat bilan ilgarilayotgan bugungi kunda kasblar olami ham xuddi kiyim fasonlari kabi jadal o'zgarib bormoqda. Shuni ta'kidlaymanki kasblar olamiga kelajakda o'quvchilar o'zlari uchun nima muhimroq, nima butkul zaruriy deb hisoblashlarini aniqlab olmoqliklari darkor.


Ko'pincha kishining u yoki bu kasbni tanlashida quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: ota-onalarning da'vati; o'qituvchilarning kasbga yo'naltirishi; o'rtoqlarga taqlid qilish; kasbga qiziqish; mashhur kishilarga taqlid qilish; kasbning jamiyatdagi nufuzi.

Yoshlarimiz kasb egallashda kasb va mutaxassislikning ijtimoiy nufuziga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Aslida har bir kasb va mutaxassislikning jamiyatda o'z ijtimoiy o'rni bor. Masalan, ishbilarmonlikda, ish yuritishda uquvi yo'q tadbirkordan ko'ra, iqtidorli tikuvchi ko'proq daromad topishi mumkin. Shuning uchun har bir kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishga harakat qilish kerak. Kasbga yo'naltirishining pedagogik asoslarni yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash – g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o'rta umum ta'lim maktab ishida katta o'rin tutadi. Shu boisdan pedagog yosh avlodni kasbga yo'naltirishdan oldin kasb tanlash formulasini tuzishi kerak.

Kasb tanlash formulasi: 1-qadam-Mos keladigan kasblar ro'yxatini tuzish. 2-qadam-Tanlangan kasbga nisbatan talablar ro'yxatini tuzish. 3-qadam-Har bir talabning qay darajada ahamiyatlilikini aniqlash. 4-qadam –Har bir kasb talabiga o'zining qay darajada mos kelishini aniqlash. 5-qadam-Natijalarni hisoblash va qayta tashxislash. 6-qadam – Muvaffaqiyatga qaratilgan asosiy amaliy qadamlarni belgilash.

Shu bilan birgalokda mutaxassis sifatida kamol topish uchun esa bir qancha masalalarga e'tibor qaratish zarur: kasbni ongli ravishda tanlash; kasb egallash uchun aniq maqsad qo'yish; kasbning ijtimoiy nufuzi va qadr qimmatini yaxshi bilish; mutaxassis sifatida kamol topish uzoq vaqtni talab etishini anglash va boshqalar.

Bunda o'quvchilar har bir kasbning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni muayyan ixtisos, kasbning inson psixologiyasiga qo'yadigan talablari bu sohada ishlaydiganlar qanday fazilat va sifatlarga ega bo'lishi kerakligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Zero kasb tanlash oddiy hoyu-havasni emas balki, aniq maqsad va ongli faoliyatni talab etadi.



Kasb tanlashda yo'l qo'yiladigan xatolarga ham e'tabor berish kerak. Qolaversa bu yuqori sinf o'quvchilarining kasb tanlashda ikkilanish ishonchsizlik kabi tuyg'ular qurshovida bo'lishiga olib keladi. Ayni mana shu vaqtda kasb-hunar maktabi o'qituvchilarining maktablarga borib, kasblar to'g'risida ma'lumotlar berishlari, kasbga yo'naltiruvchi ochiq darslar o'tkazishlari yaxshi samara beradi. O'quvchilarning kasb-hunarga layoqati, qobiliyatini o'rganish va aniqlash – kasb tanlash tizimidagi muhim bosqichlardan biri bo'lsa, ularni turli kasblar va ularni egallash yo'llari bilan tanishtirish yana bir bosqichdir. Va shuni ta'kidlash keraki, kasb tanlashda bu xatolarni bajarmasliklari kerakligini uqtirish zarur.

Kasb tanlashning umumiy xususiyatlari: Jamoaga qo'shib kasb tanlash; Kasbni u haqdagi tashqi tasavvurga qarab tanlash; Biror bir kasb egasiga taqlid qilgan holda kasb tanlash; O'quv fanini kasbga o'xshatish; Faqat kasbning nufuzigaq arab tanlash; Kimga yoki nimagadir jahl qilib kasbt anlash; O'z qobiliyatini yetarli darajada hisobga olmaslik; Tasoddiy kishilar fikriga tayanish.

Xulosa. Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasini har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu ish shaxsni milliy g'oyaviy, ma'naviy axloqiy, mehnatsevarlik, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish bilan, ya'ni butun ta'lim tarbiya jarayonini, uning butun yaxlitlik bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi. Kasbga yo'naltirishning davlat tizimida umumiy ta'lim maktabiga, o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratilishi zarur. Ayni o'qituvchi mehnat ahliga bo'lgan zamonaviy talablarni hisobga olib, umummehnat va kasbiy mahorat hamda malakalarni egallashdagina emas, balki kasbni to'g'ri tanlashda ham o'smirlarga

yordam berishi lozim. Kasb to'g'ri tanlanganda yoshlar o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G'aniyeva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo'llanma. Toshkent 2010. – 80 b.
- 2.Mannopov S. Ma'ruzalar matni. Mutaxassislikka kirish va ijtimoiy ish etikasi. Farg'ona 2007. -120 b.
- 3."Bola va zamon" jurnali. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi. №4.2009. B. 18-20.
- 4.Mannopov S. Ijtimoiy ish xodimining kasbiy asoslari va etikasi. O'quv uslubiy ko'rsatma. Farg'ona 2012. – 56 b.
5. Axmedova M.E., Meleboeva R.N., Bekmirov T.R., Nurmatov A.N. Kasbiy pedagogika. Darslik. T. 2022. – 280 b.
6. Qurbonova G.N. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Buxoro, 2020. – 180 b.
7. Avazboyev A.I, Ismadiyrov Ya.U. Kasbiy pedagogika. T. 2014. – 284 b.

Muallif:

Ibragimova Shoirra Kosimovna - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.881.111.1

THE ROLE OF SYNONYMS IN TEACHING ENGLISH

РОЛЬ СИНОНИМОВ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

INGLIZ TILINI O'QITISHDA SINONIM SO'ZLARINING O'RNI

Baltayeva Nodira Timur qizi

Chirchik State Pedagogical University, Chirchik city, Amir Temur street 104.

Email: nadirabaltaeva30@gmail.com

Abstaract. In the realm of English language education, the strategic incorporation of synonyms emerges as a fundamental pedagogical approach. Beyond its apparent association with vocabulary enrichment, the utilization of synonyms in teaching English encompasses a myriad of benefits that extend to various facets of language acquisition. From fostering nuanced communication skills to instilling confidence in both written and spoken expression, the emphasis on synonyms brings depth and versatility to the learning experience. In this exploration, we delve into the multifaceted role of synonyms, unraveling their significance in vocabulary expansion, contextual understanding, writing proficiency, and beyond.

Key words: realm of English, synonyms, teaching, language, learning experience, communication skills, instilling confidence.

Аннотация. В сфере преподавания английского языка стратегическое включение синонимов становится фундаментальным педагогическим подходом. Помимо очевидной связи с обогащением словарного запаса, использование синонимов в обучении английскому языку несет в себе множество преимуществ, которые распространяются на различные аспекты овладения языком. Акцент на синонимах придает глубину и универсальность процессу обучения: от развития тонких коммуникативных навыков до привития уверенности в письменной и устной речи. В этом исследовании мы углубляемся в многогранную роль синонимов, раскрывая их значение в расширении словарного запаса, контекстуальном понимании, навыках письма и многом другом.

Ключевые слова: область английского языка, синонимы, преподавание, язык, опыт обучения, коммуникативные навыки, укрепление уверенности.

Annotatsiya. Ingliz tili ta'limi sohasida sinonimlarning strategik inkorporatsiyasi fundamental pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda sinonimlardan foydalanish tilni o'zlashtirishning turli jabhalariga taalluqli ko'plab afzalliklarni o'z ichiga oladi. Nuansli muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdan yozma va og'zaki ifodada ishonchni singdirishgacha, sinonimlarga urg'u berish o'rganish tajribasiga chuqurlik va ko'p qirralilik olib keladi. Ushbu tadqiqotda biz sinonimlarning ko'p qirrali rolini o'rganamiz, ularning so'z boyligini kengaytirish, kontekstni tushunish, yozish mahorati va boshqalardagi ahamiyatini ochib beramiz.

Kalit so'zlar: Ingliz tili sohasi, sinonimlar, o'qitish, til, o'rganish tajribasi, muloqot qobiliyatlari, ishonchni uyg'otish.

Introduction. In the dynamic landscape of English language education, the deliberate inclusion of synonyms stands out as a cornerstone in shaping proficient language learners. Far beyond the conventional realm of vocabulary building, the strategic deployment of synonyms in English teaching unfolds a tapestry of advantages that reaches into diverse dimensions of linguistic mastery. Beyond the mere diversification of words, synonyms contribute significantly to a deeper understanding of language nuances, empowering students with a versatile linguistic toolkit [1]. The impact of synonyms is far-reaching, extending from the intricacies of vocabulary expansion to the subtleties of contextual comprehension. This linguistic arsenal, rich in synonymous alternatives, not only refines written and spoken expression but also plays a pivotal role in honing critical thinking skills. As students navigate the labyrinth of language, the emphasis on synonyms becomes a compass guiding them towards effective communication and eloquent self-expression. In this exploration, we embark on a journey to unravel the

multifaceted role of synonyms in the English language classroom [4]. Beyond their immediate association with lexical diversity, we delve into their broader significance, dissecting their influence on contextual understanding, fostering writing proficiency, and cultivating a profound impact on the fabric of effective communication. Join us as we navigate the intricate web of language acquisition, where synonyms emerge not just as linguistic tools but as catalysts for comprehensive language mastery [2].

Objects and research methods

Teaching synonyms is a fundamental aspect of language education, and it holds significant importance for several reasons:

1. **Vocabulary development:** Teaching synonyms helps students expand their vocabulary. Exposure to different words with similar meanings allows them to express themselves more precisely and with greater variety, contributing to a richer and more nuanced understanding of language.
2. **Communication skills:** Understanding and using synonyms enhance students' communication skills. It enables them to convey their thoughts and ideas more effectively, choose the most appropriate words for a given context, and adapt their language to different audiences.
3. **Reading comprehension:** Proficiency in synonyms aids in reading comprehension. When students encounter unfamiliar words, knowing synonyms can help them deduce meanings from the context, fostering better understanding of texts and improving overall reading skills.
4. **Writing proficiency:** Writing often requires a diverse and expressive vocabulary. Teaching synonyms encourages students to choose words intentionally, fostering creativity and clarity in their written expression. It also helps them avoid repetitive language in their compositions.
5. **Critical thinking:** Exploring synonyms encourages students to think critically about word meanings and relationships. It prompts them to consider the subtle nuances and connotations of different words, promoting a deeper understanding of language.
6. **Test preparation:** Many standardized tests, including language proficiency exams, assess a student's vocabulary. Teaching synonyms aids in test preparation by equipping students with the skills needed to comprehend and respond to a variety of questions that may involve word choice and meaning.
7. **Cultural competence:** Language is deeply connected to culture, and teaching synonyms provides insights into the richness and diversity of language within different communities. It helps students appreciate the cultural nuances and variations in expression.

Results and its discussion

The use of synonyms plays a crucial role in teaching English for several reasons:

1. **Vocabulary expansion:** Learning synonyms helps students expand their vocabulary. Instead of relying on a single word to express an idea, they can use different words with similar meanings to add variety and richness to their language.
2. **Contextual understanding:** Studying synonyms enhances students' understanding of how words are used in different contexts. It allows them to grasp the subtle nuances and connotations of words, leading to more precise communication.
3. **Improving writing skills:** Encouraging the use of synonyms in writing helps students avoid repetition, making their writing more engaging and sophisticated. It also enables them to choose the most suitable words for different situations.
4. **Reading comprehension:** Knowledge of synonyms aids in better comprehension of texts. When students encounter unfamiliar words, knowing synonyms can help them deduce the meaning based on context and related words.
5. **Effective communication:** Understanding synonyms enhances verbal communication skills. It allows individuals to express themselves more precisely and adapt their language to different audiences and situations.
6. **Standardized test:** Many standardized tests, such as the SAT or GRE, assess students' vocabulary. Knowing synonyms can be advantageous in these exams, where a rich vocabulary is often associated with higher scores.
7. **Cultural awareness:** Learning synonyms can also contribute to cultural awareness, as it exposes students to different ways of expressing ideas in English. This is particularly important for learners who use English as a second language [7].
8. **Critical thinking:** Identifying synonyms requires critical thinking skills. Students need to analyze the meanings and shades of words to determine which ones are suitable in a given context.
9. **Language fun and creativity:** Teaching synonyms can be made enjoyable through games and activities. This not only makes the learning process more engaging but also encourages creativity in language use. Let's delve deeper into the idea of making the learning process enjoyable through games and activities, emphasizing how this approach enhances engagement and fosters creativity in language use: In the pursuit of effective language teaching, the incorporation of interactive games and activities centered around synonyms emerges as a dynamic strategy. Recognizing that traditional rote memorization can be both tedious and less effective, educators are increasingly turning to engaging methodologies that not only make the learning

process enjoyable but also stimulate creativity in language use. Games designed to reinforce synonym knowledge inject an element of fun into the learning environment. Activities such as synonym matching games, word association challenges, or even crossword puzzles not only test students' understanding but also transform the learning experience into a captivating endeavor. By introducing an element of competition or collaboration, these games tap into the natural inclination for play, creating a positive and motivating atmosphere within the classroom [10]. The use of interactive activities not only captivates students' attention but also encourages them to think critically about language choices. For instance, engaging in a 'synonym charades' game requires students to not only identify synonyms but also embody the nuances of each word through gestures and expressions. This embodiment of language adds a kinesthetic dimension to learning, reinforcing the connections between words and their meanings in a memorable way. Furthermore, such activities provide a platform for fostering creativity in language use. When students are encouraged to explore a variety of synonyms in a playful context, they are more likely to experiment with language and discover the joy of linguistic expression. This experimentation lays the groundwork for a more intuitive and nuanced understanding of word choices, enabling students to communicate with flair and originality. In essence, integrating games and activities into the teaching of synonyms transcends the traditional boundaries of education. It transforms the language-learning journey into an immersive and enjoyable experience, cultivating not only a solid grasp of synonyms but also nurturing the seeds of creativity in language use that will blossom throughout students' linguistic endeavors [8].

Building confidence: As students become more adept at using a variety of words, their confidence in both written and spoken English tends to increase. They feel more equipped to express themselves effectively.

Methods: introduction and explanation: begin by introducing the concept of synonyms and explaining their importance in language learning and communication. Group activities engage students in collaborative activities where they work together to identify synonyms, discuss their meanings, and create sentences using them. Contextual learning: provide examples of synonyms used in context, and discuss how their meanings may vary depending on the context.

Conclusion.

Incorporating synonyms into English language teaching helps students build a robust vocabulary, enhances their communication skills, and fosters a deeper understanding of the language. The integration of synonyms into English language teaching serves as a multifaceted tool to enrich students' language skills. It goes beyond mere vocabulary expansion, contributing to enhanced communication, improved writing abilities, and a nuanced comprehension of language usage. Encouraging the use of synonyms not only aids in standardized test preparation but also fosters critical thinking, cultural awareness, and creativity. Ultimately, it plays a pivotal role in building students' confidence in expressing themselves effectively in written and spoken English. Let's elaborate further on the idea of how the use of synonyms contributes to students' confidence in written and spoken English: As students become more adept at navigating the rich tapestry of synonyms, a transformative shift occurs in their language proficiency. The mastery of synonyms empowers learners to articulate their thoughts with precision, lending an air of sophistication to both their written compositions and spoken expressions. The expanded vocabulary not only equips them with a diverse linguistic palette but also instills a sense of confidence in their ability to choose words that precisely convey their intended meanings. In written compositions, the integration of a varied vocabulary, facilitated by synonyms, enhances the clarity and eloquence of students' prose. They can effortlessly maneuver through different registers of language, adapting their writing style to suit diverse audiences and purposes. This versatility not only elevates the quality of their written work but also positions them as adept communicators capable of expressing ideas with nuance and sophistication. In spoken English, the confidence gained from a robust synonymic repertoire allows students to engage in articulate and effective verbal communication. Whether participating in class discussions, delivering presentations, or expressing personal opinions, students find themselves more equipped to navigate the intricacies of spoken language. The newfound confidence translates into a heightened ability to communicate persuasively, capturing the attention and respect of their audience. Moreover, as students witness the positive reception of their well-articulated ideas, they are motivated to explore language even further. This positive reinforcement creates a self-perpetuating cycle, where the confidence gained from using synonyms fuels a continuous desire to expand their linguistic capabilities. In essence, the journey through the world of synonyms not only enriches vocabulary but serves as a catalyst for the development of confident, articulate, and effective communicators.

References:

1. Alqahtani, Mofareh. "The Importance of Vocabulary in Language Learning and how to be Taught." *International Journal of Teaching and Education*, vol. 3, no. 3, 2015, pp. 21-34.
2. Bennett, Gena R. *Using Corpora in the Language Learning Classroom: Corpus Linguistics for Teachers*. University of Michigan Press, 2010, pp. 141-168.
3. Biber, Douglas, et al. *Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use*. Cambridge University Press, 2006, pp. 26-37.
4. Cai, Jiutian. *Is it "Great" Enough? A Corpus-based Study of "Great" and its Near Synonyms*. Ball State University, 2012, pp. 56-70.

5. Caro, Keiby, and Nayibe Rosado Mendinueta. "Lexis, Lexical Competence and Lexical Knowledge: A Review." *Journal of Language Teaching and Research*, vol. 8, no. 2, 2017, pp. 205-219.
6. Moon, Rosamund. "What can a Corpus Tell us about lexis?." *The Routledge Handbook of Corpus Linguistics*, edited by Anne O'Keeffe and Michael McCarthy, Routledge, 2010, pp. 345-358.
7. Nation, I.S.P. *New Ways in Teaching Vocabulary*. TESOL, 1994, pp. 16-25.
8. Nation, I.S.P. *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press, 2001, pp. 46-57.
9. O'Keeffe, Anne, et al. *From Corpus to Classroom: Language Use and Language Teaching*. Cambridge University Press, 2007, pp. 118.
10. *Oxford Advanced Learner's Dictionary*. Oxford University Press, 2005. Palmer, F.R. *Semantics*. Cambridge University Press, 1997, pp. 38-45.

Author:

Baltayeva Nodira Timur qizi - Chirchik State Pedagogical University, teacher of the Interfaculty Foreign Language Department.

UDK 371.302

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE USE OF PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY

MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI
ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Abdullayev Baxtiyor Abduraxmanovich

Guliston davlat pedagogika instituti, 120101. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 49-uy.

E-mail: baxtiyor.abdullaev.78@mail.ru

Abstract. The article analyzes numerous scientific studies conducted by many scientists on the way of activation of learning and cognitive activity of students. It also clarifies the psychological and pedagogical conditions of purposeful application of problem-based learning.

Key words. Didactics, problem, problem teaching, problem situation, problem principle, creative thinking, knowledge actualization.

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga oid ko'plab olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, muammoli o'qitishni maqsadli qo'llashning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari oydinlashtirilgan.

Kalit so'zlar. Didaktika, muammo, muammoli o'qitish, muammoli vaziyat, muammolik tamoyillari, ijodiy fikrlash, bilimlarni faollashtirish.

Аннотация. В статье проанализированы многочисленные научные исследования, проводимые многими учеными по вопросам на пути активизации учебно-познавательной деятельности учащихся. А также уточняются психолого-педагогические условия целенаправленного применения проблемного обучения.

Ключевые слова. Дидактика, проблема, проблемное обучение, проблемная ситуация, принцип проблемный, творческое мышление, актуализация знаний,

Kirish. Pedagog-didaktik olimlar yillar davomida ta'lim jarayonini tashkil etishda "Nega o'qitamiz? Nimaning o'qitamiz? Qanday o'qitamiz?" kabi savollariga javob izlash barorida "Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? – degan savolga hali ham javob qidirilmoqda va bu mavzuda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti raisligida 2020-yil 30-oktyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha maktab o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika qo'llash zarurligini ta'kidlaganligi ham bejiz emas. "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", – dedi mamlakatimiz rahbari [1].

Keng axborot oqimi sharoitida, mamlakatimizning pedagog-olimlari tomonidan hozirgi kunda zamon talabiga ko'ra, ta'lim jarayonida interfaol o'qitish metodlardan foydalangan holda ta'lim berish samaradorligini ko'tarishga oid ko'plab pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda [2, 3, 4]. Mazkur tadqiqot ishlarida o'qitishning rivojlantiruvchi, ta'limiy va tarbiyaviy funksiyalariga e'tibor qaratgan holda o'qitishga qo'yilgan maqsadlarga erishishning samara beruvchi yo'llari o'rganilgan. Jumladan, kichik yoshdagi o'quvchilar loyiha ishlarini bajarish jarayonida, ularda fanga oid kompetensiyalar shakllanishi sinergetik (o'zaro hamkorlik) tarzda amalga oshirish shakli [2], tayanch kompetensiyalar asosida o'quvchilarda muloqat qilish, hamkorlikda ishlash, mustaqil qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko'nikmalarini

shakllantirish [3], maktablarda fizika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish usuli o‘rganilgan [4].

Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar.

Ta‘lim jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llanilishi polyak olimi V.Okon, rus olimlari I.Ya.Lerner, M.I. Maxmutov, V.T.Kudryavtsev, A.A.Matyushkin, V.A.Krutetskiy tomonidan muammoli o‘qitishning ilmiy asosi o‘rganilgan hamda ularning tadqiqot ishlarida “muammoli ta‘lim takomillashgan o‘qitish texnologiyasi” sifatida e‘tirof etilgan.

Aslida, muammoli o‘qitish mutloq yangi pedagogik fenomen emas. “Muammo” so‘zi grekcha so‘z bo‘lib ma‘nosi “qiyin savol, yechim talab qiladigan vazifa, tadqiqot” sifatida [5], talqin qilingan. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlari izohli lug‘atida “muammo” termini “jumboqli, sirli, g‘alati, tushunishi qiyin, boshqotirma, hal qilinishi yoki aniqlashtirishi kerak bo‘lgan ish” ma‘nosida tavsiflangan [6]. Rus olimi A. M. Matyushkin “muammo” – bu amaliy vaziyatni bajarish jarayonida yuzaga keladigan vaziyat yoki kerakli ma‘lum bilimga erishish, nomuvofiqi bo‘lgan taqdiridagi harakat” – deb ta‘lqin qilgan [7].

Ta‘lim jarayonida muammoli o‘qitishning bir qancha turlari qo‘llaniladi. Taniqli didaktik olim M.N.Skatkin muammoli o‘qitishning quyidagi turlarini e‘tirof qilgan. Bular: bilimlarni muammoli bayon qilish; muammoli topshiriqlarni berish; kichik ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirish [8].

A.M.Matyushkin “Проблемные ситуации в мышлении и обучении”. nomli o‘quv qo‘llanmasida mazkur o‘qitish muamosini “o‘quvchi o‘rganishni, yechishni talab qiladigan, berilgan ma‘lumot (dali)lar va noma‘lum narsani topish talabi o‘rtasida ziddiyatli vaziyatni nazarda tutadigan nazariy yoki amaliy savol” sifatida qaraydi. Pedagog olim “muammoli vaziyatga” vazifalarni hal qilishda yangi, ilgari obyektga noma‘lum bo‘lgan bilimlar yoki faoliyat usullarini topishni (kashf etish yoki o‘zlashtirishni) taqozo etuvchi vazifalarni hal qilishdagi subyektning ruhiy holati bilan subyektning (o‘quvchining) aqliy o‘zaro harakatining o‘ziga xos turi sifatida ta‘rif bergan. Boshqacha qilib aytganda, muammoli vaziyat subyekt o‘zi uchun qiyin bo‘lgan vazifani yechishni istaydigan, biroq unga ma‘lumotlar yetmaydigan va bularni o‘zi izlashi lozim bo‘lgan vaziyat deb tavsiflaydi.

V.T.Kudryavtsev muammoli o‘qitishni “ta‘limning yaxlit turi yoki tizimi” deb hisoblab [9], hamda muammoli o‘qitishning markaziy tushunchasi – muammoli vaziyatni “Muammoli vaziyat, kognitiv yoki amaliy qiyinchilikka duch kelganda subyektning ma‘lum ruhiy holati bo‘lib, u subyekt bilan faoliyat va bilish obyektini o‘rtasidagi ziddiyatdir” deb izohlaydi [9].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ilmiy tadqiqot va o‘quv metodik nashr ishlarida hamda izohli lug‘atlarda keltirilgan tavsiflarga ko‘ra xulosaga kelish mumkinki, har bir muallif uchun muammoli o‘qitish ta‘riflardagi o‘xshashlik va umumiylik mavjud.


Biz yuqorida keltirilgan muammoli vaziyatlarni quyidagi mezonlarga ko‘ra aniqlashtiramiz: muammoni hal qilishda bajarilishi kerak bo‘lgan harakatlar tuzilmalari (masalan, harakat qilish usulini topish); muammoni hal qiluvchi shaxsda harakatlarning rivojlanish darajasi; ta‘lim oluvchilarining intellektual qobiliyatlari kabilarda. Insonda qachonki unda qiyinchilik, ma‘lum va noma‘lum hodisalar o‘rtasida, berilgan vazifa va uning istagan holatida, qo‘yilgan shart va talablar o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘lganda muammoli vaziyat yuzaga keladi. Muammoni hal qilish uchun shaxs kognitiv ehtiyojga va intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Insonda qachon muammoli vaziyat yuzaga keladi, qachonki u qiyinchilik, eski va yangi, ma‘lum va noma‘lum, berilgan va xohlagan, shart va talablar o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘lganda muammoni hal qilish uchun kognitiv ehtiyoj va intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lsa. Muammoli vaziyatlar quyidagi mezonlarga ko‘ra farqlanadi: muammoni hal qilishda bajarilishi kerak bo‘lgan harakatlar tuzilmalari (masalan, harakat qilish usulini topish); muammoni hal qiluvchi shaxsda bu harakatlarning rivojlanish darajasi; ta‘lim oluvchilarining intellektual qobiliyatlari.

Muammoli o‘qitishni amalga oshirish xaritasining tarkibiy tuzilishini 1-rasmda keltirilgan [8].

Muammoli o‘qitish dars jarayonida o‘quvchining faoliyatini faollashtirishga asoslanadi. Bizning fikrimizcha muammoli o‘qitishni maqsadli qo‘llashning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari sifatida: o‘quv materialining mazmunida sabab-oqibatli aloqadorlik o‘quvchida fanga oid nazariya, qonun, tushunchalarni shakllantirishga yo‘nalganligi; o‘quvchilarni yangi mavzuni muammoli o‘qitishga tayyorlash; o‘qituvchi dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltira olishi; o‘qituvchi turli faol o‘qitish metodlarni bilishi va uni qo‘llay olishi lozim.

Muammoli o‘qitish nazariyasini yaratish an‘anaviy didaktika tamoyillarini va qoidalarini shunchaki takomillashtirishni anglatmaydi. U o‘qitish jarayoni to‘g‘risidagi shakllangan bilimlar doirasidan chiqish va o‘quvchilarning o‘rganish mustaqilligini shakllantirishning gnoseologik, sotsiologik hamda psixologik qonuniyatlarini aniqlash maqsadida muammoli o‘qitishning uslubiy asoslarini nazariy tadqiq qilishni taqozo etadi.



1-rasm. Muammoli o'qitishni tashkil etish algoritmi

Muammoli o'qitish muammoli vaziyatni yaratishdan boshlanadi. Biz biron harakatni amalga oshirishimizda, aksariyat hollarda tayyor modellardan foydalanamiz, ya'ni izlanmaymiz. Ammo, muammoli vaziyatlarda shaxsning izlanish faolligi ishga tushadi va maqsadga erishishning yangi modellari qidiriladi. Demak, muammoli vaziyat – intellektual qiyinchilikning ruhiy holati bo'lib, u shaxsda mavjud bo'lgan bilimlar yordamida tanish yo'li bilan muammodagi dalillarni tushuntirib bera olmasa, yangi harakat usulini topishi kerak bo'lgan vaziyatdir. Shuningdek, muammoli o'qitishning yana bir juda muhim jihati bu – egallanayotgan bilimlar mustaqilligini ta'minlaydi, chunki bu bilimlar mustaqil faoliyat jarayonida egallanadi.

Nazariy va amaliy pedagogik vazifalarni hal qilish uchun yaratiladigan muammoli vaziyatlar o'quvchilar tomonidan bunday vazifalarni hal qilishga asoslanadigan muammoli o'qitishning didaktik asoslari ushbu tushunchaning mazmuni va mohiyati bilan belgilanadi. Muammoli o'qitish o'quvchilarning aqliy salohiyatlari, mustaqil ijodiy faoliyatda fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

X.X.Abushkin tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalarida muammoli o'qitishning o'rni hamda o'qitish (muammolarni taqdim etish, evristik, tadqiqot) usullarining mazmuni an'anaviy o'qitish usuliga nisbatan qiyosiy tahlil qilgan. U muammolikni aqliy faoliyat jarayonida o'quvchida yuzaga keladigan "ichki qarama-qarshiliklar" ni hal qilish, ya'ni "o'quvchi tomonidan muammosi shaklida idrok etilgan va tushunilgandan keyingina subyektiv hodisaga aylanadi" deb izohlaydi [10].

E.N.Dolgix ilmiy tadqiqot ishi umumta'lim maktablarida o'quvchilarga muammoli o'qitishda fanlar ichidagi bog'lanishlarni axborot modeli asosida, muammoli o'qitish texnologiyasi doirasida o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'lgan mezonlar tizimida metodologik, tashkiliy boshqaruvchilik va amaliy xususiyatlarga ega bo'lgan qarashlarni ilgari surgan [11].

Demak, muammoli o'qitish o'quv jarayonida o'quvchi faoliyatini faollashtirishga asoslangan. Muammoli o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quvchini ijodiy fikrlashga, muammoning mohiyatini anglash, muammoli vaziyatdan chiqishga urinish, muammoni hal qilish yo'lida tadqiqot olib borish va muammoni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishni ta'minlash kabi harakatlarga tayanilgan. Shunday qilib, muammoli o'qitishda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlar o'qituvchidan o'quvchiga emas, balki aksincha o'quvchidan o'qituvchiga yo'naltirilgan ijodiy rivojlanish borasidagi o'z yo'nalishga ega bo'lishini ta'minlovchi shakllar, usullar va vositalar yordamida o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltirilganligi bilan muhim hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar muammoni hal qilishda bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar tuzilmasiga ko'ra; ushbu harakatlarning rivojlanish darajasiga; muammoli vaziyatning qiyinligiga va h.k.larga ko'ra farqlanadi.

Shu bois, muammoli o'qitish an'anaviy o'qitishga nisbatan ayrim ustunlik jihatlari bilan farq qiladi. Bular: o'quvchini ijodiy va mantiqiy fikrlashga undaydi (natijada ularda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi); o'quv materialini muammoli vaziyatlar orqali o'zlashtirishga imkoni yaratadi; o'quvchida anglash(bilish)ga bo'lgan qiziqish motivlari hosil bo'ladi. O'quvchida ijodiy tafakkur rivojlanishi muammoli vaziyatlar hal etish bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda hodisalarni to'liqroq tushunish voqelik tomonlarning bir-birini to'ldiruvchi g'oya va tushunchalar asosida yuz beradi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, o'quv va metodik qo'llanmalarda keltirilgan ilmiy asoslarga ko'ra, muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini keltiramiz. Bular: nazariy va amaliy muammolarni hal qilish jarayonida ta'lim oluvchi yangi ma'lumotlar oladi; masalalarni yechish jarayonida ta'lim oluvchilar barcha qiyinchiliklarni yengib chiqadi,

ularning faolligi va mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlanadi; muloqot sur'ati o'quvchi yoki sinf guruhiga bog'liq; ta'lim oluvchilarining faolligini oshirish ijobiy motivlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Muammoli o'qitish – ta'lim oluvchilarning kognitiv mustaqilligini shakllantirish, ularning mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlash va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday o'qitish faollik yondashuviga asoslanganligi va fikrlash muammoli xarakterga ega ekanligidan, har bir fikr va dalilning paydo bo'lishi muammoli vaziyatda sodir bo'lishidan kelib chiqadi va ular muammoni hal qilishda bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar tuzilishiga hamda ushbu harakatlarning rivojlanish darajasiga; muammoli vaziyatning qiyinligiga va hokazolarga ko'ra farqlanadi. Kognitiv vazifa o'quvchilarni muammoni mustaqil ravishda hal qilish yo'llarini topishga intilishlariga sabab bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotiga muammoli o'qitishning joriy etish murakkabligi muammoli vaziyat ko'rinishidagi o'quv materialni tayorlash metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, muammoli o'qitishni tashkil etish va joriy qilish texnologiyalarining, dars jarayonini muloqotli tashkil etishning texnologik xaritasi tuzishdagi muammolar (psixologik-pedagogik jihatlar) mavjudligi va boshqalar bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha 2020-yil 30-oktabr kuni olib borilgan videoselektor yig'ilishi. <https://daryo.uz/2020/10/30>

2. Sangirova Z.B. Umumta'lim maktablarida STEM yondashuv asosida o'quv-loyiha ishlarini tashkil etish metodikasi. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori diss. avtoref. – Chirchiq.ChDPU, – 2022. – 20 b.

3. Narziyeva N.N. Umumta'lim maktab o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori diss. avtoref. – Samarqand, SamDU, – 2019. – 21 b.

4. Hamdamova N.M. O'quvchilarning texnik ijodkorligini muqobil energiya manbalari qurilmalari vositasida rivojlantirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori dis. avtoreferati. Vuxora. BDPU, 2021. – 48 b.

5. Ожегова С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – Москва. Азбуковник, 1999. – 314 с.

6. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida.– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 1-jild. – 680 b.

7. Матюшкин А.М. Психология мышления. Мышление как разрешение проблемных ситуаций / Учебное пособие. – М., КДУ, 2009. – 190 с.

8. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H, Sayfurov D.M., Turayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. (Toshkent, Nizomiy nomli TDPU, 2015. – 208 b.

9. Кудрявцев В.Т. «Проблемное обучение: истоки, сущность, перспективы», М., 1991.

10. Брызгалова С.И. Проблемное обучение в начальной школе. Учебное пособие. Калининград. Калининградский университет. 1998. – 91с.

11. Абушкин Х.Х. Технология проблемного обучения в педагогическом ВУЗе. Педагогика. Гуманитарные науки и образование. 2013. №4.– С.8-13.

12. Долгих Е. Н. Проблемное обучение физике учащихся основной школы на основе информационной модели внутрипредметных связей. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва. – 2009. – 22 с.

Muallif:

Abdullayev Baxtiyor Abduraxmanovich - Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, E-mail: baxtiyor.abdullaev.78@mail.ru.

UDK 372.800.2

MODERN APPROACHES TO ORGANIZING LABORATORY CLASSES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Mavlyanov Mo'minjon Akramovich, O'rozboyev Mirjalol Abdivosi o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti, 120101. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 49-uy.

E-mail: muminjonmavlyan@gmail.com

Abstract. Today, some work is underway to introduce modern information technologies on all levels of education. Modern approaches to the organization of laboratory classes, in particular, in higher educational institutions, methods and application of various problems encountered in professional activities in various specialties, improve the quality and effectiveness of laboratory classes. This article examines the application of modern methods in the organization of

laboratory classes in the discipline "application of information technology in professional activity", which are now being transferred to all areas in higher education institutions as a discipline.

Keywords: MS Excel, macro, developer, foreign languages, voice recorder.

Аннотация. Сегодня ведется определенная работа по внедрению современных информационных технологий на все ступени образования. Современные подходы к организации лабораторных занятий, в частности, в высших учебных заведениях, методы и применение различных проблем, встречающихся в профессиональной деятельности по различным специальностям, повышают качество и результативность лабораторных занятий. В данной статье рассматривается применение современных методов в организации лабораторных занятий по дисциплине "применение информационных технологий в профессиональной деятельности", которые сегодня переходят на все направления в высших учебных заведениях как дисциплина.

Ключевые слова: MS Excel, макрос, разработчик, иностранные языки, диктофон.

Kirish. Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida va erkin demokratik jamiyatga moslashgan, ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol, ma'naviy yetuk va har tomonlama bilimdon komil insonni tarbiyalashdan iborat. Oliy o'quv muassasalarida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda avvalo talabalar mavzular yuzasidan puxta nazariy bilimga ega bo'lishlari kerak. Talabalar laboratoriya mashg'ulotida yangi materialni o'rganib, kuzatib, raqamli texnologiyalardan foydalanib, yakka holda yoki guruhda bajaradilar. "Xorijiy tillar" yo'nalishida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish orqali talabalarda axborot texnologiyalarida ishlash ko'nikmalarini oshiradilar va kasbiy faoliyatdagi masalalarni hal etishda kompyuter texnologiyalarini foydalanish kompetentligi rivojlantiradi.

Bugungi kunda Axborot texnologiyasi kirib bormagan soha deyarli qolmadi, jamiyatning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan soha vakillari kasbiy faoliyatlarida uchraydigan turli masalalarni hal etishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Raqamli texnologiyalar shunday sohaki, xar kuni rivojlanish va yangilik bo'lib turadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ish samaradorligini oshirish, va natijakorlikka olib keladi.

"Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan "Elektron jadval protsessorlarida ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotlarini yo'nalishga qarab tashkil etish o'z navbatida talabalarda ham qiziqish uyg'otadi va barcha talabalarni qamrab oladi.

Quyida ushbu mashg'ulotni "Xorijiy tillarni o'qitish" yo'nalishiga tashkil etishni ko'rib chiqamiz.

Laboratoriya mashg'uloti:

Mavzu: Elektron jadval protsessorlarida ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash;

Kerakli jihoz va materiallar: Shaxsiy kompyuter va uning qo'shimcha qurilmalari, ma'ruza matnlari, har xil adabiyotlar, ma'ruza daftarlari.

Topshiriq: Microsoft Excel dasturida macros yordamida berilgan matndagi yangi so'zlarni tarjima qiladigan fayl yaratish.

Nazariy qism: Xorijiy tillarni o'qishda yangi so'zlarni yod olish muhim sanaladi bu mashg'ulot davomida o'quvchilarga yangi so'zlarni yodlashda yordam beradigan fayl yaratish.


Ishning borishi:

1. Kompyuterni ishga tushiring.
2. MS Excel dasturini ishga tushiring.
3. Dasturda menyular qatoriga "Разработчик" menyusini chiqaring.
4. B4 dan F4 gacha belgilash kiritib oling va chegaralarni qo'ying.
5. Лист1 ni quyidagi ko'rinishga keltiring:

	A	B	C	D	E	F
		№	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
4		1				
5		2				
6		3				
7		4				
8		5				
9		6				
10		7				
11		8				
12		9				
13		10				
14		11				
15		12				
16		13				
17		14				
18		15				
19		16				
20		17				
21		18				
22		19				
23		20				


I-rasm

6. “Разработчик” menyusidan “Макрос” ni ishga tushuring.
 7. “Разработчик” menyusidagi запис макроса tugmasini bosning:



2-rasm

8. Hosil bo‘lgan oynaga quyidagi ma’lumotlarni kiriting.



3-rasm


9. B4 dan F4 gacha belgilash kiritib oling va chegaralarni qo‘ying.
 10. Лист1 ni quyidagi ko‘rinishga keltiring:

	N2	Yangi so‘zlar:	Yangi so‘zlarning tarjimasini yozing	To‘g‘ri javob	natija
4					
5	1	Apple			
6	2	Black Friday		Qora shanba	
7	3	Bird		Qush	
8	4	Apricot		Olma	
9	5	Market		Bozor	
10	6	Vendor		Sotuvchi	
11	7	Buyer		Xaridor	
12	8	food		Maxsulot	
13	9	Discount		Chigirma	
14	10	sale		Sotish	
15	11	Expensive		raqobat	
16	12	Exchange		Arzon	
17	13	Competition		Raqoobar	
18	14	Securities		Qo‘riqchi	
19	15	Bread products		Non maxsulotlari	
20	16	Online stores		onlayn	
21	17	Village market		do‘konlar	
22	18	monopoly		monopoliya	
23	19	raw material		Yarim maxsulot	
24	20	finished product		tayyor maxsulot	
25					
26					

4-rasm

11. Yangi so‘zlarni kiritgandan so‘ng: F4 yacheykaga quyidagi funktsiyani kiritamiz:
 =ЕСЛИ(D5=E5;"Perfect";"WRONG")

Yoki:



5-rasm

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

12. F5 yacheykadagi natijani barcha belgilangan yacheykaga tortamiz.

N2	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
1	Apple			Perfect
2	Black Friday			Perfect
3	Bird			Perfect
4	Apricot			Perfect
5	Market			Perfect
6	Vendor			Perfect
7	Buyer			Perfect
8	food			Perfect
9	Discount			Perfect
10	sale			Perfect
11	Expensive			Perfect
12	Exchange			Perfect
13	Competition			Perfect
14	Securities			Perfect
15	Bread products			Perfect
16	Online stores			Perfect
17	Village market			Perfect
18	monopoly			Perfect
19	raw material			Perfect
20	finished product			Perfect


6-rasm

13. To'g'ri javob qatorini ingliz tilida berilgan so'zlar bilan to'ldiramiz.

	A	B	C	D	E	
		N2	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	na
4						
5		1	Apple		Olma	WRONG
6		2	Black Friday		Qora juma	WRONG
7		3	Bird		Qush	WRONG
8		4	Apricot		O'rik	WRONG
9		5	Market		Bozor	WRONG
10		6	Vendor		Sotuvchi	WRONG
11		7	Buyer		Xaridor	WRONG

7-rasm

14. Makrosni ishini to'xtatamiz.



8-rasm

15. Loyihani sinash uchun лист1 dagi "Yangi so'zlarni tarjimasini yozing" qatoriga so'zlarni kiritishdan oldin "tog'ri javob" va "natija" qatoridagi so'zlarni belgilab delete tugmasi yordamida so'zlarni o'chirib tashlaymiz.

Yangi so'zlar				
FIO yozing:		Mavlayanov Mo'minjon		
N2	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
1	Apple			
2	Black Friday			
3	Bird			
4	Apricot			
5	Market			
6	Vendor			
7	Buyer			
8	food			
9	Discount			
10	sale			
11	Expensive			
12	Exchange			
13	Competition			
14	Securities			
15	Bread products			
16	Online stores			
17	Village market			
18	monopoly			
19	raw material			
20	finished product			


9-rasm

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

16. “Yangi so‘zlarning tarjimasini yozing” qatoriga ingliz tilidagi so‘zlarning o‘zbekchadagi tarjimasini kiritamiz.

17. “Разработчик” menyusidan “Макросы” tugmasini bosib Dictionary tugmasi ustida “Выполнить” tugmasini bosib natijani tekshirib ko‘ramiz:



10 -rasm

Mashg‘ulot so‘ngida quyidagi natijaga erishamiz.

	Ns	Yangi so‘zlar:	Yangi so‘zlarning tarjimasini yozing	To‘g‘ri javob	natija
4					
5	1	Apple	Olma	Olma	Perfect
6	2	Black Friday	Olma	Qora shanba	Wrong
7	3	Bird	Jo‘ja	Qush	Wrong
8	4	Apricot	O‘rik	Olma	Wrong
9	5	Market	Bozor	Bozor	Perfect
10	6	Vendor	Sotuvchi	Sotuvchi	Perfect
11	7	Buyer	Xaridor	Xaridor	Perfect
12	8	food	Banan	Maxsulot	Wrong
13	9	Discount	Chegirma	Chigirma	Wrong
14	10	sale	Sotish	Sotish	Perfect
15	11	Expensive	Raqobat	raqobat	Perfect
16	12	Exchange	Arzon	Arzon	Perfect
17	13	Competition	Raqobat	Raqoobar	Wrong
18	14	Securities	Qimmatli qog‘ozlar	Qo‘riqchi	Wrong
19	15	Bread products	Non	Non maxsulotlari	Wrong
20	16	Online stores	Onlayn magazinlar	onlayn	Wrong
21	17	Village market	Qishloq	do‘konlar	Wrong
22	18	monopoly	Monopoliya	monopoliya	Perfect
23	19	raw material	Xom ashyo	Yarim maxsulot	Wrong
24	20	finished product	tayyor maxsulot	tayyor maxsulot	Perfect

11 – rasm

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda oliy ta‘lim yo‘nalishlaridagi kasbiy faoliyatda uchraydigan masalalarni hal etishga qaratilsa, bu avvalambor talabalarni o‘zlashtirishiga ijobiy ta‘sir qiladi va raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetentligini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatga qo‘llash fani barcha oliy ta‘lim yo‘nalishlarga dars sifatida o‘tilishini hisobga olsak bu yanada o‘z ahamiyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2020.
2. Abdullayev M., Saidahror, G., & Ayupov, R. Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo‘nalishlari. 2020. – 44 b.
3. Tishlikov S., Saidov J., Normamatova M. Informatika fanidan laboratoriya mashg‘uloti to‘plami. Guliston 2018. – 80 b.
4. Eshonqulov D.T. Microsoft Excel dasturida laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma. Samarqand. 2007. – 76 b.

Mualliflar:

Mavlyanov Mo‘minjon Akramovich - Guliston davlat pedagogika instituti “Aniq va tabiiy” fanlar kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: muminjonmavlyan@gmail.com

O‘rozboyev Mirjalol Abdivosi o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, **E-mail:** mirjalol0406@gmail.com

UDK 372.3/4

METHODS OF FORMING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HISSIY INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Mirxoliqova Charos Xabibullayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti. 100014.Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy.

E-mail: charosmirxoliqova855@gmail.com

Abstract. The article is devoted to the study of the development of emotional intelligence in elementary school students. In this work, the level of emotional intelligence in younger schoolchildren of this age was studied, the main difficulties in identifying, understanding and analyzing, expressing emotions and managing them were found. Based on the diagnostics, a training program was created and implemented, as a result of participation in which the level of emotional intelligence in children increased. The changes that occurred in the emotional sphere of the participants are described, the dynamics of the development of emotional intelligence during the program is analyzed.

Keywords: development of emotional intelligence, primary school students, class program.

Annotatsiya. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektning rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishi davomida ushbu yoshdagi Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy intellekt saviyasi o'rganildi, emotsiyalarni identifikatsiyalash, tushunish va tahlil qilish, ifodalash va ularni boshqarishdagi asosiy qiyinchiliklar aniqlandi. O'tkazilgan tashxis asosida mashg'ulotlar dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirildi, unda ishtirok etish natijasida bolalarda hissiy intellekt saviyasi oshdi. Ishtirokchilarning hissiy sohasida yuz ibergan o'zgarishlar tavsiflandi, dasturni o'tish davomida hissiy intellektning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: hissiy intellektning rivojlanishi, kichik maktab yoshidagi bolalar, mashg'ulotlar dasturi.

Kirish. Bugungi kunda bolalar hayotining ko'plab sohalari u yoki bu tarzda kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq. Texnologiyaning keskin rivojlanishi, tabiiy muloqot vaqtining kamayishi, hissiy intellektning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'z hislarini anglashdagi qiyinchiliklar, ularni maqbul tarzda ifodalay olmaslik bolaning atrofdegilar bilan o'zaro munosabatlariga ta'sir qiladi, uning jamiyatda muvaffaqiyatli shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda "hissiy intellekt" tushunchasi 30 yil oldin paydo bo'lgan. Ushbu fenomenni o'rganishga J. Meyer, P. Selovey, D. Karuzo, R. Bar-On, D. Goulman va boshqalar [9], mahalliy olimlardan esa D. V. Lyusin, I. N. Andreyevalar [2; 3; 9] salmoqli hissa qo'shganlar. Hissiy intellektni tushunishga turli yondashuvlarni tahlil qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ko'pchilik tadqiqotchilar uning emotsiyalarni tushunish va boshqarish, ulardagi ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olish qobiliyati va har bir shaxsning hissiy sohaga umumiy yo'nalganligi kabi muhim ahamiyatga ega jihatlarni ajratib ko'rsatadilar.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar, o'smirlar, talabalar, shuningdek, turli kasb mutaxassislarida hissiy intellektning shakllanishi va takomillashuvi ancha faol o'rganilmoqda. Ammo boshlang'ich maktab yoshida hissiy sohaning rivojlanishi ham katta ahamiyatga ega.[1].

Boshlang'ich sinf o'quvchisi, o'qish jarayoniga moslashishdan tashqari, turli vaziyatlarda kattalar va tengqurlari bilan yangi munosabatlar o'rnatish zarurligiga duch keladi, bu esa keng ko'lamli emotsiyalarni boshdan kechirish bilan birga davom etadi. Rivojlangan hissiy intellekt bolaga hissiy ma'lumotlarni qayta ishlashga va yangi sharoitlarga yanada muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradi. O'zining va boshqalarning hislarini tushunish, hissiy holatlarni talqin qilish va tahlil qilishda olingan bilimlarni o'z faoliyatida qo'llay olish qobiliyati o'qishning negizi hisoblanadi va atrofdegilar bilan ijobiy o'zaro munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi [5]. O'z hislarini boshqarish ko'nikmalari birinchi sinf o'quvchilariga akademik muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi. Shuningdek, hissiy intellektning yuqori saviyasi bolaning boshlang'ich sinfdan o'rta sinfga o'tishini osonlashtiradi [10].

Kichik maktab yoshida bolalar uchun tushunish uchun yanada murakkab emotsiyalar ochiladi, insonning hissiy sohasi haqidagi tasavvurlar kengayadi va boyib boradi, turli xil emotsiyalarni ifodalash va o'zini nazorat qilish ko'nikmalari o'z ruhiy holati haqida fikr yurgizish qobiliyatining erkinligi va rivojlanishi tufayli yaxshilanadi, bu kattalarning to'g'ri yondashuvi bilan hissiy intellekt saviyasini oshirish uchun yaxshi asosdir [11].

Boshlang'ich sinf o'quvchisining ijtimoiy hayotining murakkablashuvi tufayli boshdan kechirilayotgan emotsiyalar doirasining kengayishi, so'z boyligining yangi hissiy so'zlar tarkibi bilan boyishi hamda empatiyaning (hamdardlikning) rivojlanishi yuz bermoqda. Biroq, boshlang'ich, ayniqsa 7-8 yoshdagi maktab o'quvchilari uchun o'z kechinmalarini verbal ifodalash, ularning paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish qiyin kechadi [11]. O'z navbatida u yoki bu emotsiyani to'g'ri namoyon qila olish qobiliyati esa hissiy reaksiyalarni ma'naviy tahlil qilish imkonini beradi.


Tadqiqotda 8-9 yoshdagi 44 kishi (nazorat va tajriba guruhlarida 22 kishidan), Toshkent shahridagi turli maktablarning birinchi sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Ishning dastlabki bosqichida Ye. I. Izotovaning “Hissiy identifikatsiya” hamda M. A. Nguyenning “Nima – nimaga – qanday” metodikalari yordamida hissiy intellektning rivojlanish saviyasi, shuningdek, ikkala guruhdagi boshlang’ich sinf o’quvchilarida emotsiyalarni identifikatsiyalash, ifodalash darajalari hamda hissiy tasavvurlarning tuzilishi o’rganildi.

Birlamchi tashxis natijasida aniqlandiki, bolalarda eng katta qiyinchiliklar u yoki bu emotsiyani tahlil qilish, u nima uchun paydo bo’lganligini hamda muayyan vaziyatda uning maqsadini aniqlash, hayratlanish, uyalish, nafratlanish, jirkanish hislarini identifikatsiyalash, qo’rquv va hayrat, g’azab, jirkanish, uyat, ayb va nafrat, xotirjamlik va qayg’uni farqlash zarurati tug’ilganda paydo bo’ladi. Emotsiyalarni erkin ifodalash zarurati tug’ilganda ishtirokchilarning yarmida asosan faqat pastki yoki yuqori mimik patterning (tusning) faollashishi yoki ba’zi bolalarda butun mimikaning sust faollashishi kuzatildi. So’ng, olingan ma’lumotlarni hisobga olgan holda, hissiy intellekt saviyasini oshirishga qaratilgan mashg’ulotlar dasturi ishlab chiqildi. Asosiy urg’u emotsiyalarni anglash, ularni verbal bayon qilish, boshqa odamlarning hissiy holatini tushunish qobiliyatini rivojlantirish, emotsiyalar lug’atini kengaytirish, ularni tahlil qila olish, mimika, pantomimika yordamida ifodalay olish hamda u yoki bu emotsiyani ifodalashning adekvat usulini tanlay olish qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Abstract. The high level of legal consciousness and culture of the population in society is one of the important criteria of a democratic legal state and a free civil society. According to the five priority directions of the development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, the development of the legal culture and legal consciousness of the citizens, the organization of cooperation of state social structures with the institutions of civil society, the mass media, is defined. The level of legal culture, adoption It is determined not by the number of laws, decrees, orders, but rather by the manner in which these laws are implemented, and in such an important process, it is of particular importance to educate and form a sense of respect for laws, decrees, orders and legal documents in students. The article discusses this topic.

Keywords: Informatization of education, legal consciousness, legal culture, social activity, political and legal literacy, informatization of legal education, behavior

Аннотация. Высокий уровень правосознания и культуры населения в обществе является одним из важных критериев демократического правового государства и свободного гражданского общества. Согласно пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы развитие правовой культуры и правосознания граждан, организация сотрудничества государственных социальных структур с институтами гражданского общества, средствами массовой информации. Уровень правовой культуры, принятия определяется не количеством законов, указов, распоряжений, а тем, как эти законы реализуются, и в таком важном процессе это имеет особое значение. воспитывать и формировать у студентов чувство уважения к законам, указам, распоряжениям и правовым документам. В статье рассматривается эта тема.

Ключевые слова: Информатизация образования, правосознание, правовая культура, общественная активность, политико-правовая грамотность, информатизация правового воспитания, поведение

Кириш. Жамиятда аҳоли ҳуқуқий онги ва маданияти даражасининг юксаклиги – демократик ҳуқуқий давлат ва эркин фуқаролик жамиятининг муҳим мезонларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланишича [2], фуқароларнинг ҳуқуқий маданияти ва ҳуқуқий онгини ривожлантириш, давлат ижтимоий тузилмаларининг фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари билан ўзаро боғлиқликдаги ҳамкорлигини ташкил этиш масаласи белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси муқаддимасида белгиланганидек, инсонпарвар, демократик, ҳуқуқий давлатни барпо этиш бош мақсад қилиб қўйилган экан, ҳар қандай ҳаётий ишлар, улар айрим шахсларга тегишли бўладими ё жамоаларга, бундан қатъий назар, фақат қонунлар асосида ҳал қилинади. Бошқача айтганда, қонун олдида ҳамма баробар. Мана шундай давлат барпо этиш учун қонунлар мукамал бўлиши зарур. Ижтимоий субъектларнинг умумий маданияти, жумладан, ҳуқуқий маданият ҳам ана шуларга боғлиқ [1].

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Тадқиқотнинг объекти сифатида таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим ташкилотлари талабаларининг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш жараёни белгиланиб олинди. Тадқиқот мавзусини ёритишда илмий адабиётларни таҳлил этиш, ҳужжатлар таҳлили, таснифлаш, тавсифлаш, тарихий-қиёсий таҳлил усулларидан фойдаланилган.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Мамлакатимиз мустақилликка эришган дастлабки йилларданок ёш авлодни ҳар томонлама баркамол ва етук шахс сифатида вояга етказишни таълим тизими олдида вазифа қилиб қўйди. Ўзбекистон Республикаси Президенти БМТ Бош Ассамблеясининг 2017 йил 23 сентябрдаги 75 сессиясида сўзлаган нутқида ёшлар масаласига тўхталар экан: “мамлакатимиз аҳолисининг ярмидан кўпини ёшлар ташкил этади. Республикаимизда ҳар бир йигит-қизнинг жамиятда муносиб ўрин эгаллаши ва ўз салоҳиятини намоён этиши бўйича улкан ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистонда Ёшлар парламентлари, Ёшлар ишлари агентлиги фаолият кўрсатмоқда. Август ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти шафелигида ёшлар ҳуқуқларига бағишланган Самарқанд халқаро форуми муваффақиятли ўтказилди. Фурсатдан фойдаланиб, яна бир бор Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Конвенциясини қабул қилиш бўйича Ўзбекистон ташаббусини қўллаб-қувватлашга чақираман” – деган фикрлари дунё ҳамжамияти томонидан кенг эътироф этилди [3].

«World Justice Project» халқаро фуқаролик жамияти ташкилоти томонидан юритиладиган «Қонун устуворлиги» индекси бўйича 2020 йил учун ҳисобот эълон қилинди. Унга кўра, Ўзбекистон умумий рейтингда 0,47 балл билан 92-ўринни эгаллади [12]. Ҳисоботда келтирилган кўрсаткичлар мамлакатимиз ҳуқуқ ижодкорлиги жараёнида жамоатчиликнинг кенг иштирокини таъминлаш билан боғлиқ нормаларни янада такомиллаштириш, аҳолининг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш зарурати мавжудлиги кўрсатмоқда.

Ҳуқуқий маданият даражаси, қабул қилинган қонун, фармон, фармойишлар сони билан эмас, аксинча ушбу қонунларнинг қай тартибда амалга оширилиши билан белгиланиб, бундай муҳим жараёнда талабаларда қонун, фармон, фармойишларларга ва ҳуқуқий ҳужжатларга нисбатан хурмат ҳиссини тарбиялаш ва шакллантириш алоҳида аҳамиятга эгадир [4].

Талабаларнинг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш чинакам демократик фуқаролик жамияти куришнинг муҳим омилларидан бири саналади. Бу ўринда шуни таъкидлаш жоизки, шахснинг юксак билими етарли бўлиши мумкин, аммо унда ҳуқуқий маданият етишмаслиги, у фуқаро сифатида халқи ва Ватани олдида бурч ва масъулиятини теран англамаслиги мумкин. Шунинг учун ҳам фуқаролар, айниқса талабаларда, ҳуқуқий маданиятни юксалтириш мафкуравий тарбиянинг муҳим шартларидандир.

Жамиятда ҳуқуқий маданиятнинг шаклланганлиги талаба ёшларнинг мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги ўрни, мақсадларни бошқаришдаги иштироки ва масъулияти, янгиликларга дахлдорлик туйғусини ўзгариши, жамият равнақи учун қарорлар қабул қилиш жараёнида уларнинг фаоллиги даражасини белгилайди.

Ҳуқуқий онг инсон маънавиятининг асосий бўғинларидан биридир. Шу сабабли инсон маънавиятининг моҳияти ва даражасини ҳуқуқий онгсиз тасаввур этиб бўлмайди. Жамият ривожланган сари ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият билан боғланиб маънавий кадрлар тизимида тобора муҳимроқ ўрин эгаллаб бораверади [5].

Ҳуқуқий онг деганда ҳуқуқни англаш бўлиб, кишиларнинг амалдаги ҳуқуқ, ҳамда уларнинг ўзлари исталган ҳуқуқга муносабатини ифода этадиган тасаввур ва ҳис-туйғуларнинг умумий йиғиндиси. У табиатан ҳуқуқ билан ҳамоханг бўлиб, шу сабабли мавжуд иқтисодий муносабатларга нисбатан иккиламчи саналади [6].

Хитойда дастлабки жамиятни тартибга солишга доир қарашлар фалсафий дунёқарашнинг таркибий қисми сифатида афсоналардаёқ кўзга ташланади. Қадимги манбалардан бири “Цзин фа”да баён қилинишича, Хуанди худоси жамият тузилишига ва давлатнинг бирлигини таъминлашга оид қонунлар чиқарувчи якка ҳукмдор ҳисобланади. Унинг ҳукми, кўрсатмасисиз одамлар ушбу жамият, давлат фаолиятига аралаша олмайдилар, аралашган тақдирда уларни кўнгилсизликлар ва офатлар кутади.

Конфуций ўз фалсафий қарашларида ахлоқий қоидалар ва халқ анъаналарига таяниш билан бирга жамиятни қонун ёрдамида бошқаришни инкор этиб, ўтмишдаги урф-одатлар, бошқарув анъаналарини тиклаш

тарафдори бўлиб чиқди. Конфуций жамиятни бошқариш воситалари сифатида дао (“осмон ҳукмини адо этишда олижаноб киши юрадиган йўл”) ва ли (“жамиятда бошқарув, урф-одатлар ва нарсалар тартиби, эзгу хулқ-атвор қоидалари, амалларни бажариш йўллари”) тартибларини тушунган. “Агар тепадагилар жамиятни бошқаришда, урф-одатлар ва нарсалар тартибига амал қилсалар халқ уларга ҳурматсизлик кўрсатишга журъат қилмайди” деб ифодаланган [10].

Хусусан, Ўрта Осиё, Эрон ҳудудларининг мил.авв. XIII-XII асрларда жамиятни тартибга солиш воситалари ҳақида муҳим маълумотларни берувчи манба зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто” ҳисобланади. Зардуштийлик таълимотида инсон ҳуқуқларига оид қарашлар заминда ростгўйлик ва адолат ғоялари- учликка асосланади. Бунда умумий хулқ-атвори каби ҳуқуқий хатти-ҳаракатининг намоён бўлишини ифодалайди. Жумладан, адабиётларни назарий таҳлил этиш шундан далолат берадики, ўзбек халқининг миллий, маънавий-маданий меросида шахс, фуқаролик, маданият, масъулият, ҳуқуқ, каби тушунчалар фалсафий - педагогик жиҳатдан асосланган. Фалсафа, социология ва маданиятшуносликда кўпчилик олимлар маданият икки ўлчовга эга - моддий ва номоддий деб ҳисоблайдилар. Моддий маданиятга инсон кўли билан яратилган жисмоний нарсалар қиради: меҳнат қуроллари, китоблар, заргарлик буюмлари ва бошқалар. Номоддий ёки маънавий маданият қоидалар, нақшлар, хулқ-атвор меъёрлари, қонунлар, қадриятлар, рамзлар, билимлар, ғоялар, урф-одатлар, анъаналар, тил билан шаклланади [10].

Шарқнинг фалсафа фани асосчиларидан бири, Абу Наср Форобийнинг «Фозил одамлар шахри», «Ақл маънолари ҳақида рисола», «Китоби ахлоқ», «Бахт саодатга эришув ҳақида», «Шаҳарликларни бошқариш», «Платон қонунлари ҳақидаги китоб тўплами» дарсликларига таълим-тарбияга оид фикрларини педагогика йўналишида асосланган бўлиб, жисмонан ва маънавий-ахлоқий маданиятга ва баркамол бўлган шахс, ахлоқий, ақлий, эстетик хусусиятларга эга бўлиш билан бирга ва бу орқали кишини фозил одам деб аташ мумкин, деган фикрга келади. Демак, аллома комил шахсни тарбиялашда унинг келажоғи, бахту-саодати, таълим ва тарбияси, ҳуқуқий-ахлоқий қиёфаси, эътиқоди, Ватанга садоқати, ота-онага меҳри каби ҳислатларига эътибор қаратиб, педагогик таъсир турларидан панд-насихат, ривоят, мақоллар каби усуллар орқали белгилайди.

Шу билан бирга Амир Темур давлатни бошқаришда қонун, ҳуқуқ-тарғиботни давлат ривожланишининг зарурий шarti, унинг пойдеворини мустаҳкамловчи куч деб билган ва “Куч-адолатдадир” деган олий фикрни шиор қилиб олган ҳамда давлат арбоби жамиятда адолатнинг ҳукм суришини шариат қонунларида кўрган. “Давлат ишларини салтанат қонун-қоидаларига асосланган ҳолда бошқардим. Тўра ва тузукка таяниб, салтанатда ўз мартаба ва мақомимни мустаҳкам сақлаб турдим” [11].

Юқоридагиларга асосланиб, Шарқ, жумладан, Ўрта Осиё алломалари, давлатни бошқариш ва ривожлантириш, тартиб-қоида ўрнатишга оид фикрларидан бошланғич даврларда давлатни тартибга солишда, шунингдек, ахлоқий меъёрлар устунлик қилганлигини, давлатчиликнинг таркиб топиши биланок, ахлоқ ўз мақсадини жамият ва давлат ижтимоий муносабатларида сақлаган ҳолда ҳуқуқий меъёрларга берилганлигини назарда тутди.

Ҳозирги вақтга келиб, демократик жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни такомиллаштириб бориш, қонун устуворлигини таъминлаш ва қонунийликни мустаҳкамлашнинг муҳим асосларидан бири саналади. Ўзбекистонда кечаётган демократик жараёнларнинг самараси кўп жиҳатдан аҳолининг ижтимоий фаоллигига, сиёсий-ҳуқуқий саводхонлиги даражасига, маданиятга боғлиқ. Ўзбекистон Республикаси Президенти маърузаларида, аҳолининг, айниқса, ёшлар ҳуқуқий онгини ва маданиятини ривожлантиришга қаратилган чоратadbирлар дастурини кенг доирада амалга татиқ қилиш олий таълим ислохотларининг муҳим вазифа ва мақсадларидан бири қилиб белгиланган.

Мавжуд адабиётларни ўрганиш ва уларда илгари сурилган ғоялар билан танишиш талабалик, талабанинг масъулияти, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият, талабаларда ватанпарварлик, ватан туйғуси масалалари кўплаб файласуф, ҳуқуқшунос, педагог ва психолог олимлар томонидан турли йўналишда ўрганилганлигини кўрсатди. Узлуксиз таълим жараёнида Н.Ортиқов, О.Мусурмонова, У.Маҳкамов, М.Иномова, С.Нишонова, Ш.Олимов, М.Арипова каби педагог олимлар миллий, маънавий қадриятлар, ёш авлодни ахлоқий тарбиялашда умуминсоний қадриятларнинг муҳим аҳамияти, уларнинг шахс тарбиясидаги ўрни хусусида самарали фаолият олиб бордилар.

Ҳуқуқий маданият ҳақида гап кетганда, шунингдек, “маданият” тушунчасининг моҳиятини ҳам аниқлаштириб олиш зарур.

Маданият деганда шахснинг табиатни, оламни ўзлаштириш ва ўзгартириш жараёнида яратган моддий, маънавий бойликлар, қолаверса, ушбу бойликларни қайта тиклаш ва яратиш йўллари ва услублари мажмуи саналади. Шу билан бирга маданият кишиларнинг ижодий фаолияти орқали дунёга келган моддий ва маънавий бойликлар мажмуигина бўлиб қолмай, у жамият тараққиётининг даражасини, динамикасини ифодаловчи жамиятдаги билим, мезон ва қадриятларнинг йиғиндиси ҳисобланади.

Адабиётлар таҳлили асосида маданият тушунчасининг қуйидаги ўзига хосликларини таъкидлаб ўтиш зарур: маданият тушунчасида моддий ва маънавий бойликлар ҳамда инсон рухий олами ифодланади. Шу боис маданият таркибида уч асосий қатлам мавжуд: 1) инсониятнинг мунтазам ақлий ва жисмоний фаол ижодий

фаолияти; 2) моддий ва маънавий неъматларни ишлаб чиқиш, истеъмол қилиш (фойдаланиш) ва асраш; 3) кадриятлар, ахлоқий тушунчалар, ҳуқуқий амалларнинг ҳаётга татбиқ этувчи ижтимоий тузилмалар.

О.Мусурмонова “Маданият жамият тараққиёти даражасини характерловчи, ижтимоий – тарихий амалиёт жараёнида мужассам бўладиган тизим бўлиб, шахснинг ижтимоий ва маънавий мазмунини ташкил этади” [7] деган хулосага келган.

Олий таълим муассасалари талабаларининг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш муаммосини тадқиқ қилар эканмиз, асосий эътибор ҳуқуқий тарбияни самарали ташкил этиш, бу жараёнда амалга оширувчи ахборот технологиялари вазибаларини аниқ белгилаш, ҳуқуқ негизида акс этувчи сифатлар ва уларнинг моҳиятини ёритишга қаратилди.

Ахборотга жамият раванқининг асосий ресурси, ахборот тизимлари ва технологияларига эса бўлажак кадрларнинг иш маҳсулдорлиги ва самарадорлигини кўтаришнинг асосий воситаси сифатида ҳисобланмоқда. Шундай экан, ҳуқуқий ахборот тизимларининг аҳамияти ва долзарблиги кенгаймоқда. Ҳозирги вақтда маълум бир ҳуқуқий хужжатнинг янги таҳрирдагисини таҳлил этиш бўлажак педагоглар учун ҳам долзарб масала ҳисобланади. Ушбу масалаларни ечиш учун талаба ҳуқуқий ахборот тизимларида ишлашни билиши керак [8].

Шундай қилиб, ахборот тизими деганда, ахборотларни тўплаш, сақлаш, қидириш ва унга ишлов бериш, шунингдек, ундан фойдаланиш имконини берадиган, ташкилий жиҳатдан тартибга солинган барча ахборот ресурслари, ахборот технологиялари ва алоқа воситалари саналади [8].

Олий таълим муассасаларининг Давлат таълим стандарти олий таълим муассасаларига ўқув режасини қисман мустақил тузиш ҳуқуқини берди. Буларнинг барчаси олий таълим муассасаларида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда –Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасидаги тайёргарлигига алоҳида эътиборни қаратишга мажбур қилди [8]. Шу билан бир вақтда ҳуқуқий соҳани ахборотлаштириш жараёни ривожланди.

Ҳуқуқий тарбия - бу жамият аъзоларининг юриш-туриш маданиятига ва онгига ҳуқуқ ҳақидаги билимларни доимий равишда мақсадга мувофиқ таъсир этиш орқали сингдириб бориш жараёни. Ҳуқуқий тарбия воситаларига: ҳуқуқий тарғибот, ҳуқуқий таълим, юридик амалиёт, ўзини ўзи тарбиялашлар киради.

Таълимни ахборотлаштириш – бўлажак педагог кадрларни ҳуқуқий ўқитиш сифатини ошириш имконини берувчи таълим методларини такомиллаштириш ва ўқитишда ахборот технологияларини жалб этиш асосида педагогик жараёнларни такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар йиғиндиси.

Демак, ҳуқуқий таълимни ахборотлаштириш эса – таълим соҳасини услубий-амалий жиҳатдан инновацион техник воситалари ва ахборот технологиялари билан таъминлаш, шу билан бирга улардан унумли фойдаланиш, таълим-тарбия жараёнининг педагогик, психологик мақсадларини педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг ҳуқуқий маданиятини янада такомиллаштириш жараёнидир.

Кўпгина тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, талабаларнинг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш жараёни ҳам ўқув жараёнида, ҳам дарсдан ташқари ўқув фаолияти ва ижтимоий таъсир ўтказиш жараёнларида рўй беради. Аҳолининг яшаш жойларида, яъни маҳаллаларда олиб бориладиган иш меҳнат жамоасининг ҳуқуқий тарбия соҳасидаги таъсирини тўлдирари ва ана шундай уйғунликда барқарор ижобий натижаларга олиб келади. Яшаш жойларида олиб бориладиган иш яна шуниси билан ҳам муҳимдирки, у ҳуқуқий таълимнинг ташкилий шаклларида жалб этилмаган ёшларнинг қатга доирасини ва аҳолининг бошқа гуруҳларини ҳуқуқий тарғибот билан қамраб олиш имконини беради [9].

Олий таълим муассасалари талабалари ҳуқуқий маданиятининг белгиси фақат ҳуқуқни билиш эмас, балки ҳуқуқий дунёқарашни тўғри тушуниш ҳамдир, қонун амалга ошириш воситаси бўлиб хизмат қиладиган сиёсий, иқтисодий ва маданий вазибаларни тушунишдир. Демак, ҳуқуқий дунёқараш - бу жамиятда кишилар томонидан ижтимоий муносабатларни тартибга солишда бош ролни ҳуқуқ бажаради деб тан олиншидир.

Ҳар бир талабада ҳуқуққа мувофиқ ҳулқ-атвори бир вақтнинг ўзида ҳам ахлоқий онг, ҳам ҳуқуқий онг орқали таъминлаш мумкин. Ҳуқуқ ҳеч қачон ахлоқдан холи, ундан айри ҳолда бўлиши мумкин эмас. Тартибга солишда ахлоқнинг таъсири кенг ва самаралироқдир. Демак, талабаларда такомиллашган ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш омили бўлган соғлом ҳуқуқий эҳтиёж ва уни қондиришга бўлган интилиш фақат соғлом ахлоқий онг асосидагина юзага келиши мумкин.

Демак, ҳуқуқий маданиятнинг ҳуқуқ, ҳуқуқий муносабатлар, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий хатти-ҳаракатлар, юридик муассасалар каби таркибий қисмларини аниқлаштириш орқали талабаларда ҳуқуқий саводхонликни ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, тадқиқотимизнинг асосий мақсади, “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” Президент Фармонида мувофиқ, талабаларнинг ҳуқуқий билимга эришиши, шахсий ҳуқуқларини англаган ва қонунларни ҳурмат қиладиган, ҳуқуқий билим, кўникма ва малакаларини ижтимоий ҳаётда қўллаш оладиган, фаол фуқаролик ўрнига эга бўлган ва ҳуқуқбузарликларга нисбатан муросасиз муносабатда бўладиган қонун инсонни тарбиялашдир.

Таҳлиллар асосида ҳуқуқий маданият мураккаб тузилишга эга бўлиб, ҳуқуқ ва ҳуқуқий муносабатлар, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий хатти-ҳаракатлар, юридик муассасалар каби компонентларни ўз ичига қамраб олиши аниқланди.

Тадқиқот давомида “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” Президент Фармонида мувофиқ, олий таълим муассасаларида ҳуқуқий маданиятни ривожлантириш фаолиятини олиб боришнинг тузилмасини ишлаб чиқилди. Ушбу тузилма мақсадли буюртма, тадбирлар ва кутилаётган натижа каби қисмлардан иборат.

Хулоса

Шундай қилиб, демократик жамиятда халқ ҳамда ҳар бир талаба манфаатларини ифодалаш, ҳимоялаш жараёнлари ҳуқуқ ва уларни белгилаб берувчи қонунлар воситасидагина амалга оширилади. Талаба ҳуқуқий маданиятининг даражаси унинг манбаи бўлган ҳуқуқий эҳтиёж ва уни ўзлаштириш ҳолатига боғлиқ. Ҳуқуқий эҳтиёж – ҳуқуқий борлиқнинг англаниган ички мотиви, кўзгатувчиси, талабанинг ҳуқуқийлашуви, фаоллигининг манбаидир. Талабанинг ҳуқуқий эҳтиёжи унинг қонуний мустақамланган ҳуқуқ ва эркинликлари дахлсизлигини таъминлашга бўлган талаб сифатида юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Ўзбекистон, НМИУ, 2023 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги ПФ-4947 сонли фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
3. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. Elektron resurs: Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi (to'liq) (xabar.uz)).
4. Раҳматуллаев Ф.П. Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият. –Т.: 2011.-2 б.
5. Сучков В., Сафин Р., Корчагин Е., Айтуганов И. Взаимодействие профессионального образования и производства как фактор модернизации подготовки компетентных специалистов // Высшее образование в России. – 2008. – №12. – С. 19-22.
6. Исмаилов И. Барқамол авлоднинг ҳуқуқий тарбиясини такомиллаштириш муаммолари// – Ўзбекистон Республикаси ИИБ академиясининг ахборотномаси - Т, 2010. - 2 – сон 12 – бет.
7. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятин шакллантиришнинг педагогик асослари.: пед.фан.докт. ... дис-яси. -Т.: ТДПИ, 1993.-364.
8. Юнусова М.С. Замонавий ҳуқуқий ахборот қидирув тизимларининг таълим жараёнига татбиқи.: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати, Т-2019.
9. Таджиханов У. Ҳуқуқий маданият назарияси.// 1-т. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 1998.-283 б.
10. История древнего Востока. От ранних государственных образований до древних империй.// - М.: Восточная литература РАН, 2004. – с.86.
11. Темур Тузуклари/Б.Ахмедов таҳрири остида/. - Тошкент: НМБ, 1991. - 63-бет.
12. Cardador, M. T., Dane, E., & Pratt, M. G. (2011). Linking calling orientations to organizational attachment via organizational instrumentality. // Journal of Vocational Behavior, 79, 367-378.

Муаллиф:

Холназарова Дилдора Маматмуратовна - Гулистон давлат университети, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

UDK 37.378.378.1

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF IMPROVING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING COMPETENCY UNDER THE CONDITIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

**KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KOMPETENTLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ**

Xasanova Gulnaza Raxatjanovna

Urganch davlat universiteti. 220100. Xorazm viloyati, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14- uy.

E-mail: gulnoza.khasanova3110@mail.ru

Abstract. This article focuses on the organization of the educational process based on the credit-module system in modern educational conditions in the Republic of Uzbekistan. In higher education institutions, efforts are made to reveal the pedagogical features of improving students' independent learning competence under the conditions of the credit-module system, and the prospects of work to be carried out to improve the competence of students under the conditions of the credit-module education system are determined.

Key words: independent work, professional competence, independence, self-control, independent education, self-education, independent activity, creative independence of students.

Аннотация. Данная статья посвящена организации образовательного процесса на основе кредитно-модульной системы в современных условиях образования в Республике Узбекистан. В высших учебных заведениях предпринимаются попытки раскрыть педагогические особенности повышения компетентности самостоятельного обучения студентов в условиях кредитно-модульной системы, а также перспективы проведения работы по повышению компетентности студентов в условиях кредитно-модульной системы. определены кредитно-модульная система обучения.

Ключевые слова: самостоятельная работа, профессиональная компетентность, самостоятельность, самоконтроль, самостоятельное обучение, самообразование, самостоятельная деятельность, творческая самостоятельность студентов.

Кирish. Ta'limni tashkil etishning interfaol-modul tizimi o'quv jarayonini tashkil etish modeli bo'lib, u modulli o'qitish texnologiyalari va ta'lim kredit birliklarini uyg'unlashtirishga asoslangan. Kredit modul tizimi bo'yicha o'qitish har bir modulning tarkibiy mazmuniga ega bo'lgan o'quv materialining mantiqiy to'ldirilgan qismlaridan iborat bo'lgan oldindan ishlab chiqilgan modul dasturi bo'yicha o'quv materialini talabalar tomonidan o'zlashtirishni tashkil etishni nazarda tutadi.

Talaba o'rganish va o'zlashtirish uchun kerakli miqdordagi o'quv fanlarini tanlaydi va ularni ma'lum vaqt ichida o'zlashtirish majburiyatini oladi, bu modul nazoratidan olingan ob'ektiv ma'lumotlardan dalolat beradi. Ta'lim jarayonining bunday tashkil etilishi talabani oliy ta'lim mazmunini sifatli o'zlashtirishga majbur qiladi, shu orqali boshqa mamlakatlarning ta'lim muassasalarida natijalarni ob'ektiv tan olishni ta'minlaydi. Agar an'anaviy ta'lim muassasalarida o'qituvchi tayyor bilim va ko'nikmalarining tarjimoni, talaba esa ko'p hollarda passiv tomon rolini o'ynasa, kredit-modul tizimida o'qituvchi talabani bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning tashkilotchisi hisoblanadi[2].

Biroq, bugungi kunda amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qitishni tashkil etishning kredit-modul tizimiga o'tish jarayoni sustlashmoqda. Olimlarning fikriga ko'ra, bu sekinlashuvning sabablaridan biri, kreditga o'tish bilan birga, talabani o'zi o'z-o'zini ta'lim faoliyatida shakllantirish uchun yetarli ko'nikmalarga ega emas.

Bizga ma'limki, o'qitishni tashkil etishning modul tizimi, umumiy o'qitish vaqtining uchdan ikki qismi o'qituvchi rahbarligida yoki usiz talabani mustaqil ishiga ajratiladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimi doirasida, birinchi navbatda, talaba o'z-o'zini ta'lim faoliyatida ko'nikmalarini shakllantirish muammosini hal qilish kerak bo'ladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy o'quv yurtlari talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish va samaradorligini oshirishning bugungi kundagi muammolari doimiy e'tibor va yuqori sifatli yechimlarni talab qiladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni shu nuqtai nazardan tahlil qilish XX-asr o'rtalarida o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi masalalari bo'yicha faol tadqiqot boshlanganini ko'rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bir guruh olimlar uzoq vaqtdan beri o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatining ko'p jihatlarini bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. O'z-o'zini tarbiyalash muammolari maktab pedagogikasi sohasida A.K.Gromtseva, N.D.Ivanova, B.F.Rayskiy, oliy ta'lim sohasida T.V.Voronova, G.N.Serikov, N.S.Yasnov tomonidan o'rganib chiqilgan. A.Ya.Ayzenberg, Y.P.Dubenskiy, M.N.Skatkin, E.A.Shchuklina, N.V.Chekaleva tomonidan hozirgi kungacha o'z-o'zini tarbiyalash nazariyasi va amaliyotining eng muhim masalalari xususan, uning tarixiy va ijtimoiy jihatlarini ko'rib chiqilgan[4].

O'z-o'zini tarbiyalashning mohiyati, xususiyatlari va vazifalari, uning kasbiy faoliyatdagi o'rni N.V.Kuzmina, Yu.N.Kulyutkin, I.L.Naumchenko tomonidan aniqlangan bo'lsa, muammoli ta'limning psixologik jihatlarini va o'quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish masalalari G.S.Suxobskaya tomonidan o'rganilgan. Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham faol yoritilgan: uzoq muddatli ta'lim tizimida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini izchil singdirish shakllari, usullari, vositalari Taberer, Sp.Moog, M.Klark asarlarida, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ishlanmalari, DJ. Xokridj (Buyuk Britaniya), K.Chedvik, D.Finn (AQSh), K.Bryusling (Shvetsiya), T.Sikamo (Yaponiya) tadqiqotlarida yoritib berilgan.

Rus tadqiqotchisi A.M.Mityaevning tadqiqotida ko'rsatilganidek, bakalavr talabalariga ta'lim va tadqiqot kompetentsiyasini o'rgatib bo'lmaydi, u faqat ma'lum bir fan sohasida turli xil hatti-harakatlar modellarini topish va sinab ko'rish, ulardan o'z shaxsiyatiga eng mos keladigan uslubi, intilishlari, estetik didi, axloqiy qadriyatlarini tanlash orqali ularni barkamol qilib tarbiyalash mumkin[1].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Oliy kasbiy ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartiga muvofiq talabalarining mustaqil ishi o'quv jarayonining majburiy tarkibiy qismi bo'lib, u o'quv faoliyatining turli shakllarida amalga oshiriladi. Mustaqil ish maqsadli bo'lishi va uni amalga oshirish davomida talabani qattiq ishlashga undashi kerak. Dastlab o'quvchilarda mustaqil ishlashning eng oddiy ko'nikmalari shakllantirilishi kerak. Shu bilan birga, bajarilishi bir xil qolipga muvofiq harakatlarga ruxsat bermaydigan vazifalar tanlanadi. Mustaqil ishlarni tashkil etishda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun talabalarining vaqtini hisobga olish kerak. Mustaqil ish uchun topshiriqlar talabalarda qiziqish uyg'otishi va mustaqil ish

tizimli ravishda ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak. Talabalarning har qanday turdagi mustaqil ishlarni bajarishida yetakchi rol o'qituvchiga tegishli bo'lishi bu jarayonning kulminatsion nuqtasiga aylanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Didaktik tamoyillarni amalga oshirish talabalarning mustaqil faoliyat darajasiga mos kelishi kerak. Amaliyotchi olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarning ta'lim imkoniyatlariga mos keladigan mustaqil faoliyatining to'rtta darajasini shartli ravishda aniqlash imkonini beradi: 1) berilgan andoza bo'yicha harakatlarni nusxalash; 2) o'rganilayotgan ob'ektning turli xil xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'paytirish bo'yicha reproduktiv faoliyat; 3) ma'lum namuna chegarasidan tashqariga chiqadigan muammolarni hal qilish uchun olingan bilimlarni mustaqil qo'llash bo'yicha samarali faoliyat; 4) mustaqil faoliyat, ya'ni butunlay yangi vaziyatlarda muammolarni hal qilishda talaba o'z bilimlaridan foydalanishi to'g'risida.

Talabalarning mustaqil faoliyatining taqdim etilgan darajalariga ko'ra, mustaqil ishning to'rt turini ajratish mumkin: 1) namuna asosida mustaqil ishni takrorlash; 2) rekonstruktiv-o'zgaruvchan; 3) evristik; 4) ijodiy.

Model-namuna asosida mustaqil ishni takrorlash muayyan vaziyatlar- ko'nikmalarni shakllantirish va ularni kuchli mustahkamlashda harakat usullarini yodlash uchun zarurdir.

Rekonstruktiv-variativ tipdagi ishlar o'qituvchi tomonidan ilgari olingan bilimlar va umumiy g'oya asosida topshiriqning berilgan shartlariga bog'liq holda muammolarni hal qilishning aniq usullarini mustaqil ravishda topishga imkon beradi.

Evristik ish ma'lum namunadan tashqarida javob izlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijodiy ishlar o'quvchilarning mustaqil faoliyati tizimining tojidir. Bunda amaliy tajriba, qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishingiz mumkin. Qattiq tartibga solinadigan sinf faoliyatidan farqli o'laroq, Talaba mustaqil ishi belgilangan cheklovlarni hisobga olgan holda ushbu faoliyatni amalga oshirish usullarini tanlashda nisbatan erkinlikni ta'minlaydi. B.G.Novokreshchin o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, har qanday aniq faoliyatda mustaqil bilim va ko'nikmalarni egallash asosiy kasbiy fazilatlarini shakllantiradi va talabalarning umumiy salohiyatini "shakllantirishga" yordam beradi, bu universitet bitiruvchilarining mehnat sharoitlari va jamoaga moslashishi, martaba o'sishi va yuqori professionallikka ega bo'lishda muhim rol o'ynaydi[2].

Ma'lum bir ta'lim paradigmasidan boshqa ta'lim paradigmasiga bunday o'tish mustaqil ish nafaqat o'quv jarayonining bir shakli bo'lib qolmasdan, balki uning asosi, kasbiy mustaqillik, tayyorgarlikni shakllantirish usuli bo'lishi kerakligini nazarda tutadi. Buning uchun bilimlarni tez yangilash sharoitida o'z-o'zini tarbiyalash va uzluksiz o'rganishga alohida ustunlik beriladi.

Boshqacha qilib aytganda, biz oliy ta'limda inqilobiy o'zgarishlar ostonasida turibmiz va uning asosiy elementlaridan biri o'quvchi-talabaning o'zi mustaqil ishini faollashtirishni bilishidir. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni tashkilotchilarining asosiy vazifasi - o'quv soatlarida o'quv ishlarining to'g'ri taqsimlanishini belgilash hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishi tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud, ammo mohiyatan, ular talabalarning mustaqil ishi rejalashtirilganligi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni, o'qituvchining uslubiy-ilmiy rahbarligi va nazorati ostida o'quv jarayoni doirasida amalga oshiriladigan individual yoki jamoaviy o'quv va ilmiy ishlar tushuniladi. Mustaqil ish mohiyatan o'quv faoliyatining oliy shakli- o'z-o'zini tarbiyalash shakli sifatida qaraladi. Shu bilan birga, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakllar va usullari, shuningdek, natijalarni kuzatish tizimi pedagogik nazariyada ta'limni modernizatsiyalash sharoitida to'liq o'rganilmagan. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda talabalarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish vazifasi qo'yiladi, bu mustaqil ishlarni tashkil etishga yondashuvni o'zgartirishni talab qiladi. Mustaqil ishning samarasini faqat ta'lim jarayoni barcha bosqichlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida tashkil etilgan va amalga oshirilgan taqdiridagina olish mumkin[4].

Talabalarning ijodiy mustaqilligi kasbiy kompetensiyaning asosidir va bu ijodiy mustaqillik talabalarning mustaqil ishni bajarish jarayonida shakllanib boradi. Talabalarning faol mustaqil ishi faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo'lganda o'z samarasini berishi mumkin. Ma'lumki, motivatsiya - bu shaxsni ma'lum bir faoliyat doirasidagi har qanday harakatni amalga oshirishga undaydigan omillar majmuidir.

Motivatsiya harakatga nisbatan uchta tartibga solish funksiyasini bajaradi:

- Rag'batlantiruvchi, ya'ni shaxsning harakatga kirishishi uchun vosita impulsi yoki motivini berish.
- Ma'no yasovchi, ya'ni faoliyatga chuqur urg'u berish ma'nosi,
- Tashkil etish, ya'ni maqsadni belgilashga asoslangan va ongli holda motivlar-maqsadlarga aylanadi.

Kognitiv mustaqillik asosida aynan shu motivatsiyaning shakllanishi ta'limning mohiyatiga aylanishi kerak. Kognitiv faoliyat, ya'ni, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyati ba'zi talabalar uchun genetik xususiyatga ega bo'lsa, boshqalarda esa bu fazilatlar shakllanishi kerak. O'quv jarayonini shunday tashkil etish orqali "talabalarga qanday o'rganishni o'rgatish" maqsad qilinadi. Ya'ni, har bir o'qituvchining va umuman ta'lim jarayonining asosiy vazifasi o'quvchi-talabani o'zining intellektual, psixologik, ijodiy va motivatsion resurslaridan mustaqil foydalanishga o'rgatish, uni faktik materialdan bexabarlikda ayblamaslikdir[6].

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar bo'lishi kerak. Ob'ektiv shartlarga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, moddiy-texnika ta'minoti, bu zaruriy sinflar fondi, jumladan, ixtisoslashtirilgan o'quv xonalari va o'quv zallari, multimedia uskunalar bilan jihozlangan o'quv xonalarining yuqori darajadagi mavjudligini nazarda tutadi.

Ikkinchidan, o'quv-uslubiy va axborot ta'minoti, shu jumladan kerakli hajmdagi o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualar, elektron tashuvchilardagi o'quv materiallari, topshiriqlarning katta to'plami va ularni individual mustaqil ish rejimida amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, chet tilidagi davriy nashrlarning mavjudligi.

Bundan tashqari, o'quv materiali o'zining tuzilishi va uslubiy tuzilishida yaxlit ta'lim tizimining bir qismiga aylanishi, bilimlarni egallashning faol usullariga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ommaviy ta'limdan individual ta'limga o'tishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunda albatta shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Bu yerda yetakchi xorijiy universitetlar tajribasidan foydalanish ham foydalidir. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishning roli an'anaviy tarzda yuqori bo'lib, shuningdek, o'quv jarayoniga qo'shimcha sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yuqori sifatli darsliklarni o'z ichiga oladi. Agar bunday darsliklar ham professionalikka yo'naltirilgan bo'lsa, bu o'z-o'zidan kuchli rag'batlantiruvchi omilni yaratadi, masalan, Kembrij biznes ingliz tilidagi uch darajali o'quv-uslubiy majmua (Guy Brook-Hard-Business Benchmark, Cambridge University Press, 2007), MGIMO xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakultetida kichik kursdan to yuqori kursgacha o'quv materialiga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan[5].

Uchinchidan, yuqori malakali o'qituvchilar mavjudligida ifodalangan kadrlar darajasi. Mustaqil ishni tashkil etishning sub'ektiv shartlari ta'lim jarayoni sub'ektlariga va birinchi navbatda, ularning islohotga va o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligiga bog'liq.

Xulosa. Shunday qilib, o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish o'zaro bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni – o'rganish qobiliyatini rivojlantiradigan, talabada o'z-o'zini rivojlantirish, olingan bilimlarni ijodiy qo'llash qobiliyatini shakllantirish, zamonaviy dunyoda kasbiy faoliyatga moslashish usullarini shakllantirishi kerak.

Shuni alogida ta'kidlab o'tish joiz-ki, kredit-modulli ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishi o'qitishni tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, individual va jamoaviy ta'lim faoliyati turlarini o'z ichiga oladi va auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, talabalarning individual xususiyatlari va kognitiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchi rahbarligida, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni yana bir bor ta'kidlash kerakki, mustaqil ish o'quv jarayonining asosiga, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish omiliga aylanishi kerak. Bu talabalar tomonidan bilimlarni egallash, rivojlantirishning faol usullariga e'tiborni qaratish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uzluksiz ta'limdan individuallashtirilgan ta'limga o'tish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu faqat mustaqil ish soatlarini ko'paytirish haqida emas, balki talabalarning mustaqil ishlarining rolini kuchaytirish, ta'limni tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqishni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Morozova N. V. Innovatsionnie sredstva organizatsii samostoyatelnoy raboti studentov / N. V. Morozova // Molodoy ucheniy. — 2011. — № 2. T.2. — S. 102–104.

2. B. N. Guzanov, N. V. Morozova, Ko'p darajali ta'lim modelini tashkil ettirish bo'yicha universitet talabalarini mustaqil ishini tashkil ettirish, Monografiya, Ekaterinburg, 2014.

3. Pichkova L.S. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish kasbiy ahamiyatga molik kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida / L.S. Pichkova // Globallashuv sharoitida Rossiya iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari, Konferentsiya materiallari. MGIMO (U) Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi. - M.: MGIMO-Universiteti, 2008.

4. Морозова И.М., Методика организации работы с интегрированным междисциплинарным модулем «Методы обучения», Успехи современной науки и образования, <https://www.elibrary.ru/contents.asp?id=34336490>, ISSN: 2412-9631, eISSN: 2588-0063, 2016

5. Дзидзоева С.М., Педагогическая практика как условие развития исследовательских компетенций студентов, Автореферат, Ростов-на-Дону, 2008. – 24 с.

6. Бахор Т.А., Зырянова О.Н., Лобанова О.Б., Осяк С.А., Яковлева Е.Н., Коршунова В.В., Деятельностный подход в обучении будущих учителей начальных классов, Современные проблемы науки и образования, Учредители: ООО "Издательский дом "Академия естествознания" eISSN: 2070-7428, 2014. – С. 214-218.

Muallif:

Xasanova Gulnaza Raxatjanovna - Urganch davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti, Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani, K.Behzod ko'chasi, 9-uy.

E-mail: gulnoza.khasanova3110@mail.ru, <https://orcid.org/0009-0003-9595-6514>

UDK 224.17

STANDARD FOR MANAGING THE ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION IN FRANCE

FRANSIYADA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARISH STANDARTI

СТАНДАРТ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ВО ФРАНЦИИ

Murodova Aziza Baxtiyorovna

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. 100047. Toshkent, Amir Temur shoh ko'chasi 15-uy.

E-mail:suxrob15155@gmail.ru

Abstract. This article examines the best practices of the preschool education system in foreign countries using the example of France, and also provides recommendations and conclusions based on the information received.

Keywords: Implementation, IQ, visual curriculum, social-emotional learning (SEL) curriculum.

Annatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini xorij davlatlardagi ilg'or tajribalari Fransiya davlati misolida o'rganib, o'rganilgan ma'lumotlardan tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so'zi: Implementatsiya, IQ darajasi, vizual dastur, Ijtimoiy-hissiy ta'lim (SEL) dasturi.

Аннотация. В данной статье рассматривается передовой опыт системы дошкольного образования в зарубежных странах на примере Франции, а также даются рекомендации и выводы на основе полученной информации.

Ключевые слова: Реализация, IQ, визуальная программа, программа социально-эмоционального обучения (SEL).

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimlarini boshqarish, ularni zamonaviy usullarda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish holda, o'sib kelayotgan va kelajagimiz bo'lgan bolalarni inson sifatida kamol topishi, ularni IQ darajasini ko'tarish va "miya kinoteatiri"ni kengaytish maqsadida yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanib kelmoqda, Yangi O'zbekiston bolalari zamonaviy va xalqaro standartlarga javob beradigan "bog'chalar"ga ulg'ayish hamda o'yin faoliyati orqali dunyo bilimlariga ega bo'lishga har qachongidan haqlidir. Davlatimiz rahbari tamonidan maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va xorijiy tajribalarni o'rganish holda xususiy bog'chalarni tashkillashtirish va ularni qo'llab-quvvatlash masadida 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017-yil 9-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-mh sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish, shu asosda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini dunyo standartiga ko'tarishni belgilab berdilar[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707 -sonli, «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 9-sentabrda PQ-3261-son qarorlari, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida» gi 2017-yil 30-sentabrda PF-5198- sonli Farmoyishi shular jumlasidandir. Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini Fransiya davlati misolida ko'rib chiqamiz.

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy, xalqaro standartlariga mos keladigan darajada ko'tarish uchun, Fransiya davlati maktabgacha ta'lim tizimini o'rganish orqali tavsiyalar berish bugun har doimgidan ko'ra zarur.

Mavzu bo'yicha ilmiy tahlil: Maktabgacha ta'lim tizimini o'rganish maqsadida xalqaro tajribalar va Fransiya davlatining maktabgacha ta'lim tizimini o'rganish F.Norboyev "Maktabgacha ta'limda uch madaniyat tadqiqi: xitoy tajribasi"[2], O.Jamoldinova, "Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv"[3], SH.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika"[4], V.A.Musulmonova, M.A.Fayziyev "Maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish"[5] va boshqalar o'rganib kelmoqalar. Mazkur maqolada yuqoridagi izlanuvchi olimlardan farqli o'laroq Fransiya davlati maktabgacha ta'lim tizimi o'rganilmoqda.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Xorijiy tajribalarni o'rganishda aynan Fransiya davlati maktabgacha ta'lim tizimi yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Fransiya davlatidagi maktabgacha ta'lim tizimini o'rganib, bolalarning rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidlash, u yerdagi ta'lim nima uchun va qanday ekanligini tushuntirish orqali maktabgacha ta'limni qo'llab-quvvatlash edi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

Tadqiqotning obyekti sifatida. Fransiya davlatining maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish standartlarini o'rganish orqali implementatsiya[6] qilish.

Tadqiqotning empirik manbasi. Fransiya davlatining maktabgacha ta'lim tizimi boshqarish standartlarini o'rganish va ma'nba izlash orqali ma'lumot to'landi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz muhimdir (Sh.M. Mirziyoyev). Fransiya ahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida etakchi o'rnlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Dastlab Fransiya «Ta'lim haqida»gi Qonun 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda unga bir qator o'zgarishlar kiritildi. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqidagi qonun»i 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or texnologiyalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiya ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiya 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan[7]. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya bolalar bog'chasini boshqarish o'tta yumshoqlik bilan boshqariladi, Fransiyaliklarni ta'biricha bolalar bog'chalari xuddi "mushuklar to'dasini" boshqargandek. Ular har bir bolani noyob qobiliyatlarini, turli xil ehtiyojlarni va uzluksiz energiya va rivojlanishdagi o'zgarishlarni hisobga olib bola shaxsini tarbiyalashadi. Fransiya tarbiyachilarini bolalar sinflarini samarali boshqarish "nafaqat sovuqqonlikni saqlash, balki ularni o'rganish uchun qulay muhit yaratib berish uchun ham muhimdir" deb aytishadi. Mutaxassislar tomonidan berilgan maslahatlar, ekspertlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarish strategiyalari va ularni sinfin xonalarini o'zgartira oladigan dalillarga asoslangan amaliyotlar mavjud bo'lib ular mutaxassis maslahatlariga doimo amal qiladilar. (psixolog tomonidan guruhning psixologik portretini hisobga olib o'zgartirish briladi)

Fransiya maktabgacha ta'limida bolalar guruhini boshqarishga ko'p e'tibor berib, bolalik davri rivojlanish natijalariga ta'sir qilishini inobatga olgan holda bolalar o'zlarini kashf qilishlari mumkin bo'lgan muhitni yaratadi. Ertalabki yig'ilishlar yoki suhbat kabi kundalik ishlar bolalar bilan ishlashni silliq harakatlanishini ta'minlaydi.

Ta'lim natijalarini yaxshilash va o'rganishni rag'batlantirish maqsadida tartib-intizom yuksaka qadirlanadi va bu esa o'rganishga yordam beradi. Yaxshi boshqariladigan guruhlar tashvishni kamaytiradi, faollikni oshiradi va o'quv vazifalariga sarflanadigan vaqtni oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, guruhlarini boshqarish samarali o'rganishning asosidir.

Bolalar bog'chalarida ularning kelajakdagi akademik muvaffaqiyat uchun zamin yaratish, ulg'ayganda muvaffaqiyatli inson bo'lish bolalikdagi olingan bilim va ko'nikmalarga bog'liqlini o'qtirib kelinadi. Bolalar guruhini samarali boshqarish tarbiyalanuvchilarga o'zini-o'zi boshqarish, diqqatni jamlash va ijtimoiy o'zaro munosabatlar kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bular kelajakdagi akademik muvaffaqiyatning asosi deb hisoblanadi.

Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni «Onalar maktabi» deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ular mustaqil holda ham, maktablarning boshlang'ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. «Onalar maktablari» bazasida tashkil etilgan.

Fransiya maktabgacha tashkiloti tarbiyachilari uchun 11 ta isbotlangan bolalar guruhini boshqarish bo'yicha maslahatlarni berib keladi[8]:

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sinfni boshqarishning ba'zi strategiyalarini ko'rib chiqaylik, ular nafaqat tasdiqlangan, balki bolalar bog'chasiga osongina moslashtiriladi. Bu usullar ko'p yillik tadqiqotlar va amaliy sinf tajribasi bilan qo'llab-quvvatlanadi.

1. Kun tartibini o'rnatish. "Struktura maktabgacha ta'lim guruhidagi bolalar eng yaxshi do'stingiz"dir. Bunda, ertalabki salomlashish va tozalash marosimlari kabi kundalik tartiblarni o'rnatish oldindan taxmin qilish hissini beradi.

Garvard universitetida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bashorat qilinadigan tartiblar bolalarga o'zlarini xavfsiz his qilishlariga yordam beradi.

2. Vizual jadvallar. Agar rasm ming so'zdan iborat bo'lsa, vizual dastur sizning maktabgacha yoshdagi bolalaringiz bilan qanday aloqa qilishini tasavvur qiling! Turli vazifalar yoki harakatlarni ifodalash uchun piktogrammalardan foydalanish. Afzalligi? Bolalar o'qishdan oldin ularga ergashishlari va vaqtlarini boshqarishni o'rganishlari mumkin.

3. Ijobiy mustahkamlash. Mustahkamlash san'ati vaqt va mukofotni tanlash bilan bog'liq. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, stikerlar yoki kichik sovg'alar kabi darhol va aniq mukofotlar yosh bolalarga kuchliroq ta'sir qiladi. Taraqqiyotni kuzatish va ruhiy holatni oshirish uchun mukofotlar jadvalini tuzish.

4. Vaqtni boshqarish texnikasi. Bolalar psixologiyasi “Nima uchun kattalar Pomodoro taymer[9] bilan dam olishlari kerak?” Bolalar uchun ushbu usulni qiziqarli taymerlar yordamida yoki o‘tishlarni belgilash uchun qo‘shiqalar kuyilish orqali o‘tkazish mumkin. Bunda ayyorlik bu vaqtni qiziqarli qilishdir. Vaqtni boshqarish bolalarga diqqatni jamlashga va faoliyatini yaxshiroq boshqarishga yordam beradi.

5. Xavfsiz joy yarating. “Xavfli joyda muzokaralar olib borib bo‘lmaydi”. Yumaloq qirralari bo‘lgan mebellarni tanlang, materiallarni bolalar qo‘li yetmaydigan joyda saqlang va ochiq muloqot uchun qulay muhit yarating. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy va hissiy xavfsizlik o‘rganishga sezilarli hissa qo‘shadi.

8. Самиева Ш. Х., Нарзуллаева Ф. Ф. **СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПА ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ** //Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации (Социальный инженер-2021). – 2021. – С. 69-72.
9. Samiyeva S. **Этапы развития педагогического творческого мастерства преподавателей высшей школы** //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

Muallif:

Ruziyeva Shoxida Fatilloeyvna - Buxoro davlat universiteti, sport faoliyati va pedagogika fakulteti, pedagogika kafedrasida 1-bosqich doktoranti.

UDK 372.881.111.1

TEACHING ENGLISH TO CHILDREN OF 6-8 AGES ON THE BASIS OF EXCITING GAMES

(In the example of "I Spy" game)

6-8 YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI QIZIQARLI O'YINLAR ASOSIDA O'QITISH. ("I Spy" o'yini misolida)

ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ 6-8 ЛЕТНЕГО ВОЗРАСТА АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ УВЛЕКАТЕЛЬНЫХ ИГР (На примере игры «I Spy»)

Akhmatkulova Makhfuza Shukhrat qizi¹, Yakhyoeva Gulkhumor Shukhrat qizi²

¹Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

²Guliston davlat pedagogika instituti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: turdibekovamakhfuza@gmail.com; yakhyoeva15@gmail.com

Abstract. The purpose of this paper is to determine the effect of the game "I Spy" on the enhancement of students' vocabulary. The main objective was to determine to what extent the game "I Spy" contributes to the enhancement of students' vocabulary in primary school. The study used quasi-experimental design, nonequivalent control group design and other teaching methods. In the experimental class, students were taught vocabulary such as fruits, animals and objects by playing the game "I Spy". After the study was conducted, pre-test and post-test were conducted to determine the result in the experimental class. The data were analyzed using descriptive statistics (frequency, mean score and standard deviation) and inferential statistics (independent sample t-test). The results showed that the game "I Spy" is effective in improving students' vocabulary. From the results of the study and its discussion, the researcher suggested that the game "I Spy" is

recommended for teaching students' vocabulary. And the researcher concluded that the game I used was an effective and interesting way to teach vocabulary.

Key words: vocabulary, game "I Spy", experimental class, control class, vocabulary, pretest, posttest, modern methods, quick response.

Annotatsiya. Ushbu maqola "I Spy" o'yini ning o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Asosiy maqsad "I Spy" o'yini o'rta maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishga qay darajada hissa qo'shishini aniqlash edi. Tadqiqotda quasi Experimental Design, "Non-equivalent Control Group Design kabi o'qitish usullaridan foydalanildi. Eksperimental sinfda o'quvchilarga mevalar, hayvonlar va narsalar kabi lug'atlar "I Spy" o'yini orqali o'rgatildi. Tadqiqot amalga oshirgandan so'ng, eksperimental sinfda natijani aniqlash uchun pre-test va post-testlar o'tkazildi. Ma'lumotlar tavsiflovchi statistika (frequency, mean score, and standard deviation) va mantiqiy statistika (independent sample t-test) yordamida tahlil qilindi. Natijalar "I Spy" o'yini o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari va uning muhokamasiga asoslanib, tadqiqotchi "I Spy" o'yini talabalarining so'z boyligini o'rgatish uchun tavsiya etilishini taklif qildi. Va tadqiqotchi ishlatilgan "I Spy" o'yini so'z boyligini o'rgatishning samarali va qiziqarli usuli degan xulosaga keldi.

Kalit so'zlar: lug'at boyligi, I Spy o'yini, eksperimental sinf, nazorat sinfi, so'z boyligi, pre-test, post-test, zamonaviy metodlar, tezkor javob.

Аннотация. Целью данной статьи является определение влияния игры «I Spy» на увеличение словарного запаса учащихся. Основная цель заключалась в том, чтобы определить, в какой степени игра «I Spy» способствует увеличению словарного запаса учащихся младших классов. В исследовании использовались квазиэкспериментальный дизайн, дизайн неэквивалентной контрольной группы и другие методы обучения. В экспериментальном классе учащихся обучали лексике, такой как фрукты, животные и предметы, с помощью игры «I Spy». После проведения исследования были проведены предварительное и послетестовое тестирование для определения результата в экспериментальном классе. Данные анализировались с использованием описательной статистики (частота, средний балл и стандартное отклонение) и логической статистики (t-критерий независимой выборки). Результаты показали, что игра «I Spy» эффективна для улучшения словарного запаса учащихся. По результатам исследования и его обсуждения исследователь предположил, что игра «I Spy» рекомендована для обучения лексике учащихся. И исследователь пришел к выводу, что игра, которую я использовал, была эффективным и интересным способом обучения словарному запасу.

Ключевые слова: словарный запас, игра «I Spy», экспериментальный класс, контрольный класс, словарный запас, предтест, посттест, современные методы, быстрое реагирование.

Kirish: Hozirgi kunda ingliz tilini xalqaro til sifatida o'rganish uchun juda muhimdir. Tilning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu so'z boyligi hisoblanadi. Lug'at bu to'rta ko'nikmaning barchasini yaxshiroq tushunish uchun zarurdir. Shunday qilib, ingliz tilini chuqur o'rganishdan oldin talabalar so'z boyligini oshirishlari kerak. O'yin-bu ishni hal qilish uchun mos bo'lgan ko'plab usullardan biri. O'quv o'yini dan foydalanish o'quvchilarni tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni xursand qilish, ularning tashvishlarini kamaytirish va o'quv jarayonida o'quvchilarning ruhini mustahkamlash uchun foydalidir. O'yinlardan biri, ya'ni "I Spy" o'yini boshqa mamlakatlarda, ayniqsa ingliz tilida so'zlashuvchilar orasida juda mashhur. Bu o'yin ingliz tilini o'rganishning birinchi bosqichida bolalarni ba'zi so'z boyligini bilan tanishtirish uchun ishlatiladi. "I Spy" o'yini talabalarga so'z boyligini o'rganishda katta zavq bag'ishlaydi. Qiziqarli bo'lishdan tashqari, u so'z boyligini o'rganishda ham samarali bo'ladi, chunki "ayg'oqchi ko'z" o'yini da biz alohida so'zlarni o'rganishdan foydalanamiz. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, ushbu maqola o'quvchilarning so'z boyligini oshirish uchun "I Spy" o'yini ni qo'llashga qaratilgan.

Tadqiqotning obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida erta maktab yoshidagi bolalarga "I Spy" o'yini dan foydalanish jarayoni olindi. Shuningdek, tadqiqot davomida Quick answers, Creative Problem Solving, Brainstorming, Cluster kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

So'z boyligini aniqlash ingliz tilini o'rgatishda lug'at asosiy muammolardan biri bo'lib tuyuladi, chunki tildan foydalanish g'oyalar, his-tuyg'ular, shaxsiyat va istaklarni yetkazish uchun asosiy talabdir. Biroq, so'z va so'z boyligini farqlash kerak. To'g'ri, lug'at so'zning o'zi, ammo ular ma'nolari jihatidan farq qiladi. Ba'zi ekspertlar lug'atning asosiy ta'rifini odam tan oladigan yoki tushunadigan va og'zaki nutq, o'qish, yozish yoki tinglashda aytishi mumkin bo'lgan til so'zlari soni sifatida beradi. Masalan, "Lug'at - bu tilning kontekstli va funktsional so'zlari bo'lib, ular shu qadar sinchkovlik bilan o'rganiladiki, ularni tushunish, so'zlashuv nutqining bir qismiga aylanadi va o'qish va yozishda so'z boyligini o'zgartiradi. Bu, shuningdek, so'z boshqalar bilan muloqot qilish uchun odamning o'zi tomonidan aytilmagan bo'lsa ham, eshitilgan yoki ko'rilganligini anglatadi." (Good in Muliati, 2011)

Lugʻat koʻpincha soʻzlar soni bilan bogʻliq boʻlib tuyuladi va odamning soʻz boyligi koʻpincha u biladigan soʻzlar soni bilan belgilanadi. Aslida, soʻz boyligini bilish shunchaki soʻzni bilish emas va soʻzning oʻziga xos murakkablikka ega. (Read, 2000) Bu soʻzni nazariy jihatdan ham, turli xil amaliy maqsadlarda ham aniqlash oson tushuncha emasligini anglatadi. U soʻzni aniqlashda, ayniqsa soʻz boyligini baholashda yozilishi kerak boʻlgan baʼzi asosiy fikrlar mavjudligini nazarda tutgan. Ovoz chiqarib oʻqilgan fikrlardan biri leksemalar va matndagi har qanday soʻzlarga taalluqli turlar oʻrtasidagi farq edi. Leksemalar soni soʻz shakllarining umumiy soniga toʻgʻri keladi, yaʼni matnda bir necha marta uchraydigan individual soʻzlar ularning har bir ishlatilishida hisobga olinadi. Boshqa tomondan, turlar soni- bu turli xil soʻz shakllarining umumiy soni, shuning uchun koʻp marta takrorlanadigan soʻz faqat bir marta hisoblanadi. Lugʻat-bu maʼlum bir til tomonidan qayta ishlanadigan soʻzlarning boyligi. Kimdir egalik qiladigan soʻzlar. Lugʻat-bu shaxs yoki odamlar guruhi tomonidan ishlatiladigan yoki tushuniladigan barcha til va soʻzlar. Umuman olganda, lugʻat-bu soʻzlarning maʼnosini bilish, uni ogʻzaki va yozma nutqda ishlatishga imkon beradi (Elfrid X. Xibert va Maykl L. Kamil, 2005).

Lugʻat-bu tilni oʻrganish jarayonida haqiqatan ham zarur boʻlgan til tarkibiy qismlaridan biridir. Soʻz boyligini oʻrgatish boʻyicha bir nechta tadqiqotlar oʻtkazilgan. Tadqiqotlar davomida turli xil metodlar, materiallar va oʻyinlardan foydalanilgan. Masalan metodlardan: Quick answers, Creative Problem Solving, Brainstorming, Cluster kabilar. Oʻyinlardan esa: Categories, Coffeepot, Back to board, Pictionary, Word Snap, Word Race kabilar. Ana shunday samarali oʻyinlardan biri "I Spy" oʻyini dir. "I Spy" oʻyini boshqa mamlakatlarda, ayniqsa ingliz tilida soʻzlashuvchilar orasida juda mashhur. "I Spy" ingliz tilini oʻrganishning birinchi bosqichida bolalarni baʼzi soʻz boyliklari bilan tanishtirish uchun ishlatiladi. Tadqiqotchi bu oʻyin orqali oʻquvchilarning lugʻat, soʻz boyligini oʻzlashtirish, oʻyin, "I Spy" oʻyini va soʻz boyligini oshirish kabi beshta komponentni muhokama qildi. Ushbu tadqiqot mavzusini tushunishni osonlashtirish uchun atamalarning operativ taʼrifi taqdim etdi.

1. Lugʻat

Ushbu tadqiqotda ishlatilgan lugʻatlar kundalik lugʻat uchun asosiy boʻlib, sinfda, maktabda, bozorda va boshqa joylarda ishlatilgan barcha nomlar edi.

2. Soʻz boyligini oʻzlashtirish

Soʻz boyligini oʻquvchilarga tegishli boʻlgan soʻzlar soni, shu jumladan soʻzni qanday talaffuz qilishlari va uning maʼnosini bilishlari deb taʼriflash mumkin.

3. "I Spy" oʻyini

Tadqiqot davomida "I Spy" oʻyini oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishi mumkin degan umidda ishlatilgan. Tadqiqotda qoʻllanilgan "I Spy" oʻyini soʻz boyligini oʻrganishga mos keladigan yangi modelga muvofiq oʻzgartirildi. Bu oʻyinni qoʻllash jarayonida oʻqituvchi shunday deydi: "men kichkina koʻzim bilan nimadir /r/da boshlanganini sezaman" (I Spy with my little eye something beginning with "r"), Oʻquvchilar "R" harfi bilan boshlanadigan soʻzni topish uchun raqobatlashdilar va soʻz atrofidagi narsalar yoki rasmlarga ishora qilib, baland ovozda aytishga harakat qilishdi.


Aksariyat ota-onalar 4-5 yoshli bolalar uchun "I Spy" oʻyini dan foydalanib, ularga soʻz tovushini oʻrgatishadi. Oʻqituvchi yoki ota-ona shunday deydi: "men kichkina koʻzim bilan barchangizga nima kiyganingizni kuzataman, bu shunday boshlanadi: /sh/" ("I Spy with my little eye something all of you are wearing that begins like this: /sh/"). Bolalar bir-biriga qarab kuzatishadi: "poyabzal!" (Shoes). Ha. Poyafzal /Sh/ bilan boshlanadi. Keyingi: "men kichkina koʻzim bilan devorda /m/ harfi bilan boshlanadigan narsani koʻraman "I Spy with my little eye something on the wall that begins like this: /m/. Bolalar "oyna" (mirror) va "xarita" (map)ni taxmin qilishadi.

"I Spy" oʻyini oʻquvchilarga soʻz boyligini oʻrganishda katta zavq bagʻishlaydi. Qiziqarli boʻlishidan tashqari, u soʻz boyligini oʻrganishda ham juda samaralidir, chunki "I Spy" oʻyinida alohida soʻzlarni oʻrganishdan foydalaniladi. Yuqoridagi sabablarga koʻra, ushbu tadqiqot oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish uchun "I Spy" oʻyini qoʻllashga qaratilgan.

"I Spy" oʻyini ni soʻz boyligini oʻrgatishda, ayniqsa soʻz boyligini hech qachon oʻrganmagan, lekin uni oʻrganmoqchi boʻlganlar uchun qoʻllashda juda muhimdir. Bunday qiziqarli oʻyinlar orqali oʻqitish tarbiyachi hamda boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga bolalarni qiziqishini yuqori darajagacha koʻtarish va ularning eʼtiborini va fanga qiziqishini ancha muddatgacha ushlab turadi. Shu asosida bolalarning tilga boʻlgan qiziqishlari ortadi, lugʻat boyligi oshishi bilan bir qatorda gapirish mahorati ham oʻzlari bilmagan holda oshib boradi.

Erta maktab yoshidan ularni har xil zerikarli va mukammal topshiriqlarga jalb qilib qiynagandan koʻra, tuli xil shu kabi oʻyinlar bilan ularni bilim saviyasini oshirib borish samaraliroqdir. Ular yozish, oʻqish kabi texnikalarni bilmasdan turib, turli xildagi soʻzlarni ongsiz ravishda yodlab olishadi. Misol uchun: oʻqituvchi sinfga kirib "Kiyimlar (clothes) mavzusini oʻqitmoqchi. U "I Spy" oʻyini dan samarali foydalanishi mumkin. Bunda u birinchi navbatda barcha kiyimga oid vocabulary bilan oʻquvchilarni tanishtirib chiqadi va ularning nomini doʻskaga tushiradi. Shundan soʻng u "men kichkina koʻzim bilan barchangizga nima kiyganingizni kuzataman, bu shunday boshlanadi: /t/" deb aytadi. Shunda barcha oʻquvchilar birinchi navbatda brainstorm qilishadi, yaʼni "t" harfi bilan boshlanadigan kiyim nomlarini birin ketin aytib borishadi. Bu paytda ular bir-birini kuzatishadi. Yaʼni sinfdoshlarining kiyimlarini koʻzdan kechirishadi. Bu paytda esa ular sinfdoshlarida koʻrayotgan barcha kiyim nomlarini birinchi ona tilida va shu zahotiyiq ingliz tilida ovoz chiqarmay oʻylay boshlashadi. Agarda kiyim nomi "t" harfidan boshlanadiga boʻlsa, ular bu soʻzni ustozlariga aytishadi. Masalan: tie,

trousers kabi. Agar o'qituvchi bu javoblarni inkor etsa ular izlanishda davom etadi va boshqa variantlarni kiritadi: "Trainers". Ustoz javobni tasdiqlaydi. To'g'ri javobni kiritgan bolalar bundan ruhanib o'yinni yanada shiddat va qiziquvchanlik bilan davom ettirishadi. Jarayon davomida e'tiborsiz o'tirgan o'quvchi deyarli bo'lmaydi. Dars biroq shovqinli kechadi lekin undan yuz foizlik natija olish mumkin.



Demak, o'quvchilar so'z boyligini sinfda "I Spy" o'yinidan foydalanish orqali ko'proq darajada oshirishadi. Sinov – eksperimental sinf o'quvchilarining umumiy ballari nazorat qilinadigan sinf ballaridan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi. Demak, o'quvchilarning tajriba sinfidagi pretestdagi ballari posttestga qaraganda ancha past. O'yinlar o'tkazilgandan so'ng, ba'zi o'quvchilar ko'proq qiziqish va o'rganishga ishonch hosil qilishdi. So'nggi uchrashuvda o'quvchilarning aksariyati yaxshilanishni ko'rsatdilar. Ularga savol berilganda lug'atni talaffuz qila olishdi. Hatto ular savolga to'g'ri javob berish uchun bir-birlari bilan raqobatlashdilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'qitishni zaruriyat sifatida emas, balki qiziqarli o'yinlar hamda zamonaviy metodlar yordamida olib borilishi, ularning kelajakda egallaydigan bilim va ko'nikmalari uchun poydevor hisoblanadi. Shunday ekan, o'quvchilarga uy sharoitida ham tilni o'rganishi uchun muhit yaratilishi kerak. Misol uchun ingliz tili alifbosini ularning xonasiga ilib qo'yish, turli xildagi meva va sabzavot suratlari tushirilgan kartochkalar olib berish kabilar. Bir so'z bilan aytganda, Erta maktab yoshidagi bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhim ekanligini tabiiy sharoitlar bilan tushuntirib borish zarur. Zero, "Til bilgan – el biladi"!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Toshkent. 2012
2. Turdaliyeva G. N. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" Toshkent. 2020
3. Allen, Virginia French. Teaching Techniques in English as a Second Language: Techniques in Teaching Vocabulary. China: Oxford American English, 1983.
4. Brown, H. D. Principles of English Language Learning and Teaching. New York: Longman. 2000
5. Brown, C. Factors Affecting the Acquisition of Vocabulary: Frequency and saliency of words. In T. Huckin & M. Haynes & J. Coady (Eds.), Second language reading and vocabulary learning. Norwood, N. J.: Ablex. 1993
6. Gifford, N. Breaking traditional ways of teaching: Communicative second language teaching. Utah State University. Logan, Utah. 2016
7. Gozcu, E. & Caganaga, C., K. The importance of using games in EFL classrooms. Cypriot Journal of Educational Science. 2016
8. Gruss, J. Games as a tool for teaching English vocabulary to young learners. Poznan, Poland. 2016
9. Hornby. Advance Learner's Dictionary. New York: Oxford University Press. 1995.

10. Muhammad, A. Alfulaih, W & Elsayed, F. The Impact of Using Games on Developing Saudi Female EFL Students' Speaking Skills. 2018

11. National Association for the Education of Young Children. Young Children Journal: Phonological Awareness is Child's Play, January 2009

Mualliflar:

Axmatqulova Mahfuza Shuhrat qizi - Guliston davlat universiteti. 13.00.02 - Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi tayanch doktoranti.

Yaxyoyeva Gulxumor Shuhrat qizi - Guliston davlat pedagogika instituti. O'zbek tili va tillarni o'qitish kafedrasida o'qituvchisi.

УДК 372.8

CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR LESSON ANALYSIS AND ASSESSMENT OF ITS QUALITY

ДАРС ТАҲЛИЛИ ВА УНИНГ СИФАТИНИ БАҲОЛАШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА УРОКА И ОЦЕНКИ ЕГО КАЧЕСТВА

Иманов Бахтиёр Бердиевич

Термиз давлат педагогика институти, 190111. Сурхондарё вилояти, Термиз шаҳри, Ислом Каримов кўчаси, 288-уй.

E-mail: imanovbaxtiyor1957@gmail.com

Abstract. In this article, the analysis of the lesson and its quality is evaluated by what criteria, i.e. measurements, researches on the methodology of their calculation are carried out on the basis of modern requirements, and the organization of quality lessons as a result of high-level inquiries and relevant meaningful answers in the course of the lesson.

Key words: Lesson, indicators, topic, analysis, methods, professional skills, quality, didactic, scientific rule, activity.

Аннотация. В данной статье анализ урока и его качество оцениваются по каким критериям, т.е. измерениям, исследованиям по методике их расчета проводятся на основе современных требований, а также организации качественных уроков в результате высоких показателей. вопросы уровня и соответствующие содержательные ответы в

Ключевые слова: Урок, показатели, тема, анализ, методы, профессиональные навыки, качество, дидактика, научное правило, деятельность.

Аннотация. Ушбу мақолада дарс таҳлили ва унинг сифати қандай мезонлар яъни ўлчовлар билан баҳоланиши, уларни ҳисоблаш методикаси тўғрисида тадқиқотлар олиб борилишида замонавий талаблар асосида дарсни ўтишда юқори даражадаги сўровлар ва унга яраша мазмунли жавоблар натижасидаги сифатли дарслар ташкил этишди.

Калит сўзлар: Дарс, индикаторлар, мавзу, таҳлил, методлар, касбий кўникма, сифат, дидактик, илмий қоиди, фаолият.

Қириш. Дарс таҳлили ва унинг сифатини баҳолашда таълимнинг қуйидаги методологик масалалар ўрганилади: талабаларнинг дарс машғулотларига умумий тайёргарлиги ва фанга бўлган қизиқишлари; матн, харита, жадвал, асбоб ва усқуналар билан мустақил ишлаш билишидаги кўникма ва малакаси; ўқитувчининг мавзу материалларини қандай даражада билиши; янги мавзунини тушунтириш жараёнида талабаларга бериладиган асосий фикрларни ажратиб олишдаги креативлиги; мавзунини баён қилишда илмийлик ва кўргазмалилик тамойилларига риоя қилиши компетенцияси; дарс мавзусининг мақсади ва режасининг тўғри белгилашгани; дарсда талабалар билан фикр алмашишда ўзаро ҳамкорликка эриша олиш кўникма ва малакаси; талабаларнинг янги мавзуга доир билимларини ўзлаштириштириш даражаларини назорат қила олиш қобилияти; дарс мобайнида вақтдан унумли фойдаланиши ва педагогик муомала маданиятини эгаллаганлик даражаси; дарс индикаторларига кўра таҳлили талабаларга билим бериш, кўникма ва малакаларни шакллантиришда белгиланган мақсадга эришилганлиги; ўқитиш самарадорлигининг сифат жиҳатдан қандай бўлганлиги; дарс жараёни юзасидан ўқитувчининг педагогик фаолиятига ҳулоса чиқариш.

Тадқиқотнинг объекти ва қўлланилган методлар

Дарс индикаторлари тизимли ва мақсадли таҳлил қилинганда, дарсда ўқитувчи томонидан йўл қўйилган хатоларни бартараф этишга доир метод ва воситаларини аниқлаш ва уларни бартараф қилишга доир педагогик шароит яратилади. Тадқиқот мавзусини ёритишда таснифлаш, тавсифлаш, қиёслаш, комплекс ва функционал таҳлил усулларидан фойдаланилган.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Маълумки, ўқитувчиларнинг дарсларни таҳлил қилиши бир-бири билан ўзаро педагогик тажриба алмашинув жараёни ҳам бўлиб, дарс ўтаётган ўқитувчи бор маҳоратини ишга солиб, юқори савияда дарс ўтишга ҳаракат қилса, таҳлил қилувчи ўқитувчи таклиф ва мулоҳазаларининг технологик харитасини ишлаб чиқади [8].

Айниқса бу ўринда шуни алоҳида таъкидлаш ўринлики, таълим муассасаларида дарс таҳлиliga кўпинча яхлит тизим сифатида қаралмасдан, кўпроқ унинг ташқи жиҳатларига эътибор берадилар яъни дарснинг мазмун-моҳияти хусусида юзаки фикр-мулоҳазалар юритилади, ўқитувчининг кўрсатмали куруллардан фойдаланганлиги, дидактик карточкалар билан ишлаши ва ҳоказолар айтилади-ю, аммо улардан қандай мақсад ва вазиятларда фойдаланилгани, қанчалик самара берганлиги, вақт тақсмотига тўғри амал қилинганлиги, талабаларнинг психологик хусусиятларини ҳисобга олган ёки олмаганлиги каби масалалар тўғрисида фикр юритилмайди. Бундан ташқари дарс индикаторлари таҳлилида яна эътиборимиздан четга қолиб бораётган жиддий масалалардан бири, бу ўқитувчиларнинг танқидий фикрлаш компетенцияларини ривожлантиришга эътибор бермаётганликлариди. Маълумки, танқидий фикрлаш компетенцияси ўқитувчининг фаолиятидаги ютуқ ва камчиликларини аниқлашга ва бартараф этишга ёрдам беради. Аксарият ҳолларда ўқитувчилар дарс жараёнида куйидаги хато ва камчиликларга йўл қўйишадилар:

- Дарс мавзусининг мақсади ва вазифалари талабаларга таништирилмайди;
- Дарс жараёнида интерфаол методлардан самарасиз фойдаланилади;
- Дарс жараёнида талабалар фаоллигини таъминлай олмайди;
- Талабаларнинг мустақил ишлашини ташкил эта олмайди;
- Талабаларга бериладиган саволлар муаммоли тарзда тузилмайди.
- Талабалар билимини баҳолашда рейтинг тизимига амал қилинмайди талабаларнинг берилган саволлари тўлдирилмайди, мотивация берилмайди;
- Мавзуни тушунтиришда ўқитувчи нутқи раван, таъсирчан бўлмайди ёки умуман тушунарсиз бўлади;
- Мавзу ишлаб чиқариш амалиёти билан боғлаб тушунтирилмайди;
- Мавзуни тушунтиришда илмий ва амалий нуқтаи назардан эътибор берилмайди;
- Асосий ва қўшимча адабиётлардан фойдаланишни тавсия этилмайди.

Дарс таҳлили ва унинг сифатини баҳолашдан мақсад:

- таълим сифатини аниқлаш;
- ўқитувчининг педагогик маҳоратини оширишга доир ўқув-методик томондан амалий ёрдам бериш;
- илғор методларни ўрганиш ва уларни оммалаштириш;
- ўқитувчиларнинг ўзаро тажриба алмашишни таъминлаш;
- талабаларнинг билим, касбий кўникма ва малака даражасини аниқлаш;
- таълим-тарбия жараёнида талабанинг педагогик-психологик хусусиятларидаги хато ва камчиликларини тўғирлашга эътибор бериш;
- дарсда талабаларни фаоллаштириш ва мавзуни ўзлаштиришларига эътибор беришдаги компетенцияларини ўрганиш.

Дарс таҳлили ва унинг сифатини баҳолашнинг ташкилий қисми куйидаги босқичларда бўлиши мумкин: Дарс таҳлили ва унинг сифатини баҳолашга тайёргарлик кўриш; режаларни ишлаб чиқиш; фан, дарс берадиган ўқитувчини, таълим йуналишлари аниқланиб олинади; дарснинг бориши кузатилади; фан ўқитувчиси ва кафедра аъзолари иштирокида дарс таҳлили ва унинг сифатини баҳолаш жараёни муҳокома қилинади, фикрлар, таклифлар эшитилади, дарс сифатига баҳо берилади.

Ўқитувчининг аудиторияни бошқариш ва талабаларнинг дарсдаги тартиб – интизоми, фаоллиги таҳлили ва унинг сифатини баҳолашда: Аудиториянинг умумий тайёрлиги, талабаларнинг диққати, дарсдаги фаоллиги, фанга бўлган қизиқишлари, талабаларнинг дарс босқичларидаги лаёқати, талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини ташкил қилинганлиги, ўқув фаолияти шаклларида фойдаланишнинг самарадорлиги ва мақсадга мувофиқлиги, иқтидорли ва қолоқ талабалар билан яккама-якка тартибда ишлаш қобилияти, талабаларнинг тартиб интизомини сақлашдаги фаолиятига эътибор берилади.

Дарснинг илмийлик таҳлили ва унинг сифатини баҳолашда куйидагиларга эътибор бериши мақсадга мувофиқ:

1. Ўқитувчининг илмий жиҳатдан (ўзи мутахассис бўлган фанни илмий асосда чуқур билиши) билимга эгаллиги.
2. Дарсга илмий жиҳатдан тайёргарлиги.
3. Мавзуни тушунтиришда энг янги илмий-назарий ахборотлардан фойдалана олишлиги.
4. Дарс жараёнида илмий қоида ва таърифларнинг тўғри баён этилиши ҳамда илмий атамаларнинг талабаларга сингдириб борилиши.
5. Дарсда таълимнинг ўзига хос хусусиятларининг ҳисобга олиниши.
6. Дарс материалларининг қўшимча маълумотлар билан бойитилиши.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

7. Талаба бажараётган лаборатория, амалий ҳамда мустақил ишларнинг илмий йўналишга мақсадга мувофиқлиги.

8. Талабалар хулосасининг илмий жиҳатидан тўғри, қисқа ва мукамал баён этилиши ҳамда уни ўқитувчи томонидан назорат қилиниши.

9. Мавзуни баён этиш жараёнида назария ва амалиётнинг боғланганлиги.

10. Ўқитувчининг илмий ибораларни ишлатишдаги нутқ маданияти.

Дарс методикаси таҳлили ва унинг сифатини баҳолашда профессор - ўқитувчиларнинг дарс жараёнида қўллаган методларнинг ўқитишда дарс шакллари турига ва ўзига хос хусусиятларига қараб белгиланганлиги, ўқув материалларини талабаларга баён қилиш ва тушунтириш жараёнида қўлланилган методларнинг шу материалга мослиги ёки мос эмаслиги аниқланади [2].

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ўқитувчи дарсда қўллаган методларнинг самарадорлиги, намунавийлиги, дарснинг сифат кўрсаткичлари, ўтилган мавзу материалларини талабалар қандай даражада ўзлаштириб олганликлари билан белгиланади ва баҳоланади. Шу боисдан дарс таҳлилининг бу турига алоҳида эътибор билан қараш муҳим аҳамиятга эга. Юқоридаги фикрларга асосланиб, дарс методикаси таҳлили ва унинг сифатини баҳолашда қуйидагиларга эътибор берилиши зарурлигини кўрсатиб ўтаем:

а) ўқитишнинг метод, восита ва усулларини танлашда ўқув материалининг мазмунига, дарс мақсадларига, синфнинг имкониятларига мос танланганлиги; б) ўқитувчи томонидан дарснинг ҳар бир босқичида метод, усулларни тўғри қўллаганлиги; в) янги педагогик ва ахборот технологияларидан, кўргазмалар қуроллар, тарқатма материаллардан самарали фойдаланилганлиги; г) ўқитувчининг илмий- методик жиҳатдан билим, кўникма ва малакасининг баҳолалиши эътиборга олинади [7].

Дарснинг дидактик таҳлили ва унинг сифатини баҳолашда – дарс шакллари самарадорлиги ва уни ифодаловчи қонун ва қоидаларнинг мавзуни тушунтиришда қанчалик тўғри ҳамда мукамал қўлланилганлиги таҳлил қилинади, унинг сифатини баҳолашда эса қуйидагилар ҳисобга олинади:

1. Дарс баёнининг гуруҳ талабаларига тўла тушунарли бўлиши ва бу изчил равишда талабалар онгига етиб бориши.

2. Ўқитувчи фикрининг маънавий – ғоявий жиҳатдан тарбия принципларига мос келиши.

3. Талабаларнинг ўқитувчи томонидан берилаётган материалларни онгли равишда ўзлаштиришлари.

4. Дарс баёнида ривожлантирувчи ва муаммоли ўқитишнинг мавжудлиги.

5. Ўқитувчининг дарс мавзусига доир фикрларининг изчиллиги.

6. Дарс жараёнида ёки янги мавзуни баён қилишда кўрсатмалар қуроллардан, тарқатма материаллари ва техника воситаларидан фойдаланишнинг мақсадга мувофиқлиги ёки номувофиқлиги.

7. Экскурсия, тажриба, лаборатория ва амалий ишларнинг мақсадга йўналтирилган ҳолда ўтишга эришилганлиги.

8. Дарс билан ишлашга тўғри кўрсатма берилиши.

9. Мисолларнинг назария ва амалиёт бирлиги мазмунида қўлланилиши.

10. Дарсни маълум бир тизимда олиб борилиши қабиларга эътибор берилади.

Юқорида билдирилган фикрлар, қоидалар, кўрсатмалар, тавсияларга мувофиқ ишлаб чиқилган дарс индикаторлари, уларни баҳолаш мезонлари ҳамда баҳолаш методикасини 1-жадвалга мувофиқ тушунтирамиз.

1-жадвал

Т/р	Дарс индикаторлари	Баҳолаш мезонлари			
		аъло 5 балл	яхши 4 балл	қониқарли 3 балл	қониқарсиз 2 балл
Ташкилий қисм					
1.	Аудиториянинг санитария ва гигиена ҳолати	+			
2.	Талабаларнинг дарсга тайёргарлиги		+		
3.	Дарснинг жиҳозланиши				
Дарснинг илмийлиги					
4.	Ўқитувчининг илмий жиҳатдан (ўзи мутахассис бўлган фанни илмий асосда чуқур билиши) билимга эгаллиги		+		
5.	Мавзуни тушунтиришда энг янги илмий-назарий ахборотлардан фойдалана олишлиги		+		
6.	Дарс жараёнида илмий қоида ва таърифларнинг тўғри баён этилиши ҳамда илмий атамаларнинг талабаларга сингдириб борилиши	+			

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

7.	Ўқитувчининг нутқ маданиятининг илмийлиги			+	
Дарс методикаси					
8.	Ўқитувчиларнинг дарс жараёнида қўллаган методларининг дарс шаклларининг турига ва ўзига хос хусусиятларига қараб белгиланганлиги			+	
9.	Дарс мақсади ва мавзусининг тўғри белгиланиши, дарсда талабалар билан фикр алмашишда ўзаро ҳамкорликка эриша олиши	+			
10.	Дарс жараёнида талабаларнинг фаоллигини таъминлай олиши			+	
Дарс дидактикаси					
11.	Дарс баёнининг гуруҳ талабаларига тўла тушунарли бўлиши ва бу изчил равишда талабалар онгига етиб бориши	+			
12.	Янги мавзунинг баён қилишда кўргазмалар, курашлардан, тарқатма материаллари ва техника воситаларидан фойдаланишнинг мақсадга мувофиқлиги ёки номувофиқлиги			+	
13.	Талабаларга бериладиган саволлар муаммоли тарзда тузилиши				+
14.	Талабаларнинг берилган саволларига жавобларининг тўлдирилиши ва уларга мотивация берилиши				+
15.	Талабаларнинг ўқитувчи томонидан берилган материалларни онгли равишда ўзлаштиришлари			+	
16.	Дарс мавзусига доир фикрларининг изчиллиги			+	
17.	Педагогик касбига мос имижига эгаллиги	+			
Дарс якуни					
18.	Мавзуга якуни яшаш			+	
19.	Талабаларни баҳолаш			+	
20.	Мустақил топшириқ бериш			+	

Дарс сифатини баҳолаш методикасини 1-жадвалга мувофиқ кўриб чиқамиз [7]. Дарс сифатини баҳолаш куйидаги (1) формула орқали топилади.

$$f(n_1, n_2, n_3, n_4) = \frac{5 \cdot n_1 + 4 \cdot n_2 + 3 \cdot n_3 + 2 \cdot n_4}{100} \quad (1)$$

n_1 - 5 балл билан баҳоланган индикаторлар сони;

n_2 - 4 балл билан баҳоланган индикаторлар сони;

n_3 - 3 балл билан баҳоланган индикаторлар сони;

n_4 - 2 балл билан баҳоланган индикаторлар сони.

Бизнинг мисолимизда дарс индикаторлар сони 20 та деб олинган, индикаторлар сони 20 дан ортиқ бўлиши ҳам мумкин.

Бунда баҳолаш тизимини 5 баллик шкаладан 100 баллик шкалага ўтказиш жадвалига асослансак, у ҳолда

90% дан юқори - 5 балл (аъло);

80-89,9% гача - 4 балл (яхши);

70-79,9% гача - 3 балл (қониқарли);

70%дан кам - 2 балл (қониқарсиз) баҳоланади.

Мисол ўрнида “Технологик таълим” кафедраси ўқитувчиси И.Б.И. нинг дарс индикаторларига мувофиқ баҳоланганлигини 1-жадвалга мувофиқ кўриб чиқамиз. Бу ерда баҳолаш мезонларидан биттаси белгиланишини, агарда индикаторлардан мабодо биттасига баҳолаш мезонларидан бирортаси белгиланмаса ёки бирданига иккитаси белгиланса умумий натижада ҳисобга олинмаслигини эслатиб ўтамиз .

Юқорида биз томонимиздан ишлаб чиқилган методикадан фойдаланиб И.Б.И. дарс сифати қандай баҳоланганлигини кўриб ўтамиз [5].

Бизнинг мисолимизда

n_1 лар 5 та (5 баллга баҳоланган индикаторлар сони);

n_2 лар 11 та (4 баллга баҳоланган индикаторлар сони);

n_3 лар 3 та (3 баллга баҳоланган индикаторлар сони);

n_4 лар 0 та (2 баллга баҳоланган индикаторлар сони).

1-жадвалдаги индикаторларга қўйилган баҳолаш даражаларидаги тегишли балларни (1) формулага қўйсақ, у ҳолда қуйидагича бўлади:

$$f(n_1, n_2, n_3, n_4) = \frac{5 \cdot 6 + 4 \cdot 11 + 3 \cdot 3 + 2 \cdot 0}{100} = 0,83, \text{ bu } 83\% \text{ ni beradi.}$$

Демак, ўқитувчининг дарс сифати 100 баллик шкалага мувофиқ 4 балл (яхши) га баҳоланган.

Хулоса. Ушбу методикадан фойдаланиб дарс тахлили баҳоланганда натижа аниқ ва ишонarli булади. Шу сабабли биз томонимиздан ишлаб чиқилган методикадан барча фанларда масалан, математика, физика, психология, бошланғич таълим, тарих ва ҳоказо дарс сифатига баҳо беришда фойдаланиш мумкин. Чунки ушбу ишлаб чиқилган методика барча фанлардан дарс тахлили натижасини баҳолашда концептул асос бўлиб хизмат қила олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий таълимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга ошириладиган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокчини таъминлаш бўйича қўшимча чора тadbирлар тўғрисида” ги 05.06.2018 йилдаги ПҚ-3775 сон қарор.
3. Imanov B.B. RESULTS AND STAGES OF EDUCATIONAL AND CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS WHEN PERFORMING PROBLEMATIC PHYSICAL EXPERIENCE EUROPE, SCIENCE AND WE. November 2020 Praha, Czech Republic. Conference Proceedings. International Conference ISBN 978-80-907845-4-3. 59-60 pages
4. Imanov B.B. When performing a problematic physics experiment types of educational and creative activities of students, contradictions and levels ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. Noyabr 2020.
5. Махмудов Ю.Ф. Дарс сифатига қўйиладиган дидактик талаблар. Услубий қўлланма. – Термиз: ТерДУ, 2020. – 32 бет.
6. Imanov B.B. Competencts The Quality Of Education And Their Organization. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) Vol 10, Issue 5, May 2021.
7. Иманов Б.Б. Урок как фактор повышения качества образования SCIENCE AND WORLD International scientific journal. №7 (83), 2020.
8. Ko'charovich, O. A., & Akmalovich, K. S. (2024). Technologik Ta'lim Jarayonida Zamonaviy Innovatsion Texnologiyalarning O'rni. *Miasto Przyszłości*, 45, 197-200.
9. Dusyarov, X. C., Odinayev, A. K., & Kucharov, S. A. (2021). Criteria for assessing student knowledge in technology classes. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1168-1173.
10. Kucharovich, O. A., & Akmalovich, K. S. (2022). SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT. *MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS*, 128.

Муаллиф:

Иманов Бахтиёр Бердиевич - Термиз давлат педагогика институти, “Технологик таълим” кафедраси ўқитувчиси, педагогика фанлари номзоди, доцент.

УДК 372.881.11

WORKING WITH TEXT TO DEVELOP STUDENTS' READING SKILLS

TALABALARNING O'QISH MAHORATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MATN BILAN ISHLASH

РАБОТА С ТЕКСТОМ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Каримова Малика Абди-Хафизовна

Гулистанский государственный университет, 120100. Сырдарьинская область, город Гулистан.

E-mail: mk6122268@mail.com

Abstract. The article discusses one of the main areas of teaching students in speech development, which is learning to read an educational text, since it is the ability to understand the text that largely determines the success of learning. As a result, when learning to read text, students develop logical skills: the ability to determine the topic and main idea of information, the ability to structured perception of text information, and understanding the sequence of thought development.

Key words: text, learning, reading, interpretation, perception, verbal communication, reading strategy, linguistic consciousness.

Annotatsiya. Maqolada talabalarni nutqni rivojlantirishga o'rgatishning asosiy yo'nalishlaridan biri ko'rib chiqiladi, bu ta'lim matnini o'qishni o'rganishdir, chunki bu matnni tushunish qobiliyati asosan o'rganish muvaffaqiyatini belgilaydi. Natijada, matnni o'qishni o'rganayotganda, talabalar mantiqiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar: ma'lumotlarning mavzusi va asosiy g'oyasini aniqlash qobiliyati, matn ma'lumotlarini tuzilgan idrok etish qobiliyati va fikrni rivojlantirish ketma-ketligini tushunish.

Kalit so'zlar: matn, o'rganish, o'qish, izohlash, idrok etish, og'zaki muloqot, o'qish strategiyasi, lingvistik ong.

Введение. Одним из основных направлений обучения студента по речевому развитию является обучение чтению учебного текста, так как именно умение понимать текст во многом определяет успешность обучения. Для выстраивания методически грамотной работы на занятиях важно проанализировать понятия «текст» и «чтение».

В Толковом словаре русского языка С. И. Ожегова дается определение текста, отражающее смысл, закрепленный в коллективном языковом сознании: «Текст – это всякая записанная речь (литературное произведение, сочинение, документ, а также часть, отрывок из них)» [1].

В педагогическом речеведении принято понимать текст как «результат речемыслительного процесса, реализованного автором в виде конкретного письменного или устного произведения в соответствии с мотивами, целями, избранной темой и идеей и характеризующегося определенной структурой, композиционным, логическим и стилистическим единством» [2].

В семиотике понятие «текст» имеет более широкое значение. Обще принятое толкование слова «текст» (что означает буквально «ткань, связь, сплетение») отсылает к широкому пониманию термина, которое трактует текст как определенным образом устроенную совокупность любых знаков, обладающую формальной связностью и содержательной цельностью, т. е. любая знаковая система, имеющая целостное значение и связность, ориентированная на коммуникацию, является текстом. Поэтому к текстам с точки зрения семиотики можно отнести картины, графики, таблицы, ноты, знаки дорожного движения, карты, рекламу и т. д. [3].

Текст требует активной деятельности человека в его создании и его восприятии, интерпретации. Если невозможно интерпретировать информацию и она целостно не воспринимается, то это не текст.

Учебный текст сочетает разные способы представления информации.

Именно в таком широком понимании. Рассматривается текст в исследованиях читательской грамотности, что вполне соответствует задачам исследования, а также реальной действительности, в которой осуществляется коммуникация.

Следует подчеркнуть, что разные виды текстов требуют разных способов и приемов чтения.

Чтение – вид речевой деятельности, предполагающей декодирование информации, зафиксированной в тексте.

Объект исследования и используемые методы

В качестве объекта исследования взят учебный процесс студентов. При исследовании темы использовались педагогический, теоретический методы – наблюдения, и анализ, дополняя их своей спецификой.

Полученные результаты и их анализ

Декодирование информации в процессе чтения происходит поэтапно.

Для первого этапа важны процессы восприятия информации, которые позволяют расшифровать общее содержание текста. На первом этапе происходит опознавание отдельных слов, предложений, структуры текста, у читающего складывается общее представление о содержании информации.

На втором этапе происходит сопоставление получаемой новой информации с имеющимися знаниями, интерпретация текста с учетом контекста позволяет осмыслить содержание информации.

На третьем этапе создается собственный новый смысл, в результате анализа информации новая информация «присваивается» читающим.

Традиционно в теории выделяются разные виды и типы чтения, которые должны использоваться в практике обучения для освоения разных стратегий и тактик чтения. Существуют разные по степени подробности классификации видов и типов чтения, в них чаще всего отражены следующие:

По форме чтения: чтение вслух и чтение про себя;

По характеру речевой ситуации: аудиторное или домашнее чтение;

По степени проработанности текста: подготовленное и не подготовленное чтение;

По видам деятельности: рациональное (аналитическое) и эмоциональное (эстетическое) чтение;

По цели чтения: просмотровое, ознакомительное, изучающее.

Тип чтения определяется во многом характером текста. Рациональное чтение используется для работы с официальной, учебной, научной литературой. При таком чтении опора делается на мышление, память, волю.

Воображение и эмоции включены в меньшей степени. При рациональном чтении могут решаться разные задачи, которые определяют разные стратегии чтения.

Как разновидности рационального чтения в учебном процессе может использоваться:

▪ *просмотровое чтение* – сканирование текста (знакомство с заголовками и подзаголовками, отдельными фрагментами);

▪ *ориентировочное чтение* (извлечение информации, анализ отдельных элементов текста);

▪ *аналитическое чтение* – интерпретация (понимание информации текста, выявление поверхностных и глубинных, явных и скрытых смыслов, создание новых смыслов).

Исследования О. Н. Артемьевой⁴ позволяют. Определить содержание термина *стратегия чтения*.

Стратегия чтения – это способ осуществления перцептивно-мыслительной деятельности, направленной на достижение одной из целей:

- 1) нахождение в тексте определенной информации;
- 2) получение самого общего представления о содержании текста;
- 3) осмысление основного содержания текста;
- 4) глубокое понимание смысла текста.

Все эти цели позволяют выделить основные стратегии чтения:

- 1) поисковая
- 2) просмотровая
- 3) ознакомительная
- 4) изучающая.

Реализация стратегии чтения осуществляется через использование *тактик чтения* – совокупности приемов, выбор которых (осознанный или неосознанный) определяется читателем с учетом особенностей текста и поставленных задач; в учебной ситуации выбор тактик чтения задается типом вопроса (вопросов) к тексту.

Вывод. В итоге названные нами стратегии чтения оказываются востребованными при чтении учебных текстов. При обучении чтению такого текста развиваются логические умения у студентов: умения определять тему и основную мысль информации, умения структурированного восприятия информации (выделение микротем текста, понимание последовательности развития мысли, смысловых связей между микротемами). Вид и тип чтения, освоение стратегий и тактик читательской деятельности студент формирует через методически продуманную систему вопросов и заданий к тексту.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Толковый словарь русского языка: 100000 слов, терминов и выражений. / Сергей Иванович Ожегов; под общ. ред. Л. И. Скворцова. – 28-е изд., перераб. – Москва: Мир и образование, 2015. – 1375.
2. Педагогическое речеведение: словарь-справочник / под ред. Т.А. Ладьяженской и А. К. Михальской. – М.: Флинта; Наука, 1998.
3. Артемьева О.Н. Обучение приемам понимания текста как основа формирования тактик изучающего чтения. Специальность 13.00.02 - теория и методика обучения и воспитания (русский язык). Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук Ярославль – 2012, с. 14.

Автор:

Каримова Малика Абди-Хафизовна - Гулистанский государственный университет, преподаватель кафедры «Дистанционного образования».

UDK 372.800.4

METHODS OF ORGANIZING THE TEACHING OF ALGORITHMIC LANGUAGES AND PROGRAMMING COURSES IN AN ELECTRONIC LEARNING ENVIRONMENT

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH KURSINI O'QITISHNI TASHKIL ETISH USULLARI

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ АЛГОРИТМИЧЕСКИХ ЯЗЫКОВ И КУРСОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В СРЕДЕ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Ahtamqulov Muhridin Ahtamqul o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali. Samarqand viloyati, Urgut tumani, Vag'ashti MFY 13-uy.

Email: muhridinahtamqulov@gmail.com

Abstract. E-learning is a great benefit to developing students' programming skills and algorithmic thinking in secondary schools and universities. This makes it crucial how to reinforce and create prerequisite for algorithmic languages and programming courses. In this article, we will consider methods of generating algorithmic languages and programming courses in the electronic learning environment, tools for managing them and analyzing requirements.

Keywords: Electronic education, algorithmic languages, programming, technology, platform, lesson schedule, material, obstacle model, project, modern technologies.

Annotatsiya. Elektron ta'limni o'qitish o'rta maktablar va oliy o'quv yurtlarida o'quvchilarning dasturlash qobiliyatlari va algoritmik fikrlashini rivojlantirishga katta foyda keltirish. Bu esa algoritmik tillar va dasturlash kurslariga bo'lgan talablarni kuchaytirish va yaratish usullarini muhim qiladi. Bu maqolada elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash kurslarini yaratish usullarini, ularni boshqarish va talablarni tahlil qilish vositalarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Elektron ta'lim, algoritmik tillar, dasturlash, texnologiya, platforma, dars jadvali, material, engel modeli, loyiha, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация. Электронное обучение является большим преимуществом для развития навыков программирования и алгоритмического мышления у учащихся средних школ и университетов. Поэтому крайне важно укрепить и создать предпосылки для алгоритмических языков и курсов программирования. В этой статье мы рассмотрим методы генерации алгоритмических языков и курсов программирования в среде электронного обучения, инструменты управления ими и анализа требований.

Ключевые слова: Электронное образование, алгоритмические языки, программирование, технология, платформа, расписание уроков, материал, модель препятствий, проект, современные технологии.

Kirish: Bu maqolani yozishdan maqsad, sizga elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash kursini tashkil etishning qanday qilib amalga oshirilishi haqida batafsil ko'rsatma ko'rsatishdir. Bugungi kunda, algoritmik tillar va dasturlash kurslari, har bir o'quvchi uchun muhimdir. Bu kurslar, o'quvchilarga mahoratli dasturchi bo'lish imkonini beradi. Algoritmik tillarni o'rgatish orqali, o'quvchilarga muammolarni yechish va dasturlash jarayonlarini tashkil etishning asosiy prinsiplarini o'rgatiladi. Bu, ularning analitik fikrlash, loyihalarni yaratish va dasturlar yaratish umumiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Dasturlash hamda algoritmik tillar bilan bog'liq xilma-xil muammo va vazifalar juda kengaymoqda. Bu maqolada, siz kurs tashkil etishning muhim nuqtalarini, kursdagi maqsadlarni aniqlashni, talabalarga qanday bilim va ko'nikmalar oshirishni, tajribali o'qituvchilarni jalb etishni va ko'rsatishni o'rganasiz. Siz algoritmik tillar va dasturlash kursini muvaffaqiyatli tashkil etishni istaysiz, shuningdek, talabalarga bu sohada ko'proq bilim olishga yordam berishni xohlaysiz, bu maqola siz uchun.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqoriroqdir (Means, Toyama, Merfi, Bakiya va Jons, 2013). Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir[1].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Elektron darslik - kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi. Elektron darslik (o'quv qo'llanma) ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan, zamonaviy informatsion texnologiyaning mahsuli hisoblanadi. Elektron darsliklar yangi ta'lim shakli-masofaviy ta'limning asosiy o'quv-uslubiy yadrosini tashkil etadi. O'qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy informatsion-pedagogik texnologiyalar, jumladan, elektron darsliklardan foydalanish alohida o'rin egallaydi[2].

Dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar, qolaversa, respublikamizni yanada rivojlantirish zarurati globallashib borayotgan bugungi kunda barcha sohalar qatori, ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni, malakali kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalashda zamonaviy yondashuvni taqozo etmoqda. Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, ta'lim sifatini oshirish, talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishish, kelajak avlodni o'qitish va tarbiyalashda yagona davlat siyosatini amalga oshirish o'z samarasini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar avlodini tayyorlash maqsadida chet ellik hamkorlar bilan birgalikda "1 million O'zbek dasturchilari" loyihasi joriy etildi. Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad - raqamli texnologiyalar yo'nalishida mutaxassislar avlodini tayyorlash, dasturlash bo'yicha ularga kerakli bilim va ko'nikmalarni berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun elektron ta'lim muhitida dasturlash tillarini o'qitish dolzarb muammo hisoblanadi[3].

Asosiy algoritmik tuzilmalarning vizualizatsiyasi va muammolarni hal qilish misollarining ierarxik kutubxonasi talabalar uchun individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu loyihaning afzalliklari (o'rganishga an'anaviy yondashuvlarga nisbatan) Yevropaning yetakchi universitetlarining loyihada ishtirok etishi orqali o'quv materiallari to'plamlarini doimiy ravishda takomillashtirish, yangilash va kengaytirishni o'z ichiga oladi. Mualliflar o'quv

jarayonida birlashtirilishi va o'qituvchilar va talabalarning qo'shimcha tayyorgarligisiz qo'llanilishi mumkin bo'lgan kichik, avtonom, portativ va hujjatlashtirilgan o'quv vazifalari konsepsiyasini ishlab chiqadilar[4].

Elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash kursini tashkil etishning muhim qismi elektron ta'lim muhitining o'zgaruvchilarini tushunishdir. Bu o'zgaruvchilar, o'qituvchilar, o'quvchilar va muassasalar o'rtasidagi aloqalar, texnologiyalar va imkoniyatlardan iborat bo'lishi mumkin. O'qituvchilar uchun, bu muhitning o'zgaruvchilari dasturlash tillarini o'rganish, o'quvchilarni baholash va ularga vazifalar berish, kompyuter darslarini tashkil etish va elektron ta'lim platformalarini ishlatish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar uchun, elektron ta'lim muhitining o'zgaruvchilari o'quv materiallariga oson va tezlik bilan murojaat qilish, interaktiv darslar, dasturlar va testlar orqali o'zlashtirish va o'rganish imkoniyatlarini taqdim etishni o'z ichiga oladi. Muassasalar uchun, elektron ta'lim muhitining o'zgaruvchilari bajaruvchilarni baholash, o'quv natijalarini monitoring qilish, ma'lumotlar bazasini boshqarish, o'quvchilarni taqsimlash va dasturlarni tashkil etish imkoniyatlarini taqdim etadi. Elektron ta'lim muhitida o'zgaruvchilar bilan taniqli bo'lish va ularga mos keladigan strategiyalarni qo'llash orqali, algoritmik tillar va dasturlash kursini samarali tarzda tashkil etish mumkin.

Algoritmik tillar va dasturlashning o'zgaruvchilari elektron yoki tizimning ishlashini boshqarish uchun muhim asosiy qurilmalar hisoblanadi. Bu o'zgaruvchilar dasturlash davomida ma'lumotlarni saqlash, ulardan foydalanish, matematik amallarni bajarish va boshqalar kabi vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. Bir dastur yoki tizimda o'zgaruvchilarni to'plash va ulardan foydalanish yordamida, dasturchi istalgan turdagi muammoni yechish, ma'lumotlar bilan ishlash, talabalarni qimmatli ma'lumotlardan foydalanish, grafiklarni yaratish va ko'rsatish, matematik amallarni hisoblash va boshqalar kabi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular ma'lumotlarni saqlash uchun kerakli joyni ajratish, ma'lumotlarga unikal nom berish, ma'lumotlarni o'zgartirish, ma'lumotlarni yig'ish va taqsimlash, ma'lumotlarni filtrlash, ma'lumotlarni tartiblash kabi amallarni bajarish imkoniyatini beradi. Algoritmik tillar va dasturlashda o'zgaruvchilarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatish va ulardan foydalanishning amaliy qismi juda muhimdir. Bu yerda dasturchi muhim ma'lumotlarni saqlab qolish va ulardan foydalanish orqali dasturining to'g'ri va samarali ishlashini ta'minlaydi.

Algoritmik tillar va dasturlash kursini o'qitishning ahamiyati. Algoritmik tillar va dasturlash kurslarini o'qitishning ahamiyati juda katta. Bugungi dunyoda, texnologik rivojlanish har kuni o'sib borayotganligi sababli, algoritmik fikrlash va dasturlash bilimi ham muhim bo'lib chiqmoqda. Bu sohadagi zarur bilim va ko'nikmalar, o'quvchilarni IT sohasida muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi. Algoritmik tillar va dasturlash kurslarini o'qitish, talabalarga kompyuterlardan foydalanish, dasturlar yaratish, muammosiz yechimlarni elektron yechish, katta ma'lumotlar bazalarini tahlil qilish va boshqalar kabi muhim ko'nikmalarni o'rgatadi. Bu kurslar, talabalarga loyihalarni tayyorlash va boshqarish, o'z ishlarini avtomatlashtirish va innovatsion yechimlarni elektron imkoniyatini beradi. Algoritmik tillar va dasturlash kurslarining o'qitishning ahamiyati shundaki, bu soha talabalar uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Bu kurslar, kreativlikni rivojlantiradi, muammolarni yechishga va yangi ideyalarni boshqarishga yordam beradi. Shuningdek, bu kurslar IT sohasida ish topishga imkon beradi, chunki bugungi ish dasturlash va algoritmik tillarni bilishni talab qiladi.

Dars jadvalini tashkil etish. Dars jadvalini tashkil etish algoritmik tillar va dasturlash kursini o'qitishning muhim qismidir. Bu jarayonning iqtisodiy, masofaviy va vaqt tartibidagi samarasi uchun asosiy unsurlaridan biridir. Dars jadvali, o'quvchilarning darslarda qatnashish va o'qish vaqti uchun mo'ljallangan grafik ma'lumot hisoblanadi. Dars jadvali kursning barcha modullarini tahlil qilish va darslar va mavzularning tartibini aniqlashdir. Dars jadvalini tuzishda, darslar orasida bir necha kunlar bo'lishi kerak, bu esa o'quvchilar uchun barqarorlik va o'zlashtirish imkonini yaratadi. Dars jadvalini tashkil etishda, o'quvchilar va o'qituvchilar orasida ko'rsatma va kelishuvlar qo'llanilishi kerak. Bu, dars jadvalini to'liq, aniq va shaffof qilishga yordam beradi.

Kurs materiallarini tayyorlash. Elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash kursini o'qitishning asosiy qismi kurs materiallarini tayyorlashdir. Bu qismda, siz talabalar uchun materiallarni tuzishda qanday qadam tashkil etishingiz kerakligini ko'rsatamiz.

1. Maqsadlarni aniqlang: Avvalo, kurs materiallarini tayyorlashda o'qituvchilarning maqsadlarni aniqlab ko'ring. Bu kursdan talabalar nimalarni o'rganishni kutishadi? Algoritmik tillar va dasturlashning asosiy prinsiplarini o'rgatishmi, yoki amaliy yondoshuvlar orqali dasturlashni mustahkamlashmi? maqsadlarni aniqlab, kurs materiallari qanday maqsadlarni qamrab olishi kerakligini bilgan holda tayyorlash imkoniyatini hisobga olasiz.

2. Mavzularni tartiblang: Kurs materiallarini tayyorlashda mavzularni tartiblash juda muhimdir. Bu, qatnashuvchilarning o'rganish jarayonini to'liq tushunishlarini ta'minlaydi. Boshlang'ich ma'lumotlardan boshlab yordamchi va oliy darajadagi mavzularga yo'naltirish maqsadida, kurs materiallarini tartiblashda izohlar, misollar, va harakatlar ketma-ketlikka bog'liq bo'lishi kerakligi muhimdir.

3. Tizimli bo'lingan darslar: Kurs materiallarini tizimli bo'lingan darslarga ajratish talabalar uchun o'rganishni osonlashtiradi. Har bir darsda biror konseptni tushunishga imkon beruvchi belgilashlar, grafiklar, yoki ko'rsatkich materiallardan foydalanish juda muhimdir. Talabalarning darslarni tushunishiga yordam beruvchi amaliy mashqlar ham kurs materiallariga qo'shishga intilishadi.

4. Qo'llanmalar va yordamchi materiallar: Kurs materiallarini tayyorlashda talabalarni qo'llanmalar va yordamchi materiallar bilan ta'minlash muhimdir. Bu qo'llanmalar, darslarda o'rgangan konseptlarni qayta o'rganish, amaliy

mashqlarni bajarganligini tekshirish va o'zining o'rganish jarayonini osonlashtirish uchun qulaylik yaratadi. Qo'llanmalar, misollar, yordamchi maqolalar va h.k.

O'qitish usullari va texnikalari. Elektron ta'limni o'qitish usullari va texnikalarining muhim manbalari kursni tashkil etish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu bo'limda, algoritmik tillar va dasturlash kursini samarali o'qitishning muhim usullari va texnikalarini ko'rib chiqamiz. Birinchi navbatda, o'qitish usullari tanlashda mashhur elektron prinsiplardan foydalanish juda muhimdir. Misol uchun, "engel modeli" ("To'siq modeli" tilshunoslik sohasida, ayniqsa, til o'rganish va o'rgatish sohasida qo'llaniladigan modeldir) usuli, o'quvchilarni algoritmik tillar va dasturlashning muammolarini hal qilishda ularga yordam berish, maslahatlar berish va ularning mustahkamliklarini oshirishga imkoniyat yaratish uchun keng qo'llaniladi. Boshqalar esa "tarjima-kiroq" ("Tarjima-kiroq" deyilgan so'z o'zbek tilida "tarjima qilish" yoki "tarjima qilishni osonlashtirish" degan ma'nolarda keladi.) usulidan foydalanish maydonchasi orqali o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va o'rgatish uchun optimal, o'zaro muloqatli maslahatlar va tushuntirishlar taqdim etishga fokuslanishadi. Dasturlash kurslarida amaliyotga asoslangan o'qitish usullaridan foydalanish ham muhimdir. Amaliyot tajribasini jalb qilib olish, kodiningizni sinab ko'rish, mashinali o'rganish, hayotiy mashg'ulotlarni qo'llash va qo'shimcha materiallardan foydalanish o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlarni beradi. Shuningdek, interaktiv darslar, video darslar, boshqa amaliy mashg'ulotlar va o'quv dasturlarini tashkil etish, har bir o'quvchining o'ziga mos usulda o'rganish imkonini beradi. Texnikalar qismida, ma'lum bir platforma yoki dasturlash tili, masalan, Python, Java yoki C++, ishlatish muhimdir. Bu, o'quvchilarga dasturlash tillarini o'rganishda yordam beradi va ularning tajribalari va bilimlari rivojlanishini ta'minlaydi. Buni yanada o'rganish uchun interaktiv kod tahrirlash vositalaridan, qo'llanmalar va dastur qilishda yordam beruvchi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'rganish uchun vosita va resurslar. Amaliy mashg'ulotlar, algoritmik tillar va dasturlashni o'rganishning asosiy qismidir. Bu qanday qilib muhitda o'z talabalarizga qulay va samarali amaliy mashg'ulotlar tashkil etishga yordam beradi. Ushbu bo'limda bu mavzuga oid vositalar va resurslarni ko'rib chiqamiz.

Birinchi qadam – Muhit va dasturlash tilini o'rganishda vositalar. Birinchi navbatda, talabalar uchun o'rgatish muhitini tayyorlash juda muhimdir. Bu, dasturlashni o'rgatish uchun kerakli barcha kompyuterlar, internet ulushlar va dastur vositalarini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Buning orasida, dasturlash tillarini o'rganishda xar bir talaba uchun alohida kompyuterlar, IDElar (Integrated Development Environment) va dasturlash o'lchovlari kerak bo'lishi mumkin. Bu vositalar talabalarga amaliy mashg'ulotlarni o'rganishda va dasturlashni amalga oshirishda yordam beradi.

Ikkinchi qadam – Onlayn resurslar. Algoritmik tillar va dasturlashning o'rganishida onlayn resurslar juda katta ahamiyatga ega. Talabalar uchun onlayn kurslar, video darslar, forumlar va bloglar, dasturlash platformalari, masalalar va javoblar bazalari kabi bir nechta foydali resurslardan foydalanish mumkin. Bu resurslar orqali talabalar dasturlashni asosiy konseptlarini o'rganish, savollar yechish va yaratuvchi yechimlarni elektron imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Kurs natijalarini baholash va rag'batlantirish. Algoritmik tillar va dasturlash kursini o'qitishning muhim qismi, o'quvchilarning kurs natijalarini baholash va rag'batlantirishdir. Bu, ularning yutuqlarini nazorat qilish va o'rganish motivatsiyalarini oshirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Birinchi qadam, o'quvchilarning baholarini to'plash va tahlil qilishdir. Bu, har bir o'quvchi uchun shaxsiy baholar belgilash va ularga qarab ularning kursda qancha tashrif buyurishini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu, baholanish jarayonini ob'ektiv va yuqori sifatli qilishga e'tibor berishni talab qiladi.

Baholanish jarayonida, o'quvchilar nima bilishlarini va kursda qanday o'rganishni o'zgartirishlari kerakligini tushunish uchun ular bilan muloqot o'tkazish juda muhimdir. Bu, ularning iste'dodlarini oshirish va ularning o'zlashtirish yollarini topishga yordam beradi.

Kurs natijalarini baholashdan keyin, o'quvchilarni rag'batlantirish imkoniyatlari mavjud. Bu, ularning kursni davom ettirishga qiziqtirish va o'zlashtirishlari uchun motivatsiyalarini oshirish uchun qulayliklar va imtiyozlar kabi qo'shimcha stimullarni taklif qilishni o'z ichiga oladi.

Elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash kursini o'qitishni muvaffaqiyatga yo'naltirishning yo'llari. Elektron ta'lim muhiti, algoritmik tillar va dasturlashning o'qitilishi uchun eng samarali usullardan biridir. Bu qat'iyat bilan muvaffaqiyatga yo'naltirishning bir necha yollari mavjud.

Birinchi va eng muhim yo'l, to'g'ri va tamoyillashgan darsliklar tayyorlashdir. Algoritmik tillar va dasturlashni o'qitishning odatiy ko'nikmalari va qavm(Kishilarning ma'lum bir ish va boshqa jihatdan bo'lgan birligi, guruhi; toifa)lari, talabalarni bu sohada mustahkamlashga yordam beradi. Darsliklar, mazmunli, mohiyatli va amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lishi kerak. Bundan tashqari, darslar interaktiv holatda tuzilishi, talabalarga amaliyotni o'rganishda yordam beradi.

Ikkinchi yo'l, amaliyotga asoslangan ta'limni ta'minlashdir. Dasturlashni o'rganishda, talabalar o'zlarining o'ziga xos vazifalarda ish o'rtasida shaxsiy tajriba va mahoratni rivojlantirishlari kerak. Bu, algoritmik tillar va dasturlashning oson va tezroq o'rganishning eng muhim usuli bo'lib, talabalarni muvaffaqiyatga yo'naltirishda katta ahamiyatga ega.

Uchinchi muhim yo'l, o'quv jarayonida yaxshi talabalar bilan hamkorlik qilishdir. Talabalar birbiriga yordam berish, o'z fikrlarini almashish va muammolarni hamkorlik bilan hal qilish orqali o'zlashtirishlari kerak. Bu, ularning o'zlarini mustahkamlashda va yangi yondoshlarni o'rganishda katta qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradi.

Elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash kurslarini tashkil etish usullari. Elektron ta'limda muhitida algoritmik tillar va dasturlash kursini tashkil etish usullari haqida gapirishdan oldin, biz algoritmik tillar va dasturlash kurslarining talablari va tahliliga oid ma'lumotlar bilan tanishishimiz kerak. Bu talablarni tushunish, kurslarni yaratish va bu sohada muvaffaqiyatli bo'lish uchun asosiy qo'llanmani belgilashga yordam beradi.

Algoritmik tillar va dasturlash sohasidagi kurslar, hozirgi zamonning e'tibor qozonayotgan sohalaridan biridir. Bu sohada yuqori sifatli ta'lim olish uchun kurslarni to'liq tashkil etish juda muhimdir. Bu qismda, biz algoritmik tillar va dasturlash kurslarini tashkil etish usullari haqida gaplashamiz.

Birinchi qadam, kursning maqsadini aniqlashdir. Kurs maqsadi, o'quvchilar uchun nima qanday bilimlar va ko'nikmalar taqdim etishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, bir kurs algoritmlarni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lsa, u o'quvchilarga muhim algoritmlarni tushuntirishi, tahlil qilishi va muammolarni hal qilishda yordam berishi lozim.

Keyingi qadam, kursning boshqarish usullari va talablari bo'yicha muvaffaqiyatga erishishdir. Kursni tashkil etishda, o'rganish jarayonida qo'yiladigan qarorlar, o'quvchilarning baholash tizimi, amaliy mashg'ulotlar va dars jadvali kabi masalalar diqqatga olinishi kerak. Talablar esa kursga qatnashuvchilar uchun kerakli saviyada bilim va tajriba talab etadi. Bu talablar, kursning darajasi, mavzu va o'quv usuli asosida belgilanadi.

Kursni tashkil etishning yana bir usuli, yuqori sifatli o'qituvchilarni jalb etishdir. O'quvchilarga kursda yuqori sifatli bilimlar taqdim etish uchun yetuk tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchilar muhimdir. O'qituvchilar hamda murabbiylar, algoritmlarni va dasturlash tillarini muxlislariga xususiyat berish, ko'nikmalarni amaliyotga o'tkazish va o'quvchilarning savollariga javob berish bilan vazifalangan bo'lishi kerak.

So'nggi qadam, kurs vaqtida o'quvchilarning qiziqishi va hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi bo'ladi. Kursning tashkil etish usullari, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va qatnashuvchilarga samarali ta'lim tashkil etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu, interaktiv darslar, barcha o'quvchilar qatnashishiga imkon beradigan amaliy mashg'ulotlar va zerikarli deganlarga imkon beradigan ijodiy vazifalar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu xususiyatlarga amal qilgan holda, siz yuqori sifatli ta'limni taqdim etish va o'quvchilarga yaratuvchanlik bo'lish imkoniyatini berishga erishasiz.

Kurslarni boshqarishda, o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning progressini baholash ham muhimdir. Bu, imtihonlar, amaliy mashg'ulotlar, loyihalar yoki boshqa usullarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarga mavzu bo'yicha yordam berish, savollar va muammolarni hal qilish uchun onlayn forumlar yoki chat o'rtalarini taqdim etishi mumkin. Keyin, kurslarni reklam qilish va tarqatish ham muhimdir. Bunda, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, elektron pochta va boshqa resurslardan foydalanish mumkin. Reklam kampaniyalari va tanlov jarayonlari o'quvchilarni qiziqitirish va ularga kursga qo'shilishga ko'maklashadi. Algoritmik tillar va dasturlash kurslarini boshqarishda katta muammo bo'lmaydi, ammo bularni amalga oshirish uchun ehtiyotkorlik va tahlil kuchini talab qiladi. To'g'ri qadamni tashkil etish va yuqori sifatli resurslardan foydalanish orqali, o'quvchilar uchun samarali va oson o'rganish imkoniyatini yaratish mumkin.

Kurslarni tashkil etish uchun birinchi qadam kurslarga qatnashuvchilar profillarini belgilashdir. Bu, kurslarni qaysi darajada o'qishga yo'naltirishga, qanday ko'nikmalar va tajriba talab qilishga ega bo'lishini aniqlashda yordam beradi. Misol uchun, bo'sh vaqtida shaxsiz yoki ishdan bo'sh bo'lgan odamlar uchun kurslar mavjud bo'lishi mumkin, shuningdek, dasturchilikda tajribasi bo'lmagan yoki boshlang'ich darajadagi shaxslar uchun ham kurslar tashkil etilishi mumkin.

Kurslarda talab qilingan ilovalarning tahlili ham muhimdir. Bu, kurslarni o'qishga qaysi bosqichda ishlaganligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, boshlang'ich kurslarda Python yoki JavaScript tilini o'rganish talab qilinishi mumkin, shuningdek, o'rtacha vaqt talab qilgan kurslarda Java yoki C++ tilini o'rganishga e'tibor qaratish mumkin. Qo'llanma yordamida, kurslarni o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun moslashtirishga yordam beradi. Bu, talablarni tushunish, kurslarni yaratish va bu sohada muvaffaqiyatli bo'lish uchun yordam beradigan kritik ko'rsatkichlarni belgilashga olib keldi. Algoritmik tillar va dasturlash kurslarining talablari va tahlili kurslarni muvaffaqiyatli va samarali o'qish imkonini beradi.

Xulosa. Bizning maqolamizda elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash kursini tashkil etish haqida batafsil ko'rsatma bilan tanishdingiz. Bu ko'rsatma sizga maqoladagi ko'rsatmalarni qanday tashkil etish haqida eng yaxshi usullarni taqdim etadi. Bu ma'lumotlarimiz sizga Elektron ta'lim muhitida algoritmik tillar va dasturlash sohasida o'quv kursi tashkil etishda yordam beradi degan umiddamiz. Ushbu qo'llanmani amalga oshiring va o'zingiz o'quvchilarning qanday algoritmlarni va dasturlarni o'rganishida muvaffaqiyatli bo'lishini ko'rib chiqishingizni umid qilamiz. Elektron ta'lim ancha keng qamrovli sohaga aylandi va bir necha yillik muddat ichida katta rivojlanib kelmoqda. Bu rivojlanish bilan birga, algoritmik tillar va dasturlash sohasidagi kurslar ham ommalashtirilmoqda. Algoritmik tillar va dasturlash kurslari tashkil etish oson emas, chunki ular ko'proq o'quvchilar tomonidan talab qilinayotgan mavzularni o'rganishni talab qiladi, shuning uchun tegishli darsliklar va resurslarni taqdim etishi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muratov X. Elektron ta'lim resurslari va multimedial elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. Academic research in educational sciences volume. 2021. - 1132 b

2. Abduraxmanova Sh. Elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari.-T. 2022. – 29-b
3. Bobomuxamedova Sh.A. Elektron ta'lim muhitida dasturlash tillarini o'qitishning metodik tizimini blog-texnologiyasi asosida takomillashtirish. T – 2023. - 10-b
4. Husanova D.K Dasturlashtirishda interfaol ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Science and innovation international scientific journal volume 1 -2022. - 1898-b
5. Dann V., Mis S., Pausch R. Elis bilan dasturlashni o'rganish. Upper Saddle River, Prentice Hall, 2006. - 3-b
6. Kelleher C., Pausch R. Dasturlash uchun to'siqlarni kamaytirish: Ajam dasturchilar uchun dasturlash muhiti va tillarining taksonomiyasi. ACM Computing Surveys, 2008. 83–137-b
7. Strijbos J.-V. Rollarning kompyuter yordamida hamkorlikda o'rganishga ta'siri. Ochiq universitet Niderlandiya, 2014. - 7-b
8. A.Axatov, F.Nazarov. Python tilida dasturlash asoslari (1-qism) Samarqand – 2020
9. Khursandov H.F. Python Learning Methodology: A Comprehensive Approach for Effective Skill Acquisition. European Journal of Education and Applied Psychology . 2023. № 90 – 95 b
10. Xursandov H.F. Ta'lim jarayonida turli xil dasturiy vositalarning qo'llanilishi. Miasto Przyszłości , 2023. 441–444 - b.

Muallif:

Ahtamqulov Muhridin Ahtamqul o'g'li – Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar kafedrası assistenti. E-mail: a_muriddin96@mail.ru

UDK 372.800.2

USING AN INTEGRATIVE APPROACH IN THE EDUCATIONAL PROCESS

TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Xasanov Baxrom Boktiboyevich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: xbahrom@gmail.com

Abstract. The article describes the results of a study of the issues of training future specialists in an educational environment using an integrated approach based on digital and pedagogical technologies. The significance of integrated technologies in the educational process and its content is revealed. Information on the systems that make up integrated technologies is provided.

Keywords: digital technologies, computer, information technologies, pedagogical technologies, integration.

Аннотация. В статье описаны результаты исследования вопросов подготовки будущих специалистов в образовательной среде с использованием интегративного подхода на основе цифровых и педагогических технологий. Раскрыто значение интегрированных технологий в образовательном процессе и его содержании. Приведена информация о системах, составляющих интегрированные технологии.

Ключевые слова: цифровые технологии, компьютер, информационные технологии, педагогические технологии, интеграция.

Kirish. Globallashtirish jamiyatda har qanday sohada ijobiy natijalarga erishish uchun yuqori samaradorlikka yo'naltirilgan raqamli texnologiyalar va jamiyatning intellektual salohiyatidan foydalanishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish yo'lida bir qancha amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunday tadqiqot ishlarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: ta'lim mazmunini xorijiy tajribalar asosida yangicha mazmunga olib kelish va ular asosida yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish; kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, o'quv predmetlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish; o'quv jarayoniga yangi avlod axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik, innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy etish va hokazo.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning maqsadi ta'lim tizimida integratsiyalashgan texnologiyalar va ulardan foydalanish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ta'lim tizimida integratsiyalashgan texnologiyalar va ulardan foydalanish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqish masalalari bayon etiladi. Tadqiqotda kuzatish, ilmiy-metodik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

O'quv jarayonida sifatli va kafolatlangan ta'lim berishda ta'limning usullari va vositalari alohida ahamiyatga ega. Zamon talabi darajasida o'quv jarayonini tashkil etishda integratsion ya'ni integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

Integratsiya soʻzi, lotincha “integratio” soʻziga mos kelib, oʻzbek tilida tiklash, qaytadan boshlash, toʻldirish maʼnolarini ifodalaydi. Ayrim qismlarning, elementlarning bogʻliqlik holatini, ularni qoʻshib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi [1].

Integratsiya soʻzidan fanlarning yaqinlashishi va oʻzaro bogʻlanish jarayonini ifodalashda ham foydalaniladi.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy terminlardan biri boʻlib, u umumlashtirish, xulosalar chiqarishda metodologik vosita hisoblanadi. Fan va texnikada ushbu metodologik vosita yordamida biror jarayon yoki hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uygʻunlik modellari va algoritmlari yaratiladi.

Uzluksiz taʼlim tizimida beriladigan taʼlim mazmunidagi uygʻunliklarni taʼminlash muammolarini echishda ham integratsiyalashning mohiyati alohida ahamiyatga ega. Integratsiyalash orqali oʻqitiladigan oʻquv predmetlarining asosiy tushunchalari umumlashtiriladi. Biror tadqiqot obʼekti va metodologiyasiga oid maʼlumotlar oʻrtasidagi aloqadorlikni oʻrnatishda ham integratsiyalash tushunchasidan foydalaniladi.

Integratsiyalashgan texnologiya deganda, ikki va undan ortiq texnologiyalarni birlashtirish, umumlashtirish va ular orasidagi aloqadorlikni oʻrnatishdan hosil boʻlgan texnologiyalar tushuniladi.

Oʻquv jarayonida integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish deganda, pedagogik, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirish, umumlashtirish va ular oʻrtasidagi aloqadorlikni oʻrnatish orqali faoliyat olib borish holati tushuniladi.

Taʼlim oluvchilarning oʻquv predmetlar boʻyicha oʻzlashtirish darajasi darsning sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Taʼlimning sifatini oshirishda darsni toʻgʻri rejalashtirish va maqsadni toʻgʻri va aniq belgilab olish muhimdir. Maqsadni belgilashda natijaga erishish uchun ketadigan vaqt, taʼlim oluvchining ehtiyoji va imkoniyatlari, taʼlim oluvchining maqsadga erishishga harakat qilishga yoʻnaltirilgan metodlar va natijani aniqlaydigan nazorat turlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday maqsadga erishish uchun oʻquv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zarur.

Pedagogik texnologiya taʼlim jarayonida qoʻllaniladigan pedagogik va texnologik yondashuvlarning integratsiyasi mahsulidir. Pedagogik texnologiya tushunchasiga turli pedagog olimlar turlicha yondashib, unga turlicha taʼrif berganlar. YuNESKO tashkiloti pedagogik texnologiyaga quyidagicha taʼrif bergan: “Pedagogik texnologiya – taʼlim berish va oʻzlashtirish usullarini yaratish, qoʻllash, ularni yagona tizimga keltirish yoʻli bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar oʻzlashtirilishining eng maqbul jarayonidir” [2].

Pedagogik texnologiya - taʼlim metodlari, usullari hamda tarbiyaviy vositalar yigʻindisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya bu oʻz oldiga taʼlim shakllarini optimallashtirish vazifasini qoʻyuvchi butun oʻqitish va bilimlarning oʻzlashtirish jarayonini texnik resurslar va insonlarning oʻzaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qoʻllash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya - maʼlumotlarni oʻzlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va oʻzlashtirish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya - oʻquvchining mustaqil oʻqishga, bilim olishga, fikrlashga oʻrgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida oʻqituvchi rahbarligida oʻquvchi mustaqil ravishda bilim oladi, oʻrganadi, oʻzlashtiradi [2].

Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad boʻyicha taʼsir oʻtkazish faoliyatidan iboratdir.

Axborot texnologiyasi – axborotni toʻplash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar. Axborot texnologiyalari – maʼlumotlarni toʻplash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonida kompyuterdan foydalanish yoʻllari, usullari va uslublari. Axborot texnologiyasi – axborotga ishlov berish uchun ushbu axborotdan foydalanuvchi jarayonlarning sermehnatligini kamaytirish va ularning ishonchligini va tezkorligini oshirish maqsadida zamonaviy kompyuterdan foydalanish bilan bogʻliq jarayonni ifodalaydi [3].

Demak, axborot texnologiyalari deganda axborotni yigʻish, saqlash, uzatish, oʻzgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yigʻindisi tushuniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga yangicha yondashishlar asosida, bilim, malaka va koʻnikmalarini shakllantirish bilan bogʻliq oʻquv jarayonini tashkil etib, taʼlimni yangi sifat bosqichiga koʻtarish imkonini berishi mumkin boʻlgan texnologiyadir.

Kommunikatsiya soʻzi, inglizcha “communication” soʻziga mos kelib, oʻzbek tilida aloqa, xabar, aloqa vositasi, axborot vositasi, tutashma, muloqot, ulanish, axborot uzatish usullari va vositalari maʼnosida qoʻllaniladi. Kommunikatsiya tizimi – boshqa tizimlar orasida axborot uzatish bilan bogʻliq yordamchi vazifalarni bajaradigan tizimdir [3].

Kommunikatsion texnologiyalar – tarmoqdagi kompyuterlar orasida axborotlarni uzatish uchun marshrutlash (xarakterlarni belgilash) va bogʻlanishlarni kommutatsiya qilish vazifasini bajaradigan texnologiyalardir.

Taʼlim tizimining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagi asosiy funktsiyalar va talablarni bajaradi [4]: taʼlim oluvchilar va ularning axborot muhitidan foydalanish faoliyatlarini qayd etish; taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchilarning faoliyatini maslahat yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlashni hisobga olish; taʼlim oluvchilarga zaruriy oʻquv

materiallarini mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya qilish; o'quv jarayonida, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning test yordamida, shuningdek, og'zaki va yozma usuldagi nazoratini tashkil qilish; axborot bazasida ta'lim oluvchilarga tavsiya qilingan o'quv materiallaridan, qo'shimcha adabiyot va boshqa vositalardan foydalanishi uchun o'quv muassasasi axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkonini yaratish; virtual laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy topshiriqlarni bajarishda masofadan turib ta'lim muassasasi xodimlarining maslahati va boshqa yordamlarini uyushtirish va hokazo.

Integratsiyalashgan texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayonida o'quv predmetlarining asosiy mazmuni quyidagi o'quv-uslubiy materiallardan iborat bo'ladi: elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron metodik qo'llanmalar va boshqa qo'shimcha materiallar; elektron o'quv-uslubiy majmualar; o'zini o'zi nazorat qilish uchun test dasturlari va savollar majmuasi; virtual laboratoriya ishlari va ularning tavsifi; mustaqil ishlar va nazorat ishlari; hisoblash dasturlari, elektron ma'lumotnomalar, elektron ilovalar; qo'shimcha dasturiy ta'minotlar.

Integratsiyalashgan texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida o'quv mashg'ulotlari masofadan turib tarmoq texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etishga olib keladi. Bu esa masofali o'qitishni tashkil etishning asosidir. Masofali o'qitishda tarmoq texnologiyalarining asosiy vazifasi o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqotni ta'minlashdan iborat. O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi doimiy muloqotsiz tashkil qilingan o'quv jarayoni ko'zlangan samarani bermaydi. Ta'lim tizimining kunduzgi shaklida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot bir vaqt, bir joyda o'quv auditoriyasida amalga oshiriladi. Masofali o'qitishda esa bu jarayon telekommunikatsion vositalar asosida kompyuterning tarmoq texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan, uchta texnologiyalarning integratsiyalashgan holati ta'lim berish va o'zlashtirishning eng maqbul texnologiyasi deb qarash mumkin. Pedagogik va axborot texnologiyalari imkoniyalaridan foydalangan holda ta'lim oluvchilar uchun axborot-ta'lim muhitini yaratib, kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida ta'lim oluvchilarga etkazib berish jarayonlari integratsiyalashgan texnologiyalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XULOSA. Zamonaviy talab darajasida o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmunlarini umumlashtirish va to'ldirishda integratsiyalashgan texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etib, ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 2-tom. – 396 b.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarining izohli lug'ati. – T. Fan va texnologiya. 2012. – 44 b.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T. Fan va texnologiya. 2012. – 104 b.

Muallif:

Xasanov Baxrom Boktiboyevich - Guliston davlat universiteti, Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi. **E-mail:** xbahrom@gmail.com

УДК 372.8

QUALITATIVE AND QUANTITATIVE INDICATORS OF THE LESSON

ДАРСНИНГ СИФАТ ВА МИҚДОР КЎРСАТКИЧЛАРИ

КАЧЕСТВЕННЫЕ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЗАНЯТИЯ

Абдукаримов Хабибулло

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: xabibullo-abdukarimov2024@gmail.com

Abstract. The article presents the conclusions of pedagogical experience regarding the qualitative and quantitative indicators of a lesson. The quality of a lesson depends on the indicators in question, the indicators for determining the quality of a lesson, the analysis of a lesson and its importance. Recommendations are given for organizing the educational process and requirements for its effective completion.

Key words: lesson, quality of a lesson, modern lesson, quantity, professional activity, open lesson, lesson analysis.

Аннотация. Мақолада дарсинг сифат ва миқдор кўрсаткичларига оид педагогик тажриба хулосалари келтирилган. Дарсинг сифати қандай кўрсаткичларга боғлиқлиги, дарс сифатини аниқлаш кўрсаткичлари, дарс

таҳлили ва унинг аҳамияти тўғрисида фикрлар юритилган. Таълим жараёнини ташкил этиш ва унинг самарали яқунланишига қўйилган талаблар бўйича тавсиялар келтирилган.

Таянч сўзлар: дарс, дарс сифати, замонавий дарс, миқдор, касб фаолияти, очик дарс, дарс таҳлили.

Аннотация. В статье представлены выводы педагогического опыта относительно качественных и количественных показателей урока. Качество урока зависит от того, о каких показателях идет речь, показателей определения качества урока, анализа урока и его важности. Даны рекомендации по организации образовательного процесса и требования к его эффективному завершению.

Ключевые слова: урок, качество урока, современный урок, количество, профессиональная деятельность, открытый урок, анализ урока.

Кириш. Таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг асосий шакли бу дарсдир. Дарснинг бугунги кундаги асосий вазифаси ўсиб келаётган ёшларни ватанпарвар, замонавий билим, кўника ва малакаларни ўзлаштирган ҳамда жамиятда ўз муносиб ўрнини эгаллашга қодир бўлган — комилликка интиладиган баркамол авлодни вояга етказишдир. Бугунги кунда илм-фан, техника ва ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиши барча таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтаришни талаб этмоқда. Бу ўз ўрнида ҳар бир тизим ходими, айниқса, ўқитувчилар зиммасига янада юксак масъулият ва вазифаларни юклайди. Негаки, рад қилиб бўлмайдиган бир ҳақиқат бор — қилинган барча саъй-ҳаракатлар охир-оқибат ўқитувчи меҳнати орқали ўз натижасини намоён этади. Шундай экан, педагоглардан виждонан меҳнат қилиш, ёруғ келажагимиз олдидаги масъулиятлилик, кўрсатилаётган юксак эътиборга муносиб жавоб бериш талаб этилади. Бу эса фарзандларимизнинг чуқур билим эгаллашларида асосий роль ўйнайдиган сифатли дарсда намоён бўлади.

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Дарс кузатиш ва таҳлил қилиш орқали ўқувчиларнинг умумий тайёргарлиги, билим олишдаги фаолияти, ўқув фанига бўлган қизиқиши, диққат билан ишлаши, матн, харита, жадвал, асбоблар билан мустақил ишлаш билиши, ўқитувчига бўлган муносабати аниқланади. Шу билан бирга ўқитувчининг фаолияти ҳам таҳлил қилинади. Чунончи, ўқитувчининг ўқув дастури материалларини билиш даражаси, янги мавзунини тушунтириш жараёнида асосий фикрни ажратиш олиши, илмийлик ва соддалик, кўргазмалилик тамойилларига риоя қилиши, дарс мақсадини тўғри қўйиши, дарс жараёнини тўғри режалаштириши, дарсда ҳамкорликка эриша олиши, билим ва кўникмаларни ўзлаштиришни назорат этиши, ўқувчилар билан яқин ва жамоада ишлашни ташкил эта билиши, дарс мобайнида вақтдан унумли фойдаланиши ва педагогик муомала маданиятини эгаллаганлик даражаси каби жиҳатлар инобатга олинади.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Таълимни йўлга қўйиш ва уни амалга оширишнинг асосий шакли дарс ҳисобланади. Дарс-муқаддас. Уни, яъни ҳар бир дарсни алоҳида асарга қиёслаш мумкин. Ҳар бир ўқитувчи – педагогнинг билими, касбий ва ҳаётий тажрибасидан келиб чиқиб, бир хил ёки бир андозадаги дарс бўлмайди. Тўғри дарсларни анъанавий ва замонавий деб иккига ажратамиз. Бунда асосан анъанавий дарсларда анъанавий метод ва усулларни қўллашга (кузатув, суҳбат, савол-жавоб, китоб билан ишлаш ва ҳ.к), замонавий дарсларда эса тезкор, яъни интерфаол методлардан фойдаланишга урғу берилади. Анъанавий ва замонавий дарсларда техника воситаларидан фойдаланилганига қараб ҳам баъзи педагогларимиз дарсларни анъанавий ва замонавий турларга ажратишади. Бу ўринда инновацион методлардан самарали фойдаланиш дарс нуфузини оширади. Чунки, технологиялар тадбири дарснинг миқдор ва сифат кўрсаткичларини кафолатлайди. Мақсад аниқ белгиланади. Демак, мақсад аниқ белгиланса, вазифа ҳам аниқ қўйилиб, ўз ечимини топади. “Кафолат” сўзи таълимнинг тарбиявий ҳамда ривожлантирувчи мақсадидан келиб чиқади.

Таълимий мақсад-фикр кучи орқали ўзлаштиришга эришишни белгилайди. Шундан келиб чиқиб, тарбиявий мақсад аниқ бўлади. Ривожлантирувчи мақсад асосан ўқувчи-талабани мантикий фикрлашига қаратилади. Мақсаднинг тўғри қўйилиши мантикий тафаккур операцияларини аналитик тафаккур билан уйғунлаштиради. Натижада ўрганилаётган янги ахборот (маълумот) ўқувчининг шахсий мулкига айланади десак ўринли бўлади.

Маълумки бош мия ярим шарлари пўстлоғида 17,5 миллиард нерв-хужайраси бўлиб, олимларнинг кўрсатишича, шундан енг етук олимларнинг ҳам барча фаолияти турида бор йўғи 6-7% атрофида хужайралар сарф бўлар экан. Шунинг учун, мен ҳамма нарсани ўзлаштирдим, бундан буёғига миям бошқа информацияни қабул қилмайди” дейиш ножоиз ҳисобланади. Инсон кўп ўқиб, ўргангани сари бош мия пўстлоғи хужайраларининг ассоциатив боғланишлари шунчалик мустаҳкамланиб бораверар экан. Бу жараён эса инсоннинг узок умр кўриш омилларидан бири экан. Халқимизда “Ўқиган ўзар” накли бежизга айтилмаганини мана шу ерда кўрсак бўлади.

Энди “сифат” ва “миқдор” кўрсаткичларининг луғавий маъносига тўхталиб ўтадиган бўлсак, сифат арабчадан хосса, хусусият, хислат, характер деган маъно каторида нарсанинг яроқлилиқ даражасини ҳам

кўрсатади. Шу билан бирга ўхшаш ва фарқли томонларини ажратиш имкониятини ҳам беради, бунга қараб нарсанинг янги ёки эскилигини ҳам аниқлаб олиш мумкин бўлади [1].

Миқдор арабчадан 1. Катта-кичик, оз-кўп, 2. объектнинг ташқи кўринишлари 3. ҳажми, массасини белгилайди [1].

Маҳорат арбчадан моҳирлик, усталик, эпчиллик деган маъноларни билдиради [2].

Энди бевосита “технология” сўзининг луғавий маъносига тўхталадиган бўлсак, “техне” санъат, усталик, юксак маҳорат, истеъдод каби маъноларни ўз ичига олади [2].

Санъатта кўпроқ бадиий жиҳатлар, адабий ёндашувларга эътибор қаратилиб, инсонда фавқулотта нозик диднинг юзага чиқиши атрофдагиларни ҳайратлантириши, эмоционал кечинмаларни (ҳолат) келтириб чиқариши мумкин. Бу ҳақида устозимиз Омон Сувонов ўзининг “Педагогик маҳорат” асарида [3], профессор Р.Маҳмудов касбий маънавиятга доир ўқув қўлланмасида баён қилганлигини кўрамиз. Гап шундаки, янги информация (билим)ларни ўзлаштиришда ҳайрат, эмоциянинг ўрни катта. Маҳоратли ўқитувчи ўқувчини ҳайратлантира олса (лозим жойларда оҳ воҳ деса, кулса ва хатто кўзига ёш қалқиса,) бундай маълумот ўқувчининг хотирасида узок вақт сақланади. Ўзининг мулкига айланган ахборот тегишли жойларда қўлланилади. Унинг тарбиявий аҳамияти ошса ошадики, асло камаймайди. Юқорида таъкидалаганимиздек фикр кучини (таълимий мақсаднинг ўрнини) мана шу ерда кўриш мумкин.

Энди ривожлантирувчи мақсадга ҳам тўхталиб ўтадиган бўлсак, ўқувчининг мантикий фикрлашга ўргатиш осон иш эмаслигини таъкидлаб ўтиш лозим. Бу жараёнда таълим мазмунига таълим мазмуни эса кечаги олинган маълумот мазмунидан олинганлигига эътибор қаратилади.

Аёнки, касбий сифатлар бирор соҳа мутахассисларини бошқа соҳа вакилларида ажратиш туришга ҳамда фаолият самарадорлигини таъминлашга қаратилади. Шундан келиб чиқиб, ҳар бир касбни ўзлаштириш, ўрганишга бўлган талаблари (профессиограммаси) бир-биридан фарқ қилади. Ўтган асрнинг етмишинчи йилларида профессор В.А.Сластенин бу жараёни батафсил илмий асослаб берган. Аммо миллий кадрлар ва миллий тарбия асосидаги миллий профессиограмма ҳали ҳанузгача батафсил ишлаб чиқилмаган. Борлари ҳам бугунги тезкор давр талаблари даражасида эмас.

Ўқитувчи шахсининг касбий фаолияти самарадорлиги унинг дарс бериш маҳорати билан ўлчанади. Буни ҳеч қачон унутмаслик лозим. Олиб борган тадқиқий изланишларимиз ўлароқ ўқитувчи касб фаолияти тузилмаси куйидаги алгоритм тартибда келишини ифода этди [4]:

1. Тарбиячилик
2. Ташкилотчилик
3. Коммуникатив
4. Персептив
5. Информацион
6. Дидактик
7. Изланувчи
8. Сафарбар этувчи
9. Ривожлантирувчи
10. Креатив
11. Гностик (тадқиқотчилик)

Қаранки, бугунги тадқиқотга оид олиб борилаётган изланишларимиз ҳар қандай ўқитувчи-устоз тарбиячи ҳам бўлиши лозимлиги билан бир қаторда креатив ҳамда гностик қобилиятлар эгаси бўлиши лозимлигини тақозо этмоқда. Бу давр талаби, албатта. Олий таълим профессор-ўқитувчилари бўлажак мутахассисларни тайёрлашда уларнинг креатив қобилият эгаси бўлиши баробарида соҳа йўналишига оид илмий муаммолар ечимида иштирок этишларини ҳам талаб қилади.

Креатив қобилиятга эга ёшлар тил билиши, ўзи хоҳлаган давлатларда, айниқса, ривожланган давлатларга илмий сафарларга, ўқишга бориб, инсонга 500 дан ортиқ сара фазилатлар хослигини асослаб, исботлаб беришлари лозим. Педагогик ва психологик адабиётларда ҳамда биз томондан олиб борилган тадқиқотларда ўқитувчининг юзлаб касб сифатлари ва фазилатлари аниқланган. Шулардан 200 га яқини ижобий касбий сифатлар, яъни қобилиятлар ва 60 дан ортиқ салбий касбий хусусиятлар эканлиги ўрганилган. Шулардан энг биринчиси сифатида ўқитувчининг билимсизлиги ва ўз касбини севмаслиги кўрсатилган. Бу ҳолатни ўқувчи-талаба кечирмайди.

Энди ўқитувчининг ижобий хусусиятлари (сифатлари) қай ҳолатларда ҳамда қайси жараёнларда ўрганилади? деган савол туғилиши мумкин. Биз мавзудан чиқмаган ҳолда бевосита дарс жараёнини оладиган бўлсак, ўқитувчининг биринчи салбий сифатига билимсизлик киришини таъкидлаб ўтдик. Билимсиз ўқитувчини ўқувчи-талабалар ҳушламайдилар, хатто ҳурматини ҳам жойига қўймайди. Билимдон ўқитувчига эса тақдир қилиб эргашишади, уларга ўхшашга интилишади. Касб танлашда ҳам ёшлар билимдон ва маданияти юқори бўлган ўқитувчини назарда тутишади. Биз бу жараёнларни тизимли равишда умумлаштириб, “Дарс таҳлили ва

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

унинг методикаси” кўринишида профессор-ўқитувчиларга тавсия этдик. Дарс таҳлили ва унинг методикаси куйидаги шаклга эга:

Очик ва ўзаро дарсларга баҳо бериш (Дарс таҳлили ва унинг методикаси)

Фан ўқитувчисининг фамилияси, исми ва лавозими _____

Фаннинг номи _____

Дарснинг мавзуси _____

Дарсни олиб бориш тили _____ гуруҳ _____ Сана _____ Ҳафта куни _____

Жуфтлик _____ Хона _____ Дарсда қатнашган талабалар сони _____

(Шкала бўйича кўрсатилган ҳар бир банддаги баллардан мосини доирача билан белгилаш тавсия этилади)

ТҲР	Баҳоладиган ҳолатлар	Баллар				
		10	8	6	4	2
1	Ташкилий таҳлил: аудиториянинг дарсга тайёрлиги, ўқувчи (талаба)нинг кайфияти, соғлиги, хонанинг ва досканинг озодлиги, бўр ва латтанинг борлиги, хона ҳавоси, ҳарорати, ёритилиши, йўқлама (бирон сабага кўра қатнашмаётган ўқувчи (талаба)нинг номи ёзилган варақчанинг ўқитувчи столига қўйилиши. Дарс мавзусининг календар режага ва келтирилган материалларни ишчи дастурга мослиги, журнал ва меъёрий ҳужжатларнинг борлиги. Ўқитувчи ва талабаларнинг ташқи қиёфаси, кийиниш маданияти ва ҳоказо.	10	8	6	4	2
2	Илмий таҳлил: Илм асосида билим бериш принципи. Замонавий педагогик ва ахборот технологиялари татбиқида илмий билимларининг акс этиши. Ўқувчи (талаба)ларнинг қобилияти, касбий интилишига мувофиқ илмий тадқиқот методларининг татбиқи. Дарснинг янгилиги, дарс жараёнидаги тизимли, инновацион ижодий ёндашувлари ва ҳоказо.	10	8	6	4	2
3	Дидактик (таълимий) таҳлил. Таълим принциплари (таълимнинг илмийлиги, тизимийлиги, мақсадга мовофиқлиги, таълим-тарбиянинг бирлиги, узлуксизлиги, кўрсатмалилиги ва б.) нинг моҳиятга эътибор, таълимни ҳаёт ва амалиёт билан боғлиқлиги, таълимда қайтар алоқанинг таъмин этилганлиги, таълим метод, усул ва воситаларининг ранг-баранг қўлланилиши, доскадан унумли фойдаланиши.	10	8	6	4	2
4	Методик таҳлил. Қўлланилган методларнинг самарадорлиги, изчиллиги, уни тигловчининг индивидуал хусусиятига мослиги, ўқитувчининг методик тажрибаси, маҳорати, педагогик техника ҳамда педагогик технологиянинг уйғунлиги, ҳатти- ҳаракатларни бир –бирига мослиги, техника (кўрсатмали) воситаларни қўллаш олиш қобилияти ва ҳоказо). Вақт тақсимотига эътибор.	10	8	6	4	2
5	Методологик таҳлил. Фанга оид илмий ёндашувлар, миллий-тарихий қадриятларимиз, анъаналаримиз, буюк алломаларимизнинг фикри, Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси, таълим-тарбияга оид қонун, фармон ва қарорлар, хориж педагогларининг илғор тажрибалари (қиёсий ёндашувлар).	10	8	6	4	2
6	Психологик таҳлил. Ўқувчи (талаба)ларнинг руҳан, жисмонан соғломлиги, кайфияти, жамоадаги соғлом муҳит, ўзаро мулоқот маданияти, сезgirlлиги, топқирлик, ҳозиржавоблик, киришимлилик, фаоллик, ўқитувчи-ўқувчи (талаба)нинг муносабати, талабанинг диққати, ҳатти-ҳаракати, эмоционал кечинмалар, муаммоли вазиятлар ва уларни психологик ечимлари, талабанинг идроки, мантиқий образли ҳамда аналитик тафаккури, индуктив ва дедуктив хулосалар чиқаро билиши ва ҳоказо.	10	8	6	4	2
7	Педагогик таҳлил. Ўқитувчининг касб одоби ва масъулиятни ҳис этиши, педагогик маҳорат, мақсадни аниқ кўя билиш, ўзаро муносабат (“субъект ёки объект” ёки “субъект–субъект”), талабага касбий тарбияни бера олиши, миллий ва умуминсоний тарбияни амалга ошириши, илғор инновацион педагогик тажрибалар татбиқи, ҳамкорлик педагогикасининг ҳолати, дарс лойиҳаси (дарс типи тузулмаси)ни мақсадга мувофиқлиги, талабанинг мустақил фикр ривожини, ижтимоий	10	8	6	4	2

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

	фаоллиги, вазифа (мустақил топширик) юклай олиши.					
8	Ўқитувчини ўз фаолиятини ўзи таҳлил этиши. Ўқитувчи дарс олдида қўйилган мақсадга қай даражада эриша олганлигини, ютук ва камчиликларини, бошқа дарсларни кузатиш жараёнидаги қиёсий фикрларини таҳлил олдидан сўзлаб беради.	10	8	6	4	2
9	Хулосалар:	10	8	6	4	2
10	Тавсиялар:	10	8	6	4	2
Жами тўплаган балл:						

Дарсга баҳо бериш бўйича: Жами рейтинг балл: _____

Дарсга ташриф буюрганлар:

_____ (Ф.И.Ш., имзо)

_____ (Ф.И.Ш., имзо)

_____ (Ф.И.Ш., имзо)

Профессор-ўқитувчининг дарс таҳлили, хулоса ва тавсиялари:

1. Ташкилий таҳлил
2. Илмий таҳлил
3. Дидактик (таълимий) таҳлил
4. Методик таҳлил
5. Методологик таҳлил
6. Психологик таҳлил
7. Педагогик таҳлил
8. Хулоса ва тавсиялар

Дарс сифатига берилган фикрлар ва тавсиялар билан танишдим: _____

(Дарс олиб борган ўқитувчи Ф.И.Ш. ва имзоси). Сана _____

Мазкур “Очиқ ва ўзаро ташриф дарсларига баҳо бериш” бланкаси Гулистон давлат университети Илмий Кенгашининг 2017 йил 28 сентябрдаги 2-сонли йиғилишида муҳокама қилиниб амалиётга тавсия этилган. (Тузувчи: проф. Ҳ.Абдукаримов).

Хулоса ўрнида шунга айтиш лозимки, ўқитувчи ота-она каби ўқувчининг қалбига йўл топиши керак. Қалби орқали ўқувчининг онгига таъсир кўрсатилса, руҳий кенгликлари хос самарадорликка эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-ж. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006. – 672 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-ж. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2007. – 688 б.
3. О.Сувонов. Педагогик маҳорат.-Т.: Bookmny print, 2024. – 230 б.
4. Ҳ.Абдукаримов: Касбий педагогик фаолият.-Т.: Маънавият, 2010. – 160 б.

Муаллиф:

Абдукаримов Хабибулло - Гулистон давлат университети, Педагогика ва психология кафедраси профессори, педагогика фанлари номзоди.

UDK: 378.147

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF COMPUTER SCIENCE TEACHERS DURING THE PERIOD OF TRAINING

INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ В ПЕРИОД ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Axmedova Shoiraxon Bilalxanovna

Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Andijon shahar, Istiqlol ko'cha 8-uy.

E-mail: shoira.ahmedova.66@mail.ru

Abstract. This article recommends methods for the psychological development of creative abilities of computer science and information technology teachers during the period of advanced training, based on a step-by-step methodology of creative teaching.

Key words: methods, psychological characteristics, education, educational technology, development, creativity, educational programs and tools, skills, thinking, learning.

Аннотация. В данной статье рекомендуются методы развития педагогико-психологических и творческих способностей учителей информатики и информационных технологий в период повышения квалификации, основанные на поэтапной методике творческого обучения.

Ключевые слова: методы, психологические особенности, образование, образовательная технология, развития, творческие способности, образовательные программы и средства, навыки, мышление, обучение.

Кирish. Jahon ta'lim muassasalarida fan va innovatsiya faoliyatining yutuq va imkoniyatlaridan keng foydalanish, barcha sohalarni izchil va barqaror rivojlantirish, mamlakatning munosib kelajagini barpo etish muhim omili.

Ta'lim integratsiyasi dunyoning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaralib, 2030-yilgacha bo'lgan xalqaro ta'lim kontsepsiyasida "butun hayot davomida ta'lim olish"[1] dolzarb vazifa sifatida belgilanib, malaka oshirish jarayonida pedagoglar, jumladan, informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, malaka oshirish kursi tinglovchilarining axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'qituvchilarning malakasini oshirishning muqobil shakllarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha amaliyot ishlar olib borilmoqda[6].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning ko‘pchiligi ma‘lum tilning boyish manbaidir. Frazeologik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari o‘rtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq so‘zlardan tashkil topgan, ma‘no va shakl jihatdan turg‘un bo‘lgan so‘zlar bog‘lanmasidir. Frazeologizmlar ko‘chma ma‘noda, obrazli ifodalarda qo‘llaniladi hamda tarixiy qo‘llanish me‘yorlariga, usullariga ega bo‘lib, ularning ma‘nosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazeologizmlar so‘z birikmasi yoki gap shaklida bo‘lsa ular nutq birligi bo‘lgan gaplardan farq qiladi. Ular lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi, so‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir.

A. V. Kuninning fikricha, u turg‘un xususiyatga ega birlik sifatida xarakterlanadi. Tilshunos olimlarning turg‘unlik haqidagi fikrlari bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, chunki ularning frazeologik birliklar turg‘unligi deganda undan tayyor holda foydalanishni nazarda tutishadi. Turg‘unlik haqida tushuncha frazeologiya uchun muhim hisoblanadi, chunki frazeologiya aksariyat nazariy va amaliy masalalarining hal etilishi mazkur tushuncha bilan bevosita bog‘liq.

Frazeologiyaning turg‘unlik nazariyasini o‘rganish kompleksi yondoshuvni talab etadi. Frazeologiyaning turg‘unlik nazariyasi unga xos bo‘lgan turli tipdagi invariantga, ya‘ni uning u yoki bu unsurining o‘zgarib turishiga asoslanadi. A.V. Kunin turg‘unlikni besh turga bo‘lishni tavsiya etgan [12]. Ular istemoldagi turg‘unlik, struktursemantik turg‘unlik, semantik turg‘unlik, leksik hamda sintaktik turg‘unliklarni o‘z ichiga oladi.

Qisqa qilib aytganda, frazeologik birliklarning turg‘unligi unga xos bo‘lgan turli turdagi mikro turg‘unliklar hajmidan iboratdir.

Shunday qilib frazeologik birlik nima degan savolga quyidagicha javob berish mumkin- frazeologik birlik bu so‘zning/ leksemaning to‘liq yoki qisman ma‘noga ega bo‘lgan turg‘un birikmasidir.

F. de Sossyur sintagma, uning belgilari haqida so‘z yuritar ekan, tilda shunday tayyor birliklar bor, ularning lisoniy tabiati ma‘nosi va sintaktik xususiyatlaridan kelib chiqadi, bunday birliklar tayyor holda an‘anaga ko‘ra qo‘llaniladi, -deb ta‘kidlagan edi [3]. G‘arb tilshunosligida frazeologizmlar keng va chuqur o‘rganilmay kelinmoqda. Frazeologizmlarga idiomalar sifatida qaralib, lug‘atlar tuzilgan, lekin chuqur ilmiy tadqiq qilinmagan. Frazeologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘proq rus va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilmoqda. Bu sohada ayniqsa taniqli Rossiya olimi A.V.Kuninning xizmati kattadir. A.V. Kunin ingliz va rus tillari frazeologik lug‘atining ham muallifidir (I nashri M.:1955, II nashri 1964, III nashri tuzatilgan M.: 1967). Mazkur tadqiqotda bu lug‘atda berilgan zoonimik frazeologizmlar ham ko‘rib chiqildi.

Sh.Rahmatullayev tuzgan «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati» ham o‘rganildi (Toshkent: 1978). Frazeologiya va xususan zoonimik leksikani o‘z ichiga olgan frazeologizmlar haqida mavjud tadqiqotlarga qisqacha sharh berish lozim.

A.V.Kunin frazeologiyani leksikologiyaning bir qismi emas, balki alohida bir fan sifatida o‘rganilishi tarafdorlaridan biri edi. U frazeologizmlarni nutqda qo‘llanilishi jihatidan tahlil qiladi va frazeologik birliklarni ayrim guruhlariga ajratadi [4].

V.V.Vinogradov frazeologik birliklarning motivatsiyasini hisobga olib, uch turga ajratadi. Ular: frazeologik birikma, frazeologik chatishma va frazeologik butunliklardir [5].

N.Amosova frazeologik birliklarni tahlil qilar ekan, frazeologik birliklarni ularning komponentlaridan bittasi yoki hammasi ko‘chma ma‘noda kelishiga qarab, ikki xil guruhga ajratadi. U agar frazeologik birliklardagi komponentlarning biri ko‘chma ma‘noda kelsa, ularni «frazema», agar hamma komponentlar ko‘chma ma‘noda kelsa, ularni “idioma” deb atash fikrini ilgari suradi [6].

A.I.Smirnitskiy frazeologik birliklarni so‘zga ekvivalent qilib ko‘rsatadi va ularning gapda biror bir gap bo‘lagi bo‘lib kelishini ta‘kidlaydi [7].

Frazeologiya tez taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu sohada o'zbek tilshunosligida ham salmoqli ishlar mavjud (Raxmatullayev.,1957, Pinxasov., 1969, Salomov.,1961, Mamatov.,1991, va boshqalar). Agar Sh.Rahmatullayev o'zbek tilshunosligiga "frazeologiya" va "turg'un birlikmalar" tushunchalari, ularni tahlil qilishning asosiy qonuniyatlarini olib kirgan bo'lsa, I. Pinxasov frazeologiyani leksikologiyani bir qismi sifatida frazeologik birliklarning yasaliishi, ma'nosi, motivatsiyalanganlik darajasini o'rganish sohalarini tadqiq qildi. Yo'ldoshev esa alohida olingan semantik guruhlariga mansub frazeologik birliklarda ma'no bo'yoqlarining o'ziga xosligi, ularda leksik mazmun yoki so'z ma'nosi bilan sinonimiklikning kontekstual qonuniyatlarini tahlil etgan. Yana bir olimimiz G. Salomov esa asosiy e'tiborni frazeologik birliklarni tarjima qilish masalalariga qaratgan.

Ingliz tilidagi idiomalar lug'ati bir necha marta Angliya, AQSH, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda nashr qilingan. Xorijiy tilshunoslar frazeologik birliklarni «idioma» deb ataydilar va ularni grammatika va leksikologiyaga tegishli deb, ularga «So'zlarning semantik birikmasi bo'lib, ko'pincha sintaktik chegaralangan alohida birlik sifatida qo'llaniladi»-deb ta'rif beradilar. Shunday qarash va «idioma» terminini qo'llash rus tilshunosligida ham mavjud.

Jahon tilshunosligida hozirgi kunga qadar frazeologiya sohasi keng va tor ma'noda tushunilmoqda. Frazeologiyani keng doirada tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlar va boshqa turdagi turg'un birliklarni kiritadilar [9]. Top doiradagi frazeologiya tarafdorlari esa yaxlit ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan chegaralanadilar.

Ular frazeologik tadqiqotlarida faqat birikmaga teng bo'lgan frazeologik birliklarni tadqiq etib, maqol va matallarni frazeologiya obyekti sifatida baholamaydilar [10]. Frazeologiyani obyekti tor doirada tahlil etuvchi olimlar o'z asarlarida frazeologik birliklarni o'z tabiati bilan so'z birikmasidir, degan dalilni keltiradilar va o'z navbatida maqol, matal va aforizmlarni frazeologizmlardan chetda qoldiradilar. Shunday qilib, frazeologiyani hajmini tor doirada tushunuvchi olimlar uni keng doirada tushunuvchi olimlarga fikran qarama-qarshi pozitsiyani egallab kelmoqdalar. Mazkur tadqiqotda biz A.V.Kunin nazariyasiga asoslandik va frazeologik birliklarning tarkibiga ko'chma ma'nodagi turg'un so'z birliklarini va ko'chma ma'noda kelgan gap shaklidagi maqol va matallarni ham to'raligicha kiritamiz. Keyingi davrda tildagi maqollarni o'rganish frazeologiyani alohida sohasi hisoblanuvchi paremiologiyada (grekcha poromia - maqol, matal) amalga oshirilmoqda va hatto turli tillardagi maqollarni qiyosiy chog'ishtirish paremiologiyada tadqiq qilinmoqda[11]. A.V.Kunin frazeologik birliklarni guruhlariga bo'lib o'rganar ekan, u to'rtinchi guruhga kommunikativ frazeologik birliklarni kiritgan, maqol va matallar ham xuddi shu yerdan o'rin olgan. A.V.Kuninning ta'rifiga ko'ra frazeologik birliklar butunlay yoki qisman ko'chma ma'noni ifodalagan turg'un birliklardir [12].

Ingliz tilining Amerika adabiy variantida frazeologizmlar ko'p qo'llaniladi. Ingliz tilida, xususan ingliz tilining Amerika adabiy variantida frazeologizmlar ko'p qo'llanilishiga sabab, yangi tushunchalarning rivojlanishi va ularni ifodalash uchun yangi iboralar zarurligidadir, lekin yangi iboralar doim ham tuzilmay, bu tilda bor bo'lgan so'zlardan ularni biriktirish yo'li bilan yangi ma'nodagi iboralar yaratilishini ko'rsatadi [13].

Xulosalar. Demak frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: frazeologik birlik tarkibida kamida ikkita so'z qatnashishi kerak, frazeologik birliklardagi bir necha mustaqil so'zlar bir gap bo'lagi yoki gap vazifasini bajarishi mumkin, frazeologik birliklarda komponentlar butunligicha uzoq vaqt barqaror bo'ladi, shuningdek, frazeologik birliklar o'zlarining ta'sirchanligi, bo'yoqdorligi bilan tinglovchiga ta'sir qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sherba L.V. Yazikovaya sistema i rechevaya deyatelnost, L., 1974. – 120 s.
2. Balli Sharl. Fransuzskaya stilistika. – Moskva, 1961. – 192 s.
3. Sossyur F. Trudi po yazikoznaniyu. – M.: Progress, 1977. – 695 s.
4. Kunin A. V. Angliyskaya frazeologiya. – M.: Izd. Visshaya shkola, 1970. – 344 s.
5. Vinogradov V. Osnovnie tipi leksikologicheskix znacheniy slova/Izbr. Trudi. – m.: Nauka, 1977, s162-189.
6. Amosova N. N. Osnovi angliyskoy frazeologii. - Izd. Leningradskogo universiteta. – L., 1961. – 207 s.
7. Smirnitkiy M. Leksikologiya angliyskogo yazika. – M.,1956. – S. 21-22.
8. Rahmatullayev Sh. Fe'l turkumiga to'g'ri keluvchi frazeologik birliklarning grammatik qurilishining asosiy ko'rinishlari. // ToshDU. Ilmiy ishlari. 104- chiq. – Toshkent, 1957. – b.78
9. Kunin A. V. Angliyskaya frazeologiya. – M.: Izd. Visshaya shkola, 1970. – s. 135
10. Amosova N. N. Osnovi angliyskoy frazeologii. - Izb. Leningradskogo universiteta. – L., 1961. – 207 s.
11. Bakirov P.U. Semantika i struktura nominatsentricheskix poslovis. – Tashkent: «Fan», 2006. – 297 s.
12. Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika. – Moskva: Visshaya shkola, 1986. – 336 s.
13. Makkai, A. Idiom Struktur in English. The Hague: Mouton, 1972. – p. 234-236.
14. Pinxasov Ya.D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Leksikologiya va frazeologiya. – Toshkent, 1969. – 97-102.

Muallif:

Muxiddinova Saboxat Axmadjanovna - Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi.

UDK: 408.7:943.75 (045)

THE ROLE OF DIALECTS IN THE NATIONALIZATION OF FOREIGN WORDS

XORIJIIY SO‘ZLARNI MILLIYLASHTIRISHDA SHEVALARNING O‘RNI

РОЛЬ ДИАЛЕКТОВ В НАЦИОНАЛИЗАЦИИ ИНОСТРАННЫХ СЛОВ

Xamrayev Fozilbek Yuldoshevich

Qarshi davlat universiteti, 180103.Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17- uy.

E-mail: Xamrayev-fozil@mail.ru

Abstract. The article shows the role of dialectal words in the nationalization of new loanwords in the Uzbek language. In it, it is justified that dialect words are an important source after active word formation methods in the current Uzbek literary language in creating new names. Among the Uzbek dialects there are thousands of words that can fill the lexical gaps in the literary language. The importance of dialects in enriching the literary language is no less than other types of creating new names. Because the way of life, customs, culture, in a word, nationality of a particular nation is more embodied in the lexicon of dialects of that nation. From this point of view, it is appropriate to use dialect words effectively to fill the lexical gaps in the literary language and to nationalize foreign words. In the article, several dialectal words belonging to different regions are analyzed, proposals are made for using them instead of foreign words, and they are formed on the basis of a table.

Key words: dialect, literary language, historical words, new words, foreign words, dialectal dictionaries, nationalization, alternative.

Аннотация. В статье показана роль диалектных слов в национализации новых заимствований в узбекском языке. В ней обосновано, что диалектные слова являются важным источником после активных словообразовательных способов в современном узбекском литературном языке при создании новых названий. Среди узбекских диалектов есть тысячи слов, способных заполнить лексические пробелы в литературном языке. Значение диалектов в обогащении литературного языка не меньше, чем других видов создания новых имен. Потому что образ жизни, обычаи, культура, словом, национальность того или иного народа больше воплощается в лексике диалектов этого народа. С этой точки зрения целесообразно эффективно использовать диалектные слова для заполнения лексических пробелов в литературном языке и национализации иностранных слов. В статье анализируются несколько диалектных слов, принадлежащих к разным регионам, высказываются предложения по их использованию вместо иностранных слов, формируются на основе таблицы.

Ключевые слова: диалект, литературный язык, исторические слова, новые слова, иностранные слова, диалектные словари, национализация, альтернатива.

Kirish. Har qanday adabiy til asosini shu til shevalarining saralanmasi tashkil etadi. Jonli o‘zbek tili ham rang-barang shevalar va bir nechta lahjalarni o‘zida jamlagan. O‘zbek tili turkiy tillar oilasining qarluq-uyg‘ur guruhi (lahjasi)ga mansub, deb belgilangan bo‘lsa-da, unda boshqa guruh (qipchoq, o‘g‘uz) tillariga mansub belgilar ham ko‘p uchrashi tabiiy hol. Shunga ko‘ra, o‘zbek tilini ko‘p dialektli tillardan biri sifatida baholash mumkin. Shu o‘rinda *sheva*, *lahja* va *dialekt* atamalariga qisqacha to‘xtalib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

Sheva – biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi [1]. Bunda butun bir hudud tarkibidagi viloyat, shahar, tuman, shuningdek, qishloq doirasida farqlanuvchi birliklar nazarda tutiladi. Masalan, *Andijon shevasi*, *Shahrisabz shevasi*, *Qarnoq shevasi* kabi.

Lahja – shevalardagi asosiy xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisini nazarda tutadi. Masalan, *o‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi*, *qipchoq lahjasi*, *o‘g‘uz lahjasi* [2]. Bu atama o‘rni bilan yana-da kengroq ma’noda, ya’ni tarixiy taraqqiyot natijasida alohida shakllangan xalqning milliy tili ma’nosida ham qo‘llana oladi. Masalan, *turkiy tillarning qirg‘iz lahjasi* [3].

Dialekt – tilshunoslikka doir adabiyotlarda ko‘pincha “lahja”, ba’zan “sheva” ma’nosida qo‘llanadi. Umuman, *dialekt* atamasi tor va keng ma’nodarga ega. B.To‘ychiboyev va B.Hasanovlarning “O‘zbek dialektologiyasi” darsligida aytilishicha, *dialekt* xalqaro atama bo‘lib, umumlingvistik “dialekt” ma’nosida ishlatilishi lozim. O‘zbek dialektologiyasi fani uchun *sheva* va *lahja* atamalarini qo‘llash yetarlidir [3].

Bu uch tushuncha o‘rtasidagi farq ko‘proq nazariy jihatdan qiymatga ega, amalda ularni bir-biridan farqlamaslik, aralashtirib, o‘zaro sinonim sifatida qo‘llash holatlari ko‘p kuzatiladi. Buni tabiiy hol sifatida tushunish to‘g‘ri bo‘ladi. Xususan, Fitrat *sheva* atamasi orqali mustaqil milliy tillar (o‘zbekcha, usmonlicha, tatarcha)ni nazarda tutgan bo‘lsa [4], ayrim manbalarda *lahja* atamasidan *sheva* o‘rnida foydalanilgan [2].

Aslida, bu uch atama rus tilidagi “narechiye” (lahja), “dialekt” (dialekt) va “govor” (sheva) tushunchalarini o‘zbek tilida ifodalash ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan [1]. Agar ilmiy matnda jiddiy zarurat bo‘lmasa, bu atamalarni bir-biri bilan qorishtirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Turkiy tillarga mansub turli qabila tillari, shevalarni jamlash, tasnif qilish ishlarini buyuk qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy boshlab bergan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikdagi shevalarni tadqiq etishga qaratilgan dastlabki izlanishlar XX asrning ikkinchi choragiga to'g'ri keladi. 1929-yil may oyida o'tkazilgan Til islohoti va imlo konferensiyasida imloni takomillashtirish bilan birga adabiy til leksik normalarini belgilash yuzasidan ham bir qator chora-tadbirlar ko'rishga, o'zbek xalq shevalarini o'rganish va shu asosda adabiy til leksikasini meyorlashtirishga ham e'tibor berildi [5]. Mazkur konferensiya doirasida dialektal so'zlarni adabiy tilga qabul qilish mezonlari ham ishlab chiqilgan [6].

Shundan keyin o'zbek shevalarini o'rganishga G.Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, M.Mirzayev, F.Abdullayev, B.Jo'rayev, S.Ibrohimov, A.Ishayev va boshqa ko'plab olimlar o'zlarining katta hissalarini qo'shishdi.

1988-yilgacha bo'lgan davrga mansub dialektologiyaga oid kitoblar va dissertatsiyalar (9 ta doktorlik, 56 ta nomzodlik ishlari) tarkibidagi shevaga xos so'zlarni statistik tadqiq etgan shevashunos olim A.Ishayevning qayd etishicha, o'zbek tilidagi dialektal lug'atlarda jami qirq ming so'z mavjud [7]. 1981-yilda nashr etilgan izohli lug'at misolida "O'zbek tilining izohli lug'ati uchun dialektizmlardan so'z tanlash prinsiplari va ularning berilishi"ni tadqiq etgan R.Jomonovning aytishicha, O'TIL (1981)ga 715 ta sheva so'zi kiritilgan [8]. O'TILning keyingi nashrida bu miqdor 1,6 barobarga ko'payib, 1177 tani tashkil etgan [9]. Ulkan shevalar zaxirasiga ega bo'lgan, ko'p dialektli o'zbek tili uchun buni qoniqarli ko'rsatkich deb bo'lmaydi. Sh.Shoabdurahmonovning "So'z xazinasini" nomli maqolasida keltirilishicha, o'zbek shevalari orasida adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lgan minglab so'z mavjud [10].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Albatta, dialektizmlarning u yoki bu turi izohli lug'atlarda beriladi degan so'z, bunday so'zlar adabiy tilda qo'llanishga, ifoda vositasi bo'la olishga loyiq degan ma'noni ham anglatadi [8]. Lekin, tilshunos (shevashunos) olimlar tomonidan tavsiya etilgan dialektal so'zlarning adabiy tilga qabul qilinishi oson kechmaydi. Aytish mumkinki, shevaga xos birliklarni yig'ish, tasnif va tahlil qilishdan ko'ra ularning keng iste'molga kirishini ta'minlash qiyinroq. Buning bir nechta o'ziga xos sabablari mavjud.

Birinchidan, sheva so'zi adabiy til talablari (fonetik, leksik, uslubiy)ga mos bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, adabiy lashtirish uchun tavsiya etilgan shevaga xos so'zlarning ko'pchiligi adabiy tildagi muayyan so'zga ma'nodosh bo'ladi. Chunki adabiy til birliklarining aslan bir qancha shevalardan saralab olingani barchaga ma'lum, aniqrog'i, adabiy tilda sheva so'zlari hisobiga to'ldirilishi lozim bo'lgan leksik bo'shliqning o'zi kam.

Uchinchidan, sheva so'zlarining qo'llanish doirasi cheklanganligi tufayli barchaga birday tushunarli bo'lmasligi mumkin. Shu kabi jihatlarni hisobga olib, akademik A.Hojiyev tilda paydo bo'lgan yangi tushunchalarni nomlashda affiksatsiya usuli va kalkalash orqali so'zlar hosil qilishni shevalardan so'z olishga nisbatan yuqori o'ringa qo'yadi [11]. Tilshunos olim O.Shukurov A.Hojiyev fikrini quvvatlab, bugungi kun globallashuv sharoitining leksikaga kuchli ta'siri va so'z o'zlashtirishning faollashuvi jarayonidan kelib chiqib kalkalash usuli so'z o'zlashtirishdagi ustuvor yo'l sifatida tanlanishi lozim, deb hisoblaydi [12]. Mazkur holat dialektlarning til leksikasini boyitishdagi imkoniyatlarini yetarlicha o'rgangan olimlar tomonidan ham tan olinadi [9].

Boshqa tomondan qaraganda, sheva so'zlarining adabiy tilni boyitishdagi ahamiyati yangi nomlar yaratishning boshqa tiplaridan kam emas. Buni quyidagi faktlar orqali asoslash mumkin.

Birinchidan, muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati, bir so'z bilan aytganda, milliyligi ko'proq o'sha xalqning shevalar leksikasida mujassam bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda, xorijiy so'zlarni milliy lashtirishda sheva so'zlaridan samarali foydalanish o'rinli hisoblanadi.

Ikkinchidan, sheva so'zlarining qo'llanish doirasi muayyan hudud (qishloq, shahar) bilan chegaralangan bo'lsa-da, ularning ildizi uzoq tarix va keng mintaqalarni o'zida qamrab oladi. Ya'ni sheva so'zlarining ko'pchiligi tor doiradagi kishilik jamiyati tomonidan ixtiro qilingan til birligi emas, balki tarixan keng iste'molda bo'lgan so'zlarning muayyan hududlarda saqlanib qolgan namunalaridir. Shunga ko'ra, sheva so'zlarining adabiy lashtirish ma'lum darajada tarixiy so'zlarning tiklanishini ham anglatadi. Xususan, shevalar tarkibidagi *ucha* (orqa), *supra / surpa* (dasturxon), *bultur* (o'tgan yili), *kurra* (eshakning bolasi), *tovushqon* (quyon), *mengzamoq* (o'xsha(t)moq), *yug'urmoq* (xamir qormoq), *arig'* (toza, pokiza), *emgak* (mehnat, mashaqqat), *olim / alim* (olinadigan qarz) kabi juda ko'p so'zlarni tarixiy manbalarda ham uchratish mumkin.

A.Ishayevning o'zbek xalq shevalari va tarixiy so'zlarning aloqadorligi bo'yicha olib borgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, XI asr yozma yodgorligi bo'lgan «Devon»dagi til faktlarining asosiy qismi hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan o'zbek tilining qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalariga mansub shevalarda ko'proq saqlangan [13]. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasini tadqiq qilgan A.Allaberdievning quyidagi ma'lumotlari orqali bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin: "Devonu lug'otit turk"da birgina o'g'uz belgisi bilan berilgan 218 ta so'zning 74 tasi (34,5 foizi) BO'SH (Buxoro o'g'uz shevalari)da o'zgarishsiz yoki ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, leksik ma'nosini yo'qotmagan holda faol qo'llanmoqda. Ularning 40 tasi ham o'zbek adabiy tilida, ham BO'Shda ishlatilsa, 34 tasi faqat BO'SH leksikasida saqlanib qolgan [14].

B.Bafoyev o'zining "Ko'hna so'zlar tarixi" asarida *tovushqon* so'zining dastlab O'rxun-Enasoy manbalarida (*tabishg'an*, *tabisg'an* shakllarida), keyin Mahmud Koshg'ariy lug'ati (*tavishg'an* shaklida) va Alisher Navoiy asarlarida

(*tovushqon* shaklida) uchrashini, shuningdek, hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida (ozarbayjon, uyg'ur, qo'miq, turkman) va o'zbek tilining turli lahjalarida ba'zi fonetik farqlar asosida qo'llanishini ko'rsatib o'tgan [15].

Arig' so'zini Urganch, Xiva va Xonqa shevalarida [16], shuningdek, Mahmud Koshg'ariy lug'ati [17] hamda Alisher Navoiy asarlarida [18] uchratish mumkin. *Olim* so'zi dastlab Mahmud Koshg'ariy lug'atida qayd etilgan bo'lsa [17], hozirgi Andijon shevasida ham ayni ma'noda ishlatiladi [16].

Uchinchidan, shevalar leksikasi tarkibidagi talaffuzi va imlosi murakkab bo'lgan birliklar fonetik jihatdan qayta ishlangan, muloqot uchun qulay shaklga keltirilgan bo'ladi. Buni o'zga til oilalariga mansub bo'lishiga qaramasdan, o'zbek tiliga chuqur singib, o'z so'zlar qatorida ko'riluvchi ko'plab forscha, ayrim arabcha va ruscha so'zlar misolida ham ko'rish mumkin: Fors-tojikcha *az zot* (tagi bilan) so'zlari o'zbek tiliga *azot* ko'rinishida o'zlashgan bo'lib, "yaxlit, bor bo'yi bilan" degan ma'noni ifodalaydi [19].

Qashqadaryo, Jizzax shevalarida faol qo'llanuvchi obdish (qaynagan suv) so'zi aslan fors-tojikcha *ob* (suv) va *jo'sh* (qaynash) so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan [20]. Shuningdek, *moyana* (f. *moh+ona* – har oydagi, har oylik ish haqi), *paytava* (f. *poy+toba* – oyoqni qizituvchi, *isituvchi*), *bachkana* (f. *bacha+ona* – bola kabi), *pana* (f. *panoh* – xavfsiz joy, himoya, homiylik), *zo'ravon* (f. *zuravor* – zo'rlik keltiruvchi), *ro'para* (f. *rubaru*), *bo'yra* (f. *buryo*) [21] kabi ko'plab fors-tojikcha so'zlarning, *vallamat* (a. *valine'mat*), *savil* (a. *sabil*), *g'azna* (a. *xazina*) kabi arabcha so'zlarning, *do'xtir* (r. *doktor*), *po'rim* (r. *forma*), *patnis* (r. *podnos*) kabi ruscha-baynalmilal so'zlarning o'zbek tiliga oson singishida og'zaki nutqning ahamiyati katta bo'lgan.

Bir qancha arabcha va ruscha-baynalmilal o'zlashmalar (*mutolaa*, *suiiste'mol*, *taassurot*, *autentifikatsiya*, *bibliograf*, *vklyuchatel* kabi) o'zbek tiliga fonetik, grafik jihatdan to'la singmagan, ya'ni ularning o'zga til birliklari ekanligi to'la sezilib turadi, til egalari bunday so'zlarning talaffuzi va imlosida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning bosh sababi so'z o'zlashtirishda qabul qiluvchi til emas, manba til xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratilganligidir.

Ma'lumki, sobiq sho'ro davrida o'zbek tiliga ko'p miqdordagi ruscha yoki rus tili orqali Yevropa tillari so'zlari o'zlashgan bo'lib, ularning katta qismi tillarning tabiiy aloqasi natijasida emas, balki hukmron tuzumning til siyosatiga ko'ra majburan tiqishtirilgan. Vaholanki, o'zbek tilining ichki manbalari, xususan, shevalar leksikasidan ularning muayyan qismini milliyashtirish uchun mos muqobillar topish imkoniyati mavjud edi. Xususan, rus tilidan kirgan *kerosin* so'zining Jizzax shevasida *yermoy*, Qashqadaryo shevasida *yeryog'i*, Laqay shevasida *jerjov* ko'rinishidagi dialektal muqobillari mavjud [16]. *Yer yog'i*, *yer moy* so'zlari dastlab XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zbek matbuotida ruscha *neft*, *kerosin* so'zlari o'rnida ishlatila boshlangan [22], keyinchalik shu kabi ko'plab milliy nomlardan voz kechilib, shunchaki ruschadan aynan ko'chirib o'tkazish "ma'qul ko'rilgan".

Qishning sovuq kunlarida tanani issiq saqlash uchun ichdan maxsus kiyim kiyiladi. Lekin o'zbek adabiy tilida uni nomlovchi atama mavjud emas. So'zlashuv nutqida (ommalashib ravishda emas) buning uchun ruscha *belyo* so'zidan foydalaniladi. O'zbek tili tabiatiga mos bo'lmagan yot so'z ommalashib ulgurmasdan unga milliy muqobil topish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'zbek shevalari leksikasiga tayanish mumkin, ya'ni Hazorasp shevasidagi *ichmak* [16], Farg'ona shevasidagi *ichik* [23] so'zlari ayni shu ma'noda qo'llanadi. *Ichik(moq)* so'zining adabiy tilda boshqa ma'nosi ("kuchli darajada ko'rishish, yetishish ishtiyoqida bo'lmoq, mushtoq bo'lmoq") [24] borligini e'tiborga olib, *ichmak* so'zini *belyo* o'rnida amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Rus tili orqali o'zlashgan *salfetka* (ital. *salvietta*) so'zi "ovqat vaqtida yoki undan so'ng og'iz va qo'lni artadigan qog'oz yoki kichkina sochiq" ma'nosini ifodalaydi [25]. Iqon shevasida ayni shu ma'noga ega bo'lgan *maychachiq* so'zi mavjud [16]. Undan adabiy til talaffuzi va imlosiga mos ravishda *moysochiq* tarzida foydalanish mumkin. Shuningdek, keyingi paytlarda so'zlashuv nutqida "tarkibida maxsus suyuqlik mavjud bo'lgan salfetka" (gigiyena vositasi)ga nisbatan ruscha *vlajnyaya (salfetka)* so'zidan foydalanilyapti. Uni *moysochiq* bilan deyarli bir xil vazifa bajargani uchun shunga yaqin tarzda *namsochiq* deb atash (milliyashtirish) o'rinli bo'ladi.

Adabiy tilda bir so'z bilan atash qiyin bo'lgani uchun birdan ortiq so'z bilan ifodalanadigan ayrim birikmali nomlarning shevalar tilida qisqa va soddam bilan atalishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, ruscha va o'zbekcha so'zlar asosida hosil qilingan *Militsiya tayanich punkti* birikmasi Qoraqalpog'istonning o'zbek shevalari (Qilichboy qishlog'i) nutqida oddiygina *bo'limcha* so'zi orqali ifodalanadi [26].

Umuman, turli manbalar (dialektal matnlar va lug'atlar, badiiy asarlar, kishilar bilan bevosita muloqot, internet materiallari)dan foydalanib, xorijiy so'zlar (dialektal muqobili mavjud bo'lgan o'zlashma so'zlar va neologizmlar)ni milliyashtirish uchun shevaga oid so'zlar zaxirasini yaratish shevashunoslar va tilshunoslar zimmasidagi ustuvor masalalardan hisoblanadi. Quyidagi jadvalda ayrim o'zlashmalarning tavsivaviy xarakterdagi shevaviy muqobillarini kuzatish mumkin:

sheva soʻzi	Manbasi	maʼnosi	xorijiy soʻz	maʼnosi	izoh
<i>Tashnov</i>	Shukur Xolmirzayev, saylanma	uyning kirish burchagida qoʻl yuvish va yuvinish uchun maxsus joy	<i>umivalnik</i>	yuz-qoʻl yuvish uchun moʻljallangan joʻmrakli qurilma	<i>tashnov</i> soʻzini soʻzlashuv nutqidagi rakovina oʻrnida ham qoʻllash mumkin
<i>uvuldiriq / oʻvildiriq</i>	Urganch shevasi	baliq tuxumi	<i>ikra</i>	baliq tuxumi va undan tayyorlangan taom	<i>uvuldiriq</i> soʻzini taom maʼnosida ham qoʻllash mumkin
<i>Maychachiq</i>	Iqon shevasi	qoʻl artadigan sochiq	<i>salfetka</i>	ovqat vaqtida yoki undan soʻng ogʻiz va qoʻlni artadigan kichkina sochiq	uni adabiy tilga mos holda <i>moysochiq</i> tarzida nomlash maʼqulroq
<i>qirsildoq / qirtloqi</i>	qarluq, qipchoq lahjalari (internet maʼlumoti)	qirs-qirs ovoz chiqaruvchi narsa, yegulik	<i>chipsi yoki chips</i>	ingichka kesilib, qovurilgan va quritilgan kartoshka	leksik jihatdan <i>qirsildoq</i> soʻzi bu tushunchaga koʻproq mos keladi

Xulosa. Albatta, jadvalda keltirilgan misollar tavsiyaviy xususiyatga ega. Bu kabi shevaviy muqobillar, tabiiyki, maxsus ekspertlar tomonidan ilmiy jihatdan yanada chuqurroq tahlil etilishi kerak hamda kerakli oʻrinlarda jamoatchilik fikri ham hisobga olinishi lozim.

Xullas, oʻzbek shevalari leksikasi juda boy zaxiraga ega, uni milliy nomlar yaratishda soʻz yasash va kalkalashdan keyingi eng muhim manba sifatida baholash mumkin. Qolaversa, uning jonli xalq tili xususiyatlarini oʻzida jamlaganligi, tarixiylik jihatdan bebaho adabiy durdonalar tili bilan chambarchas bogʻliqligi oʻzbek adabiy tilining barqaror rivojlanishida sheva soʻzlarining oʻrni gʻoyat muhim ekanligini koʻrsatadi. Shunga koʻra, oʻzbek shevalari tarkibidagi kerakli soʻzlarni saralab olish, ularni adabiy lashtirish va keng jamoatchilik hukmiga havola etish soha mutaxassislaridan keng qamrovli va tizimli yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, 1978. – Б. 6.
2. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 31
3. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 6.
4. 1921 йил Тил ва имло қурултойининг чиқарган қарорлари. Тошкент, 1922, 32-бет.
5. Тоғʻаев Т. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – Т.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – В. 68-72.
6. Ўзбек адабий тили тўғрисидаги қарор. Манба: “Аланга” журнали, 1929 йил, №5. – Б. 4.
7. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Т.: Фан, 1990. – Б. 18.
8. Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли луғати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фанлари номзоди... дис. – Т., 1991. – Б. 55.
9. Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик бўшлиқларни тўлдиришнинг диалектал асослари. Монография. – Тошкент: Bookmanу print, 2022. – Б. 26-27.
10. Шоабдурахмонов Ш. Сўз хазинаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993 йил. – №5-6. – Б. 26-30.
11. Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг таракқиёти. III жилдди. III жилд. Сўз ясалиши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1988. –Б. 150.
12. Шукуров О. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (Мустақиллик даври): Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Қарши: 2022. –Б. – 226.
13. Ишаев А. “Девону луғотит турк” ва ўзбек шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1971, № 5. – Б. 65-67.
14. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент: 2018. – Б. 12.
15. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 99.
16. Ўзбек халқ шевалари луғати (масъул муҳаррир: Шоабдурахмонов Ш.). – Т.: Фан. 1971. – Б. 20.

17. Махмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. – Б. 39.
18. Навоий асарлари луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 56.
19. Musayeva F. O'zbek xalq so'zlari – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023. – В. 65.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. III jild. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – В. 427
21. Алимова З. Ўзбек тилидаги форсча-тожикча ўзлашмаларнинг фонетик, лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона: 2020. – 13-17 б.
22. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар (XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошлари). – Т.: Фан. 1981. – Б. 99-100.
23. Турғунов Т. Ўзбек тилининг Ғарбий Фарғона шевалари (фонетик ва морфологик хусусиятлари): Филол. фанлари номзоди... дис. – Т., 1968. – Б. 213.
24. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. II jild. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2023. – В. 604.
25. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. IV jild. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – В. 503.
26. Ибрагимова У. Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида сўз ясалиши: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши: 2019. – 15 б.

Muallif:

Xamrayev Fozilbek Yuldoshevich – Qarshi davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrası 2-kurs tayanch doktoranti.

UO'K: 821.512.133

THE ROLE OF ALISHER NAVOIY IN KIT'A GENRE DEVELOPMENT

РОЛЬ АЛИШЕРА НАВОЙ В РАЗВИТИИ ЖАНРА КИТ'Ы

QIT'A JANRI TARAQQIYOTIDA ALISHER NAVOIYNING O'RNI

Jo'raqulov Sardor Mashrab o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: sardorjoraqulov257@gmail.com

Abstract. In this article, the role of Alisher Navoi's kit'as in the development of the continental genre and the question of their contribution to the improvement of this genre, the reflection of spiritual and moral views in Navoi's kit'as, in particular, the human identity and spirituality in the works, attention is paid to aspects such as the reflection of the expression of moral views. In addition, there is talk about the depth of content and the philosophies of the edges of meaning in Navoi texts. In the article, the kit'a genre has a special place among the genres of Uzbek classical poetry, the problem of the theory and poetics of the qit'a, the lack of a complete research on the history of the origin of the genre, the scope of the kit'a genre, the continental framework problems such as poetic images, use of poetic arts in kit'as, classical Uzbek kit'a writing and the state of modern Uzbek kit'a writing are discussed. The types of the poem and its content, the specific methods of poets, especially Alisher Navoi, in creating the poem were studied in the article. Issues of kit'a poetics, such as rhyming, the skill of using artistic image tools, were also studied. It is thought that the poem occupies a great place in the classical Uzbek poetry with the power of Hazrat Navoi's pen, and that there are 210 verses consisting of 503 verses in "Khazoyinul-maoni" written by Navoi. The importance was paid to concepts such as humanity, conditions of spiritual perfection, and avoidance of bad vices in many continents of Alisher Navoi. By commenting on certain continents, we focused on the human and moral views of the great poet, thereby trying to understand his worldview.

Key words: kit'a genre, artistic expression, scope of topics, didactic content, formal expression, genre perfection, etc.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль Алишера Навои в развитии жанра кит'ы и вопрос их вклада в совершенствование этого жанра, отражение духовно-нравственных взглядов на континентах Навои, в частности, человеческой идентичности и духовности в В произведениях внимание уделяется таким аспектам, как отражение выражения нравственных взглядов. Кроме того, в текстах Навои идет речь о глубине содержания и философских гранях смысла. В статье кит'а жанр занимает особое место среди жанров узбекской классической поэзии, проблема теории и поэтики кит'ы, отсутствие полноценного исследования истории возникновения жанра, масштабы жанр кит'ы, обсуждаются проблемы жанровой структуры, такие как поэтические образы, использование поэтического искусства на континентах, классическая узбекская континентальная письменность и состояние современной узбекской жанровой письменности. В статье изучены виды поэмы и ее содержание, конкретные методы поэтов, особенно Алишера Навои, в создании поэмы. Изучались также вопросы жанра кит'ы и поэтики, такие как рифма, мастерство использования средств художественного изображения. Считается, что поэма занимает большое место в классической узбекской поэзии благодаря силе пера Хазрата Навои, а в «Хазойнул-маони», написанном Навои, насчитывается 210 стихов, состоящих из 503 стихов. Алишером Навои на

многих континентах было уделено большое значение таким понятиям, как гуманность, условия духовного совершенствования, избегание плохих пороков. Комментируя отдельные континенты, мы акцентировали внимание на человеческих и нравственных взглядах великого поэта, тем самым пытаюсь понять его мировоззрение.

Ключевые слова: китъа, художественное выражение, тематический охват, дидактическое содержание, формальное выражение, жанровое совершенствование и т. д.

Kirish. Qit'a nazariyasi va poetikasi muammosi, janrning kelib chiqish tarixi chuqur tadqiqot talab bo'lsa-da, olim diqqatidan chetda qolgan. Natijada, qit'a janri haqida to'laqonli tadqiqot yaratilmagan. Holbuki, olim ishda qit'ani o'zbek klassik she'riyati janrlari qatorida alohida tahlilga tortgan. Yuqoridagi tadqiqotlarni kuzatish asnosida shunday xulosaga keldikki, qit'a mustaqil janr sifatida o'zbek adabiyotshunosligida to'laqonli ravishda o'rganilmagan. Mana shu holatni nazarda tutib biz qit'a janrining tarixan vujudga kelishi tarixi, tarixiy taraqqiyoti, poetikasi va bugungi holatini alohida tadqiq etishga harakat qildik. Bu tadqiqotning **dolzarbligini** asoslaydi.

Mazkur maqola qit'a janri taraqqiyotida Alisher Navoiy qit'alarining o'rni va ushbu janr takomiliga qo'shgan hissasi masalasi hamda poetik o'ziga xosligini yoritishni **maqsad** qilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** qo'yishni lozim topdik:

- Alisher Navoiy qit'alarining janr xususiyatlarini o'rganish;
- qit'a janrining mavzu qamrovini aniqlash;
- qit'alarining g'oyaviy-badiiy jihatdan tasniflash;
- qit'alarining mazmun mundarijasini aniqlash;

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiy qit'alari olingan. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, semantik-struktural, qiyosiy-tipologik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

Qit'a janri taraqqiyotiga ko'plab mumtoz ijodkorlar kabi Alisher Navoiyning ham o'z o'rni bor. U "Xazoyinul maoniy" kulliyoti tarkibidagi 210 ta qit'asi va boshqa asarlari tarkibidagini ham qo'shganda 300dan ortiq qit'alari bilan bu janr taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shdi. "Alisher Navoiy qit'alari mavzu jihatdan ham turfa xil mazmunga ega bo'lib, shoir ushbu janrni mustaqil janr darajasiga ko'tarilishiga ham sababchi bo'lgan deyish mumkin" [5]. Darhaqiqat, Alisher Navoiy qalamiga mansub qit'alar turfa mavzularni qamragan bo'lib, unda tasavvuf masalalari, ma'naviy-axloqiy qarashlar ifodasi va shular qatorida ijtimoiy hayot muammolari ham aks ettirilgan. Xususan, bir qit'asida shoir shunday deydi:

Navoiy, tiling asrag'il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusun.
Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo's.
Necha tojvardur, kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag'ma tortar xuro's.[8]

Ya'ni, Navoiy dunyo ishlaridan, bu dunyoning tashvishlaridan ko'p so'zlayvermasdan, o'z tilingni asragil. Ko'rgilki, oq og'zi tilsiz bo'lganlar tojvorlar bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Garchiki, tojvor bo'lsa ham hadeb, bemahalda qichqiraversa, xo'rozning ham boshini kesadilar. Ya'nikim, tilingni ortiqcha so'zlashdan tiya olsang, boshing omon bo'ladi, bo'lmasa xo'rozning kuniga tushishing hech gap emas. Ko'rinadiki, Navoiy hazratlari insonning boshiga keladigan balolarning asl sabachisi til bo'lishini, uni o'ta erkin qo'yib yuborish o'sha insonga kulfatlar keltirishini yana bir bor eslatmoqchi bo'ladi.

Biyik maqomliq el tifi ekanda ham bo'lmas,
Ki tiyra qilg'ay oni jahlu zulmat ahli tili.
Qamar charog'i agar bo'lsa barcha bir kechalik,
Ne nav' o'churgay oni shabparak qanota yeli? [8]

Mazkur qit'ada xalqi ichida yuksak maqomlarni, o'rnlarni egallagan elat yosh bolachalik ham obro' topmay qolishi mumkinligi, bunga sabab esa johillar va zulmat ahlidan bo'lgan yomon kimsalarning tili ularning boshiga balolar yog'dirishi mumkinligida deb ko'rsatiladi. Bu holat esa shoir tomonidan o'ying nuri kechanigina yoritib turganida, uni ko'rshapalak qanotining yeli ham to'sib qo'yishi, agar u sham bo'lsa, bu yog'duni o'chirib qo'yishi mumkin bo'lgani tamsil san'ati bo'lib, fikrni asoslash uchun keltirib o'tiladi.

Yana bir qit'ada shoir shunday deydi:

Tavakkulni ulkim qo'yub xotirig'a,
Tushar shoh ollinda qulluq havosi.
Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.

Biravkim, bo'lur bir ayoq osh uchun qul,

Yuziga keraktur qazonning qarosi. [8]

Ya'ni, bir manzilni ko'zlab shoh yo'lga tushar ekan, uning oldiga qulluq qiluvchilar parvona bo'ladilar. Ularning maqsadi Qorun ganjinasini qo'lga kiritish bo'lsa ham, nasibasi bir jomda yoki idishda ovqat xolos ekanligi ma'lum. Kimki bir tovoq ovqat uchun qul bo'lsa, undan ko'ra yuzlariga qozonning qorasini surtib sazoyi bo'lganlari ham ma'qul bo'ladi. Ya'ni, kishilar bir kosa ovqatga qorni to'yishini bilsa ham, bunga qanoat qilmay, laganbardorlik yoki o'z izzat nafsini oyoqosti qilish orqali boylikka yoxud mansabga erishmoqchi bo'ladi. Lekin uning bu tutumi yuziga qora surtgan el ichidagi sazoyining ishidan ham yomon ekanligini daho ijodkor eslatib o'tmoqchi bo'ladi.

Kimki maxluq xizmatig'a kamar

Chust etar – yaxshiroq ushalsa beli.

Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,

Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.

Chun xushomad demakii boshlasa kosh,

Kim tutulsa dami, kesilsa tili. [8]

Mazkur qit'asida Hazrat Navoiy kimdir maxluqlar xizmatiga kirishsa, uning beli yaxshilab bog'langanligidan o'z vazifasini chaqqonlik bilan bajara oladi. Insonlarning qo'l qovushtirib, qarab turganidan shu ham yaxshiroqdir. Maxluqlar xizmatini qilgandan ko'ra, uning yelkasi chiqib, qo'li sinib qolgani ham ma'qul. Agar xushomadni boshlab qolsa, koshki uning nafasi qaytib, tili kesilib qolsa, deydi. Ya'ni norasolar xizmatida bo'lgan kishilarning boridan yo'g'i yaxshi. Xushomadgo'y va laganbardor kishilarning nosamimiy xatti-harakati ulardan nafratlanishga sabab bo'lishi ta'kidlanmoqda va ularning bu xatti-harakati shoir tomonidan qoralanmoqda.

Quloqda asra garonmoya so'zniyu fikr et,

Ki dursiz o'lsa, ne bo'lg'usidur sadaf holi.

So'zungni dog'i ko'ngul ichra asrag'ilkim, hayf,—

Kim uyla durjni guhardin etgasen xoli.

Bu darju ikki sadafni to'la dur etganga,

Zihi uluvvi guhar, balki gavhari oliy. [8]

Yuqoridagi qit'ada shoir so'zning qudrati va yaxshi, foydali so'zlarning qimmatini xususida so'z yuritgan. Quloqqa yoqadigan, donish va qimmatli so'zlarni asra va fikr et, agar duri bo'lmasa sadafning holi nima bo'lardi? Asl so'zlarning ko'ngil ichida asrag'ilkim, agar qutichani gavhardan holi etsang, ya'ni bo'shatsang u xayf bo'lganidek. Bu gavhar solinadigan qutida, ya'ni sadaf ichida ikkita dur solingan bo'lsa, bunda quti ulug'lanmaydi, balki uning ichidagi gavhar qimatbaho bo'lganidan ulug'lanib, tarannum etiladi, deydi. Ya'ni insonning ulug'lanishi uning donishmandligi va aqli bilan bog'liq. Inson behudaga qimmatli so'zlarini sarflamas, u o'zidagi ilmi yoki bilim javharlari orqali ham ulug'lanadi. Ya'ni uning botinidagi donish va bilim uning hurmatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yana bir qit'asida shoir:

Ne rahraveki, toji hidoyat boshidadur,

Yo'q bok anga havodisi aflok toshidin.

Hudhudki, qo'yidilar azaliy toj boshig'a,

Tushgaymu jola yoqqon ila toji boshidin? [8]

deyish orqali taqdiri azalda hidoyat nuri bilan yo'g'rilgan insonni falak toshlari yog'ilishi ham shikastlay olmasligini uqtirmoqchi bo'ladi. Kimnikim, boshida hidoyat toji bor bo'lsa, unga falak hodisotlari toshi yog'ilsa ham zarar yetkaza olmaydi. Inchunun, hudhudning boshidagi tojiga jala yoqqani bilan tushib ketmaganidek, hidoyat toji ham inson boshidan biror hodisot tufayli tushib ketmaydi. Ya'ni, hidoyat nuriga yo'g'rilgan insonni Yaratganning o'zi asraydi va unga balo-qazolar ham daf etolmaydi. Mazkur qit'adan yana bir ma'noni, ya'ni azalning hukmiga hech kim monelik qila olmasligi ma'nosini ham tushunish mumkin.

Alisher Navoiyning didaktik mazmundagi yana bir qit'asida asli yomon va tuban bo'lgan kimsaga yaxshi so'z bilan vaqtini ketkazmaslik haqida so'zlaydi.

Yuziga asli yamonning ko'p ochma gulshani xulq,

Siyah gilemga albatta mehr aylama fosh.

Qi qilmadi gul isi birla toza ruh jual,

Quyosh charog'ig'a parvona bo'lmadi xuffosh. [8]

Asli yomon bo'lgan kimsaga yaxshi xulq bilan mehr ko'rsatma, qora rangdagi gilamga mehr berganing bilan oqarib qolmaydi. Go'ng qo'ng'izi gulning xushbo'y iforidan bahramand bo'lmaganidek, taralayotgan nurga parvona o'zini uravergani bilan ko'rshapalacka aylanib qolmaydi. Ya'ni, o'zi tabiiy bo'lgan g'arazgo'y va tuban kimsaga o'z vaqtningi sarflama, go'ng qo'ng'izi gul iforidan bahra ola olmaganidek, unga ham yaxshiliklar aslo ta'sir ko'rsatmaydi.

Yana bir qit'asida Navoiy:

Chu dushman o'ldi qadimiy, ziyonidin hazar et,

Agarchi nutqi ravonbaxshi jong'a rohat erur.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

Suv birla o't aro ziddiyat o'ldi chun azaliy,

Agar hayot suyidurki, o'tg'a ofat erur. [8]

Ya'ni, o'zingga ziyondan hazar etib, qadimiy dushmanlardan ehtiyot bo'l, garchi uning nutqi jonga rohatday tuyulsa ham. Suv bilan olov o'rtasidagi ziddiyat ham abadiydir, u hayot baxsh etadigan suv bo'lsa ham olov uchun ofatdir, deyish orqali asli dushman hech qachon do'st bo'lmasligini yana bir bor eslatib o'tadi.

Boshqa bir qit'asida:

Viqor gavhari-yu hilm ma'dani bo'lako'r,

Desangki, qilg'ay itoat sanga gado bila shoh.

Bu sheva tog'da zohirdururki, davrondin

Qachonki tafriqa yetti, ulusg'a bo'ldi panoh, [8]

deyish orqali viqor gavhari va muloyim tabiatlikni o'zingga kasb etkim, shunda senga shoh ham, gado ham itoat etadi, demoqchi bo'ladi. Bunga misol sifatida qachonki o'rtaga nizo va nifoq soluvchilar yetib qochishga joy izlanganda o'sha ulusga tog' ham panoh bo'lganligini eslatib o'tadi. Ya'ni g'urur va halimlik hamrohi bo'lgan kishiga bu tuyg'ular o'z o'rni va vaqti bilan foyda keltirishi mumkinligi xususida so'z bormoqda.

Boshqa bir qit'asida Alisher Navoiy shunday deydi:

Biyik maqomig'a ulkim tilar sabot kerak,

Ki egrilikni qo'yub, tuzluk aylasa qonun.

Tuz o'lsa soyasida el tinib minor kibi,

Sipehr uyida turar qarnlar nechukki sutun.

Gar egridur, yog'ibon o'qu bog'lanib bo'yni,

Bo'lur qabaq yig'ochidek besh-o'ncha kunda nigun. [8]

Ya'ni, kim buyuk martabaga erishmoqchi bo'lsa, unga sabr-toqat zarur bo'ladi. Shuningdek, u egrilikni qo'yib, to'g'rilikni o'ziga odat qilishi zarur. Dunyo uyida ustunlar abadiy turgani kabi yoki minoraning soyasida odamlar turgani kabi insondan ham boshqalar foyda ko'rmog'i mumkin bo'ladi. Egri bo'lgani uchun o'q yog'diraverilganidan kamonning holati uzukniki kabi o'ta egik holatga kelib qolishini esga olish kifoya ekanligi sabr-qanoat bilan to'g'ri yo'lni tanlash insonni abadiyatga dohil qilishi mumkinligiga asos bo'la olishi mumkinligiga misol sifatida keltiriladi.

Shoir ijodida bu kabi didaktik xarakterdagi qit'alar talaygina. Xususan, yana bir qit'asida:

Xiromon suvda soyir bo'lmoqu uchmoq havu uzra,

Ajab ermas, qachonkim rostravliq qilsa ozoda.

Shior aylab bu ishni kema tiyri, ko'rki, suv uzra

Xirom aylab havog'a bodbondin soldi sajjoda. [8]

deyishida, rostgo'ylik qilgan odamning so'zlari chin bo'lganidan, uning odati rost so'zlamoq bo'lganidan, bir kuni suvda suzuvchi yoki havoda uchuvchi bo'la olishi xususida so'zlasa ham ishonish mumkin bo'ladi. Chunki rostgo'ylikni shior qilgan kimsaga kemandan atrofidagi suv ustida o'sha kemandan yelkanlaridan joynomoz to'shab berilgandek bo'ladi. Ya'ni, insonlarning rostgo'yligi ularga faqat yaxshiliklar olib keladi, deydi. Shoirning:

Haq zotig'a biravki, xirad birla fikr etar,

Otin el ichra oqilu farzona aylabon.

Miqdorini tengiz suyining istar anglamoq,

Lekin hubob jomini paymona aylabon. [8]

Ushbu qit'aning mazmuni quyidagicha: Tangri zotining haqiqatida aql lol va nodon, oqillar esa bemajolu hayrondi. Kimki odamlar ichida o'zini oqil va dono ko'rsatib Tangrining zoti haqida aql bilan fikr qilmoqchi bo'lsa, u go'yo qo'lga pufakdan jom olib, dengiz suvining miqdorini bilmoqchi bo'lgan kishiga o'xshaydi.

Poklar joni bo'lur ozurda tazvir ashkidin,

Ko'zgu ruxsori nechukkim zang tutqay nam bila.

Rostlar ko'nglini aylar tiyra nodon yovadin,

Sham'ni ul nav'kim johil o'churg'ay dam bila. [8]

Ya'ni ko'zguning yuzi namlik tufayli xira tortganidek, halol kishilarning joni yolg'on ko'zyoshlaridan ozor chekadi. Shamni johillar o'z nafaslarini bilan o'chirgan kabi to'g'ri kishilarning ko'ngli yolg'on so'zlardan xira tortadi, dili xufton bo'ladi. Bunda Navoiy hazratlari badiiy san'atlardan unumli foydalanib, halol kishilar va rostgo'yilarning aldangan, firiblangan holatlarini asoslab ko'rsatadi. Halol kishilar qalbi ozorlanishini ko'zguning suv bug'i tufayli xira bo'lishi kabi hayotiy asosdan foydalangan bo'lsa, rostgo'ylar qalbi ozorlanishi holati uchun shamning hohil kishilar tomonidan puflab o'chirilishi holatini asos sifatida keltirib o'tadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytilganda, Hazrat Alisher Navoiy qit'alari nafaqat o'z davrining, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan ko'plab masalalarni mavzu sifatida aks ettirgan asarlardir. Inson ma'naviyati, uning tiynati, qalbining tavsifi shoir ijodining markazida bo'lganligi yuqorida tahlilga tortilgan qit'alar mazmunidan ham yana bir bor anglashiladi.

Navoiy qit'olari mazmunan teran va badiiy barkamol bo'lganligi uchun ham mazkur janr taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan, deya xulosa yasashga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova D. "X asr tojik she'riyatida qit'a janrining tutgan o'rni" mavzusidagi PhD dissertatsiyasi. – Samarqand. 2021. – B.38.
2. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B.5.
3. Haqqul I. Kamol et kasbim. – Toshkent: Cho'lpon, 1991. – B.98.
4. <https://cyberleninka.ru/search?q=Irodaxon%20Toshkenboyeva&page=1> Irodaxon Toshkenboyeva. Navoiy qit'alarida ma'naviy-axloqiy masalalarning badiiy ifodasi.
5. Ibrohim Haqqul. Qit'a va g'azal munosabatiga doir. // *O'zbek tili va adabiyoti, 1978-yil, 6-son.*
6. Mamatqulov M. Navoiyshunoslik (Alisher Navoiy lirik merosi) – Toshkent, 2023. – B.41.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли. – Тошкент, Фан, 1983-1985.
8. *Алишер Навоий*. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдли. Хазойин ул-маоний. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 703.
9. Орзибеков Раҳмонбек. Лирикада кичик жанрлар. Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1976. – 168 б.

Muallif:

Jo'raqulov Sardor Mashrab o'g'li - Guliston davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi.

UDK: 372.881.11

PHRASEOLOGICAL UNITS FORMED ON THE BASIS OF THE LEXEME "WATER" IN UZBEK LANGUAGE

O'ZBEK TILIDA "SUV" LEKSEMASI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ОБРАЗОВАННЫЕ НА ОСНОВЕ ЛАКСЕМЫ "ВОДА" В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Hayitova Mahliyo Ilhom qizi

Samarqand davlat universiteti, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Sulaymon Buxoriy ko'chasi

E-mail: mahliyohayitova96@gmail.com

Abstract. Any language unit, when used within a certain style, precisely within the framework of an artistic style, certainly serves an artistic purpose. The author skillfully uses them to individualize the character of his hero, to reveal his unique features, and most importantly, to bring him closer to the people. Sometimes, in addition to the meaning expressed by the hero in his speech, he can also express other aspects of meaning. The meeting of different styles in the work of art further expands its scope of content. This, of course, also depends on the artistic skill of the writer. The use of folk phrases, similes, metaphors, figurative expressions, wise words and proverbs in the composition of a work of art on the one hand shows the eloquence of the author and the sharpness of his pen, on the other hand, the language in the work serves to provide information about the cultural thinking, mentality, customs and perception of the world of the people. In our research, we also studied language units formed on the basis of the lexeme "water". We tried to research them from a linguistic, cultural, ethnolinguistic point of view, dividing them into meaningful groups. Our attention was drawn to the fact that most of the above-mentioned language units were formed on the basis of the lexeme of water. Some of them are used as they are in the vernacular, and some of them are used in the hero's speech as a product of the author's artistic thinking.

Keywords: water lexeme, expression, phraseological unit, ethnolinguistic analysis, imagery, stable combination, folk worldview, individualization, stable combination, figurative meaning, concept, real reality, etc.

Аннотация. Любая языковая единица, употребляемая в определенном стиле, именно в рамках художественного стиля, безусловно, служит художественной цели. Автор умело использует их, чтобы индивидуализировать характер своего героя, раскрыть его уникальные черты, а главное, приблизить его к народу. Иногда помимо смысла, выражаемого героем в своей речи, он может выражать и другие стороны смысла. Встреча разных стилей в художественном произведении еще больше расширяет рамки его содержания. Это, конечно, зависит и от художественного мастерства писателя. Использование в композиции художественного произведения народных словосочетаний, сравнений, метафор, образных выражений, мудрых слов и пословиц с одной стороны показывает красноречие автора и остроту его пера, с другой стороны, язык в произведении служит для предоставления информации о культурном мышлении, менталитете, обычаях и восприятии мира народа. В нашем исследовании мы также изучали языковые единицы, образованные на основе лексем «вода». Мы попытались исследовать их с лингвистической, культурологической, этнолингвистической точки зрения, разделив

на содержательные группы. Наше внимание привлёк тот факт, что большинство упомянутых выше языковых единиц образовались на основе лексемы воды. Некоторые из них употребляются в просторечии, а некоторые употребляются в речи героя как продукт художественного мышления автора.

Ключевые слова: водная лексема, выражение, фразеологизм, этнолингвистический анализ, образность, устойчивое сочетание, народное мировоззрение, индивидуализация, устойчивое сочетание, переносное значение, концепт, реальная реальность, и др.

Kirish. O‘zbek tili leksik sistemasi tarkibida eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlardan biri bo‘lgan suv leksemasi va bu so‘z asosida hosil bo‘lgan qo‘shma, birikmali terminlar, ibora, hikmatli so‘z, matal va maqollar miqdorining ko‘pligi, qo‘llanish doirasining chegaralanmaganligi, deyarli, barcha vazifaviy uslublarda birdek ishlatilishi bilan alohida ajralib turadi. Bunday so‘zlarning o‘zbek tili lug‘at tarkibida o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati bor. Chunki suv insonning yashash manbai, uning farovon hayot kechirishining bosh kafolati hisoblanadi. Suv insonlar kundalik hayotida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, bu narsa ularning tilida ham o‘z aksini topdi, xalq orasida keng qo‘llaniladigan birliklarning asosiy komponenti bo‘ldi, ularning tarkibida xilma-xil ma‘no qirralarini ifoda etdi. Hatto ba‘zi til birliklari tarkibida o‘zining asl, tub ma‘nosidan uzoqlashib, yangidan yangi ma‘no qirralarini namoyon etish holatlari ham kuzatiladi. “Suv – qadim-qadimdan o‘zbekning dunyoqarashida, fikrlash tarzida asosiy timsollardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan va “suv” leksemasi asosida shakllangan barqaror birliklar, ya‘ni iboralar olindi. Va ularni etnolingvistika nuqtayi nazaridan tadqiq etishga harakat qilindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, kontekstual, qiyoslash va etnolingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Fikrni ixcham va lo‘nda, ravon va tushunarli hamda mazmunli va shirador qilishda suv so‘zi boshqa so‘zlarga o‘zaro bog‘lanib, ularga singib ketib turli xil maqol va hikmatli so‘zlar, frazeologik birliklar, topishmog‘-u qo‘shiqlar tarkibida keladi” [10]. Masalan, birgina suv leksemasi ishtirok etgan quyidagi iboralarni sanab o‘tish mumkin: bir qoshiq suv bilan yutgudek, boshiga suv quymoq, og‘zining suvi keldi, siqib suvini ichmoq, boshidan suv o‘girib ichsang arziydi, suvi qochmoq va hokazo. Bunday iboralarda obrazlilik, tasviriylik, emotsionallik kuchli bo‘lganligi uchun, ayniqsa, so‘zlashuv va badiiy uslubda boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan keng qo‘llanishiga guvoh bo‘lamiz. Biz esa ana shu iboralarning izohini Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”dan unumli foydalangan holda keltirib o‘tamiz. Shu bilan birgalikda tilimizning leksik fondida og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladigan maqollar, hikmatli so‘zlar, topishmoqlar hamda shu leksema asosida yuzaga keladigan o‘xshatishlar ham talaygina. Biz mazkur bobimizda tarkibida suv leksemasi ishtirok etgan til birliklarini mazmuniy jihatdan guruhlariga ajratib tasniflashga, ularning ma‘nosini badiiy asarlardan olingan misollar bilan ochib berishga harakat qilamiz.

Dastlab, “suv” leksemasi asosida shakllangan birikmalarni quyidagi mazmuniy guruhlariga ajratdik:

1. “Suv” leksemasi asosida shakllangan iboralar.
2. “Suv” leksemasi asosida shakllangan maqollar.
3. “Suv” leksemasi asosida shakllangan o‘xshatishlar.
4. “Suv” leksemasi asosida shakllangan topishmoqlar.

Tilimizda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar muayyan bir xalq madaniyati va mentalitetiga oid qimmatli ma‘lumotlar manbai hisoblanadi. Bunday turg‘un birikmalarda xalqning qarashlari, tasvvurlari, tafakkuri, urf-odat, mif, afsona va asotirlari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. “Frazeologizm – turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma‘noga ega turi bo‘lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o‘ziga xos ko‘rishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi” [1]. Frazeologik birliklarda dastlabki mifologik qarashlar ham o‘z ifodasini topgan. Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati taraqqiyotining uzoq o‘tmishi o‘z aksini topadi. Har bir tilning barqaror birikmalarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-axloqiy voqea-hodisalar, axloqiy, ma‘naviy va madaniy me‘yorlar, diniy tasavvurlar, miliy an‘ana va rasm-rusumlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o‘z aksini topgan bo‘lib, ular ajdodlardan avlodlarga unutilmas meros bo‘lib o‘tadi.

F.I. Buslayevga ko‘ra, frazeologizmlar o‘ziga xos kichik dunyo bo‘lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o‘ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir [1]. O‘zbek tili leksik fondidagi aksariyat iboralarning mazmun semantikasida realikka yaqinlik borligi sezilib turadi. Ya‘ni ulardagi hozirda ifodalanayotga konnotativ ma‘no o‘rnida qachonlardir denotativlik xususiyati mavjud bo‘lgan. Ammo vaqtlar o‘tgan sari bu birliklar so‘zlashuv nutqida keng qo‘llana boshladi va jonli nutqda rang-barang ma‘no nozikliklari namoyon bo‘la boshladi. Mana shu asosda asta-sekinlik bilan ular o‘z ma‘nosidan tobora uzoqlashib, faqat ko‘chma ma‘no ifodalay boshladi. Quyida tarkibida “suv” leksemasi ishtirok etgan iboralarning izohiga to‘xtalib o‘tamiz.

Qo‘ltiqqa suv purkamoq – [ot+ot+fe‘l] biror ishni qilishga o‘chakishtirmoq, gij–gijlamoq. *Odamzod aqldan ozgan-netgan bo‘lmasa, o‘zining toshini o‘zi biladi. Qo‘ltiqqa suv purkab nima qilasiz, men shu bilan yaxshi bo‘lib qolarmidim!..*[2]) Bu iborani “O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati”da uchratmadik. Ammo kontekstga tayangan

holda uning ma'nosini sharhlashga harakat qilamiz. "Qo'ltiqqa suv purkamoq" iborasi o'z foydasini o'ylab kimningdir manfaati uchun ish qiladigan odamlarga nisbatan ishlatiladi. Muallif o'z qahramonining nutqini individuallashtirish, uning xarakter xususiyatlarini ochib berish maqsadida bu iboradan foydalanmoqda. Aynan shu bois ham fikr salmog'i oshmoqda.

Suvday bilmoq – [ot+fe'l] miridan–sirigacha besh qo'lday bilmoq, yodlab olmoq. Sinonimlari: suvday ichmoq, suv qilib ichmoq. *Raim oqsoqolning to'ng'ich o'g'li arabchani suvday biladigan, Qur'onning yetti xil qiroatini keltiradigan odamdan immanishadi* [2]. Suv kundalik hayotimizda muhim o'rin tutadigan hayotiy unsurlardan biri. Usiz yashashning o'zi imkonsiz. Ayni paytda suvni bilmagan, ko'rmagan, ta'mini totmagan odamning o'zi yo'q. Shuning uchun ham yozuvchi "juda yaxshi biladi" birikmasining o'rniga obrazli ifoda semasiga ega bo'lgan "suvday bilmoq" birligidan foydalanmoqda va ma'noni yana ham kuchaytirib, bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilmoqda.

Sirtiga suv yuqtirmaslik – [ot+ot+fe'l] o'zining sha'niga dog' tushiradigan xatti–harakat qilmaslik. Sinonimi: sirtiga kir yuqtirmaslik. *Mulla Chori sirtiga suv yuqtirmay shunchaki iljayib qo'ydi* [2]. O'z qadr–qimmatini oyoqosti qildirmaydigan, o'zini juda ham hurmat qiladigan, har qanday noxush vaziyatdan ham o'zini oqlab chiqib keta oladigan kishilarga nisbatan bu ibora qo'llaniladi va yuqorida aytilgan ma'nolarni yana ham kuchaytirib ifodalaydi. Uchta komponentdan tashkil topgan bu iboraning tarkibidagi har bir so'zning o'z o'rnini va salmog'i bor. Uning "sirtiga kir yuqtirmaslik" varianti ham qo'llaniladi. Ammo unga nisbatan "sirtiga suv yuqtirmaslik" shaklida nutqiy jarangdorlik kuchliroq. Bu, albatta, alletiratsiya ya'ni bir xil undosh tovush – "s" ning takrorlanishi orqali yuzaga chiqmoqda.

Tegirmoniga suv quymoq – [ot+ot+fe'l] qo'llab–quvvatlamoq, fikriga qo'sharmoq, qiyin vaziyatda yordam bermoq. *G'aybarov o'zi istamagan holda mulla Soatning tegirmoniga suv quyganini angladi* [2]. Bu ibora kimnidir qo'llab–quvvatlash, bildirilgan fikrga hamfikr bo'lish yoki mushkul vaziyatda kimgadir ko'mak berish kabi ma'nolarni anglatadi. Ammo ba'zi holatlarda aytilayotgan ma'nolarning teskarisini ham ifodalaydi. Bu, albatta, nutq vaziyati bilan bog'liq holda yuz beradi. Masalan, kontekst tarkibida qo'llanilayotgan bu ibora jumla tarkibida "o'zi xohlamagan holda kimningdir manfaati, foydasi uchun ish qilmoq" ma'nosini ifodalamoqda. Bu o'rinda frazeologik birlikning polisemantik xususiyati ham yuzaga chiqmoqda. Yana bir e'tibor qilishimiz kerak bo'lgan jihat uning tarkibida qo'llanayotgan "tegirmon" va "suv" konseptlaridir. Bu tushunchalar frazeologik birlikning chuqur tarixiy ildizga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Azal-azaldan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan xalqimiz hayotida tegirmon muhim o'rin tutgan. Chunki unda bug'doy un qilingan, undan esa bizning birlamchi ozuqamiz, dunyodagi aziz ne'mat non tayyorlanadi. Qadimda tegirmonlar, asosan, suv bo'ylariga, soy yoki katta–katta shohariqlarning qirg'og'iga o'rnatilgan. Chunki ularning ishlash jarayoni suv bilan bog'liq bo'lgan. Ayni mana shu real voqelik ma'lum vaqtlar o'tib o'zida konnotativlik xususiyatlarini namoyon qildi. O'zi ifodalaydigan ma'nosidan uzoqlashib yangi bir hosila ma'no ifodalay boshladi. Og'zaki nutqda qo'llangani sari uning yangidan yangi ma'no qirralari ham yuzaga chiqmoqda.

Suv urmoq – [ot+fe'l] hovli yuziga birdek qilib suv sepib chiqish. *Kechki payt, epkin yo'q, tuproqqa suv urilgan, kechki payt ekani shundan ham bilinadiki, havoda jun hidi aralash issiq va nam hovur kezadi...* [2] Keng yuzaga salqinlatish maqsadida suv sepish ma'nosida yuqoridagi ibora qo'llaniladi.

Ichgani suv bo'lmoq – [fe'l+ot+fe'l] yeyishini tayini bo'lmaslik, qorni to'yib ovqat yemaslik. *Raim oqsoqol beixtiyor iljayadi, u bilan bir bo'lmada yotgan, yegani yovg'on sho'rva, ichgani qaynoq suv bo'lgan mahbusning lafzidan bunday g'alati gaplar chiqayotganiga ishonmaydi* [2]. "Ichgani suv bo'lmoq" iborasi yeyish-ichish yaxshi bo'lmaslik, qorni to'yib ovqat yemaslik holatiga nisbatan qo'llaniladi. Keltirilgan parchada ham ayni shu holatni yana ham kuchaytirib, bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilyapti.

Tushini suvga aytmoq – [ot+ot+fe'l] behudaga urinmoq, qilgan ishlarining natijasi bo'lmaslik, ijobiy natijadan umid uzish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Rivoyat qilishlaricha, Balx shahrining hokimi Mahmud Qatag'on qalandar qiyofasidagi Mashrabga "iltifot" ko'rsatib taom uzatganida, u Marjon laqabli itiga tashlagan, biroq it ham xo'jasidan ibrat olib sadaqaga burilib qaramagan ekan.

– *Borib yetkaz o'sha Ahmadxonovga: tushini suvga aytsin! – dedim* [8]. Xalqimiz orasida azaldan yomon tush ko'rsa, suvga aytish kerak, toki u barcha yomonliklarni oqizib ketadi, degan qarashlar keng tarqalgan. Yuqoridagi ibora ham xuddi shu dunyoqarash negizida shakllangan desak, xato bo'lmaydi. Demak, kontekst tarkibida qo'llangan bu ibora "behudaga bu ishga urinmasin", "hamma narsadan umidini uzsin" degan ma'noni ifodalamoqda.

Vijdoniga suv sepmoq – [ot+ot+fe'l] *Shu sabab Lobachevskiy, Aleksandrov, Pogorelov, Bakelman, Verner, Kantor, Yefimov, Poznyak, Shikinning izlanishlari haqida yarim soat ma'ruza o'qigach, – ustozim sovg'a-salomni shu tariqa halolab olardi, har qalay, buyam vijdonga suv sepib qo'yishning bir vositasi bo'lsa kerak-da, – aloha menga Galiley fazosining tsiklik sirtlari bo'yicha tadqiqotni boshlab yuborishim mumkinligini aytdi* [7]. Badiiy matn tarkibida qo'llanadigan iboralarning bir qismi xalq orasida qo'llanadigan frazeologik birliklar bo'lsa, ayrimlari yozuvchining badiiy topilmasi hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan ibora ham xuddi shunday muallifning individual topilmasi hisoblanib, badiiy asar tarkibida paydo bo'lgan. Kontekstdan kelib chiqqan holda uning ma'nosini sharhlaydigan bo'lsak, qing'ir ish qilib, undan olingan foyda evaziga kimgadir yaxshilik qilish bilan o'z-o'ziga taskin berish mazmunini ifodalaydi.

Suvga olib borib, quruq qaytarib kelmoq – [ot+fe'l+sifat+fe'l] *Jo'ra boboning To'rig'i gijingladi. Jilovni silki, uloqqa talpindi. To'riq uloq ayirgisi keldi! bunday vaqtda otni yo'ldan ayirish insofdan bo'lmaydi. Otni suvga olib borib, quruq qaytarib kelish bo'ladi. Oqibat, ot yomon o'rganadi* [9]. Bu ibora "chanqab turgan odamning chanqog'ini

qondirish uchun suv bo‘yiga olib borish, lekin suvdan ichishiga yo‘l qo‘ymasdan faqat suvni ko‘rsatib ortga qaytarib kelish” ma’nosini beradi.

Suv tushmoq – [ot+fe’l] *Ertalab Tarlonni otxonadan yetaklab chiqdim. Aylantirib qaradim. Qorin etlari dir–dir uchdi, pir–pir uchdi!*

Birodarlar, otga suv tushsa, ana shunday bo‘ladi! Tarlonga suv tushibdi [9]. O‘zbekistonning janubiy hududlarida agarda ot juda ko‘p suv ichib yuborsa va bu uning tanasiga og‘irlik qilsa, shu ibora ishlatiladi.

Suvga oqmoq – [ot+fe’l] *“Ol endi suvga oqdim, o‘g‘limni ko‘rish nasib bo‘lmadi”, – deyman* [6]. Bu ibora “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da keltirilmagan. Uning ma’nosini asardan olingan parcha asosida sharhlashga harakat qilamiz. Matndan ko‘rinib turganidek, ibora shuncha qilgan xatti-harakatlari zoye ketmoq, qilgan urinishlari naf keltirmaslik ma’nosini beradi.

Suv bosmoq – [ot+fe’l] Bu ibora “yomg‘irda jiqqa ho‘l bo‘lmoq, shalabbo bo‘lmoq” ma’nolarini obrazli tasvir vositasi orqali holatni yanada kuchaytirib ifodalamoqda.

Aksiga olib havoning turqi buzilmasinmi, hash-pash deguncha jala quyib hamma yog‘imni suv bosdi [6].

Sirkasi suv ko‘tarmaslik – [ot+ot+fe’l] Tanqidga toqati bo‘lmaydigan, birovning tanqidini to‘g‘ri tushunmaydigan kishilarga nisbatan qo‘llaniladi.

Erining tajangligini, Xoliqning esa o‘ziga yetguday o‘jar, cho‘rt so‘z va sirkasi suv ko‘tarmasligini bilgan Zuhra buvi, ota-bola o‘rtasida kori-hol yuz berishidan qo‘rqdi, ularni murosaga keltirishga yana urindi [6].

Suv tekin – [ot+sifat] – Arzon, unchalik qimmat bo‘lmagan narsa va buyumlarga nisbatan qo‘llaniladi. “ – *Shunaqa, eshon, dehqon qishin-yozin ishlaydi-yu, kuzga borib iligi quriydi. Go‘r azobi bilan yetishtirgan paxtasini zavodga keltirib, suv tekin sotadi, – deyar edi kuyinib Vali aka. (X.Do‘stmuhammad. Bozor)*

Suv qilib ichib yubormoq – [ot+fe’l+fe’l] Menga qara, sen sevgi **ilmini suv qilib ichvorgansan-ku**, to‘g‘rimi? – *Bu sohaning grossmeystriman. (Erix Mariya Remark. Uch og‘ayni)*

Suvdan holva yasamoq – [ot+ot+fe’l] – Yo‘q narsadan bor qilmoq, aybi yo‘q insonni ham aybdorga chiqarib qo‘ymoq. *Tergovchining xonasida u bergan so‘roqlarni o‘ylab o‘tirib, xayolimdanda xalqimizning “suvdan holva yasash” degan maqoli o‘ta berdi. Suvdan holva yasab bo‘ladimi? Bo‘larkan! Shunday oson bo‘larkanki, tergov vaqtida bunday narsaning bo‘lishiga yana bir bor iqror bo‘ldim. (Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar.)*

Yuqorida izohlangan iboralar tarkibida suv leksemasining turli-tuman ma’no qirralari yuzaga chiqayotganiga guvoh bo‘ldik. Buning o‘ziyoq bu leksemaning ko‘p ma’noli ekanligini, matn tarkibida, nutq jarayonida rang-barang ma’nolarni ifodalashini ko‘rsatadi. Bunga “suv” leksemasi asosida shakllangan barqaror birliklar, maqollar, hikmatli so‘zlarni o‘rganish va izohlash orqali yanada ishonch hosil qilish mumkin. Yuqorida ma’nosi izohlangan iboralarining aksariyati xalq tilida keng ishlatiladi. Ular orasida yozuvchining badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lgan va so‘zlashuv nutqiga endi-endi kirib kela boshlagan iboralar ham bor. Bunday frazeologik birliklar ba’zi o‘rinlarda ijobiy, ba’zi o‘rinlarda salbiy munosabatni bo‘yoqdor qilib ifodalashga yordam berib, ekspressivlikni yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birgalikda “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hamda “Nega shunday deymiz” kabi lug‘atlarda “suv” leksemasi asosida shakllangan quyidagi iboralar keltirilgan va ma’nosi sharhlangan.

Suvga oqizmoq – [ot+fe’l] – befoyda sarflamoq, deyarli tekinga bermoq. U molini sotmadi – suvga oqizdi. Yo‘q, **suvga oqizgandan** battar bo‘ldi. (Oybek, Qutlug‘ qon)

Suv qilmoq – [ot+fe’l] – zimdan o‘zlashtirmoq, o‘zlashtirib gumdon qilmoq. *Navro‘zda duv-duv gap tarqalgandi: Saidxon kolxozning falon pulini gumdon qilib, qamalib yotganmish, pismadonchi molni suv qilib, qo‘lga tushib qolganmish.*

Suvga tushgan nondek bo‘shashmoq – [ot+fe’l+ot+fe’l] – juda ham bo‘shashib ketmoq, hovridan tushmoq. O‘zbek xalqida azal-azaldan tandirga non yopilgan payti uzib olingan qaynoq nonlarni sovuq suvga botirib yeyish odati bor. Ana shu paytda tandirdan endi chiqqan non bo‘shashib, yana yumshoq bo‘lib ketadi. Vaqtlar o‘tgan sari bu hayotiy holat o‘zida konnotativlik xususiyatini namoyon eta boshladi va frazemalashuv jarayoni yuz berdi. **Suvga tushgan nondek bo‘kib**, bo‘shashib, yuz xil sovuq, yaramas xayollar og‘ushida ezilib, o‘zining dunyoda bor-yo‘qligiga ham tushunmay ketadir. (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar)

Suvga tushsa quruq chiqadigan – [ot+fe’l+sifat+fe’l] – juda quv, ayyor, har qanday mushkul vaziyatdan sip-silliq qutulib ketadigan odamlarga nisbatan ishlatiladi. Suvga tushgan odamning usti-boshi ho‘l bo‘lmasdan undan chiqishining imkoni yo‘q. Lekin hamma narsaning uddasidan chiqadigan, ayyor odamlarga nisbatan ishlatilayotgan bu ibora belgini yanada kuchaytirib, bo‘rttirib ifodalaydi.

Suvga urib ketmoq – [ot+fe’l+fe’l] – zim-ziyo bo‘lib ketmoq, bedarak yo‘q bo‘lmoq, yo‘qqa chiqmoq. *Dunyodan umidi bo‘lmagan odamda did ham, orzu-havas ham suvga urib ketar ekan. (A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari)*

Tagiga suv ketdi – [ot+ot+fe’l] – tagi, zamiri bo‘shashdi. *Boylkning tagiga suv ketdi. (Oybek. Tanlangan asarlar)*

Xulosa. “Xullas, frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. shuning uchun ham frazeologik birliklar o‘zida xalq mentaletiti va madaniyatini

saqlovchi “hikmatlar xazinasi” bo‘lib, ular avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi” [1]. O‘zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to‘liq to‘planmagan. Chunki Shavkat Rahmatullayev tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” nashr etilganiga ham ancha yillar bo‘ldi. Bu vaqt oralig‘ida esa jonli so‘zlashuv nutqida ko‘plab yangidan yangi iboralar paydo bo‘ldi, shoir-u yozuvchilarimiz ijodida ham “tesha tegmagan” iboralar talaygina. Endilikda ularni to‘plash, ma‘nosini izohlash, sistemalashtirish, tasniflash va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Frazeologik birliklar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinayotganda boshqa tillardagi variantlari bilan birga qiyoslansa, ifodalayotgan ma‘nolari bir-biriga taqqoslanganda madaniyatlar o‘rtasidagi tafovut yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: 2019. – B. 90.
2. M.M.Do‘st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati. – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009, 240 b.
3. Шомахмудов Ш., Шорахмедов Ш. «Нега шундай деймиз». – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2020, III том.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи тахририяти, 1978.
6. Ҳ.Назир. Сув гадоси. – Тошкент, 1978, - 115 б.
7. Yo‘ldoshev A. Puankare. – Toshkent: Akademnashr, 2019, - 288 b.
8. Е.Аъзам. Отойининг туғилган йили. – Toshkent, 1981.
9. Т.Мурод. От kishnagan oqshom. – Toshkent, 2019.
10. Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши, 2006.

Muallif:

Hayitova Mahliyo Ilhom qizi - Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDC: 811.512.133'271:398.9

LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF FOLK PROVERBS

XALQ MAQOLLARINING LINGVOKULTURALOGIK XUSUSIYATLARI

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ

Axrorov Alisher Akbarovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze,

E-mail: axrorov891115@gmail.com

Abstract. A number of studies have been conducted on the issue of language learning in connection with culture and spirituality in subsequent years. Because language is a means of expressing the national aspects of the people he created, which are unique. The linguistic and cultural concept, considered within the framework of linguoculturology and ethnolinguistics, forms the basis of research today. After all, scientific research conducted on linguistic and cultural proverbs is aimed at revealing the possibility of language to preserve and express national culture and spirituality in their unity. In particular, the linguistic and cultural value of folk proverbs with a linguistic and cultural Seme and their role as an ethnographic unit dictate the need to find adequate solutions to such scientific issues as the role in the communication system, the study of tasks, linguistic knowledge and speech situation, as well as cultural aspects. This article also highlights how the concepts of national thinking, national culture, national spirituality, national mentality are expressed in folk proverbs reflecting national values, customs, daily lifestyle, history, culture and spirituality of the people, polished and widely used today in oral and written speech. After all, folk proverbs, embodying the concepts of diligence, hospitality, eloquence, Andijan, courage, creativity, patriotism, demonstrate the values of this people, who are its user and creator. Therefore, such proverbs should be approached from a linguistic and cultural point of view. As an example, waiting for a guest, engagement, wedding, brother, sister, brother, borinka, relations between relatives, on the street, in the work room, to the eldest, to the youngest-all this is reflected in his language, in proverbs, in the image of animals, in the proverbs of national games, their ethnographic and linguistic and cultural aspects.

Keywords: linguoculturology, concept, linguoculturalism, national thinking, national culture, national spirituality, national mentality, ethnolinguistics, ethnography, ethnographism.

Аннотация. По вопросу изучения языка в связи с культурой, духовностью в последующие годы проводится ряд исследований. Потому что язык-это средство выражения национальных аспектов созданного им народа, которые уникальны. Лингвокультурная концепция, рассматриваемая в рамках лингвокультурологии, этнолингвистики, составляет сегодня основу исследований. Ведь научные исследования, проводимые по лингвокультурным пословицам, направлены на раскрытие возможности языка сохранять и выражать

национальную культуру и духовность в их единстве. В частности, лингвокультурная ценность народных пословиц с лингвокультурной Семой и их роль в качестве этнографической единицы диктуют необходимость поиска адекватных решений таких научных вопросов, как роль в системе коммуникации, исследование задач, языковых знаний и речевой ситуации, а также культурных аспектов. В данной статье также освещается, как выражаются понятия национального мышления, национальной культуры, национальной духовности, национального менталитета в народных пословицах, отражающих национальные ценности, обычаи, повседневный образ жизни, историю, культуру и духовность народа, полированных и широко используемых сегодня в устной и письменной речи. Ведь народные пословицы, воплощая в себе понятия трудолюбия, гостеприимства, красноречия, андижанства, мужества, созидательности, патриотизма, демонстрируют ценности этого народа, который является его пользователем и творцом. Поэтому к таким пословицам следует подходить с лингвокультурной точки зрения. В качестве примера можно привести ожидание гостя, помолвку, свадьбу, брата, сестру, брата, боринки, отношения между родственниками, на улице, в рабочей комнате, к старшему, к младшему-все это отражено в его языке, в пословицах, в образе животных, в пословицах национальных игр, затронуты их этнографические и лингвокультурологические аспекты.

Ключевые слова: лингвокультурология, концепция, лингвокультурема, национальное мышление, национальная культура, национальная духовность, национальный менталитет, этнолингвистика, этнография, этнографизм.

Kirish. Tilning tadqiqi natijasi o'laroq tilshunoslikda yangi yo'nalishlar va qarashlar vujudga kela boshladi. Keyingi yillarda tilning madaniyat bilan o'zaro bog'liqlik jihatlarini o'rganishga e'tiborning oshgani ham buning natijasidir. Zero, til xalqning tarixi, madaniyati, ma'naviyatini o'zida namoyon eta oluvchi, shu xalqning shakllanishi bilan bog'liq urf-odatlar, an'analari, milliyligini namoyon etuvchi vosita sirasiga kiradi. Har bir xalqning tilida shu tilga xos mental birliklar – boshqa xalqlardan farq qiluvchi, o'ziga xos jihatlar mavjudki, bunday vositalar shu tilning ajralmas va boshqa tillardan farqlovchi unsurlari hisoblanadi. Shunday ekan tilning madaniyat bilan aloqasi tilshunoslikda o'rganilishi dolzarb jihatlaridan hisoblanadi. Negaki, xalq mavjudki, asrlar davomida shakllangan turmush tarzi u so'zlashayotgan tilida, kundalik suhbatlarida, badiiy asarlarida ifodasini topadi. Bunday vositalar lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Lingvomadaniy birlik – lingvokulturema sifatida xalq maqollari alohida qimmatga ega. Chunki, aynan, paremlar doirasida qaraluvchi xalq maqollari o'zi yaratgan xalqning barcha bilimlari, turmush tajribalari, kundalik hayotiga aloqador jihatlarni o'zida ifodalaydi. Shunday ekan bunday birikmalarni tadqiq qilish doimo dolzarb vazifalardan hisoblanib qolaveradi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek xalq maqollari tanlab olindi. Masalani yoritishda tarixiy-qiyosiy, semantik-struktural, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, kontekstual metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bugungi kunda tilning madaniy jihatlarini, til, madaniyat, etnografiyani o'zaro bog'liq holda tadqiq qilish – xalq madaniyatini namoyon qiluvchi til vositalarini o'rganish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Bunday ishlar asosi bo'lib, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiq yo'llarini izlab” maqolasi, shuningdek, boshqa asarlarida keltirilgan qarashlarini [2], A.Mamatovning “Zamonaviy lingvistika” [3], D.Xudoyberganovning “Matnning antroposentrik tadqiqi” [5], Sh.Usmonovning “Lingvokulturalogiya” asarlarini [4], etnografik jihatdan o'rganilishiga N.Omonturdiyev va boshqa bir qator tadqiqotchilarning izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu izlanishlarda tilning lingvokulturalogik, etnolingvistik talqini va tahlili o'z ifodasini topgan. Aynan izlanishlarda til vositalarining madaniyat bilan bog'liqligi, til madaniyati va lingvokulturalogiya tushunchalarining “Nutq madaniyati” hamda “Lingvokulturalogiya”da farqlanish jihatlarini, fanning obyekti va pretmeti alohida ajratib berilgan. Tilning o'zi yaratgan xalq bilan, ularning udumlari, rasm-rusmlari, urf-odatlar bilan bog'liqligi atroflicha tadqiq etilgan. Xalq maqollarining ham ko'plab tadqiqotlarning obyekti sifatida turli jihatlar va imkoniyatlari ochib berilgan. Xususan, H.Berdiyev, R.Rasulov, X.Sharafiddinov, B.Jo'rayeva, M.Temirova, Sh.Qalandarov, D.Tosheva, I.Mirzaaliyev, R.Madjidovlar xalq maqollarining lisoniy tizimdagi o'rni va imkoniyatlari haqida filologik tadqiqotlar olib borganlar[6,7,8,9,10,12]. Ammo maqollarda yana shunday jihatlar borki, kishini hayratga soladigan, yaratilganligiga necha ming yildan oshishiga qaramasdan qaysi jihatlariga ko'ra o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, kundalik muloqotning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qilishi, ularning lingvokulturalogik, etnolingvistik kabi masalalari, hozircha, yechimini kutmoqda.

Xalq maqollari barcha xalqda va shu xalq so'zlayotgan tilda mavjudligini hech kim inkor eta olmaydi. Ularning barchasida umumiy xarakterga ega mavzularga ega. Bunday mavzular sirasiga vatanparvarlik, yaxshilik va yomonlik, rostlik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik (v.b.) kabi. Bunday mavzularni davom ettirish mumkin. Ularning barchasi xalqlarda umumiylikka ega. Ya'ni bunday ma'noga ega bo'lgan jihatlar barcha xalqlarda mavjud. Barcha xalqlarda ularning ijobiy jihatlarini ardoqlangan holda salbiy jihatlarini qoralanadi. Ammo bunday semalarning berilishida turfa xilliklarni ko'rish mumkin. A.Mamatov frazemalar misolida buni alohida ko'rsatib o'tadi [3]. O'zbek xalq maqollarida keltirilgan hayvon obrazlariga e'tibor qaratilsa, asosan, necha ming yillardan buyon xalq bilan birga yashab

kelayotgan, kundalik turmushi bilan bog'liq, shu xalq uchun ayon bo'lgan hayvonlarga murojaat qilinganligini guvohi bo'lish mumkin. Masalan,

Uxlagan uyqu olar,

Uxlamagan – yilqi. [11]

Maqolining zamirida ham yilqi obrazi keltirilgan. Bizga ma'lumki, xalqimiz eramizdan avvalgi davrlardan buyon shu kasb bilan shug'ullanib kelgan. Ot obrazi tariximizda alohida ahamiyat kasb etadi buni "Farg'ona samoviy otlar"i, shu bilan birga, o'zbek xalq dostonlari "Alpomish" va "Go'ro'g'li"dagi Boychibor va G'irotlar obrazlari misolida ko'rishimiz mumkin[14]. Bu maqol "mehnatsevarlik va ishyoqmaslik" mazmuni asosida shakllangan bo'lib, bu obraz zamirida kishilarning harakat qilgan, oz uxlagan kishi yuqori natijaga erishishi ifodalangan. Bu maqolning variant sifatida "Uxlaganga ulush yo'q" maqoli keltiriladi va kishi g'aflat uyqusida yotaversa, umri vaqti zoye o'tishi, qiladigan ishlari qolib ketishi yoki keyinga surilishi va oqibatda o'ziga tegishli ulushdan, rizq-nasibadan quruq qolishiga aytiladi[13]. B.Jo'rayeva ham o'zining doktorlik dissertatsiyasida hayvonlar asosida shakllangan maqollarga alohida to'xtaladi[6].

Igna o'g'irlagandan sigir yo'qotgan gumonsirar.

Ilon o'z egriligini bilmas,

Tuyaning bo'ynini egri der.

Tuya ham muomalaga cho'kar. [11]

Ko'rinadiki, xalq maqollarining shakllanishida keltirilgan hayvon obrazlari shu xalqning kundalik turmush tarzidan uzoqlashmaydi. Maqollar zamirida yilqi – ot, biya, toy; tuya – nor, moya, qulun; mol – ho'kiz, sigir, buzoq va shu kabi boshqa, xalq bilan asrlardan buyon birga yashab kelayotgan hayvonlar uchraydi.

Lingvokulturalogiyada o'rganilishi nazarda tutilgan obyekt lingvokulturema yoki lingvomadaniy konsept darajasida bo'lmog'i lozim bo'ladi. Qo'llanilgan hayvonlar obrazi zamirida turli qarash, tushunchalar – lingvomadaniy qarashlar ifodalaniadi. Masalan, birinchi maqoldagi *yilqi* obrazi asosida erishish mumkin bo'lgan yuqori natija, ulush, rizq-nasiba tushunilsa, ikkinchi va uchinchi maqolda keltirilgan obrazlar zamirida to'g'rilik ardoqlanadi, to'rtinchi maqolda xushmuomalalik ulug'lanadi. Tuya garchi hayvon bo'lsa-da, muomalaga cho'kishi, hayvonga ham muomala qilish kerakligi zamirida kishini xushmuomalalikka undash mavjud. Bunday jihatlar hayvonlar obrazi orqali insonlarga ishora qilish, undash mavjud. Bir jonivorning turli maqollarda kelishi turli xatarter-xususiyat ifodalaydi. Aynan shu jihatlar uning lingvomadaniy jihatlarini ko'rsatadi. Oddiy qilib tushuntirganda, qo'zichoq, bo'taloq, toychoq so'zlari erkalash sifatida xalqimizga xos jihat. Uning boshqa til vakili tomonidan o'rganilishida yoki tarjima qilinganda o'quvchida salbiy tushuncha sifatida gavdalanishi mumkin. Shuning uchun ham bunday so'zlar xalqimiz uchun erkalash sifatida milliy-madaniy xususiyatga ega.

Xalq maqollarining barchasida milliy-madaniy jihatlar yaqqol ko'rinib turadi. Misol tariqasida, yaxshilikni targ'ib qiluvchi va yomonlikni qoralovchi *Yomon atlas bilan ham yomon.* [11] maqolida *atlas* so'zi keltiriladi. Bizga ma'lumki, atlas ipakdan to'qiladigan xalqimizning milliy matolaridan biri va bunday kiyim bizning qaysi el vakili ekanligimizni ko'rsatib turadi. So'z ham ijobiylik ma'nosiga ega, ammo maqolda yomon kishiga nisbatan qo'llanilganda ma'noning kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan birgalikda, aynan shu xalq bilan bog'liq maqol ekanligiga, lingvokulturalogik birlik ekanligiga ishora qiladi. Bunday vositalar boshqa tillarga tarjima qilinmaydi. Negaki, boshqa tilda bunday til vositalarining variant bo'lmaydi. Yoki *Bel ushlaganda, otangni ayama* [11] (bu maqolning bir necha variantlari ham mavjud) maqolida o'zbek milliy sport turi bo'lgan *kurash* asos qilib olingan. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O'zbekiston janubi) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo'lgan. Bunga o'zbek xalq qahramonlik dostoni – "Alpomish"dagi Barchin shartlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga o'z raqibidan qutulishning chorasini qidiradi... Bu ta'rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Hamsa", "Holoti Pahlavon Muhammad", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'", Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida kurash haqida qimmatli ma'lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalq o'rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon kabilar kurash dovru'g'ini oshirishganligi to'g'risida manbalarda keltiriladi [15]. Berilgan ta'rifdan ayonki, kurash asrlar davomida xalqimiz bilan birga yashab kelayotgan udumlarimiz, milliy o'yinlaridan biri sifatida gavdalanadi. Shuning uchun ham kurash so'ziga lingvomadaniy birlik, qolaversa, etnografik birlik sifatida ham qarash mumkin. Bugungi kunda kurash sporti yoki shu kurashda o'zbek tilida qo'llaniladigan "kurash" termeni ham xalqimizga ishora qiladi va jahon kurash maydonlarida xalqimizning nomi tushuniladi. Maqollar majoziy ma'noga ega. Bunda ham ota bolaning kurashi nazarda tutilmaydi, balki bahs, munozarada hamishi to'g'ri hukmga asoslanishi e'tiborda tutiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalq maqollari asrlar davomida sayqallanib, silliqanib, o‘zi yaratgan xalq bilan birga yashab kelayotgan ekan shu xalqning dardi-armoni, urf-odati, kundalik turmush tarzi, madaniyatini o‘zida namoyon etadi. Shuning uchun ham bunday birikmalarga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Chunki xalq maqollaridan anglashiladigan madaniy tushunchalar shu xalqning milliy-madaniyatini ko‘rsatuvchi omil sifatida qaralib kelinmoqda. Shuning uchun ham xalq udumlari: to‘y-marosimlari, azasi, o‘yinlari, an‘nalari maqollarda ifodalanishi bilan bunday mavzular hamisha dolzarb bo‘lib boraveradi. Bunday jihatlarni o‘zida ifodalagan maqollar talaygina. Shuning uchun ham xalq maqollarini lingvokulturalogik, etnolingvistik jihatdan tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. *Pedagogika*, 171.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab ... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – 10 bet.
3. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent, 2019. – 168 b.
4. Usmonova Sh. Lingvokulturalogiya. – Toshkent, 2019. 246 b.
5. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013. 136 b.
6. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 32 б.
7. Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 41 б.
8. Маджидова Р.У. Антропоцентриқ мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2020.
9. Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси (“Девону луғати-т-турк” материали мисолида): Филол. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2020. – 61 б.
10. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2017. – 56 б.
11. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005
12. Шарафиддинов Х. Рифмы и ее функционально-стилистические особенности в структуре узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. канд. ... филол. наук. – Ташкент, 1986. – 23 с.
13. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. –Т., – Б. 1990.
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yilqichilik>
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kurash>

Muallif:

Axrorov Alisher Akbarovich - Guliston davlat universiteti dotsenti, PhD.

UDK: 372.881.11

THE SOLUTION OF THE PROBLEMS OF THE BASIC UNITS OF LANGUAGE STRUCTURE IN THE INTERPRETATION OF ACADEMIC AZIM HOJIYEV (MORPHEME)

AKADEMIK AZIM HOJIYEV TALQINIDA TIL QURILISHINING ASOSIY BIRLIKLARIGA OID MUAMMOLAR YECHIMI (MORFEMA)

РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ БАЗОВЫХ ЕДИНИЦ СТРУКТУРЫ ЯЗЫКА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ АКАДЕМИКА АЗИМА ХОДЖИЕВА (МОРФЕМА)

Muxudullayev Farrux

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze,

E-mail: muxudullayevf@gmail.com

Abstract. Academician A. Hajiev was one of the rare linguists who, during his academic career, was able to positively solve the most delicate and complex theoretical problems of Uzbek linguistics in an enviable way. In this regard, it can be observed that Zaky, a linguist, created a particularly blessed work in the last twenty years of his life. In this period, it is a word, lexeme, word form, morpheme, unit form, grammatical form, categorical and non-categorical meaning, category meaning, lexical-grammatical unit, linguistic pattern, artificial word structure in the Uzbek language. , created researches worthy of attention and recognition on general theoretical issues such as the meaning of word formation and the structure of word form. Focusing on the urgent problems related to the main units of language construction, which should be solved first of all, he put forward important proposals for their solutions [1].

Key words: language unit, linguistic unit, speech unit, morpheme, morpheme, variant of morpheme, invariant, language system and structure, language science, language education, new perspective, synthetic system-structural linguistics, analytical system-structural linguistics, public discussion, essence of morpheme, word maker, form maker, maker unit, maker tool, semantic meaning, functional meaning.

Аннотация. Академик А.Хаджиев был одним из немногих лингвистов, которому за свою академическую деятельность удалось положительно решить самые тонкие и сложные теоретические проблемы узбекского языкознания. В этой связи можно отметить, что лингвист Заки создал особенно ценную работу в последние двадцать лет своей жизни. В этот период это слово, лексема, словоформа, морфема, единица, грамматическая форма, категориальное и некатегориальное значение, категориальное значение, лексико-грамматическая единица, языковой образец, искусственная структура слова в узбекском языке, создал достойные внимания и признания исследования по общетеоретическим вопросам, таким как значение словообразования и структура словоформы. Акцентируя внимание на актуальных проблемах, связанных с основными единицами языковой конструкции, которые следует решить в первую очередь, он выдвинул важные предложения по их решению [1].

Ключевые слова. Языковая единица, языковая единица, речевая единица, морфема, морфема, вариант морфемы, инвариант, языковая система и структура, языковая наука, языковое образование, новый взгляд, синтетическая системно-структурная лингвистика, аналитическая системно-структурная лингвистика, общественное обсуждение, сущность морфемы, словосоздатель, формообразователь, формообразующая единица, орудие-создатель, семантическое значение, функциональное значение.

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslik muammolari bo'yicha uch-to'rt mutaxassisning chiqishini hisobga olmasa, kutilgan darajadagi keng jamoatchilik muhokamasi amalga oshmadi. Vaholanki, A.Hojiyev o'tgan asrning 90-yillari va yangi asr boshlarida yetakchilik qilgan sintetik (sistem-struktur) [2] yo'nalishdagi ayrim o'quv adabiyotlarini tanqid ostiga olgan, jiddiy tahrirdan o'tkazmay ulardan foydalanish mumkin emasligi haqida keskin fikr-mulohazalarni bildirgan[3]. Ammo shunga qaramasdan, olim tanqidiga uchragan darslik, o'quv qo'llanmalari ba'zi juz'iy o'zgarishlar bilan qayta nashr etilib, asosiy o'quv adabiyotlari sifatida oliy til ta'limida, xususan, filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi va lingvistika(o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilishda keng foydalanilmoqda. Shunga ko'ra, akademik A.Hojiyev e'tibor qaratgan masalalar bugungi kunda ham o'zbek tilshunosligi va til ta'limining keng jamoatchilik muhokamasini kutayotgan dolzarb muammolari hisoblanadi.

Xo'sh, ayni qaysi til birliklariga oid qarash va talqinlar muammoli bo'lib, A.Hojiyevni qoniqtirmagan? Olimning fikricha, tasnif, ta'rif va tavsiflarda qanday jiddiy xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilganki, ular tadqiqotchini quyidagi kabi keskin va murosasiz tanqidiy hukm-xulosalar chiqarishga majbur qilgan? “ Tilni sistema sifatida o'rganishga e'tibor qaratilib, shu asosda ish yuritila boshlagach, tilning asosiy birliklari, ulardan har birining mohiyati yuzasidan yangi-yangi fikr-mulohazalar yuzaga kela boshladi... Bu ijobiy hol, albatta. Lekin bu borada eng muhim masalalar yuzasidan ham to'g'ri, aniq bir fikrga kelinganicha yo'q. ...erishilgan natijalarning ijobiysidan ko'ra salbiylari salmoqli o'rin tutadi. Buni shu holatdan o'qitish mumkinki, masalan, bir ishda til birligi sifatida leksema umuman tilga olinmasa boshqa bir ishda til birligi sifatida so'z tilga olinmaydi [4]. Ba'zi ishlarda esa leksema lisoniy birlik, so'z esa nutqiy birlik deb qaraladi[5] ... Biroq xuddi shu ishlarning o'zida bu hodusalarning, bu til birliklarining mohiyati to'g'ri yuechimini topgani yo'q.” [1]

Darhaqiqat, mazkur masalalarda hozirgi kunda ham ziddiyatli holatlar, biri-ikkinchisini inkor qiluvchi fikr-mulohazalar hukm suryapti. Ushbu maqola shu munosabat bilan yozildi. Biz unda mazkur o'ta dolzarb muammoni ijobiy hal qilish ishiga imkon qadar hissa qo'shishga, bu boradagi ayrim noaniqliklarga barham berishga harakat qildik,

O'ylaymizki, ular sizni ham befarq qoldirmaydi. Ushbu maqolada olimning morfema to'g'risidagi ta'limoti haqida fikr yuritilgan.

Kuzatishlarimizga qaraganda, A. Hojiyev keyingi yillarda ko'proq morfema bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratgan. Bu bejiz bo'lmay, til sistemasi va strukturasi talqinlaridagi yangicha qarashlar, yondashuvlarning bevosita yoki bilvosita morfema talqini (morfotsentrik nazariya ta'siri natijasida) bilan bog'liqligi, yuzaga kelgan vaziyat taqozosiga ko'ra (mor-femaga tilning asosiy, bosh birligi maqomi berilib, so'z ikkinchi planga tushishi munosabati bilan) oxir-oqibat morfema masalasiga kelib taqa-lishi bilan belgilanadi. Azim Hojiyev mavjud vaziyatni to'la bilgan, chuqur his qilgan holda ish ko'rdi, jamoatchilik e'tiborini sintetik tilshunoslik (sintetik, analitik tilshunoslik termin-tushunchalari o'zbek tilshunosligida ilk bor O. Bozorovlar tomonidan yangicha (sistem-struktur) va an'anaviy tilshunoslikka nisbatan qo'llanilgan[2].) yuzaga kelganini e'tirof etgan, yutuqlarini ta'kidlagan holda, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarga va ularni bartaraf etish, ijobiy hal qilish yo'llarini izlab topish masalalariga qaratdi. Ta'kidlash joizki, uning tadqiqotlari tufayli o'zbek tiliga oid morfema nazariyasi aniq va izchil, mohiyatiga monand talqinlar bilan boyidi, takomillashdi, eng muhimi esa, bu boradagi o'ta murakkab va chigal muammolarni ijobiy hal qilish yo'li topildi. To'g'ri, A.Hojiyev ham muammoni biron savolga o'rin qoldirmaydigan darajadagi yechimini topmagandir, uning qarashlarini boshqacha tushunuv-chilar yoki unga qo'shilmaydiganlar, hatto qarshilar ham bordir, yana topili-shi ham ehtimoldan uzoq ham emasdir, biroq u, bizningcha, eng muhim va asosiy narsani – kalavaning uchi qayoqda ekanligini, muammo yechimining

maq-sadga muvofiq yo'nalishini to'g'ri belgilay oldi. Shunga ko'ra, Azim Hojiyev morfemaning mohiyatini o'zbek tilshunosligida aksar ko'pchilik tomonidan qabul qilinib, e'tirof etilgan, uzoq yillardan buyon o'zgarishsiz qo'llanib kelayotgan, bugun ham o'z kuchini saqlab qolgan va ilmiy bilishning tabiiy kyechimi talabiga ko'ra bevosita kuzatishda berilgan qo'shimchali so'zlarning ma'noli qismlariga ko'ra tuzilishini, ularning eng kichik, bo'linmas ma'noli qismlarini tahlil qilish asosida belgilangan talqinlarga ham, shuningdek, til sistemasining hozirgi holatiga ko'ra ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, tayyor holdagi, lekin bizning ongimizda, uning til xoti-rasi qismida saqlanadigan, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan tilning har qanday eng kichik ma'noli lisoniy birligini morfema deyishga ham qo'shilmadi. Bunda u muammoning o'zbek tilining o'ziga xos agglyutinativ funktsional sistema ekanligi bilan belgilanadigan ilmiy-nazariy asoslar bilan ish ko'rdi va ayni shu sababli sistem-struktur talqinlar natijasida yanada murakkablashgan muammoni ijobiy hal qila olish kalitini topishga muvaffaq bo'ldi. Bizningcha, olimning bu boradagi asosiy qarashlari quyidagilar bilan belgilanadi:

Hu Jane uses the following definition from the author of the William James book that she mentions in her essay “Stream of Consciousness”: “A constant stream of consciousness”: A natural descriptive metaphor, “river” or “stream” refers to a flow of ideas, awareness, or subjective existence. It is also referred to as a “inner monologue” because it describes a narrative method where the speaker addresses the audience or intended recipient in an attempt to swiftly offer a textual counterpart of a character's cognitive processes frequently recognized by invented methods like missing punctuation, grammatically wrong words, and a string of unconnected sensations [4].

Until a character's thoughts are condensed, arranged, or otherwise changed to create narrative coherence or meaning, the stream of consciousness approach aims to capture their general state of mind. The way that humans think is more in line with “reality”. Stream of consciousness is another narrative method that keeps ties to modernist art styles including Cubism, German Expressionism, and modernist film.

D.F.Zigidulina according to Rudnev's perspective in the article “Stream of Consciousness,” the “stream of consciousness” argues that syntactic errors, disproportions, and direct linkages are ways in which mental activity is revised [3].

We must take into account that “stream of consciousness” is a literary method used in literature to represent a character's point of view by capturing, in written form, the mental processes of the character in a free-form internal monologue or in connection with his emotional response to outside events.

The modernist movement is strongly linked to the use of stream of consciousness in storytelling. May Sinclair coined the phrase for the first time in literature in 1918 while referring to the first two volumes of Dorothy Richardson's *Pilgrimage* in “The Egoist”. The two modernist novels that made the most use of it are William Faulkner's “The Sound and the Fury” and James Joyce's “Ulysses”[2].

It is evident that internal monologue is distinct from dialogue in that it is essentially an imagined instrument used to represent the speaker's thoughts, which are heard in the head or directed towards oneself- a literary movement that developed as a result of a dialectical phenomenal process being artistically expressed.

The New Webster English Dictionary defines this technique as follows: “Refers to a literary technique in which plot and character are revealed through the ideas, sensations, and other mental processes of the character, without reference to him[4]. This definition serves as a primer for understanding the essence of this approach. Without taking into consideration “conventional syntactic structure,” literary style elements such as emotional expression, narrative and character perception, and other mental processes are highlighted.

Stream of consciousness is best described by Oregon State University professor Liz Delph as follows: A narrative technique known as “stream of consciousness” aims to authentically portray a character's train of thinking. Numerous faulty connections, cyclical repetition, emotive observations, odd—or nonexistent—punctuation and syntax—all of these things aid in our comprehension of the character's mental state and worldview. Goal: they aim to illustrate the brain's spatial organization. Not a stream of thinking, and according to the writers, this is how humans reason in coherent, ordered, and sometimes even full sentences[6]. Literary critic T. Joraev states: “While it may appear simple to record the intricate process of writing a stream of consciousness, it is actually a sophisticated creative endeavor. Associative plots are typically necessary for the form and style of works created in this approach, and they end up serving as the primary kind of plot. In turn, the associated plot is a distinct picture[2].

For instance, we provide an extract on the stream of consciousness, which is the internal monologue of Leopold Bloom's wife Molly in a stream of consciousness, from the translation of the Irish author James Joyce's work "Ulysses" into Uzbek via Russian. Certainly syntactic transformations are reflected in TL:

Table 1.

Examples of stream of consciousness and their transformations

“Ulysses”(original)	Russian translation	Uzbek translation
<p>... especially then still I like that in him polite to old women like and waiters and beggars too hes not proud out of nothing but not always if ever he got anything really serious the matter with him its much better for them you go into a hospital where everything is clean but I suppose Id have to dring it into him for a month yes and then wed have a hospital nurse next thing on the carpet have him staying there til they throw him out or a nun maybe like the smutty photo he has shes as much a nun as Im not yes because theyre so weak and puling when there sick they went a woman to get wellif his nose bleeds youd think it was O tragik... Ulysses,[7;P.1218.]</p>	<p>...особенно тогда но пожалуй мне нравится в нем такая деликатность со старухами и с прислугой и даже с нищими он не пыжится попусту хотя не всегда если вдруг с ним правда что-то серьезное тогда закавыка в том что конечно следует лечь в больницу где все чистое но его ведь надо сначала уговаривать целый месяц да а потом тут же на сцену появляется медсестра и он там будет торчать покуда не выкинут или скажем монахиня наподобие той что у него на этом похабном снимочке такая же она монахиня как я да потому что когда они заболеют до того слабые хнычут нуждаются в нас чтоб выздороветь у него кровь из носу пойдет так по его виду подумаешь тут Ах... [10;P.342].</p>	<p>... айникса ўшанда лекин очигини айтганда Полдиннинг қари қартанлару хизматкорлару ва хатто тиланчиларга мулозамат қилиши менга ёқади у димоқ-фироқ қилиб юрмайди албатта ҳар доим ҳам шундай эмаску-я мабодо жиддийроқ тоби қочган бўлса унда яхшиси касалхонага ётиш у ерда ҳаммаси тоза озода лекин уни бунга камида бир ой кўндириш керак бўлади ва у то ташқарига чиқариб ташламагунларича ётаверади ёки роҳиба аёл анави уятсиз суратдагига ўхшаган нимаси роҳиба экан тусингга ўлай кейин бу эрқаклар бир касал бўлмасин шунақанги ожиз бўлиб қолишади: инграшади мингирлашади биз бўлмасак тузалиб кетишлари ҳам даргумон бурнидан қон келади афт-башарасига қарасанг кўрқиб кетасан Оҳ дейсан бу қандай фожеа... [9;P.768].</p>

Conclusion. As we previously stated, the use of the "Stream of Consciousness" is frequently accompanied by a number of syntactic errors, including examples of parcellation and ellipses, as well as a full rejection of punctuation.

List of used literature:

1. Бақоева М., Муратова Э., Очилова Э. English literature Tashkent: 2010. (Дарслик 209 бет).
2. Холбеков М.Х. Инглиз адабиёти классиклари. Био-библиографик қўлланма. Жиззах: ЖДПИ, 2014, Б.75- 88.
3. Загидулина Д.Ф. "Поток сознания" как показатель роста и трансформации художественной литературы. // Казанский лингвистический журнал, 2021, том 4, № 2, с. 180.
4. Hu, Jane. "Stream of Consciousness." The Routledge Encyclopedia of Modernism. : Taylor and Francis, 2016. Date Accessed 7 Jul. 2023 <https://www.rem.routledge.com/articles/stream-of-consciousness>. doi:10.4324/9781135000356-REM1103-1
5. New Webster's dictionary of the English language. India. Surjeet publications. Fifth reprint. 1989. 1824 pages. P.1513.
6. <https://liberalarts.oregonstate.edu/wlfw/hat-stream-consciousness>
7. <https://www.planetebook.com/free-ebooks/ulysses.pdf> 1305 pp.
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Stream_of_consciousness
9. James Joyce. Ulysses sarguzashtlari. Tashkent-"Uzbekistan" 2013. Translated by Ibrahim Gafurov. 840 b.
10. James Joyce. Ulysses. "Izdatelskaya Gruppy "Azbukha-Atticus", 2014.
- V. Khinkis., S. Khoruzhiy perevod, 2000., Vol 1.

Author:

Pulatova Sayyora Yuldashovna - Termiz davlat universiteti, Surxondaryo viloyati Termiz shahri, Dilnavo ko'chasi 12b uy 4-xonadon. E-mail: pulatovas79@gmail.com

UDK: 891.709

**THE USE OF MYSTICAL-SUFI TERMS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.
(IN THE EXAMPLE OF “NAZM UL-JAWAHIR”)**

ALISHER NAVOIY IJODIDA IRFONiy-TASAVVUFiy ISTILOHLARNING QO‘LLANISHI
(“NAZM UL-JAVOHIR” ASARI MISOLIDA)

УПОТРЕБЛЕНИЕ МИСТИКО-СУФИЙСКИХ ТЕРМИНОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ
(НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «НАЗМ УЛЬ-ДЖАВАХИР»)

Eshniyazova Maysara Beknazarovna

Samarqand davlat universiteti, 140104, Samarqand viloyati Samarqand shahri Universitet xiyoboni, 15

E-mail: maysaraeshniyazova300477@gmail.com

Abstract. Alisher Navoi enriched the artistic and scientific literature of the Turkic and Persian peoples with rare works, reflected on topics related to all areas of his time, and showed the criteria of life relationships. "Nazm ul-javahir", which is considered one of such works, consists of 268 rubai's dedicated to the commentaries on wisdom, and the poetic fragments are diverse in terms of subject. In them, observations about the world and man, the essence of life, the criteria of living, the dignity of humanity, personal education and maturity, deep reflections and unique thoughts are expressed. The cornerstone of the perfect society and the concept of a perfect human being put forward in the rubai's in the work is, without a doubt, awareness of enlightenment. In this small article, observations were made about the use of terms expressing mystical-sufistic concepts in "Nazm ul-javahir" rubai, their content, and the significance of the poet's artistic goal.

Key words: mysticism, gnosis, rubai, istilah, idea, artistic goal, lyrical hero.

Аннотация: Алишер Навои обогатил художественную и научную литературу тюркских и персидских народов редкими произведениями, отразил темы, связанные со всеми областями его времени, и показал критерии жизненных отношений. «Назм уль-джавахир», считающийся одним из таких произведений, состоит из 268 рубаев, посвященных комментариям к мудрости, причем стихотворные фрагменты разнообразны по тематике. В них выражены наблюдения о мире и человеке, сущности жизни, критериях жизни, достоинстве человечества, образовании и зрелости личности, глубокие размышления и уникальные мысли. Краеугольным камнем совершенного общества и концепции совершенного человека, выдвинутой в рубаи в произведении, несомненно, является осознание просветления. В этой небольшой статье были сделаны наблюдения об использовании терминов, выражающих мистико-суфийские понятия в рубаи «Назм уль-Джавахир», их содержании, значении художественной цели поэта.

Ключевые слова: мистика, гнозис, рубаи, истила, идея, художественная цель, лирический герой.

Kirish. Buyuk mutafakkir Hazrat Alisher Navoiy ijodiy merosi umuminsoniy qadriyatlarining mukammal badiiy ifodasi sifatida asrlar osha kitobxonlar e'tiborini jalb etib kelmoqda. Hatto muallif hayotlik vaqtidayoq uning ijodi tadqiq etila boshlagani ham, yillar davomida turli millatlar va elatlar, shuningdek bugungi kun adabiyotshunosligi, dinshunosligi, falsafasi va boshqa qator sohalarida Navoiy ijodiga murojaat qilinayotganligi ham so'z san'atkorining o'lmas merosi nechog'lik qadr-qimmat kasb etishini namoyon etib turibdi.

Alisher Navoiy turkiy va forsiy xalqlar badiiy va ilmiy adabiyotini nodir asarlar ila boyitish bilan birga, o'z davrining barcha sohalariga aloqador mavzular haqida fikr yuritib, hayotiy munosabatlar mezonlarini ko'rsatib berdi. Alloma o'z ijodi orqali komil inson g'oyasini targ'ib etar ekan, bu daraja, avvalo, shar'iy-tasavvufiy bilimlarga egalik hamda ularga amal qilishda qat'iyat talab qilinishini e'tirof etdi, ma'rifatullohni o'rganish, anglash va qalb pokligiga, ko'ngil bog'liqligiga erishishni muhim insoniy burch va vazifa deb bildi. "Nazm ul-javohir" ana shunday asarlaridan biridir.

"Nazm ul-javohir" 268 ta hikmat sharhiga bag'ishlangan ruboiylardan iborat bo'lib, she'riy parchalar mavzu jihatidan rang-barang. Ularda olam va odam haqidagi mushohadalar, hayotning mohiyati, tiriklikning mezonlari, insoniylikning qadr-qimmat, shaxs tarbiyasi va kamoloti to'g'risida chuqur mulohaza, o'tkir xulosalar, noyob fikrlar bayon qilingan. Alisher Navoiy tomonidan asardagi ruboiylarda ilgari surilgan bosh g'oya shundayki, mukammal jamiyat va komil inson konsepsiyasining tamal toshi, asosi, shubhasiz, ma'rifatullohdan xabardorlikdir.

To'rt buyuk xalifaning so'nggisi Hazrati Ali (r.a.)ning "Nasr ul-laoliy" asaridagi hikmatlarning she'riy talqini, tarjimai sifatida yaratilgan "Nazm ul-javohir" asarida Alisher Navoiyning irfoniy-tasavvufiy g'oyalari keng ifoda etilgan. Muallifning shoirlar salohiyati asosida turkiy ruboiylar ko'rinishida in'ikos topgan hikmatlar sharhida tasavvufga aloqador bir qator istilohlardan unumli foydalanilgan, xususan, shariat ahkomlari va qoidalari, tariqat maqomlari haqida ilmiy-nazariy ta'riflar berilmasa-da (zero, muallifning maqsadi bu emas), axloqiy-falsafiy, irfoniy-tasavvufiy g'oyalarni ifodalashda bevosita va bilvosita bunday istilohlarga murojaat qilingan. Ushbu maqolada muallifning irfoniy-tasavvufiy istilohlarni qo'llash borasidagi poetikasi ochib berilgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti qilib Alisher Navoiyning “To‘la asarlar to‘plami”ning 10-jildidan o‘rin olgan “Nazm ul-javohir” asari olingan. O‘rni bilan Qur‘oni karim va hadisi shariflarga, tasavvufga oid manbalarga murojaat qilingan. Maqolada qiyosiy-tarixiy tahlil, sharh, tavsif va tasnif, manbalar bilan ishlash usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Barchaga ma'lumki, shariatning asosiy ustunlari imon, namoz, ro'za, zakot, haj atamallari bilan yuritiladi. Mo'min-musulmon uchun ularni ado etish ibodat sanalgan. Temuriylar davrida ham shar'iy hukmlarga amal qilishga alohida e'tibor qaratilgan. “Nazm ul-javohir” asarida aynan shu mavzularda yaratilgan ruboiylar mavjud bo'lib, Navoiy, jumladan, imon masalasiga juda ko'p o'rinda to'xtaladi. Ruboiylar debochasining imon masalasiga bag'ishlanishi ham bejiz emas:

Iymoni aningki kufrig'a sotir erur,
Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,
Har kimsaki iymon ishida mohir erur,
Iymonini bilki, otidin zohir erur. [2]

Keyingi ruboiylarida shoir bu mavzuda fikrini davom ettirib, ishda sustkashlikning sababi imon zaifligidan ekanligi (25-ruboiy), hayo, vafo va saxo kabi uch sifat iymondan bino bo'lishi (32-ruboiy), himmat ham, davlat qasrining asosi ham imon bilan oliylik rutbasiga erishishi (162-ruboiy) haqidagi mulohazalarini bayon qilar ekan, ularning Rasululloh (s.a.v.) hadislariga qanchalik hamohangligini anglash qiyin emas. Zero, imon keyingi barcha amallarning debochasi, poydevori, eshigidir. Shu bois Navoiy yozadi:

Iymon topqon kishiga Haq rahmatidin
G'am yo'q shayton vasvasa-yu zahmatidin,
Iymong'a mador o'ldi ko'ngul quvvatidin,
Ko'ngul aro quvvat o'ldi din sihhatidin. [2]

Istiloh sifatida “salot” deb ham atalgan, barcha mo'min-musulmonlar uchun buyurilgan namoz haqida marhamat qilingan oyatlar va hadislar juda ko'p. Ularda bu amalning farz va sunnatlari, ado etish qoidalari, ahamiyati, foydalari va tark etishning zararlari haqida batafsil bayon etilgan. Shuningdek, tungi nafl namozlar borasida ham ko'rsatmalar mavjud. Hazrati Ali (r.a.)ning “Salot ul-layli baho un-nahori” – “Tunda o'qilgan namoz kunduzga go'zallik bag'ishlaydi” hikmati ham ana shunday ko'rsatmalardan biridir. Bu hikmatning sharhi sifatida yaratilgan ruboiyda Navoiy dastlab fikrini namozni ado etishda beparvolik qilmaslik bilan boshlaydi. Bu mantiqan juda to'g'ri yo'l bo'lib, kunduzgi namozlarda, ya'ni farz va sunnat namozlarida sustkashlikka yo'l qo'ygan banda tungi nafl namozlarini bajarishga umuman bo'yin egmaydi, kunduzgi namozlarda xushu' va huzuni his qilmagan obid tunda sajdaga bosh qo'yish uchun shirin uyqusidan kecha olmaydi. Shu bois Navoiy avval umuman namoz borasidagi amrlarga itoat lozimligi haqida o'git berib, keyin tungi namozning fazilati to'g'risida gapiradi. Demak, ko'rinadiki, shoir faqatgina hikmatlarning nazmiy bayonini yaratmasdan, ularni to'ldirib, mazmunini boyitib, qamrovini kengaytirib, ahamiyatini yorqinroq ochib berishga e'tibor qaratgan:

Ko'p qilma namoz amrida beparvoliq,
Rak'at bila qil oh xadangin yoliq,
Qilsang kecha sajdag'a jabinfarsoliq,
Kunduzunga ul namoz erur zeboliq. [2]

Shariatning navbatdagi talabi ro'za ibodatini ado etishdir. Bu so'zni Navoiy ikkita ruboiysida qo'llaydi: “ro'za” (125-ruboiy) va “savm” (195-ruboiy) shaklida. Navoiyning nazdida ro'za shunchaki zohid bajarishi kerak bo'lgan farz amalgina emas, balki uning nafi juda ulkan. Bu ibodatni ado etishni xohlagan kishi nafi bilan qattiq kurashishi lozim bo'lsa-da, lekin banda bu yo'lda qat'iy bardavom bo'lishi lozim. Shu orqali ro'zador avval badan salomatligiga erishadi, bugina emas, ruhga poklik maskani yetadi: yeb-ichmoqdan tiyilish ila tanani tozalasa, nafsini tarbiyalash, tilni, quloqni, qo'lni, qadamni, qalbni ro'zador qilish orqali kishining siyrati ham poklanadi, natijada ruhga “safo davlati” yetadi:

Doim tut o'zunga ro'zaning mehnatini
Kim, ruhqa yetkurur safo davlatini,
Sihhat tilasang, qilg'il aning niyatini
Kim, ro'zada qo'ydilar badan sihhatini. [2]

Zakot tushunchasi shariatning ahkomidan biri sifatida qo'ldagi moldan haqdorlarga belgilangan miqdorini berish amalini ifoda etadi. Zakot berishning o'ziga xos qoidalari, shuningdek bajaruvchi uchun va'da qilingan bir necha yaxshiliklar mavjud. Zakotning mazmunida aslida nisobga yetgan moldan ulush berish sinovigina emas, balki undan molga baraka yog'ilishi haqidagi Haqning va'dasidan kelib chiqib Alisher Navoiy 14-ruboiysida zakot haqida yozarkan, uning manfaati shu dunyoning o'zida yetishini, ya'ni berilgan zakotning barakasidan mol-davlati ziyoda bo'lishini aytadi:

Gar molni asbobi najot aylagasen,
Darveshga sadqasini bot aylagasen,
Molingdin agar sarfi zakot aylagasen,
Ko'prak bo'lurig'a iltifot aylagasen. [2]

Ruboiyga e'tibor qilinsa, dastlabki ikki misrada "asbobi najot", "darvesh", "sadaqa" tushunchalari qo'llangan. Navoiy bu ruboiy orqali shunday ma'rifiy g'oyani o'quvchiga bildirmoqdaki, banda o'ziga berilgan mol-mulkdan hisob kuni so'raladi, shuning uchun najotga tiriklik vaqtidan tayyorgarlik ko'rmoq kerak: berilgan mulk ne'matidan (zakotga nisobi yetmagan bo'lsa-da) darveshlarga, muhtojlarga tez-tez sadaqa chiqarmoq kerak, moli zakotga yetganlar esa Alloh amrini bajarishga jiddi jahd qilishlari darkor. Ana shunda moli ham najot, ham rozilik, ham baraka sababchisi bo'ladi.

"Nazm ul-javohir"dagi ruboiylar matnida boshqa irfoniy istilohlar ham talaygina: shukr, ibodat, yaxshi amal, do'zax, tarki dunyo qilmoq, ehson, qazo, uqbo (oxirat), sadaqa, qiyomat, din, sidq ahli va shu kabi tushunchalar Alisher Navoiyning irfoniy-tasavvufiy, ma'rifiy-axloqiy g'oyalarini ifodalashga xizmat qilgan.

Tasavvufning tariqat bosqichida solik egallashi kerak bo'lgan bir qancha maqomot mavjud. Adabiyotshunos N.Komilovning "Tasavvuf" asarida maqomot haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: «Maqomot» — maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Abu Nasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan: 1. Tavba. 2. Vara' (parhez, taqvo). 3. Zuhd. 4. Faqr. 5. Sabr. 6. Xavf. 7. Rajo (umidvorlik). 8. Tavakkul. 9. Rizo". [7]

"Nazm ul-javohir"dagi ruboiylar tarkibida shar'iy bilimlarni o'rganish va amal qilishga da'vat etishdan tashqari, tasavvufiy maqomotlarni egallash borasidagi fikrlarning she'riy talqinlarini ham o'qish mumkin.

Tasavvufda "tavba" tushunchasi kufrdan, shariat man etgan nahyi va yomon ishlardan, Haqning g'ayri bo'lgan narsalardan qaytish, zamima axloqdan hamida axloqqa o'tishni o'z ichiga olib, uning mohiyati o'z nuqsonlarini ko'ra bilish, o'zining ahvolini anglash, qabih ishlar, qabih fe'l va qabih fikrdan qaytish, dunyoning ma'nisizligi, arzimasligini anglab, zulm-u adolatsizlikdan qaytishni ham bildirar ekan, asarda bu mavzu, bu g'oya qalamga olingan ko'plab ruboiylarni o'qish mumkin. Jumladan, hirs-u havasdan yiroq bo'lish, nafsni yengish, barcha axloqiy illatlardan saqlanish, poklanish Navoiy ijodida tavba maqomining ko'rinishlari sifatida bayon etilgan. Insonning tavba qilishiga sababchi bo'lgan birlamchi tuyg'u nafsdur. Nafsning bir qancha martabalari bo'lib, nafsni ammora ular ichida eng sarkashidir. Nafsni ammordan qaytariq bandlar asarda 20 dan ortiq. Jumladan, "Istirohat un-nafsi fil-ya'si" – "Jonning huzuri birovdan umidvor bo'lmaslikdadir" hikmati sharhi berilgan ruboiyga e'tibor berylik:

Haqdin durur elga ahli ta'yid o'lmoq,
Navmid o'lub tolibi tajrid o'lmoq,
Chun ya's durur osudayi jovid o'lmoq,
Rohat yeturur nafsqa navmid o'lmoq. [2]

Alisher Navoiy hikmatning talqinida balog'at ilmiga tayangan holda kengroq tafakkur qiladi: elga yordam beruvchi quvvat ahlidan bo'lish Haqdan berilgan ne'mat va amrdir; lekin ulardan umidvor bo'lmaslik, ta'ma qilmaslik, qilganiga javob kutmaslik, nafsni bu illatdan qutultirish lozim. Zero, bandadan umidsizlik kishiga abadiy osudalik baxsh etib, nafsqa rohat, jonga huzur, ruhga erkinlik beradi. Bandaning bu holati, ya'ni Allohdan boshqasidan umidvor bo'lmaslik qalbni faqat Yaratgan zotga bog'lashga – rajo maqomiga yo'l ochadi, solikning darajasini oshiradi, ko'ngilni vasldan umidvorlik tuyg'usi bilan nurlantiradi, yashnatadi. Shu bois Navoiy hikmatni ruboiyning to'rtinchi misrasida xulosaviy fikr sifatida keltiradi. She'rda ta'did va takrir san'atidan foydalanish orqali shoir aytilmoqchi bo'lgan fikrni kuchaytirgan, asosiy g'oyani ochuvchi "noumidlik" tushunchasini bo'rttirib tasvir etgan. Oxirgi satrda kesimning mantiqiy urg'u talabi bilan gap boshida keltirilishi xulosada ifodalangan natijani – banda erishadigan holatni ta'kidlab, diqqatni tortadigan shaklda ifodalab berishga xizmat qilgan.

Nafs martabalarining birinchisi hisoblangan nafsni ammorani yengib o'tish uchun kishidan uning 12 sifatni zabun qilish talab qilinadi: shirk, kufr, jahl, g'aflat, gunohi kabiralar, kibr, hirs, baxillik, shahvat, g'azab, hasad, kin-advovat. [6]. Hazrati Ali (r.a.)ning hikmatlari orasida aynan shu illatlardan bandani ogohlikka chaqiruvchi hukmlarni ham ko'plab uchratish mumkin. "Jud bimo tajidu sadaq al-amri" – "Nimaiki topsang, sadaqa qil" hikmati Navoiy shuuri bilan nazmga solingan shunday ruboiylardan biri quyidagicha:

Maydoni saxo ichra jalodat ko'rguz,
Topqonni berur amrig'a odat ko'rguz,
Buxl aylasa, nafsingga adovat ko'rguz,
Har nimaki topilsa, saxovat ko'rguz. [2]

Nafs shunday sarkashki, Haq amriga, payg'ambar (s.a.v.) sunnatiga amal qilishdan bosh tortishi, buysunmasligi mumkin. Ayniqsa, berilgan moldan xayr-ehson va sadaqa chiqarish borasida nafsda baxillik bo'lishi odamga xos xislatlardan. Nafaqa, ehson, sadaqa Alloh azza va jalla "Qur'oni karim"ning bir necha oyatlarida marhamat qilib, bandalarni ogohlantirib o'tgan farz amallardandir. Jumladan, "Baqara" surasining 195-oyatida "Alloh yo'lida (boyliklaringizdan) sarflangiz va o'z qo'llaringiz (baxillik qilish) bilan o'z'laringizni halokatga tashlamangiz! (Barcha ishlarni) chiroyli qilingiz. Albatta, Alloh chiroyli (ish) qiluvchilarni yaxshi ko'radi", - deb marhamat qilingan hamda bu oyat avvalida baxillik qilish halokatga sabab bo'lishi uqtirilgan bo'lsa, oxirida ehson qiluvchi saxiy kishilarning Allohga mahjub ekanligi aytilgan. Shu bois Navoiy ham saxovat maydonida qahramonlik, ulug'lik ko'rgizishni, topgan mol-u nasibasidan (bu ne'matlar Allohnik ekanligini, bandaga sinov uchun berilganligini unutmagan holda) sadaqa, ehson, nafaqa berish amriga itoat qilib, bu amalni doimiy odat qilishni uqtiradi. Nafs esa baxillik sifati bilan bandaga bu ishda

jiddi jahd qilish uchun xalaqit beradi, uni itoatsizlikka chorlaydi. Bunday dushman nafs bilan adovatlashish va uni sindirishga qarshi harakat qilib, neki topsa, saxovat ko'rsatish eng to'g'ri yo'ldir. Yana bir ruboiysida "Nafs aylasa buxli, mone' bo'lg'il, ...Ko'p bergin-u ozg'a lek qone' bo'lg'il" desa, boshqasida "Nafs amrida har nechaki tolping'aysen, Ko'p garchi butunlik tilasang, sing'aysen" deya ogohlantiradi. 68-69-ruboiylarida nafs kasalligi hirsdan yetishi haqida ta'kidlanib, uning davosi shu illatni daf etishlikda ekanligi uqtiriladi:

Hirs ofatini nafs havosi bilg'il,
Qo'ymoq ani nafs muddaosi bilg'il,
Nafsing'alam hirs balosi bilg'il,
Kechmak mundin aning davosi bilg'il. [2]

"Nafs" va "hirs" kalimalarini she'rda bir necha o'rinda takrorlash orqali shu ikki tushunchaga urg'u berilar ekar, shoir bu so'zlarni tilga olganda ularning sifatlarini istiora san'ati orqali yorqinroq aks ettiradi: hirs bir o'rinda ofat deyilsa, boshqa o'rinda balo ekanligi aytiladi. Nafs esa tashxis san'ati asosida jonlantirilib, o'quvchi ko'z o'ngida tirik raqib timsolini gavdalandiradi: bu dushmanning orzusi, maqsad-muddaosi bor va bu banda uchun kulfat keltiradi. Faqat poklangan nafsgina uni yengishi, undan kecha olishi mumkin.

Tasavvufda navbatdagi maqom – vara' haqida quyidagicha izoh berilgan: "Vara'" so'zining ma'nosi parhez, taqvo bo'lib, bo'lg'anishlardan, ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan saqlanish demakdir. Shibliyning ko'rsatishicha, vara'ning uch ko'rinishi bor: til vara'si, ya'ni tilni bema'ni gaplar uchun ishlatmaslik, g'iybat-tuhmatga berilmaslik; ko'z vara'si – shubhali narsalardan saqlanish, g'aliz shakllarga boqmaslik; qalb vara'si, ya'ni past himmatni tark etish va noxush qiliqlarni qilmaslik. Ko'ngil man etgan jamiki narsalardan parhez qilish, tamadan saqlanish, mahrumlikdan qo'rqishdan hazar qilish. Xullas, tilga, ko'zga, quloqqa va oyoqqa band solish". [7] Demak, vara' keng tushuncha bo'lib, gunohga eltuvchi a'zolar pokligi uchun to'liq saqlanishni anglatar ekan, "Nazm ul-javohir"dagi deyarli barcha ruboiylarda ushbu maqomning holatlarini, mazmunini, in'ikosini ko'rish mumkin. Xususan, til parhezi borasida – tilni teyish, minnat qilmaslik, xushmuomalalik, shukr, yaxshi hamsuhbat bo'lish, va'daga amal qilish, ravon so'zlash, nodonga sukut, qisqa gapirish, rost so'z, til va dil birligi; ko'z parhezi – Allohdan qo'rqib yig'lash, sevimli kishini ko'rish; qalb parhezi – yordam berish, qalbn yumshoq saqlash, xulq parheziga amal qilish – odob, ota-onaga mehribonlik, qiyinchiliklarni yashirish, chiroyli amal, xatolarni tuzatish, yaxshilikni o'ylash, kamtarlik, hayo, vafo, saxiylik, ehson, sadaqa, halimlik, bosiqlik, adolat, haqni ado etish, ilmli bo'lish, qadrlash, tavoze'li bo'lish, xotirjamlik va boshqa bir qator insoniy fazilatlar to'g'rilik yo'li sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shariat va tariqat talablarini bajarish esa parhezning adosi bilan mukammallik kasb etadi. Shu bois Hazrati Ali (r.a.)ning "Saloh ud-dini fil-vara'i va fasoduhu fit-tama'i" – "Dinning salomatligi – Xudodan qo'rqishda, fasodi esa tamagirlikdir" hikmati Alisher Navoiy talqinida quyidagi she'riy ko'rinishda sharhlanadi:

Dinkim, anga af'oli taba'din bo'ldi,
Qalqon anga "azza man qana" din bo'ldi.
Andoqki, saloh anga vara'din bo'ldi,
Bilgilki, fasod anga tama'din bo'ldi. [2]

Demak, din – Allohdan qo'rqib, uning amrlariga buysunish, taqiqlariga amal qilish. Bu yo'ldagi qiyinchiliklarni, xususan, tama'ni (hirs, ochko'zlik, tilanchilikni) sabr va parhez bilan yengib o'tish orqali salohga (osoyishtalikka, to'g'rilikka, zuhd-u taqvoga) erishish mumkin. Navoiy hikmatning mazmunini kuchaytirish, mulohazasini asoslash uchun sabr maqomi bilan vara' maqomini uyg'unlikda tilga oladi va fikrining dalili uchun "Azza man qana" ("Qanoat qilgan kishi izzat topadi") hukmini iqtibos qilib keltiradi.

Tasavvufning keyingi maqomi "zuhd" – taom va ichimlikdan, dunyo moliga egalikdan saqlanish. Junayd Bag'dodiy so'zi bilan aytganda, "Zuhd – qo'lni mulkdan xoli tutish, dilni esa Haqdan o'zga har narsadan pok saqlash demak". "Nazm ul-javohir"da bu tushuncha 17-, 80-, 103-, 195-ruboiylarda tilga olingan. Masalan, "Batn ul-mar'i aduvvuhu" – "Kishining qorni uning dushmanidir" hikmati navoiyona talqinida quyidagicha nazm qilinadi:

Har kimgaki ko'p taom yemak fandur,
Bilgilki, najosatqa tani maskandur,
Qorning bila do'st bo'lmasang, ahsandur,
Nevchunki, er o'g'lig'a qorin dushmandur. [2]

E'tibor qilinsa, Navoiy taomlanish odobi haqida so'z boshlaydi va uni me'yor tushunchasi bilan chegaralaydi. Zero, sufiylar taomlanish tananing ibodatga yarashi uchun yetarli bo'lishi tarafdori hisoblanishgan. Me'yordan ko'p ovqatlanishni o'ziga odat qilgan kishi tanasi najosat maskani bo'lib qoladi, deydi Navoiy. Haqiqatan, qorin g'amini yeydigan bandani asta-sekin g'aflat bosadi, ibodatlarda sustkashlikka yo'l qo'yadi, dangasalik kasaliga yo'liqadi, bora-bora asl maqsaddan yiroqlashadi: Alloh bilan do'stlik o'rnini qorin bilan do'stlik egallaydi. Bu – katta adashish. Navoiy fikrini mantiq ipiga shunday kuchli teradi va uni qat'iy hukm – hikmat bilan xulosalaydi. Qorin, ya'ni nafsning dushmanligi keltirib chiqaradigan xavflardan eng yomoni – qalbn qotib qolishidir. Yana bir ruboiysida Navoiy aynan shu haqida yozadi:

Ko'p to'ma yer el arosidin ixroj o'l,
Savm ahli aro bosh qo'y-u sohib toj o'l,

Kim qalbi daqiq erur, anga muhtoj o‘l,
To‘qluq chu ko‘ngulni qatiq aylar, och o‘l. [2]

Shu joyda “Kimki dunyodan parhez qilsa, uning qalbi tajalliyot nuri kiradigan joyga aylanadi” hadisini eslash o‘rinli bo‘ladi. Zuhd maqomini egallamaslik toat-ibodatlarining to‘liq bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi. Bu haqda Navoiy keyingi ruboiysida yozadi:

Gar emas esang zuhdg‘a damsoz hanuz,
Fisq ichra qilur esang tak-u toz hanuz,
Ko‘p angla bir o‘lsa jurm nosoz hanuz,
Gar ming o‘lsa toat, erur oz hanuz. [2]

Aynan shu ruboiyda zuhd maqomi faqat moddiyatdan emas, balki fe‘l-atvordagi illatlardan ham parhez qilish ma‘nosiga ega bo‘lib, ibodatlarining soni emas, sifatiga, zohiri emas, botiniga e‘tibor qaratish lozimligiga ishora qiladi.

“Faqirlik” deb ataluvchi maqom tasavvufda qashshoqlik, benavollik, ulug‘vor ilohiy mohiyat kasb etish bolib, so‘fiylar nazdida Xudoga bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, banlalikdan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorlikda yo‘ldagi tuproq misol nom-u nishonsiz bo‘lish, Iloh nazdida o‘zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash va shu martabada komillik rutbasini qozonishdir. Mazkur maqomi haqidagi ruboiylar “Nazm ul-javohir”da anchagina bo‘lib, ularda “faqr” atamasi tilga olinishi bilan birga, faqirlik martabasining ulug‘ligi, faqir kishining sifatleri, bu yo‘lda bandaning holatlari qanday bo‘lishi haqida so‘z boradi. Faqirlik bandaning shunday darajasiki, u dunyo matohlaridan ustunlikka erishadi, ruh nafs qutqusidan ozod bo‘ladi, qalb go‘zallashadi, ko‘ngil eng katta boylik – Haq diydoridan umidvor bo‘ladi. O‘z navbatida, bu toifaga yaqinlik ham tarbiya maktabi, zavq sababchisi, rohat ulashuvchi, islohg‘a yo‘llovchi. Shu bois A.Navoiy ruboiylarida bu mavzu keng doirada qamrab olinadi. Johillar bilan emas, faqr ahli bilan suhbatdosh bo‘lish ne‘matlar shukrini ziyoda qilishi (49-ruboiy), cho‘ntagida jahon moli bo‘lsa ham, faqir ahli qalbning pokligida, uning boyligidan ko‘ngli orom olishi (63-ruboiy), Haqning oldida mansab-u boylik, mol-mulk aziz emas, balki faqr talabgori, faqlar faqiri aziz bo‘lishi (84-ruboiy), jahonda benishonlik, faqr ahli yo‘lida notavonlik yaxshi amallardan ekanligi (104-ruboiy), qurumsoq va haqir boylar faqir ahliidan zaifligi (121-ruboiy), asosiy faqirlik – ishqqa muhtojlik ko‘ngillarni nurlantirishi (137-ruboiy), shuhrat to‘ni o‘rniga faqirlik libosini kiyish donolikdan ekanligi (210-ruboiy), faqr yo‘lida kuch va iqtidor topmagan kimsa baxtsiz bo‘lishi (253-ruboiy) bayon qilingach, faqirlik qalbni rohatga eltishi haqida xulosa chiqariladi:

Istar esang osudaliq, ish tajrid et,
Faqr ichra o‘zungni moyili tafriid et.
Ko‘nglungni zamon bahrasidin navmid et,
Nafsingg‘a bu ishni rohibi jovid et. [2]

Sabr maqomi, tasavvufshunos olim N.Komilovning yozishicha, so‘fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslikni bildiradi. Darhaqiqat, mukammal saodat yo‘li ham sabr orqali bosib o‘tiladi: muammolar, har turli balolar, qiyinchiliklarga bardosh berish bilan solik toblanadi; nafsni mag‘lub qilish ham, asl maqsadga yetish ham sabr orqali amalga oshadi. “Bashshir nafsaka biz-zafari ba‘d as-sabri” – “Sabrdan keyin zafar kelishini o‘zingga bashorat qil” hikmati sharhida Alisher Navoiy gapni sabrning eng qiyin sinovi bo‘lmish nafsni yengish paytidagi xizmatiga urgu berish bilan boshlaydi:

Nafs uyiga sabr ila imorat angla,
Besabrlig‘in aning sharorat angla,
Ish sabr sori anga ishorat angla,
Sabrni zafar sori bashorat angla. [2]

Sabr maqomi haqidagi ushbu da‘vat nafsning uyida sabrdan imorat solish – u bilan ko‘rashishda doimiy talab qilinadigan talab ekanligiga ishoradir. Shu bois ikkinchi misrada besabrlilik yomonlik, yaramaslik ekanligi ta‘kidlanadi. Har ishda, shuningdek nafs bilan kurash ishida doim sabr qilish zafarga eltadi. Solikning g‘alabasi nafsni poklash orqali ruhni asliga birlashtirish manziliga erishishidadir. Lekin bu maqom ancha mashaqqatli bo‘lib, kishi ko‘p qiynalishi, azob chekishi muqarrar. Navoiy buni bilgani uchun bandani ogohlantiradi, ya‘ni sabrga yetish uchun ham sabr qilish lozimligini ta‘kidlaydi:

Sabr archi kishiga ranj afzun aylar,
Oxir kishi folini humoyun aylar,
Sabring nechakim ko‘ngulni mahzun aylar,
Ham sabr seni zafarg‘a maqrun aylar. [2]

Ruboiylarda aynan shu mavzuni davom ettirilib, hirsni qanoat olovida yondirish va shu yo‘l bilan ashaddiy dushmanni yo‘q qilish haqida ko‘rsatma beriladi. Navoiy bir she‘rida “Hirs o‘lsa, qanoat o‘tig‘a yoq ani, Ya‘niki adam rishtasig‘a toq ani” desa, boshqa ruboiysida “Tarki tama’ ayla, hokimi davron bo‘l, Ya‘niki qanoat ayla-vu sulton bo‘l” deydi.

Sabr-qanoat sobirni olib boradigan manzil qayer, sabr qiluvchining g‘alabasi nimada? Bu – Ruhning g‘alabasi, Xoliq roziligi, Haq diydori. Shu bois shar‘iy-tariqiy amallarda bu maqomni bosib o‘tgan banda bilishi kerakki,

Har kimki falak zulm-u inodig'a yetar,
Sabr aylagan oxir e'tiqodig'a yetar,
Chun bo'ldi sabur, tengri dodig'a yetar,
Sobir kishi oqibat murodig'a yetar. [2]

Tasavvufning "xavf" deb ataluvchi maqomi bandaning iymoni sinovi bo'lib, u qo'rquvni ifodalaydi. Solik maqsad yo'ldan adashishdan, nafs qutqulariga uchishdan, ibodatlariga riyoni aralashtirib qo'yishdan, Robbini norozi qilib qo'yishdan, uning marhamatidan benasib qolishdan qo'rqadi. "Nazm ul-javohir"da xavf maqomi bilan bog'liq holatlar bayon qilingan ruboiylar ham mavjud. "Ya'man ul-xoyifu izo vasala ila mo xofaxu" – "Nimaga xavfsirab yurgan bo'lsang, o'shanga uchraganingdan keyin emin bo'lib qolasan" hikmati sharhida Navoiy shunday deydi:

Xoifg'aki xavf yuz ziyondin erdi,
Bal ham anga xonumondin erdi,
Emin bo'lur ar xavf anga jondin erdi,
Chun yetti angaki xavfi ondin erdi. [2]

Demak, bandaga turli narsalardan qo'rquv yetishi mumkin, bu xavfdan faqat unga uchragandan keyin omonlik bo'lar ekan, oshiq banda uchun xavf maqsadi yo'ldagi doimiy hamroh sanaladi, u Haq diydoriga erishgandan keyingina bandani tark etadi. So'nggi manzilga yetishguncha solikning Allohdan qo'rquvi uning qalbida bo'ladi. Navoiy "Haq vahmidin ulki yig'lamoq fan qilg'ay, Ul ashk aning ko'zini ravshan qilg'ay", - deydi. Mana shu xavf holatida to'kilgan yoshlar ko'zni ravshan qiladiki, Haq vasli nasib qilganda oshiq Robbini pok nigoh, pokiza nazar bilan yorqin ko'rishga musharraf bo'ladi.

"Rajo" deb atalgan galdagi maqom umidvorlikni, ya'ni qalbning kelajakda Mahbub basliga yetishidan umidvorligi, xavfdan qutulish umidini ifodalaydi. U Alisher Navoiy ruboiylarida xavf maqomi bilan birga ifodalanadi. Masalan, 59-ruboiy shunday misralardan iborat:

Haqdin emin bo'lubki jon topqaysen,
G'ayridin xavfi begaron topqaysen,
Andinki rajoyi jovidon topqaysen,
Xavf aylaki, g'ayridin amon topqaysen. [2]

Demak, bandaga Haqdan boshqasidan hadsiz xavf yetadi, faqat Allohni degan kimsaning joni eminlik topadi, yolg'iz O'zidan abadiy umidvorlikkina o'zgalardan omonlik bera oladi. Bu she'rda "o'zga" – Haqdan boshqa barcha mavjudlik – jonli va jonsiz olam va undagi yaratilqlardir.

Tasavvufda "tavakkul" atamasi barcha yaxshi-yomon ishlarni Allohdan deb bilish, barcha hollarda va amallarda doimo O'ziga suyanishni ifodalaydi. Bu maqomda imon sohibi Xudodan boshqa barcha narsalar, hatto o'zining mavjudligi va borlig'i ham Xudodan ekaniga ishonadi, qiladigan amallarining hammasi Tangrining qudrati sababli ekanligini anglaydi. Xalq orasida "O'ziga tavakkal" iborasi ham shundan kelib chiqqan. "Nazm ul-javohir"da bu maqom haqida mulohazalar bayon qilingan ruboiylar uchraydi. Jumladan, 22-ruboiyda shunday deyiladi:

Har ishdaki haqqa multamas bo'lg'usidur,
Ish sa'b esa tengri choraras bo'lg'usidur,
Har yo'lg'aki ko'nglungga havas bo'lg'usidur,
Tengriga tavakkul sanga bas bo'lg'usidur. [2]

Har ishda banda So'ralg'uvchisiga yuzlanishi lozim, chunki barcha mushkulotlarning chorasoz yagona Allohdir. Shuning uchun Tangriga tavakkal qilish banda uchun kifoya qiladi. "Tavakkul maqomidagi banda shariat buyurgan amallarini ham hech ikkilanishsiz ado etadi, kimki sustkashlikka yo'l qo'ysa, iymon zaifligidandir", - deydi Navoiy 25-ruboiysida. Demak, Allohga tavakkal qilish iymondandir va u ikki dunyo saodatiga erishtiradi. Bandaning murodig'a yetishi ham tavakkuldan (181-ruboiy), oshiqning behad qadr topishi ham aynan tavakkuldan (171-ruboiy).

Keyingi maqom – "rizo"ning ma'nosi rozilik demakdir. Rizo – berilgan taqdirga rozilik, qadarda bitilgan hukmga buysunish, shuningdek Haqning roziligiga erishish. Navoiy 41-ruboiysida "Haq kimdagi, dahr ibtilosi ko'pdur, Yo'q bok, agar Haqqa rizosi ko'pdur" deyilganda ham aynan shu maqom nazarda tutilgan. Rozilik – bu dunyo tashvishlaridan qutulish, uning dardini aritishga sabab bo'luvchi sifatdir. Navoiy buni e'tirof etib, "Har kimgaki, ko'ngli dardi nobud kerak, Har neki qazodin o'lsa, xushnud kerak", - deydi.

Tasavvuf tariqatidagi mazkur maqomlar orqali banda poklanib boradi: taomlanish, uxlash, gapirish kabi amallarda me'yorni ushlab va nomaqbul ishlardan parhez qilish bilan badan, amal va qalb pokligiga erishiladi. Shu asosda iymon mustahkamlanib, Allohning cheksiz qudratini ko'rish va idrok etish orqali Haqni tanishga yo'l ochiladi. Banda ilohiy ma'rifat orqali Haqiqatga yetishadi. Natijada banda o'zidan foniy bo'lib, boqiyni topadi. "Tola umru man qasara ta'abahu" – "Oz qiynalgnlarning umri uzun bo'ladi" hikmati sharhi sifatida yaratilgan quyidagi ruboiyda shoir fanoga erishgan oshiqning vaqti xush bo'lishini e'tirof etishi bejiz emas:

Xush vaqti fano bazmi sori borg'onning,
Yo'ldin o'z'luk qaydini qaytarg'onning,
Qisqordi hayoti g'am ichin yorg'onning,

Umri uzun o‘ldi ranji qisqorg‘onning. [2]

“Nazm ul-javohir” asaridagi ruboiylar ma‘no-mohiyati, mavzu va mazmun ko‘lami, dolzarb masalalarga bag‘ishlangani bilan har biri nazmdagi bir javohirdir. E‘tibor qilinsa, asar go‘yo bir umr yo‘lida qilinishi lozim bo‘lgan amallar yo‘riqnomasi kabi. Asarni o‘qigan va uqqan sari shirasi chiqib, mazasi ham tanaga, ham ko‘ngilga rohat, quvvat bag‘ishlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarida Hazrat Ali (r.a.)ning hikmatlarining she‘riy talqinini yaratgan ekan, ularning badiiy jihatdan ham mukammal bo‘lishiga harakat qiladi. Asardagi ruboiylar ba‘zan hikmatlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri sharhi sifatida yaratilgan bo‘lsa, boshqasida mutafakkir hayotiy kuzatishlari, tajribalari, axloqiy-didaktik g‘oyalari, tasavvufiy qarashlari ifodalani, hikmatlar shoir xulosalarini quvvatlantiruvchi manba sifatida keltiriladi.

Alisher Navoiy ruboiylarida lirik qahramon – shoirning o‘zi, lekin u “Qur‘on” oyatlaridan, o‘ziga g‘oyadosh bo‘lgan zotlar – Rasululloh (s.a.v.), Hazrat Ali (r.a.)ning fikrlaridan oziqlanadi. Shu bilan birga, shoir muqaddas Kalomga, bu zotlarning qarashlariga g‘oyaviy jihatdan yaqinligini, ular bilan hamfikr, shaxs tarbiyasida hammaslak ekanligini bildirib o‘tadi.

Muallif (lirik qahramon) ruboiylarda goh donishmand mutasavvuf, goh orif zot, goh mudarris, goh munaqqid, goh faylasuf timsolida gavdalanadi, yillar davomida orttirilgan tajriba natijasida quyma satrlarda mulohazalarini bayon etadi.

Ruboiylar leksikasida irfoniy-tasavvufiy tushunchalarni ifodalovchi atamalar salmoqli o‘rin egallaydi, lekin Navoiy bunday birliklarni nazariy jihatdan sharhlaymaydi, balki ularni badiiy maqsad uchun xizmat qildiradi, ularning ma‘nosini keng ifodalashga, olam va odam munosabatlarini aks ettirishga, insoniyat taqdiriga bog‘liqligini va daxldorligini ko‘rsatishga, o‘quvchi uchun manfaatli qirralarini yoritishga e‘tibor qaratadi.

Ruboiylarda irfoniy-tasavvufiy tushunchalar ba‘zan manbasiga mos arabiy kalimalar bilan, ba‘zan turkiy yoki forsiy so‘zlar bilan qo‘llansa-da, o‘quvchining bunday so‘zlar ma‘nosini anglashida qiyinchilik tug‘ilmaydi, chunki Navoiy ruboiylarda sodda, xalqona, yengil uslubni tanlaydi, she‘rlar matnida murakkab ifodalar, tushunilishi qiyin yoki tagdor iboralar deyarli uchramaydi. Bu holat asarning o‘qishli bo‘lishini, kitobxon xotirasida oson qolishini ta‘minlaydi.

Ruboiylarda takrir, tazod, tanosib, ta‘did, ishtiyoq kabi badiiy tasvir vositalariga juda ko‘p o‘rinlarda murojaat qilingan. Mazkur badiiy san‘atlar muallif fikrining ta‘kidi, kuchaytirilishi, ta‘sirchanligining oshirilishiga yordam bergan.

Ruboiylarda irfoniy-tasavvufiy atamalar axloqiy-falsafiy, ma‘naviy-ma‘rifiy tushunchalar bilan uyg‘un holatda ishlatilganligi asarning qadr-qimmatini, hayotiylikini, dolzarbligini yanada oshirgan. Zero, tasavvufning bosh maqsadi ham komil axloq sohiblarini tarbiyalashdan iboratdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qur‘oni karim ma‘nolar tarjimasini. Tarjimon va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nazm ul-javohir. – Toshkent, 2013.
3. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 1-4-tomlar. – Toshkent, “FAN” nashriyoti, 1983-1985-yillar.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi‘ as-sahih. (1-jild). Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasini. – Toshkent, 1991.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent, “Tamaddun”, 2019.
6. Иброҳим Ҳаққул. Ирфон ва идрок. – Тошкент, “Маънавият”, 1998.
7. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2009.

Muallif:

Eshniyazova Maysara Beknazarovna - Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: eshniyazovamaysara300477@gmail.com

UDK 372.882

BOBUR CHET EL OLIMLARI NAZDIDA

BABUR THROUGH THE EYES OF FOREIGN SCIENTISTS

БАБУР ГЛАЗАМИ ИНОСТРАННЫХ УЧЕНЫХ

Mamadaliyev Ahmadali

Andijon davlat chet tillari instituti, 170100, Andijon shahar Boburshox ko‘chasi 5 uy.

E-mail: nodiran@mail.ru

Abstract. In the article we would like to briefly dwell on the work of Jean-Paul Roux “Babur. History of the Great Mogols”, about the author, about the events described, about the description of Babur’s physiognomy, childhood and his family, since, as it seems to us, this aspect has not been sufficiently studied. About the work “Babur. The History of the Great Mogols” by Professor Jan-Paul Roux, Islamic scholar, ethnographer, historian and literary critic from France.

Key words: Great Mogols, great and famous personality, Turkic genius, genius of Islam, Indian genius, Babur’s physiognomy, Bobur’s name.

Annotatsiya. Maqolada biz Jan-Pol Runing “Bobur. Buyuk Mo‘g‘ullar tarixi” kitobi, uning muallifi, kitobdagi voqeliklar haqida qisqacha to‘xtalib, uning Bobur siymosiga, bolaligiga, oilasiga bergan tafsiri haqida ma‘lumot berilgan, chunki, bizningcha, ushbu kitob va yuqoridagi masalalar bugungi kunda kam o‘rganilgan. Frantsiyalik islomshunos, etnograf, tarixchi va adabiyotshunos olim, professor Jan-Pol Runing “Bobur. Buyuk Mo‘g‘ullar tarixi” asari haqida.

Kalit so‘zlar: Buyuk Mo‘g‘ullar, buyuk va mashhur odam, turk dahosi, islom dahosi, hind dahosi, Bobur siymosi, Bobur ismi.

Аннотация. В статье мы хотим в кратце остоновиться о произведении Жан-Поль Ру «Бабура. История Великих Маголов», об авторе, об описываемых событиях, об описании физиономии, детства и семьи Бабура так как, как нам кажется, эти стороны вাপроса недостаточно изучены. О произведнии "Бабура. История великих маголов" профессора Джан-Поля Ру, исломовед, этнограф, историк и литературовед из Франции.

Ключевые слова: Великие Маголы, великий и знаменитый человек, тюркский гений, гений ислама, индийский гений, физиономия Бабура, имя Бобура.

Kirish. G‘arbda, jumladan, Fransiyada ham Bobur va Boburiylar haqida ko‘p ishlar qilingan [1], [2]. Ushbu kitobning muallifi Jan-Pol Ru 5-yanvar 1925-yili Parij shahrida tug‘ilib, 2009-yili 84 yoshida vafot etgan. U Osiyo tirik tillari milliy instituti va Luvr institutida o‘qigan. 27 yoshida milliy tadqiqot markazida ish boshlagan. Luvr institutida professor ilmiy darajasini olgan va u yerda islom san‘atidan dars bergan. U Sharq, Osiyo va chog‘ishtirma din tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlar yozgan. U turk va mo‘g‘ul halqlari tarixi va mifologiyasining bilimdoni sifatida mashhurdir. U Parijda Katta Saroy va Oranjereyada ikkita katta islom san‘ati ko‘rgazmasini tashkil qildi. Shu tariqa jamoaning islom san‘atiga bo‘lgan qiziqishini orttirib, 2003-yili Luvr muzeyida Islom san‘ati bo‘limini tashkil qildi. Shuningdek, u “O‘rta Osiyo, uning tarihi va tsivilizatsiyasi” (1997), “Temurlang” (1991), “Bobur. Buyuk Mo‘g‘ullar tarixi” (1986) asarlarining ham muallifidir.

Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar

Asar muqaddimasida muallif odam hayoti sahna asariga o‘xshash ekanligini, asarda esa ishtirokchilar ismlari keltirilishligini, shuningday biror odamning hayoti xaqida gap ketganda shunday qonundan foydalanish mumkinligini, G‘arb o‘quvchilariga Bobirnomadagi 1500 ta odamlar ismini eslab qolish qiyinligi va ularning ko‘pchiligi omonimligi tufayli kitobning boshida ko‘p uchraydigan va mashhur shaxslarning ismlari, tug‘ilgan yillari va vafoti keltiriladi.

Muallif o‘z kitobini asosan “Boburnoma”ga asoslanib yozganini, jumladan tarjimalardan [4; 5; 6; 7], birinchi manbaalardan [8; 9; 10; 11] o‘sha davr va Boburga taalluqli bo‘lgan asarlarni dunyoning ko‘pchilik mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotgan va chop etilgan asarlar bilan tanishib chiqqanligini aytadi. Kitobda go‘yoki Jan-Pol Ru Bobur bilan birga yurganday seziladi.

Shuningdek, kishilar, joylar, mamlakatlar va turli nomlarning yozilishini izohlaydi.

Asarning kirish qismida Jan-Pol Ru o‘zining qanday qilib Bobur shaxsiga, uning asarlariga bog‘lanib qolganini quydagicha ifodalaydi: “Bu odamni G‘arbda haqiqatdan ham kam bilishadi. Lekin, u meni o‘ziga shubhasiz rom qilgan shaxslardandir. Ishonchim komilki, yozuvchi o‘zini maftun qilmagan shaxsiga o‘zining ko‘p yillik umrini baxshida qila olmaydi. Yoki unga nisbatan qalbida kuchli nafrat bo‘lishi kerak. Ilimlilik tarixchiga xos emas...Bu yerda shijoat kerak, hech bo‘lmasa ozroq bo‘lsada muhabbat kerak bo‘ladi” [2].

Jan-Pol Ru to‘rt marta “Nega Bobur?” so‘rog‘ini qo‘yadi va quydagicha asoslaydi: U o‘zining birinchi ishi Boburning nevarasi Akbarning siyosiy faoliyatiga bag‘ishlanganligini va shu tufayli Hindistonga borgani “So‘ng, ko‘zlarim qamashib, men uning ajdodlari Hindistonda bunyod qilgan, ta‘rifi yo‘q yodgorliklarni: turk dahosi, islom dahosi va hind dahosini zavq-shavq ila tomosha qildim. So‘ng uni uchratdim. Bu Qobulda kuz kuning birida bo‘lgan edi... Men uning qabriga piyoda birin-ketin bejirimgina bog‘lar uchrab turadigan chang tepalik orqali bordim. ...balki butunlay burkanib olgan bu ayollar yoki quyoshda qorayib butun yuzini chuqur ajinlar bosgan muloyim va jilmayib turuvchi bu chol tufaylimi, yana kim bilsin? Ohirat va jannatni kutib yotgan Bobur qabri ustidagi tosh tufaylimi, uzoq sukutda bo‘ldim” va u yana davom etadi “O‘shandan buyon uni hech qachon tark etmadim, uni o‘qidim, uning ba‘zi she‘rlarini yod olishga harakat qildim, ayniqsa, u bosgan izlarni bosishga harakat qildim. U o‘z umri davomida qo‘ygan qadamlarini, uzoq yo‘llarni bosib o‘tishga urindim, hayolini doimo o‘ziga tortgan Samarqandga, uni maftun qilgan Xirotda, zabt qilish hayoli ko‘p qiynagan Qandaxorga, orzulari ro‘yobga chiqishini besamar kutgan Qunduzga, Buxoroga, Toshkentga, u tug‘ilgan kichik Andijon shahrini o‘z bag‘riga olgan Farg‘onaga kirishga ruhsat ololmay jig‘i-biyronim chiqib, noumid yana Samarqandga qaytdim” va u Bobur Hindistonda bo‘lgan barcha joylarda bo‘lganini Chvatning g‘arbiy shahri Ko‘hat orqali Xanbarni kezib chiqqanini, Dehliga, Agraga, Loharga borganini, Boburda katta taasurot qoldirgan G‘aznaning janubidagi katta ko‘lni, Istolif bozorining yaqinidagi Bobur barpo qilgan, hozirda daraxtlari juda keksayib qolgan, yarim qurigan bog‘da dam olishni yaxshi ko‘rishligini yozadi.

U ikkinchisida shunday yozadi: “Agar voqea bu sodir bo‘lib o‘tgan bir ish bo‘lsada, agar tarix uni qayta jonlantirishga erisholmasa, agar bizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taalluqli ekanligini, biz u orqali barhayot ekanligimizni va bizning nabiralarimiz ham o‘z hayotlarini shular orqali davom ettirishlarini tarixchi his qilmasa, tarixning ahvoli ne kechadi?”

Bobur hayotini bunchalar ehtirosli qiluvchi bu bugunda bo'layotgan, o'tmishda bo'lib o'tgan narsalarning hozirda ham o'zaro shunchalar bog'likligidadir" [2].

Uchinchisida Jan-Pol Ru asarga baho beradi "...uning Xotiralari ("Vaqiat" yoki "Bobirnoma"), bizgacha yetib kelgan holatida dunyo tan olgan shox asardir. U Xindistonni eng mukammal tariflagan eron geografi Al-Beruniydan so'ng, moziydan o'zi haqida, davri haqida va shu davrda bo'lib o'tgan voqialar hakida eng sara ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asardir" [2].

To'rtinchisida esa Jan-Pol Ru Boburning har tomonlama ustunlikka ega bo'lgan davr, Temuriylar uyg'onish davrida tug'ilib yashaganligini, bu asrda fan va madaniyatning gullab yashnaganligini va tsivilizatsiya musulmon dunyosini o'zining eng yuksak cho'qqisiga chiqarib qo'yganligini "Shubhasiz, doimo quloq eshitmagan mo'l-ko'lchilik bo'lgan davrlarda, ulkan yaratuvchilik bo'lganidan, ko'pincha, urf-odatlar buzildi, jamiyat tahqirlandi yoki shubha ostida qoldi va harbiy va siyosiy hayyat aql bavar qilmaydigan darajada tanazzulga uchradi. Lekin, albatta, dunyoning bu qismida o'ta nozik did, buyuk chuqur g'oyalar va usullar, hech qachon ko'rilmagan bunday hayot zavqi, bunchalar shavq-zavqqa intilish va bunday g'aroyib jo'shqinlik hech qachon ko'rilmagan. Fanda, san'atda, rassomchilikda, qurilishda, raqs, musiqa, adabiyot, hunarmanchilikda...bunday cho'qqilar zabt etilmagan" [2]. Shu o'rinda u o'zining "Temurlan" [3]. kitobida Boburiylar sulolasi tarixini boshidan, Temurdan boshlamasa to'liq bo'lmasligini o'ylab ushbu "Temurlan" kitobini yozganini aytadi (Bu kitob ham, bizningcha, o'rganilishga loyiq kitob bo'lib, o'z o'rganuvchisini kutib turibdi).

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bu yerda biz Jan-Pol Runing Bobur haqidagi ta'rifini to'laroq yetkazish maqsadida uning ta'rif matnini aslida berishga qaror qildik:

"Bobur o'n yillar davomida taqdirning hamma ko'rguliklarini boshidan o'tkazdi. Taqdir uch marta unga Osiyoning eng nufuzli Samarqand taxtini in'om etdi, so'ng uni darbadar chavondoza, ta'qibdagi qochqin, bosqinchilar sardori, Toshkentdagi mo'g'ul xonining oldida kamsitilgan saroy ayoniga aylantirdi. Agar u Qobul mamlakatining Qobuliston shoxiga aylangan bo'lsa, bu yana o'zini xavf-hatarga qo'yish, o'zini yanada xavotirroq yumushga urish, aql bovar qilmaydigan qirchillama qish vaqtida Hindu Qush tog'ini kesib o'tish, Hindistonga g'arot qilish, bosh ko'targan jangarilardan omon qolishlar.

U o'z hayoti davomida to umrining oxirigacha turli ehtiroslar, turfa xohishlar, turli xursandchiliklar va butunlay noumidliklar, aqlga sig'maydigan havoii orzular, o'ta oshirib yuborishlar, hamma g'ayrioddiyliklar, hamma chegaralardan chiqib ketishliklar, erta omadsiz uylanish, o'z sevgan ayoliga cheksiz muhabbat bilan bog'lanib qolish – bu o'z navbatida boshqa ayollari bo'lishiga monelik qilmaydi – bir afg'on qabilasining boshlig'ining qizi bilan romantik uchrashuvlar, oilasiga fidoii muhabbat, ayniqsa o'z qondosh ayollarga, aql bavar qilmaydigan darajada do'stlikka sadoqat; uni o'lib qoladi deyishgacha olib boradigan kasalliklar; xayratlanarli rostlik, musulmon dini aqidalariga sodiqlik, uyatli va bir muddat gunohli ishlarni boshidan o'tkazdi. Jismonan va aqlan buyuklik ato etilgan Bobur o'ta mag'rur, ayniqsa, or-nomusli, g'ayrioddiy odam edi.

Bobur tarixning eng buyuk shaxslaridan edi. Boburning tomirida mug'ul va turk qoni oqayotgan bo'lsada, uni Chingizxoniga yoki Temurlangga qiyoslab bo'lmagan bo'lar edi. Biroq u buyuk jahongir edi, O'z g'alabalari sho'lasii bilan uni bosib ketadigan jahongirlardan uning 12 mingdan oshmagan kishi bilan qirg'inbarotsiz, katta vayronalarsiz, o'ta tejamkorlik bilan qilgan amali abadiyroq va sermahsulroqdir" [2].

Jan-Pol Ru kitobining kirish qismini quyudagi so'zlar bilan tugatadi: Xenri do' Manterlan "ko'p hollarda buyuk odam bilan mashhur odamni almashtirib yuboradilar" deganda u haq edi. "Bobur biz tomonlarda mashhur emas; u oddiygina buyuk odamdir" [2].

Kitobning birinchi bobi XV asrdagi turk osiyosi ta'rifii, Temur imperiyasi, uning vorislari, turkmanlar, O'smonli turklar, o'zbeklar, mo'g'uliston va Hindiston haqida gapirilib, ikkinchi bobda Temuriylar uyg'onish davri va Yevropa renessansi haqida, o'sha davrdagi ijtimoiy hayot; adabiyot, rassomchilik, arxitektura, ranglar san'ati, musiqa va fan haqida to'xtaladi va o'sha davr turk dunyosi xaritasini keltiradi.

Uchinchi bobda esa Bobur haqida malumot beriladi. Bunda Boburning shakli-shamoyili, uning qobilyati, ichki dunyosi, uning yutuq-kamchiliklari, uning davlat arbobi, sarkarda va diniy etiqodi yoritib beriladi.

To'rtinchi bob "Birinchi qadamlar" deb atalib, Farg'ona vodiysi voqealari, Samarqandga qilingan birinchi yurish, Andijonni bo'lib olinishi haqida gap ketadi.

Beshinchi bobda Boburning Samarqandga ikkinchi bor yurishi, Saripulda Shayboniyxondan yengilib, vatansiz darbadarligi, Toshkentga borishi, Qobul sari ketishi va Xusravshox bilan uchrashishi bayoni keltiriladi.

Oldinchi bobda Boburning Qobuldagi hukumdorligi, Qobul voqealari, Hindistonga birinchi yurishlari, Husayn Bayqoroga yordamga borishi, Xirotda bo'lishi, qahraton qishda tog' osha Qabulga qaytish, Qobuldagi bosh ko'tarishlar, Temuriylar sulalosiining tugatilishi va Qandaxor yurishi haqida gapiriladi.

Yettinchi bob "Podishox" deb nomlanib, mo'g'ul podsholari dinastiyasini tuzilishi, Qobul qo'zg'oloni, shox Ismoil va Shayboniyxonning yengilishi, Boburning uchinchi bor Samarqandni olishi, o'zbeklarning g'ozot yurishi, Kabulga qaytish, Qandaxorni zabt etish, ichkilikka, nashavandlikka berilish, o'q otar qurollarni takomillashtirish, Hind sari yurish va turk yurtlariga davo qilish haqida.

Sakkizinchi bob Hindiston zabtiga bag'ishlangan bo'lib, Davlatxonni bartaraf qilinishi, Panapat jangi, Boburning Dehliga kirishi, tinchlik o'rnatilishining debochasi, g'ozot urishinig boshlanishi, shoxona ziyofatlar, Bobirga suyuqasd, Sharqqa yurish haqida yoziladi.

To'qqizinchi bobda Boburnomaning tugatilishi, Bobir hayotinig oxirgi oylari, Humoyunning Agraga kelishi, Badaxshon voqealari, Boburning Loxarda bo'lishi, Boburning o'z jonini fido qilishi, Boburning kasalligi; uning vafoti, dafn marosimi va Boburning qabri haqida gapiriladi.

Ilovada: Boburning adabiy merosi; ayollari; bolalari; Temuriylar shaharsozligi va shaharlari Yevropa va Usmonli turklarniki bilan solishtirib beriladi; Temuriylarning saqlanib qolgan eng mashhur qo'lyozmalari; xranalogiya; unvonlar so'zligi; Chingizxon, Temur va Bobur sajaralari ko'rsatkichi; bibliografiya; mundarija va kartalar berilgan.

Bobir siymosi haqida kam ma'lumot bo'lganligi uchun biz bu yerda uning siymosiga, bolaligiga, bolalari va ayolariga bag'ishlangan ta'riflarga ko'proq to'xtashga qaror qildik.

Jan-Pol Ru Bobur siymosini ta'riflashga harakat qiladi. Buning uchun u 1527-yili Rajputdagi g'alabadan so'ng Bobur o'zini podshox va g'oziy deb e'lon qilgan va umrinig ohirlarida chizilgan bir minatyurani asos qilib oladi. Bu rasmda Bobur siymosi asliga yaqin chizilganligini, o'sha davrga kelib Akbarshox tomonidan butun islom dunyosiga portret chizishga butunlay yangicha islomiy huquq berilganligi bilan asoslaydi.

U yerda Bobur hukimdor ust-boshida, boshida toj bilan gavdalanirilgan. U ancha uzun soqol qo'ygan va shu asosda Jan-Pol Ru yozadi "Boburdan ulkan bir latofat ufurib turadi. U o'rta bo'yli, baquvvat odam bo'lgan bo'lsada, bular uning nafisligi va nasli-nasabligiga halal bermas edi. O'ta hayoliy bo'lmasada, lekin rassomlar jangchi va sportchining qo'liga mos kelmaydigan qilib ishlagan cho'ziq va nozik qo'llar. Uning yuzi cho'ziq, yonoqlari biroz burtib chiqqan: ko'zinig kesimi keng, bo'liq qoboqlar ostida joylashgan, qop-qora; tikka-tikka qoshlari biroz egma, qarashlari sinchkov. Burni chiroyli, biroz go'shdorrog va ozrog do'ng. Nafis marjon (yoka) iyagi ostidagi cho'qqi soqoli bo'ylab borib uning yanoqlarini yopib turadi, gohida ingichka, gohida yo'g'on mo'ylabi lab uzra javlon uradi. Og'zi – kichkina, istehzo bilan kulib turadi va ko'pincha xayrihoxlik, agarki bepisandlik bo'lmasa. Butun yuzidan qattiqqo'llik, fazilat, qaxri qattiqlik, vazminlik yog'ilib turadi, shuningdek, biroz mayuslik ham ko'zga tashlanadi" [2].

Bobur ota tomonidan Temuriylardan bo'lib, Abu Said mirzoning beshinchi yoki oltinchi bolasi Umarshayx Mirzoning to'ng'ich o'g'li edi. Ona tomondan esa Qutlug' Nigorxonim Yunusxonning besh qizidan biri edi. Ular Chingizxonning o'g'li Chig'otoyxon avlodining o'n birinchi avlodidan edi. Yunusxon Toshkent xoni bo'lib, Umarshayx Mirzoni o'z o'g'illari qatorida ko'rar edi.

Boburga Zahiriddin Muhammad (din rahnomasi Muhammad) ismini odatda Ahroriy deb ataluvchi oilaning rahnomasi Xoja Nasiriddin Ubaydulloh qo'ygan edi. Jan-Pol Ru Bobur ismini Turk-Mo'g'ul an'analariga asosan berilgan deydi va u Babar, Baber yoki Babr talaffuz qilini "qoplon" yoki boshqa yovvoyi hayvonlar nomini bildirishi mumkinligini aytadi. Bu aqidaviy ma'noni ham bildirishi mumkin deydi Jan-Pol Ru. Odatda xutba Zahiridin Muhammad Bobur nomiga o'qitilar edi, G'alabadan so'ng esa Zahiriddin Bobur Muhammad podshox G'oziy, kundalik hayotda esa Bobir Podshox yoki Bobir Shox deb atalar edi. Bobur yozadi "Ushbu tarixqacha Temurbekning avlodini bovujudi saltanat mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdumkim, meni podshoh denglar" [12].

Boburning ko'p atkalari bo'lgan: avvalo Shayx Mozid Beg, otasinig eng taniqli beglaridan bo'lib, urf-odat ishlariga bepsand bo'lsada, davlatni boshqarish ishlarini juda yaxshi bilgan. So'ng, Bobo Quli Beg, u ham boshqaruv ishlarini yaxshi bilish bilan birga usta sarkarda edi, lekin benomoz edi, ro'za tutmas va zulimkor odam edi. U 1495-yili Samarqand sultoni tomonidan o'ldirildi. Qisqa muddat Boburga Xudayberdi atkalik qildi. U 1495- yili Isfara qamalida o'q tegib o'ldi.

Boburda bir umr kuchli taassurot qoldirgan, bu unga ism qo'ygan Hoja Ubaydulloh edi. Bobir bu avliyodan mazlumlarga, ayniqsa dehqonlarga rahm-shafqat qilishni, o'zizlarni qudratlilardan himoya qilishni, adolatni o'rgandi va butun umri davomida bunga amal qilishga harakat qildi.

Uning vafotidan so'ng unga Hazrati Mavlona Xoja ma'naviy rahnamo bo'ldi. U Temur saltanati davridagi ko'plab Shayxislomlar chiqqan oiladan edi. Hech qachon qo'rqinch nimaligini bilmaydigan bunday odam ko'rilmagan edi. Bobur uni avliyo deb hisoblar edi. Ahmad tanbal va uning sheriklari bu kishini 1498-yili Andijonda osib o'ldirdilar. Shu asnoda ko'pchilik Boburning yaqinlari ham qurbon bo'ldilar.

Fors tarixchisi Xondamirning yozishcha Bobur yoshligining ko'p qismi tug'ilgan shahri Andijonda o'tgan. Boburning yoshligidagi yolg'iz ma'lum voqea, uning besh yoshida Samarqandga borishi va amakivachchasi, Sulton Ahmad Mirzoning qiziga, unashtirilishidir. Samarqand unda juda katta taassurot qoldirgan edi. U butun umr bu shaharga erishish orzusida harakatlar qildi. Uch marta Samarqandni egalladi.

Bobur tarbiyasiga har tomonlama e'tibor berishdi. U turli xil sport turlari bilan shug'ullandi: chavondozlik, kamonchilik, qilichbozlik va suzish. O'z davrida shaxzodalar bu sohalarni mukammal bilishlari kerak edi. Aqliy-ma'naviy tarbiyani esa saroyning eng bilimdon kishilaridan o'rgandi. Kichik shaharlarda madaniyat darajasi poytaxtdagiday bo'lmasada, Temuriylar uyg'onish davrida madaniyat, san'at keng quloch yoygan, va viloyatlarda ham poytaxtga taqlid qilinar edi.

Chuqur diniy va ma'naviy ta'limni Bobur Hoja Ubaydulloh va so'ngra Mavlono Xojadan o'rgandi. Ular Boburni shahar va oila muhitidagi yomon odatlardan asradilar. Ichkilikni yaxshi ko'radigan otasi uni ham ichishga undaganda Bobur uzr aytib, Mavloni Xoja yo'lidan borib, "bu gunohga berilmas", "ogohlikda va Allohdan qo'rqib" yashar edi.

Bobur hayotida ayollar o'ziga xos o'rin tutganlar. Musulmon qonunlari bir vaqtning o'zida to'rtta xotin va cheklanmagan miqdorda kanizaklarga ega bo'lish huquqini beradi. Bobur bu huquqlardan qisman moyillikdan, qisman an'analariga sodiqlikdan, qisman siyosat yo'lida foydalangan. Bo'ydoqlik unga ko'proq ma'qul bo'lganday ko'rinadi. U buni ochiq aytmasada, u butun umrini yolg'izlikda o'tkazgan Mir Alisher haqida gapirganda tushunish mumkin. "Uning na o'g'li, na qizi, na oilasi bo'lmadi: u hayotni ozod va tushovsiz bosib o'tdi".

Boburning ayollarga bo'lgan ishqiy munosabatlari haqida ko'p ma'lumotlar yo'q. Haqiqiy musulmonchilikda u buyuk iffat egasi edi. She'riyat kishi yuragining to'ridagini oshkor qiladi. Bobur she'rlarining ba'zi birlari shaxvoniy, ba'zilari so'fiylik an'alariga mos edi.

U birin-ketin o'zining uchta amakivachchalariga uylandi: Sulton Mahmud Mirzoning qizi Zaynab Sulton Begim. Unga Qobul olingan 1504-1505-yillarda onasining xohishi bilan uylangan edi. U ikki-uch yildan so'ng saraton kasali bilan vafot etdi. Va Sulton Ahmad Mirzoning ikki qizi – besh yoshida unashtirilgan Aysha Sulton Begim va Hirotda uchratgan Ma'suma Sulton Begimga uylangan edi. Ayshaga birinchi bo'lib uylangan edi, lekin unga hech ham ko'ngli bo'lmadi. Bobur Samrqandni olganda Aysha unga bir qiz hadya qildi, lekin u ko'p yashamadi. Bu uning birinchi bolasi edi. U Boburni 1503-yili Toshkent talovidan bir oz oldin mo'g'ul xoni Mahmudxonning xotini va o'zining onasi maslahati bilan tashlab ketdi. Bobur Ma'sumaga Hirotdagi qisqa uchrashuvdan keyin, bir-biriga ko'ngil qo'yib uylandi. U ham bir qiz hadya qildi, lekin tug'ish vaqtidagi dard bilan olamdan o'tdi. Uning ayollari ichida eng yaqini Humoyunning onasi edi. Uni Bobur Mohim der edi. Uning haqiqiy ismi hech qaerda keltirilmagan. Undan beshta bola bo'ldi, lekin ulardan to'rttasi yoshligidayoq o'tib ketishdi, Boburning vorisi Humoyungina qoldi. Keyingilari mo'g'ul shaxzodalari oilasidan bo'lgan Gul Rux Begim va oddiy oiladan bo'lgan Dildor og'acha edi. U Gulbadan begimning onasi edi. 1519-yili Bobur afg'on qabilasidan bo'lgan Bibi Muborakaga yaxshi ko'rib uylandi. U bola ko'rmay o'tdi, lekin u Boburga juda bog'lanib qolgan edi. Keyichalik u Boburning hokini Agradan Kabulga olib keltirdi.

Boburning joriyalarining soni aniq emas. Kitobda Eron shohi Shoh Tahmas tomonidan sovg'a qilingan ikki qiz; Gulnor og'acha va Norgul og'acha haqida gapiriladi va ular haqida Gulbadan Begim o'zining kitobida to'y-marosimlarda eslaydi.

Boburnig aniq qancha bolasi bo'lganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. Boburnomada ulardan ikki yoki uchtasining o'lganligi haqida gapiriladi. Jumladan, 1526-yili tug'ilgan va Bobur uni ko'rmagan va qalbida e'zozlagan, ikki yoshlar atrofida nobud bo'lgan o'g'li Farruxdir.

Jan-Pol Runing fikricha Boburning o'n yettita farzandi bo'lgan, shulardan sakkiztasi yoshligida o'tib ketgan va to'qqiztasi yashab qolgan. Xotinlarining ichida faqat ikkitasi tug'mas edi: Zaynab Sulton Begim va Bibi Mubaraka. Hammasidan ham ko'proq Mohim farzandini yo'qotdi, beshta boladan faqat Xumoyunnigina voyaga yetkaza oldi. Dildor ham beshta bola ko'rdi, lekin u ulardan bittasinigina yo'qotdi.

Qizlar haqida kam gapiriladi. Faqat 1523-yillar atrofida tug'ilgan Gulbadan Begim o'z esdaliklari bilan mashhur bo'ldi. Uning tug'ishgan singillaridan biri Mo'g'ul imperiyasining oliy tabaqali Salima Sulton Begimning onasi edi.

O'g'illar, albatta, yaxshiroq tanish. To'ng'ichi – Humoyun – taxt vorisi, otasining vafotidan yigirma olti yil so'ng, otasining yoshida, 1556 yili olamdan o'tdi. O'sha yili Kamron ham dunyodan ketdi. U qirq olti yoki qirq yetti yoshlarda edi. Askariy undan bir yoki ikki yosh ko'proq yashadi. U qirq bir yoshda edi. Eng kenjasi Hindol yanada yoshroq, o'ttiz uch yoshda, 1551-yili vafot etdi. Oilaning eng keksasi, Gulbadan bo'lib, u sakson yoshlarida 1603-yili olamdan o'tdi.

Xulosa. Fikrimiz yakunida shuni aytish kerakki, frantsuz olimi Jan-Pol Runing ilmiy izlanishlari, yozgan asarlari o'tgan asrlarda chet ellarga olib ketilgan tarixiy manbalar asosida yaratilgan. Shu sababli ushbu olimning buyuk ajdodlarimiz haqidagi yangi ma'lumotlari tariximizni yangi nazar bilan o'rganishga, boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Xolbekov M. Ulug' adibimiz frantsuz sharqshunosligi sahifalarida. // Bobur abadiyati "Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari 27-28 oktyabr. 2017 yil Andijon). – Toshkent "BAYOZ" 2018.
2. Jan-Paul Roux « Histoire des Grands Moghols. Babur ». – Paris: Fayard, 1986
3. Jan-Paul Roux. Tamerlan. – Paris: Fayard, 1991.
4. A. Pavet de Courteille « Mémoires de Baber (Zahir ed-Din Mohamed) », traduit pour la première fois sur le texte djachataï 2 vol., Paris, 1871 (vol. I, 476 pages, vol. II, 467 pages).
5. Jean-Louis Bacqué-Grammont « Le livre de Babur », traduit du turc, collection UNESCO d'oeuvres représentatives. UNESCO, Paris, 1980 (478 p.).
6. Annette Sussannah Beveridge «The Babur-name in English (Memoirs of Babur) by Zahiru'd din Muhammad Babur Padishah Ghazi, translated from the Original Turki Text 2 vol., Londres, 1921.
7. J. Levden et W.Ersrine "Memoirs of Zahir ed-Din Muhammad Babur, Emperor of Hindustan".
8. Le ms. Dit d'Elphinstone acheté à Peschawar en 1810.

9. Le ms. De Hyderabad, 1700.

10. Le ms. De Boukhara 1714 (d'Ilminski).

12. Бобурнома, Тошкент, Юлдузча 1990

13. Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды. Библиография. Автор-составитель Ш.Ш. Рустамхужаев, Москва, Издательство восточной литературы 2016.

Muallif:

Mamadaliyev Ahmadali - ADCHTI fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti, Fransiya Respublikasi Akademik Palma ordeni kavaleri va ofitseri.

UDK 372.882

COMPOSITIONAL ORIGINALITY, THEME AND CONTENT OF THE WORK "TURKISH GULISTAN OR MORALITY"

“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARININIG KOMPOZITSION O‘ZIGA XOSLIGI, MAVZU VA MUNDARIJASI

КОМПОЗИЦИОННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ, ТЕМА И СОДЕРЖАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ТУРЕЦКИЙ ГУЛИСТАН, ИЛИ МОРАЛЬ»

Mustanov Ubaydulla Zulpanovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti. 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko‘chasi, 4- uy.

E-mail: Mustanov-Ubaydulla@gmail.com

Abstract. This article analyzes issues such as Abdulla Avlani's moral views, the role of moral and didactic works in Eastern literature, compositional uniqueness, theme and content of the work "Turkish Gulistan or Ethics" ("Turkiy Guliston yoxud axloq").

Keywords: fiction, ethics, education, didactics, didactic literature, types of didactic literature, "Turkish Gulistan or ethics".

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning axloqiy qarashlari, sharq adabiyotida axloqiy-didaktik asarlarning o‘rni, “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarininig kompozitsion o‘ziga xosligi, mavzu va mundarijasi kabi masalalar tahlil qilngan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, axloq, tarbiya, didaktika, didaktik adabiyot, didaktik adabiyotning turlari, “Turkiy Guliston yoxud axloq”.

Аннотация. В данной статье анализируются такие вопросы, как нравственные взгляды Абдуллы Авлани, роль нравственно-дидактических произведений в восточной литературе, композиционное своеобразие, тема и содержание произведения «Турецкий Гулистан или Этика» (“Turkiy Guliston yoxud axloq”).

Ключевые слова: художественная литература, этика, образование, дидактика, дидактическая литература, виды дидактической литературы, «Турецкий Гулистан или этика».

Kirish. Shoir har bir axloqiy tushunchani talqin qilar ekan, uni bevosita o‘z davrining masalalari bilan bog‘laydi. Kitobga o‘sha zamon nafasini olib kirishga muvaffaq bo‘ladi. Avloniy xuddi shunday masalalarni “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida gavdalanitirishga harakat qildi.

Ushbu asar “Axloq”, “Tarbiya”, “Yaxshi xulqlar”, “Yomon xulqlar” deb nomlangan qismlarga bo‘linadi. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” axloq haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Usmon Azimning “Saylanma”si olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Axloq bu - xulqlar majmuyi. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikni muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va tadbirlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadi. Mana shular asarning mavzu, mundarijasi, desak adashmaymiz.

Avloniy yaxshi va yomon xulqlarni bo‘lgan holda, ularning shakllanishi uchun ma‘lum bir sharoit, tarbiya kerak deydi. Kishilar tug‘ilishdan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq.

Asarda “Tarbiyaning zamoni” degan qism bor. Unda tarbiyaning uyda, so‘ngra maktab, madrasada olib borilishi haqida gap ketar ekan, bunday ishga imkonsiz xalqning og‘ir moddiy tirikchiligi achinish bilan qayd qilingan.

“Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o‘qimagan, “usuli ta’lim” ko‘rmagan muallimlar”, “matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beintihon, isloh yaqinidan yurmagan muddarislar,” [1] o‘tkir hajv ostiga olinadi.

Yoki “Tama” bobida zamonasida “Tama noni birla qorun to‘yg‘uzodirg‘on kishilarning hisobi yo‘q‘ligini oshkor etadi. Yana bir o‘rinda esa, mustamlaka Turkistondagi erksizlik, chorizm tazyiqi, mehnatkashning mashaqqatli tirikchiligi haqida so‘z ochadi: “Biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotib, chandir chaynaymiz. Qaymoq berib sut oshiyimiz, non o‘rniga kesak tishlaymiz”.

Avloniy adolatni har bir millatning ozod va baxtli bo‘lish huquqini dunyoning asosi deb bildi, birovga jabr qiluvchining yoqasi hech qachon jazodan qutila olmasligini aytdi. Zulmni qoralar ekan, mazlumning ohidan o‘tkur narsa yo‘q:

Hazar qil ohidan, avg‘onidan u mazlumning,

Bir oh birla so‘lur boshing`a butun asorat aslo,

deya quvvatsizlar g‘amini ko‘tarib chiqdi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida insonda uchraydigan yaxshi va yomon xulqlar, ko‘plab xislatlarni bosh mavzu sifatida ko‘tarib chiqdi. Har bir ichki tuyg‘ularni ifodalashda adibning ko‘z oldiga komil inson gavdalangan bo‘lsa ajab emas.

Aql insonlarning piri komili murshidi yagonasidir. Ruh ushlovchi, aql boshlovchidir...

Muallif o‘z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglatish uchun shunday muqoyasa keltiradi:

“Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidin keladurg‘on zulm va jabrlarni shox tish, tumshuq va tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson...aql va idroki soyasida o‘ziga keladurg‘on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo‘ynidan boylab, iplarining uchini qo‘llariga bergan insonlarning aqlidur”.

Hukamolardan biri:

Har narsa ko‘paysa arzon bo‘lur, aql esa, ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa shuncha qimmatbaho bo‘lur, - demish! Avloniy qarashlarida Navoiy inson haqidagi mashhur “inson - xilqat toji” nuqtai nazarining ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Uning fikricha ham, aql faqat insondagina nasib etgan sifatdir, jahonning ziynati esa oqil insonlardir.

Yuqorida Avloniy aqlning ilm va tajriba soyasida kamol topishiga ishora qilgan edi. Darhaqiqat, bular uzviy tushunchalardir. Ilm ham insonlarning madori hayoti, rahbari najot, boringki, dunyoning izzati. U inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilat.

Muallif bu fazilatlarni shunchaki qayd etmaydi, uning konkret hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to‘xtab o‘tadi. Uning insonni kamolotga yetkazishda bosh omil ekanligini atroflicha dalillashga harakat qiladi. Ilm egallash esa, o‘z - o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. U har bir kishidan muayyan layoqat va qobiliyat talab etadi. Chunonchi, sinchkovlik har bir narsaga ibrat nazari bilan qaray olish, sa‘y - g‘ayrat, shijoat kabilar shunday sifatlar jumlasiga kiradi.

“Inson ibrat nazari ila boqub, dunyo kitobidan o‘z qadr - hissasini bilib olmagi lozimdur”, - deb yozadi Avloniy. - Ma‘rifat sohibi bo‘lmak uchun ahvoli olamdan xabardor bo‘lmak kerak. Shuning uchun aql sohiblari fatonat egalari o‘z o‘zlariga foydasi bo‘lsa - bo‘lmasa sinchiklab qaragan narsalaridan bir hissa olmay qo‘ymaslar” [1].

Ziyraklik, ochiq fikrli bo‘lishga intilishning ham ahamiyati katta. Bular hammasi yoshlikdan boshlanadi. Umr - g‘animat. Uni behuda ishlar bilan o‘tkazib yuborish jinoyatdir. Adib zehn va idrokni quvvatlantirish uchun o‘qish - yozishni o‘rganishga ulgurgan har bir bolani har xil kitoblar, gazeta va jurnallar o‘qishga va shu orqali dunyoning bordi - keldisini anglash, u haqda fikr yurita olish darajasiga erishishga chorlaydi.

Ilm olish riyozat chekishni, sa‘y - g‘ayratni talab etadi. Adibning obrazli ifodasiga ko‘ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag‘iz. Uni qo‘lga kiritish uchun mehnat qilish, chaqib po‘chog‘idan ajratib olish kerak.

Avloniyning vijdon haqidagi fikr-mulohazalari ham diqqatga sazovor. Uningcha, vijdon - aql va tafakkur mezon. Umuman olganda, bunday yondashish vijdonning ahamiyatini va mohiyatini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Lekin unda biroz konkretlik yetishmaydi. Vijdon tarozusining aql va hikmatga muvofiq ishlarga muhabbat qo‘ydirib, qabohat va yomon ishlardan nafrat etilishi aslida to‘g‘ri tushuntirish. Biroq uning to‘g‘rilik darajasi yaxshi yoki yomon deb nomlanadigan muayyan hodisaga nisbatan qo‘llanilgandagina konkretlashadi. Adibning yaxshi va yomon tushunchalarni anglashida esa ma‘lum mavhumlik yo‘q emas. U bularni talqin qilganda ko‘pincha aqlga muvofiq, keladigan, muvofiq kelmaydigan prinsipdan kelib chiqadi.

“Agar ahmoq odam bo‘lsang, o‘z tug‘ishgan birodaringni ham sevmasliging mumkin, lekin vatanni, u qanday bo‘lmasin, sevmaslik mumkin emas. Ammo bu muhabbat uning mavjud ahvolidan bir umr mamnun bo‘lib qolmasligi, balki uni mukammallashtirishga chanqoq intilishdan iborat bo‘lmog‘i lozim”[1], - degan edi donishmandlardan biri.

Vatan tuyg‘usi eng insoniy, eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e‘zozlash uning shodlik va quvonchiga sherik bo‘lish, g‘am-hasratini baham ko‘rish farzandning burchi. Avloniy vatan va uning oldidagi burchi shunday tushunadi. Farzandlar ham har yil bo‘ladi. Onaning baxtiga sherik bo‘lib baxtsizligida yolg‘iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham husnkor tabiati bog‘ - rog‘larini hush ko‘radigan,

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas. Vatanni u qanday bo'lmasin sevish kerak.

“Muallif o'z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday misolni keltiradi: ayrim kishilar o'z hovli- joylarini mol - mulklarini sotib, Makkaga ziyoratga borishadi. Hatto shularning ham aksariyati yana o'z vatanlariga qaytib keladilar. Buning sababi yani ularni tortib keladigan quvvat o'z vatanlari tuproqlarining mehr - u muhabbatidir...” - deydi [1].

Bas shunday ekan, uning uchun jonlarini fido etmoq kerakdir:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan olsa ravon,
Bango na g'am qolur, avlodima o'y - u vatanim.
Quborga do'nsa tanim, yo'q vujudi zeri vahm,
Charoki, o'z vatanim xokidur go'r-u kafanim.

Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatidir: “Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotdir”,- deb yozadi adib.

So'z - noyob gavhardir. Uning sharafi benihoya. Har qanday qimmatbaho gavhar uning oldida sadaf ham bo'la olmaydi:

So'z guharig'a erur oncha sharaf-
Kim, bo'la olmas anga guhar sadaf.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”ida so'z ta'rifiga bag'ishlangan bob shu satrlar bilan boshlanadi [2]. “Bahoriston” tahlilida no'noq sho'ir hadeb o'zining xom — xatala she'rini maqtayverganda:”qani edi shu she'ring butunlay yozilmaganda,” [3] -deydi Jomiy.

So'z mas'uliyati, so'z qadri Jomiyga, Navoiyga qanday yuksak qo'yilgan bo'lsa, Avloniy ham tilga, adabiyotga shunday mas'uliyat bilan yondashadi.

Buyuk mutafakkir so'z qudratiga yuksak baho berdi, xilma-xil misollar bilan uni ko'klarga ko'tardi, tilni po'lat xanjarga, so'zni unga qadalgan injularga qiyos qildi. Misol uchun: Masih (Isoning laqabi) yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltirgani uchun “jonbaxsh” laqabini oladi. So'z Xalilni o'tga tashlaydi.

Avloniy ham so'zning inson qadr- qimmatini belgilashdagi roliga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. So'zning ma'nosiga alohida diqqat qildi. Til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi:

“So'z insonning daraja kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozudur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar...”

Avloniy “Haqqoniyat” deb atalgan bobda quyidagi misolni ibrat qilib ko'rsatadi. Chopar hayotini tahlikaga qo'yib, tog'-u toshlar, qir va cho'llar oshadi, xabarni yetkazadi. Chopar olib kelgan xabar, ehtimol, mudhish bo'lishi mumkin. Shunda ham aql egalari uni o'ldirmaydilar. Chunki u haqiqatni yetkazadi. Mana shuning uchun ham Avloniy rostlik va to'g'riso'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb bildi.

“Haqqoniyat” deb, ishda to'g'rilik, so'zda rostlikka aytiladi. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li bilan chiqar. Insoniyatning ildizi rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatning onasi haqqoniyatdir...

Bu nuqta jadidlarimizning dunyoqarashini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ismoilbek Gasprinskiy aytadi: “Ovrupada madaniyat bor, ammo haqqoniyat yo'q”. Haqqoniyat esa, Avloniy ta'kidlaganidek: “ishda to'g'rilik, so'zda rostlikdir” [1]. Hayo, iffat o'ylab chiqarilgan tushunchalar emas. U asrlar bo'yi inson tushunchasi bilan birgalikda shakllangan. Inson odobini hayo va iffatsiz tasavvur qilish qiyin. Avloniy hayo deganda “ishda, so'zda adabga rioya qilmoq”ni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi deb biladi.

Avloniy xulq haqida umuman gapirib qo'ya qolmay, unga konkret yondashishga harakat qiladi. Adibning diqqat markazida hamisha umuminsoniylik mezoni yotadi. Bu mezon islomiy axloqqa suyanadi va u kishilarni shu paytga qadar ota-bobolarimiz tarbiyasiga xizmat qilib kelgan turmush qoidalari bilan bog'laydi.

Shunday tushunchalar bor, ularning nomini eshitganimizdanoq borligimizni iliq va yoqimli hislar chulg'ab oladi. Agar ular bo'lmaganda hayot zulmatdan, tirikchilik vahshiyona kun o'tkazmoqdan iborat bo'lib qolardi. Muhabbat, sadoqat, xayrixohlik, oliyjanoblik kabilar, hayotga nur, umrga mazmun baxsh etadi. Insonning sharafli mavqeyida bularning o'rni alohida.

Muhabbatning qamrovi keng. Vatanga muhabbat, xalqqa muhabbat, do'stga, yorga muhabbat... Lekin uning mazmunida bir narsa aniq. Muhabbat kingadir, nimagadir chanqoq bir intilish. Uni o'zining jon-tani deb bilish, butun borlig'ini unga baxshida etish tuyg'usi bilan yonish. Uni baxtiyor va shodon ko'rmoqqa, baxtiyor va shodon etmoqqa bo'lgan buyuk ishtiyoq. U mo'jizalar yaratishga qodir. U sahrani bo'stonga aylantira oladi. Toshidan gul undiradi.

Shuning uchun Avloniy o'z asarida “Muhabbat” bobiga alohida to'xtalib o'tgan. Kishilarni yaxshilikka undash, yomonlikdan qaytarish, dunyodagi barcha insonlarga ezgulik istagi bilan yashash chinakam oliyjanoblikdir. Odamlar umr bo'yi bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar, o'zaro yordamga, hamkorlikka hojat sezadilar. Shunday ekan xayrixohlik, oliyjanoblik insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Kishilar fe'l - atvorlariga, orzu-intilishlariga ko'ra bir-birlariga yaqinlashadilar yoxud uzoqlashadilar. Yaxshilik do'stlikni vujudga keltiradi. Agar bu do'stlik maslak va manfaatlar birligi asosida qurilsa, benihoyat mustahkam va samarali bo'ladi. Umrni kush va mazmunli o'tkazish uchun bunday do'stlik juda kerak.

Munislik deb, har kim o'z tengi, maslakdoshini topib, ulfat bo'lmakni aytilur. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar ila suhbat qilmakdan iborat, - deb yozadi Avloniy.

Do'stlik deyilganda, hamisha sadoqat ko'zda tutiladi. Negaki, bu tushunchalar bir-biriga benihoya yaqin. Demak, do'stlik birinchi navbatda hamdardlik, hamkorlik, hamdastlik. Do'stlik o'z vafosi, sadoqati bilan mustahkam. Bu borada Navoiy ham o'xshatishlarini, o'zining "Hayrat ul-abror" asarida keltirib o'tgan. Masalan: Vafosiz yor - ziyosiz sham; ziyosiz sham - muz sumalak kabi [2].

Abdulla Avloniyning axloqiy qarashlari mumtoz adabiyotimizning boy zaminida shakllandi. Unung do'stlik va sadoqat haqidagi fikrlari adabiyotimizdagi axloqiy qarashlarning tadrijiy davomi edi.

"Turkiy Guliston..."da "Yomon xulqlar" deb nomlangan bo'lim bor. Unda kishilarga xos 18 qusur haqida gap ketadi. Bularning hammasini jamlaydigan bo'lsak, asosan bir narsaga - jaholatga kelib bog'lanadi. Muallif nazdida ularning aksariyati uchun xos bo'lgan xususiyat johillikdir. Shu boisdan adib tanqid tig'ini jaholatga qaratadi. Uni insoniyat uchun eng katta illat deb biladi.

G'azab - shaqovat, buzuqlik - safohat, hamoqat, yalqovlik - adolat, xasislik- xasosat, tanparvarlik - raxovat, takabburlik - anoniyat, chaqimchilik - namimat, g'iybat, qo'rqoqlik - jibonat, hasad, yolg'onchilik - kizb, nifoq, tama' kabilar ko'pincha shundan kelib chiqadi. Jaholat sodda qilib aytganda, ilmsizlik, nodonlikdir. Unday kishilar fikr yuritishga, mushohadadan mahrum bo'ladi. U haqda aytilgan ko'pgina ma'lum va mashhur fikrlarni misol qilsak ham o'rinli bo'ladi:

Aflotun hakim: "Johilning yaxshi niyati fozilning fisumati zararliroqdur. Inson eng yuqishlik bir kasaldan saqlangan kabi johildan hazar qilmak lozimdur",- demish.

Xulosa. Avloniy jaholatni ikki turga bo'lib, tushuntirib berdi: - biri jahli basit, ikkinchisi - jahli mukarrab. Birinchisi, u qadar dahshatli emas. Ular bir narsani bilmasalar, bilmasliklarini e'tirof qiladilar. Ikkinchisi, yomon. Ular bir narsani bilmaydilar va bunga iqror ham bo'lmaydilar. Ularni xalq "o'zi bilarmon" deb ataydi. Lekin davosiz dard yo'q. Uning yagona darmoni - aql va fikr. Inson o'zini qo'lga olib, nafsini jilovlab, yon atrofga ibrat nazari bilan boqsa, sa'y-g'ayrat qilsa, undan xalos bo'la oladi. Yomon xulq: loqaydlik, adovat, xushyoqmaslik - bular barchasi inson tanasidagi yomon dard kabi uni ichda yemirib boradi. Yaxshi xulq esa insoning yuziga nur beradi, ko'zini charog'on etadi, o'zini tiyrak, yashovchan, hayotsevar qiladi. Negaki, buyuk "Avesto"da aytilgan ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal inson vujudini poklovchi omillari xulqini bezovchi fazilatlar, yoshartiruvchi darmonlar. Bejizga ham buyuk mutafakkirlarimiz o'z asarlarini "Guliston", "Bo'ston", "Bahoriston", "Turkiy Guliston" deb atamaganlar!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. Tanlangan asarlar to'plami. T.: "Ma'naviyat". 2009. I-jild. 37-b
2. А.Навоий. Хамса. Т.:«ЎзФА». 1960. 33-6.
3. Жомий. Баҳористон. Т.: "Шарк".1997. 27-6

Muallif:

Mustanov Ubaydulla Zulpanovich - JDPU o'qituvchisi.

UDK 372.882

METAPHOR IN USMAN AZIM'S POETRY

USMON AZIM SHE'RIYATIDA METAFORA

МЕТАФОРА В ПОЭЗИИ УСМАНА АЗИМА

Uskanov Kaxramon Xolikulovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti. 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4- uy.

E-mail: Uskanov-Kaxramon2024@gmail.com

Abstractio In this article, the most used type of meaning transfer method in the Uzbek language is metaphor, its different characteristics from other means of meaning transfer, the similarities and differences between metaphor and simile, The role of metaphor and its specific aspects are revealed in Usman Azim's poetry.

Keywords: transfer of meaning, own meaning, figurative meaning, methods of transfer of meaning, metaphor, metaphor and simile.

Annotatsiyayo Ushbu maqolada o'zbek tilida ma'no ko'chish usullaridan eng ko'p qo'llaniladigan turi metafora, uning boshqa ma'no ko'chish usullaridan farqli xususiyatlari, metofaraning o'xshatish bilan o'zaro o'xshash va farqli tomonlari, Usmon Azim she'riyatida metaforaning o'rni va o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: maʼno koʻchishi, oʻz maʼno, koʻchma maʼno, maʼno koʻchish usullari, metofara, metofara va oʻxshatishning oʻzaro farqli xususiyatlari.

Аннотация. В данной статье говорится о том, что наиболее используемым видом способа передачи смысла в узбекском языке является метафора, ее отличия от других средств передачи смысла, сходства и различия между метафорой и сравнением, раскрываются роль метафоры и ее специфические аспекты в поэзии Усмана Азима.

Ключевые слова: передача смысла, собственный смысл, переносный смысл, способы передачи смысла, метафора, метафора и сравнение.

Kirish. Narsa-buyum, voqea va hodisalar oʻrtasidagi oʻzaro oʻxshashlikka asoslangan maʼno koʻchishiga metofara deyiladi. Metofara koʻchma maʼno hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri boʻlib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora” deb yuritilgan. Metoforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metofara va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bogʻliq hodisa hisoblanadi. “Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy boʻyoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subʼektiv munosabat aks etmaydi.” [1].

Faqatgina maʼlum bir soʻzning maʼno doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: odamning oyogʻi – stolning oyogʻi, odamning koʻzi – uzukning koʻzi, koʻylakning etagi – togʻning etagi kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, yaʼni borliqni subʼektiv munosabatini qoʻshib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan boʻyoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega boʻladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuygʻularini taʼsirchan, yorqin boʻyoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ maʼno mavjud boʻladi. “Metofara orqali maʼno koʻchishida konnotativ maʼno yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qoʻy, it, boʻri, tulki, yoʻlbars, boyoʻgʻli, musicha, burgut, lochin, qaldirgʻoch, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari boʻlgan leksemalar mavjudki, bu soʻzlar oʻz maʼnosidan tashqari, koʻchma maʼnoda juda keng qoʻllanadi. Oʻning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qoʻyning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning ephilligi, tulkinging ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning koʻzi oʻtkirliigi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda koʻchiriladi, natijada konnotativ maʼno yuzaga keladi hamda matnning taʼsirchanligi oshadi.” [2]

Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Usmon Azimning “Saylanma”si olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Metofara bilan oʻxshatish konstruksiyaning oʻzaro farqi haqida tilshunoslarimiz oʻzlarining fikrlarini aytib oʻtishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab oʻtiladi: 1. Oʻxshatishda soʻzlar oʻz maʼnosi bilan ishtirok etadi. Metofarada soʻzlar doimo koʻchma maʼnoda boʻladi. 2. Oʻxshatishda ikki komponent - oʻxshatiluvchi obyekt va oʻxshovchi obraz qiyoslanadi. Metofara esa bir komponentli boʻladi. 3. Oʻxshatishlarda kengayish imkoniyati koʻp, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa soʻz yoki soʻz birikmasidan iborat boʻladi. 4. Oʻxshatishda maxsus koʻrsatkichlar boʻladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, oʻxshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday koʻrsatkichlar boʻlmaydi. Buni quyidagi misoldan ham koʻrish mumkin: Olim tulkiday ayyor odam. Oʻxshatish konstruksiya. Bunda Olim – oʻxshatish subʼekti, tulki-oʻxshatish etaloni, ayyor-oʻxshatish asosi, -day – oʻxshatishning shakliy koʻrsatkichi. Bu toʻliq oʻxshatish. Olim – tulki. Bu qisqargan oʻxshatish, chunki gapda oʻxshatish asosi (qaysi xususiyati oʻxshashligi) va koʻrsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-ey... (Olimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metofara hisoblanadi. Chunki Olimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. Metaforalarga misollar: 1. Eshshak, bu nima qilganing? 2. Qamoqxonalarning “telegrafi” (gap tashuvchi, aygʻoqchi) juda aniq ishlaydi. 3.– Koʻksiga pichoq sanchibdi, –dedi barak navbatchisi. –Battar boʻlsin! Itga it oʻlimi. Mahbuslar baribir uni tirik qoʻyishmasdi. 4.– Oshga pashsha tushdi, aka! – dedi qoʻrqa-pisa... “Devoriy gazeta” oʻlgur keldi. 5. Qishdan qolgan qargʻalar. 6. Buqalamun bilan uchrashuv. (S.Ahmad) 7. Otabek bu choʻltogʻ supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi (A.Qodiriy) [3].

Tilshunoslikda mazmuniy jihatdan metaforalarning uch turi, yaʼni odatiy metaforalar, jonlantirish va sinestetik metaforalar farqlanadi[4]. Yuqorida koʻrib oʻtilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir.

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga oʻxshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda koʻchma maʼno yuzaga keladi. Masalan: Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; engil tabassum, engil nigoh, engil qadam, ogʻir tush, ogʻir gap, ogʻir masala kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, engil, ogʻir sifatlarida sinestetik metofara sodir boʻlgan. Maza-taʼm maʼnosini bildiruvchi “shirin” va oʻlchovni ifodalovchi “yengil” soʻzlari “yoqimli” maʼnosida, “ogʻir” soʻzi esa “yoqimsiz” maʼnosida kelgan.

Metaforaning paydo boʻlishi va lingvopoetik vosita sifatida amalda boʻlishiga eʼtibor berilsa, bir qator jihatlar mavjudligi koʻzga tashlanadi. Avvalo, metofara nutq jarayonida hosil boʻladi. Uning shakllanishi toʻgʻridan toʻgʻri insonning fikrlash doirasi, tafakkuri qamrovi bilan bogʻliq. Inson faoliyati juda ham serqirra boʻlib, u tabiat va jamiyatda boʻlayotgan har bir oʻzgarishni kuzatib boradi, voqea-hodisalarga, narsalar va shaxslar haqidagi bilimlarini tinimsiz

ravishda boyitib boradi, ular haqidagi fikr va tasavvurlarini ma'lum bir obrazlar sifatida ongida muhrlaydi. Bu falsafiy xulosalar o'zni kelganda ko'chma ma'no kasb etib nutqqa ko'chadi. Tilshunos M.Yo'ldoshev metafora va o'xshatish orasida quyidagi farqlar mavjudligini ko'rsatadi: "1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent – o'xshatiluvchi ob'ekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: **-dek, -day, -simon, -larcha,-kabi, -singari, o'xshamoq** va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: **Karim tulkiday ayyor odam**. O'xshatish konstruksiya. Bunda Karim – o'xshatish sub'ekti, tulki – o'xshatish etaloni, ayyor – o'xshatish asosi, -day – o'xshatishning shakli ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. Karim tulki. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyat o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalangan. Voy, tulki-ey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti. Butunlay qayta nomlanayapti" [5].

Usmon Azim she'riyatida qo'llanilgan lingvopoetik vositalar orasida metaforalar muhim o'rin tutadi. Metaforalar ko'pchilik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, o'z lingvopoetik xususiyatiga ko'ra doimiy va individual metaforalarga bo'linadi. Usmon Azim she'riyati tilidagi metaforalar tuzilish tabiatiga ko'ra ikki xil ekanligi kuzatiladi: **a) sodda metaforalar b) kengaytirilgan metaforalar**.

Sodda metaforalar bir leksik ma'noni anglatuvchi (sodda, yasama, qo'shma, juft) so'zdan iborta bo'ladi: gulim, gulzorim, ko'zim kabi;

Kengaytirilgan metaforalar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topadi: oltin xanjar, taqdir azalim v.h;

Usmon Azim she'rlarida sodda metaforalardan unumli foydalanilgan. Biz ishimizda shuning uchun sodda metaforalarga ko'proq to'xtaldik. Shoirning quyidagi she'rida "**gulim**" metaforasi shu vazifada qo'llanilgan. Lirik qahramon o'z sevgilisiga nomini aytib murojaat qilmay, unga "**gulim**" deb murojaat qilayapti:

... *Gulim, sovuq boqma, qo'rqaman,*

Qo'rqaman boz bo'ladi paydo —

Olti qit'a, to'rt bahri ulkan,

Huvillagan dahshatli fazo...

"Sen yo`q etting.Besarhad fazo" 73-bet

yoki

Men nechun yongan dilimni so'ndirolmayman, gulim,

Kul bo'lishga qismatimni ko'ndirolmayman, gulim.

Kim bilir otashda yongan kunlarimning qadrini,

Kecha qalblarni nurimga to'ldirolmayman, gulim

Men nechun yongan dilimni so'ndirolmayman, gulim 178-bet.

Tilshunoslikda eng ko'p murojaat qilinadigan lingvopoetik vositalardan biri metafora hisoblanadi. Yuqoridagi misoldan ham anglashiladiki, bu usulda muallif narsa yoki tushunchalar o'rtasida o'xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga hos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko'chiradi va shu tariqa nom ko'chish hodisasini yuzaga keltiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda ishtirok etgan "**gulim**" so'zi metaforik qo'llanilmoqda, chunki mazkur misolda metafora gul va odamning semantik aloqadorligi nomiga ko'chgan. Barcha so'z san'atkorlari, ijodkorlar qatori Usmon Azim ham o'z she'rlarida tilimizdagi poetik ta'sirchan, obrazli so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali she'riy asarlari tilining shirali, ifodali, obrazli va go'zal bo'lishiga muvaffaq bo'lgan.

Metaforalar, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shoirning o'z fikrlarini kitobxonga ta'sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she'riy asarlarning hamma ko'rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Poetik matnlarda yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq holda she'rda tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab lisoniy vositalar muhim uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Bunday vositalar uslubiyatga oid ishlarda ifoda-tasvir vositalari, badiiy matnning o'ziga xosligini ta'minlovchi, bo'yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Agar matnda lingvopoetik vosita o'rinli qo'llanilsa, asarda muallif tomonidan tanlangan obraz badiiy bo'yoqlarda o'quvchi yoki tinglovchi ko'z ongida aks etadi. Badiiy matnda qo'llanilgan metaforalar o'z ta'sirchanlik xususiyati bilan o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, uni zavqlantiradi, turli ruhiy holatlarga soladi. Bundan tashqari, metaforalar kishiga o'z fikrlarini tilda mavjud bo'lgan vositalar yordamida uzundan-uzun jumlar orqali ifodalashdan qutqaradi. Metaforalar yordamida yozuvchining fikrlari qisqa va aniq, sodda va obrazli tarzda o'z ifodasini topadi.

Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalar birgina shoirning ifodalamoqchi bo'lgan fikrlari pardozi sifatida ko'rinmay, shoirning ruhiyati, ichki kechinmalari va his-tuyg'ularining obrazliligi bilan yaxlit holda o'quvchiga etkaziladi.

Ma'lumki, badiiy matnlarda shoir tomonidan muomalaga kiritilgan ma'noning tabiat va jamiyatdagi ma'lum bir o'xshashlik asosida ko'chishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridan hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutqda, ayniqsa,

inson ruhiyati, kechinmalari tasviriga asoslangan poetik matnlarda emotsional - ekspressiv munosabat ifodalashning eng qulay vositasi bo'lgan metaforalar obrazlilikka asoslanadi. Quyidagi misolga e'tibor qilaylik:

*Qancha shirin damdan kechmog'im mumkin,
Faqat sen o'ynagin, quvongin, kulgin.
Sen mening taqdirim, oxir azalim,
Sen mening bahorim, oyim, g'azalim*
“Derazadan boqar sohibjamol oy” 79-bet.

Yuqorida berilgan parcha **kengaytilgan metaforaga** misol bo'ladi. She'riyatda kengaytilgan metaforalar she'rning o'noqiligini ta'minlaydi. Bo'yoqdorlik va ta'sirchanlik asosida metaforik ma'no hosil qilish badiiy matnlarda qo'llanuvchi lingvopoetik vositalarga xos xususiyat hisoblanadi. Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalarda shoirming salbiy yo'ijobiy munosabatda bo'lishi shoirming she'rda kimga qarata murojaat qilayotganligi, uni qanday baholashi, qanday birliklar vositasida unga munosabat bildirishiga bog'liq bo'ladi. Shoir quyidagi she'rida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metaforani qo'llagan:

*Endi mendan ketdi ixtiyor!
Yuragimni qo'yib kaftimga
Shivirlayman besabr, takror:
Qiblanamom, yo'l ko'rsat menga!*
“Rash giybatning to'lqinlarida” 82-bet

Mana bu parchada esa u yorga nisbatan to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmaydi, balki unga nisbatan kutilmagan metafora qo'llaydi:

*Xavotir ichinda deding: “Men ketdim...”
To'xtading. Xo'rsinding. Jo'nading shitob.
Kuzgi chorbog' aro yo'qolding, yiding,
Atlas liboslarga belangan sarob* 86-bet

Metaforalarning o'ziga xos xususiyatlari badiiy matn doirasida qaraluvchi she'riy asarlarda bo'rtib turadi. Shuning uchun Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalarning o'ziga xos jihatlari aniqlashda ularning shoir she'riyatida tutgan o'rni alohida e'tibor qaratish lozim. She'riy matnlarda Usmon Azim boshqa lingvopoetik vositalar qatori metaforalarni qanday maqsadda qo'llashiga qarab bu vositaning bajaradigan vazifasi va badiiy estetik qiymatini belgilash mumkin. Usmon Azim o'z she'riyatida metaforani qo'llashda shu vositaning estetik vazifasini ta'minlashga harakat qiladi. Uning she'rlarida metafora o'zi bog'liq bo'lgan matnda etakchilik qiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Usmon Azim ijodida tilning boshqa ifoda-tasvir vositalari qatori metaforaning o'ziga xos estetik vazifasi boshqa matnlarga nisbatan yaqqol namoyon bo'ladi. Usmon Azim tomonidan tanlangan va she'riy asarlar tilida mahorat bilan qo'llanilgan metafora she'rlarda aniqlik va ta'sirchanlik, jozibadorlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini ko'rsatadi. Ayniqsa, shoir tomonidan sevimli yorga nisbatan qo'llanilgan metaforalar shoir she'riyati bilan tanishgan kitobxonni turli ichki kechinmalarga, ruhiy holatlarga soladi, o'quvchini shoirming xayolot olamiga tomon etaklaydi, uning estetik tafakkuri qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi. Shoir she'rlarida qo'llanilgan lingvopoetik vositalar bilan tanishgan kitobxon metaforalarni anglash jarayonida ulardan ta'sirlanadi hamda Usmon Azim she'riy asarlari quvvatini his etadi. Shoirming o'ziga xos uslubi shundan dalolat beradiki, u o'z qahramoni ichki kechinmalarini anglagan, uning g'am-qayg'ulariga sherik bo'lgan holda hayotiy voqea-hodisalarga obrazlilik nuqtai nazaridan yondashadi va shunga xos metaforalarni tanlaydi.

Quyida u yorga nisbatan **“she'rim”** metaforasini qo'llaydi:

*Ammo, sen kelmassan, yo'qotgan she'rim,
Hamon turibdirsan ostonada tik.
Kutasan: “Qaytgin”, deb aytadi ering,
Yana ochiladi yopilgan eshik* 87-bet

Boshqa bir o'rinda esa unga “Panohim” deb murojaat qiladi:

Panohim, uchyapmiz yulduzlar aro,
Yulduzlar ichida eng go'zali — siz! 113-bet

Tilimiz so'z va iboralarga, turli xil vositalarga qay darajada boy bo'lmasin, kishilar fikrlarini har doim ham ko'zlanganidek ifodalay olmaydilar. Tilimiz lug'at tarkibidagi ma'lumot, xabar yetkazishga xizmat qiluvchi vositalar, leksik birliklar kishiga o'z subektiv-emotsional munosabatini o'z istagi darajasida aniq va ta'sirchan, yorqin, obrazli qilib ifodalashga, baholashga har doim ham imkon bermaydi. Bu esa ijodkorga tilimiz lug'at tarkibidan joy olgan o'z kommunikativ maqsadiga mos keluvchi so'z va iboralarni metaforik qo'llashiga zamin hozirlaydi. Mana uning bir she'rda ayolga nisbatan qo'llagan metaforalari:

*Behisht gulshanlari topdilar zavol,
Qiyomat gullarni ayladi g'orat.
Sen, ey, farishtalar hamdami — ayol,*

Do‘zaxda qolganing bo‘lsin muborak!

*Do‘stlaring bor edi — payg‘ambar, rasul —
Har biri o‘zicha yaratgan olam.*

*Ey, podshoh qismatga sadoqatli qul,
Qutlug‘ bo‘lsin yangi shayton do‘stlar ham.*

*Uni-ku gapirmay... O‘tdi u — ertak,
O‘tli hislarini poyingga yozdi.*

*Sen, ey, olovlarda muzlagan erka,
Muzda uyg‘onishning lazzi sozmi?*

“ Behisht gulshanlari topdilar zavol” 144-bet

Mana bu she‘rda esa lingvopoetik vositalarning, ya‘ni metafora (oppoq qo‘lcha) va jonlantirishning o‘zaro uyg‘unlik hosil qilganligi seziladi:

Men ko‘cha kezaman. Yog‘a boshlar qor,

Oppoq qo‘lchalarni yelkamga tashlab.

Sokin shivirlaydi: “Nima gaping bor?”—

Qadamim tovshidan uyg‘ongan uylar.

117-bet

Xulosa. Lingvopoetik vositalardan biri bo‘lgan metaforalar Usmon Azim she‘riyatida faol qo‘llanilib, she‘riy asarlar tilining o‘ziga xosligini ta‘minlashga xizmat qiladi, hamda shoirning hayotiy voqea-hodisalarga, insoniy munosabatlarga ijodiy yondashuviga bog‘liq holda hosil bo‘ladi. Metaforalar poetik matnlarda obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vosita sifatida Usmon Azimning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida uning o‘ziga xos individual uslubini belgilab beradi. Ular she‘riy matnlarda kutilmagan obrazlilik hosil qiladi, Usmon Azimga fikr ifodalashda ancha qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. –T., 1976, 13-b.; Abdurahmonov Sh. O‘zbek badiiy nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar. ND.-T., 1997, 105-b
2. Mamadaliyeva M. O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. ND.-T., 1998, 12-b
3. M.Yo‘ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari T: 2008 y. .
4. Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке. АДД.-Т., 1989, с-13.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent: Fan, 2007, 78-bet.

Muallif:

Uskanov Kaxramon Xolikulovich - JDPU o‘qituvchisi.

Ijtimoiy fanlar

UDC 372.81

THE SIGNIFICANCE OF THE WORKS OF TORA SULEYMAN IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF THE CREATORS OF NEW UZBEKISTAN

YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARINI MA'NAVIV JIHATDAN TARBIYALASHDA TO'RA SULAYMON ASARLARINING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ТОРА СУЛЕЙМАНА В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ СОЗДАТЕЛЕЙ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Mahmudov Ravshanbek

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: ravshanbek.jalilovich@mail.ru

Abstract. Tora Suleyman is a people's poet of Uzbekistan, professor of Gulistan State University, author of about thirty books. Bakhshi poet. A creator who devoted his folk oral creativity to written literature. Living in the village of Syrdarya region, he was known as a creator in Uzbekistan, and more than a hundred poems were sung. Tora Solaymon is a word jeweler, historian, agronom, rancher, linguist, literary scholar.

Keywords: motherland singer, mother, beauty, nature, life is going on, sequential spring.

Annotatsiya. To'ra Sulaymon – O'zbekiston xalq shoiri, Guliston davlat universiteti professori, o'ttizga yaqin kitoblar muallifi. Baxshi shoir. Xalq og'zaki ijodini yozma adabiyotga omuxta qilgan ijodkor. Sirdaryo viloyati qishlog'ida yashab O'zbekistonda ijodkor sifatida tanilgan va yuzdan ortiq she'rlari qo'shiq bo'lgan. To'ra Sulaymon – so'z zargari, tarixchi, agronom, chorvador, tilshunos, adabiyotshuos olim.

Kalit so'zlar: ona-Vatan kuychisi, ona, go'zallik, tabiat, umr o'tmoqda, ketma bahor, gul bir yon, chaman bir yon, tavallo, yig'lar, soxtadan-soxta, holimda.

Аннотация. Тора Сулейман – народный поэт Узбекистана, профессор Гулистанского государственного университета, автор около тридцати книг. Бакши поэт. Творческий человек, стремящийся к письменной литературе, к устному народному творчеству. Живя в селе Сырдарьинской области, он был известен в Узбекистане как создатель и написал более ста стихотворений. Тора Соломон-ювелир слова, историк, агроном, скотовод, лингвист, литературовед.

Ключевые слова: певец Родины, мать, красота, природа, жизнь идет, весна в ряд, цветок в одну сторону, всадник в одну сторону, тавалло, плачет.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi 90-F sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan "2024-yilda adabiyot, madaniyat va san'at, ilm-fan sohalarini atqqli namoyondalarining tavallud sanalarini munosib nishonlash hamda faoliyatini keng targ'ib etish dasturi"da "O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon tavalludining 90 yilligi bo'yicha 6 bandedan iborat amalga oshiriladigan ishlar belgilab berilgan."

To'ra Sulaymon taxminan o'z qo'li bilan yozgan tarjimai holida 1934-yil 1-fevralda hozirgi Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi Aldashmon qishlog'ida tug'ilgan. Avtobiografik xarakterdagi "Davlat odami" asarida yozishicha aslida To'ra Sulaymon 1932-1933-yillarda tug'ilganini 3-4 yoshligida ukasini qo'lidan yetaklb yuradigan bola bo'lganida 1937-yillarda Jizzax viloyatining Qirqsadoq qishlog'ida qisqa vaqt yashashganini keyinchalik esa poyezdda Sirdaryo viloyati hozirgi Baxt shahri stansiyasiga kelganliklarini yozadi. To'ra Sulaymon va Aldashmonlik aholi Sirdaryo viloyatini, cho'lni o'zlashtirish bahonasida hozirgi Sayxunobod tumaniga ko'chirib keltiriladi va qamishlardan bo'lgan chaylalarga, yerto'lalarga joylashtiriladi. "Davlat odami" asarida yozilishicha To'ra Sulaymonlar oilasi qisqa muddatda Sirdaryo tumaniga ko'chib o'tishadi. Qisqasi, tog'li, bog'li fusunkor qishloqda tug'ilgan To'ra Sulaymonlar oilasi Sirdaryolik bo'lib qoladi. Sirdaryo tumanidagi maktablarda o'qiydi. 1952-yildan maktabni tugatganidan so'ng a'lochi o'quvchi sifatida o'sha davr sharoitiga ko'ra maktablarda oliy ma'lumotli o'qituvchilarni yetishmasligi sababli tumandagi 20-maktabda 3 yil matematika fani o'qituvchisi bo'lib ishlaydi.

1956-yilda To'ra Sulaymon Toshkent xalq xo'jaligi instituti (hozirgi Toshkent iqtisodiyot universiteti) kunduzgi bo'limiga o'qishga kiradi. Bir necha oy institutda o'qiganidan keyin o'qishni tashlab ketadi. Sababi, birinchidan, oliy matematika fani ko'p o'qitilgani bo'lsa, ikkinchi sababi 3-4yosh kichik yigit qizlar bilan o'qish To'ra Sulaymonga yoqmaydi. 1958- yilda To'ra Sulaymon Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) Jurnalistika fakulteti kunduzgi bo'limiga o'qishga kiradi. 1964-yilda To'ra Sulaymon Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) Jurnalistika fakulteti sirtqi bo'limini tugatadi. 1958-1963-yillarda hozirgi Mirzaobod timanidagi 19-maktabda ona tili va adabiyoti fanidan dars beradi. 1963-yildan "Guliston" tumanlararo gazetasida ishlagan. 1968-yildan "Sirdaryo haqiqati" gazetasida faoliyat ko'rsatadi. 1968-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zozligiga qabul

qilinadi. 1970-yildan boshlab To'ra Sulaymon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyati bo'limida faoliyat ko'rsatadi.

1992-yilda To'ra Sulaymonga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", 1999-yilda "O'zbekiston xalq shoiri", 2001-yilda Guliston davlat universiteti faxriy professori unvonlariga sazovor bo'lgan. 2005-yil 9-sentabrda To'ra Sulaymon Guliston shahrida vafot etdi. Vasiyatiga ko'ra otasi yotgan qabristonga Sayxunobod tumani Rashidov qishlog'iga dafn qilingan.

Asosiy qism. To'ra Sulaymonning ijodi 1950-yillarda boshlangan. Maktabda va "Guliston" gazetasida ishlab yurgan vaqtlaridan boshlab xabarlar, she'rlar yoza boshlagan. Birinchi to'plami 1962-yilda "Istar ko'ngil" nomida Toshkentda 5000 nusxada chop etilgan. Keyinchalik "Qora soch" (1965), "Men qayga borar bo'lsam" (1965), "Gul ko'chat" (1968), "Jahongashta" (1970), "Intizor" (1973), "Hamqishloqlarim" (1973), "Sirdaryo qo'shiqlari" (1974), "Iltijo" (1976), "Alhazar" (1976), "To'yboshi" (1977), "Sizni eslayman" (1980), "Qora ko'zginam" (1981), "Istar ko'ngil" (1984), "Gulshan" (1988), "Sarvinoz" (1989), "Xarsang" (1994), "Jahonnoma" (1996), "Gul bir yon, chaman bir yon" (1996), "Yovqochdi" (1998), "Sayxon" (2003), "Nazarkarda", "Shams qamar", "Mamlakatning tayanch nuqtasi" vafotidan keyin "Sensiz yolg'iz g'arib bo'ldim" (2013), "To'ra Sulaymon tanlangan asarlar" (2020) kitoblari chop etilgan.

To'ra Sulaymon qoldirgan ma'naviy me'rosi bugungi Yangi O'zbekiston bunyodkorlari tarbiyalashda hayotiy qo'llanma, darslik vazifani bajarmoqda.

Adabiyot – so'z san'ati. Adabiyot – inson aql-zakovatini, madaniyatini, ma'naviyatini, ilmini o'stiradi, hayotiga mazmun-mohiyat baxsh etadi, yashashdan maqsadini aniqlashtirib olishiga yordam beradi. Bugungi hayotimizni ma'naviyatsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ma'naviyat nima? Ma'naviyat – aql-idrok, fahm-farosat, did, bilimlilik, ma'rifatlilik, madaniyatlilik, chiroyli kiyinish, ravon gapirish, xushmuomalalik, qalbi kenglilik kabilardir.

Ilm-fanda – ma'naviy munosabatlar, ma'naviy ehtiyojlar, ma'naviy manfaatlar, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy jasorat, ma'naviy illatlar, ma'naviy xurujlar, ma'naviy tahdidlar kabi tushunchalar mavjud. Bugungi eng zarur, eng katta, eng muhim vazifalardan biri yoshlarni barkamol, yetuk insonlar, Uchinchi Renessans bunyodkorlari qilib tarbiyalashdan iborat. Demak, yosh avlodni ota-onasini, tengdoshini, o'rtoq'ini, xotin- qizlarni, o'zidan kattalarni, kichiklarni hurmat qilishga, ehtiyotlashga o'rgatish va ularga amal qilishni singdirish eng dolzarb vazifalardan yana biridir. Agar statistikaga e'tibor bersak, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik, afsuski o'sganligini ko'ramiz. Buning sababi nimada? Bizningcha, ma'rifatsizlikda, ota-onaning loqaydligida, ma'naviyatsizlikda, ta'lim-tarbiyaning nihoyatda tanazzulga yuz tutganligidadir. Yolg'onni benihoyat darajada ko'payganligida, maqtanishni ko'pligidadir. Buning uchun nima qilish kerak? Bugun kitob o'qi degan gapni o'zi kamlilik qiladi. Yoshlarga badiiy kitoblarni o'qitishning yangicha usullarini o'ylab topish kerak. Ya'ni, badiiy kitoblarni ko'p o'qigan o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga balki imtiyozli qabul qilish yoki imtihon, test topshirishlarida qandaydir imtiyozlar berish usullarini o'ylab ko'rish kerakdir.

Xohlaysizmi-yo'qmi badiiy kitob inson dunyoqarashini o'stiradi, o'zgartiradi, kengaytiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yaxshi yomon, foyda-ziyoni savob-gunohni, halol-haromni farqiga borishni o'rgatadi.

"Hamma narsani o'qiyverish yaramaydi, dilda tug'ilgan savollarga javob bera oladigan kitoblarnigina o'qish kerak", - degan edi mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy.

"Agar bolalarimiz aqlli bo'lishini istasangiz, ularga ertaklar o'qib bering. Agar yanada aqlliroq bo'lishlarini xohlasangiz, undan-da ko'proq ertak o'qib bering", - degan edi jahonga mashhur olim Albert Eynshteyn.

To'ra Sulaymon " Imtihon " she'rida: "Sharmu hayo, aslida, xonadondin boshlanur, Adovat yo bir nopok, yo yomondin boshlanur, El orasinda fitna Yosumandin boshlanur, Xon magar badkor bo'lsa, o't qo'rg'ondin boshlanur", deganida haq edi.

Yuqoridagi mutafakkirlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, hayotda ma'noli, maqsadli, aql-idrokka suyanib yashash vositasi kitobdir.

To'ra Sulaymonning dostonlari, ocherklari, she'rlari, ertaklari Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda, ularni zamon talabiga javob beradigan yetuk insonlar, mutaxassislar bo'lib yetishishlarida katta ma'naviy, ma'rifiy ahamiyatga ega. To'ra Sulaymon hayoti va ijodini o'rganish uchun 8-sinf maktab darsligiga kiritilgan.

To'ra Sulaymon – Sirdaryoning yuragi, obro'-e'tibori, or-nomusi, vijdoni, bulbuli edi. Shoirdan Vatanni sevishni, ardoqlashni, hurmatlashni, e'zozlashni, sadoqatni o'rganishimiz kerak. Bu yuksak tuyg'ularni yoshlar yuragiga singdirishimiz zarur.

2023-yil 22-dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi Prezident Shavkat Mirziyovning "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun" yoki "Ma'naviyat va ma'rifat – milliy yuksalish poydevori", "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi – bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy", "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak", deb xalqni ayniqsa ziyolilar e'tiborlarini ma'naviyatga qaratishlarida juda katta falsafiy ma'no bor. "Ma'naviyat boshqa sohalaridan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", - dedilar mamlakat yetakchisi. Demak, har bir O'zbekistonlik aql-zakovatini, fahm-farosatini, didini, madaniyatini o'stirishi uchun intilishi uchun kitob o'qishi kerak. Aql-zakovat, fahm-farosat avvalo ota-ona qoni orqali o'tadi. Ikkinchidan, ta'lim- tarbiya, badiiy asarlar vositasida hosil qilinadi. Shu jihatdan olganda, To'ra Sulaymon asarlari bilimdon, tarbiyalangan– tarbiyachilik

vazifasini bajara oladi. Shoir asarlari nima uchun tarbiyachilik, hayot darsligi vazifasini bajarishini sababi, nasihatlari, saboqlari xalq tilida, sodda, tushunarli yozilganligida, ifodalanganligidadir. Har qanday yoshdagi odam To'ra Sulaymon asarlarini tushuna biladi, ma'no oladi, aql oladi, ma'naviyatlanadi, ma'rifatlanadi. Maktab o'qituvchilari o'quvchilarga shoir ma'naviy merosini kengroq tushuntirishlarida bu o'quv qo'llanma ham yordamchilik vazifasini bajaradi deb umid qilamiz.

Shoir ilgari surgan eskirmas, o'lmas fikrlari, g'oyalari yillar o'tgan sari ahamiyati oshib bormoqda. Shuning uchun To'ra Sulaymon asarlari qayta-qayta nashr etilmoqda. Vatandarlik, ogohlik, sergaklik, ona-yurtga, tabiatga, go'zallikka oshiqlik, onalarni e'zozlash, loqaydlikka, nohalolikka qarshi kurashish To'ra Sulaymon asarlaridagi o'lmas, eskirmas g'oyalardir.

“Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini, ezgu g'oyalarni tarannum etishda o'zbek adabiyoti hamisha mustahkam zamin bo'lib kelgan va ishonamanki, doimo shunday bo'lib qoladi” [1],- degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. To'ra Sulaymon ma'naviy, ilmiy merosi, ilgari surgan g'oyalari, maqsadlari abadiyatga xizmat qilishiga shubha yo'q. Iqtidorli, iste'dotli yozuvchi Nabijon Boqiy aytganidek, To'ra Sulaymonning ikkinchi umri davom etmoqda.

“Istar ko'ngil”. Birinchi kitob birinchi farzandday gap. E'zozli, o'ta hurmatli bo'ladi. Birinchi kitob qanday bo'lsa keyingilari ham shunday bo'ladi degan gap bor. “Istar ko'ngil” Toshkentda 1962-yilda besh ming nusxada chop etilgan. Bu kitob To'ra Sulaymon uchun juda e'zozli edi. Yigirma ikkita she'rlari jamlangan bu mo'jazgina to'plam o'zbek adabiyotiga yosh bir iqtidor, iste'dod, talant kirib kelganligidan xabar edi. To'plamda o'z davri taqozasiga ko'ra partiya, sovet, inqilob kabi tushunchalar aks etgan she'rlar bilan bir qatorda, tabiat, sevgi, muhabbat, inson mavzularidagi she'rlar ham o'rin olgandi. Tabiiyki, shoir bu birinchi to'plamdan ko'ngli to'lmay 1984-yilda yangi she'rlari bilan to'ldirib, eskilarini butunlay tashlab yuborib, yana qaytadan “Istar ko'ngil” nomi ostida nashr qildirgan. To'ra Sulaymon o'ziga va o'zgalarga talabchan ijodkor edi.

1994 yilda To'ra Sulaymon tavalludining 60 yilligi munosabati bilan qilgan “Yurak ehtiyoji” nomli suhbatimizda:

R.Mahmudov – ilk she'r, ilk bor matbuotda chiqish, ilk to'plam kishi xotirasidan hech qachon ko'tarilmaydi. Bu haqida to'liqroq gapirib bersangiz.

T.Sulaymon – ilk mashqlarimni ko'tarasiga tashlab yuborganman. Siyqa, sayoz, “ura-ura” bop bo'lgani uchun, to'g'rirog'i, shaytoniy edi, deb javob bergan edi. To'ra Sulaymon o'z ijodidan qoniqmaydigan, o'z ustida doimo ishlaydigan, izlanadigan ijodkor edi. Shoirning bu to'plami haqida negadir biror bir tanqidchi yoki adabiyotshunos taqriz yozmagan, munosabat bildirmagan. Buning sababini shoir yuqorida tilga olingan suhbatimizda shunday izohlaydi:

“...Keyin adabiyotshunoslaringiz ijodkorlarni bo'lib, taqsimlab olishgan. Biridan olib, biriga solib yotishadi. Men bironta ...shunos bilan “bor tovog'im – kel tovog'im” qilisha olmadim. Olmayman ham. Sababi, menda na amal bor, na tamal. Men nima uchun bunday demoqdaman? Siz ham kuzatgan bo'lsangiz kerak, kim (qaysi ijodkor) otga mingudek bo'ldi deguncha, o'sha ...shunoslar ot qo'yib, yopirilib, o'sha hamkasbimizni ko'kka ko'tarishga kirishib ketishadi azamatlar. Uyalmay-netmay” [2].

“Hamqishloqlarim”. Bu to'plam chop etilganida To'ra Sulaymonning (1965) “Qorasoch”, “Men qayga borar bo'lsam” (1965), “Jahongashta” (1970), “Intizor” (1973) kitoblari mashhur edi. Bu kitoblardan tashqari To'ra Sulaymonning turkum she'rlari “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “O'zbekiston madaniyati”, “Sirdaryo haqiqati” kabi jurnallarda va gazetalarda chop etilib xalq o'rtasida mashhur bo'lib tanilib qolgan shoir edi.

Har bir insonda qandaydir qarzdorlik hissi bo'ladi. Shoirida ona Vatandan, xalqidan, adabiyot ixlosmandlaridan haqdorlik, qarzdorlik ancha kuchli edi. To'ra Sulaymon garchi Jizzax viloyatida tug'ilgan bo'lsada, Sirdaryo viloyatida yashaydi. Xalqning asosiy tirikchiligi dehqonchilik, paxtachilik, chorvachilik edi. Demak, Mirzacho'lni o'zlashtirishga Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo kabi viloyatlardan yosh, vatanparvar cho'lquvarlar kelishgan edilar. Ularni kecha-kunduz og'ir mehnat qilayotganliklari shoirmi ilhomlantiradi, o'ylantiradi, hayratlantiradi. Ularga qanday, nima yordam bersam bo'ladi, deb ko'p o'ylaydi. Shoorni quroli - so'z. Demak, chiroyli, maqtoqli so'zlarim orqali ularni ko'nglini, ruhini ko'taraman deb ahd qiladi va natijada turli maqolalar, ocherklar, xabarlar yozib gazeta, jurnallarda e'lon qiladi. Matbuotda e'lon qilingan ocherklarini to'plab “Hamqishloqlarim” nomli kitobini chop ettiradi. Kitob Toshkentdagi nashriyotda o'n ming nusxada chop etiladi. “Hamqishloqlarim” to'plamiga “Bugun chin arafadir”, “Shamsiqamar”, “O'zbek she'riyatining manasi”, “Xush ko'rdik, safo ko'rdik”, “Hamqishloqlarim”, “Qaldirg'och”, “Intizor” (hikoya)si kiritilgan. [3]

To'ra Sulaymon “Hamqishloqlarim” kitobini maqolalar yoki ocherklar deb atamagan. Negaki, kitobda O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti sohibi Hamid G'ulom, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, kursdoshi, bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev o'z davrida ilg'or paxtakor bo'lib, yuzlab yoshlarni paxta terish mashinada paxta terishga rag'batlantirgan, ergashtirgan Shamsiqamar To'xtayeva haqida qiziqarli voqealar hikoya qilingan edi.

Shoir Shamsiqamar terimchi qiz bahonasida ilg'or paxtakorlar – Mehnat Qahramonlari Shoyimardon Qudratov, Mamajon Dadajonov, Javod Ko'chiyevlar haqida ham ma'lumotlar berib o'tgan. Shoir ona-yurti qahramonlarini xalqqa tanitishni, ulug'lashni ijodkorlik burchi deb bilgan. Chunki To'ra Sulaymon hayotda ko'rgan, bilgan, eshitgan har bir

voqea, hodisaga mas’uliyat bilan qaragan, yondashgan. Bugungi o’quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik xislatlarini o’stirishda To’ra Sulaymon she’rlarining ham ahamiyati beqiyosdir.

To’ra Sulaymonning “Sirdaryo qo’shiqlari”(1974), “Iltijo” (1976) kitoblari ham nashr etilgan.

“Iltijo”. Kitob Toshkentda G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida o’n ming nusxada chop etilgan. To’plamga xalq ohangida yozilgan yigirmatta she’rlari jamlangan. To’plamga kirgan “Bo’ston kezaman”, “Iltijo”, “Sog’inish”, “Guldasta”, “Bo’lsa”, “Sozchi qo’shig’i”, “Bolamov”, “Xush ko’rdik”, “Bog’bon qo’shig’i”, “Ko’z va qosh”, “Do’mbiram” she’rlari mashhur hofizlar tomonidan chiroyli kuylar bastalanib qo’shiq qilinib, kuylangan.

Olam munavvarligi–
oy bilan, quyosh bilan,
Qora yer gavharligi –
mehnatu bardosh bilan,
Elning baxtiyorligi –
jondosh, vatandosh bilan,
Ko’nglimiz bahorligi –
elikdosh, eldosh bilan!

Bahor, ketma mening bog’imdan.[4]

Taxminan ellik besh yillar oldin yozilgan bu she’r go’yo bugun yozilganday, davr aks etganday hozirgi yoshlar uchunday tuyuladi. Shoirning iqtidori, talanti ulug’ligi hayotdan, jamiyatdan ilgarilab ketganligida bilinadi. “Guldasta” she’rida shoir yozadi:

O’z xalqning baxtin kuylab, shoir topdi e’tibor
Tulporlarining qanotida “uchqur” degan xati bor
Oldni ko’rar ko’zlarida tuman tarlon o’ti bor,
Sinov payti-poygalarda olib bergan zoti bor.
Shoir saman yo’rg’asini ming yo’rtog’ga alishmas.

Bu she’r O’zbekiston xalq shoiri, Davlat mukofoti sohibi, ustoz Mirtemirga bag’ishlab yozilgan. Bu she’r go’yo To’ra Sulaymonning o’ziga ham tegishli deyiladi. Mirtemir domla To’ra Sulaymondagi baxshilikni, oddiylikni, ilmlilikni, so’z qo’llash san’atiga ustaligini ko’ra bilgan. Shuning uchun ham ular ota-boladay, ko’ngli yaqin bir-birini nihoyatda yaxshi tushunishgan. Soatlab, kunlab suhbatlasha olishgan. To’ra Sulaymon ustozlari hurmatiga, e’zoziga o’z so’zi, gapi, she’rlari, dostonlari, ertaklari, maqolalari bilan sazovor bo’la olgan ijodkor edi. O’qituvchilar o’quvchilarga, talabalarga bu she’r orqali shogird - ustoz munosabatlari qanday bo’lishi lozimligini tushuntirishi mumkin bo’ladi.

Suhbatlarimizdan birida Sizni Mirtemir domlani shogirdi deyishadi... deb so’radim:

-Mirtemir akaning shogirdiman, deyish uchun u kishining qilgan ishlarining yuzdan birini qilish kerak bo’ladi. Shogird darajasiga yeta olmadim. Lekin ota-bola singari, xatto undan ham ziyoda, ko’nglimiz yaqin edi, deb javob bergandi. To’ra Sulaymon ustozini juda ulug’ ko’rardi. Mirtemirni 90 yillik yubileyida To’ra Sulaymon yelib-yugurib xizmat qilgan. Guliston shahridagi Olim Xo’jayev nomli musiqali drama teatridagi ijodiy kechada Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf kabi barcha ijodkorlar tashrif buyurishgan edi. Ustozining 90 yillik tadbiridan keyin Abdulla Oripov rahbarligidagi ijodkorlarni Mirzaobod tumani T. Ahmedov qishlog’idagi hovlisiga taklif qilib, mehmon qilgan edi.

Samarqand, suqsurlar makonimisan,
Yo qo’shiq o’lkasi, yo konimisan,
Yo shoir g’azali, yo jonimisan,
Yo kuycha darmoni - dostonimisan.

Samarqand-ko’z ochib tug’ilgan yurtim,
Samarqand – zuvalam yo’g’rilgan yurtim.

Hozirgi Jizzax viloyati Baxmal tumani ilgari Samarqand viloyati G’allaorol tumani hisoblangan. Shoir “Do’mbiram” she’rida kindik qoni to’kilgan ona tuprog’i –jahonga mashhur Samarqandni ulug’laydi. Samarqand-haqiqatan ham sakkizinchi mo’jiza shahar, yurt hisoblanadi. Samarqand bilan g’ururlanmaydigan ijodkor yo’q. Samarqand ikkinchi Uyg’onish davrida jahonning ilm-fan, madaniyat poytaxti bo’lganligi uchun ijodkorlarga doimo ilhom bag’ishlab turadi.

“Alhazar”. To’ra Sulaymonning “Mushtum kutubxonasi” seriyasida chop etilgan “Alhazar” (1976) to’plamiga satirik she’rlari, hajviyalari kiritilgan. To’plamga o’n beshta asari jamlangan. “Alhazar” kitobi chop etilganidan keyin qisqa vaqt ichida mashhur bo’lib ketdi. Chunki, to’plamdagi “Oqpadar” she’ri so’z ustalari tomonidan turli tadbirlarda eng ko’p o’qiladigan, ota-onalarni e’tiborini tortadigan, hayotda uchrab turadigan voqealarga asoslangan voqeband she’r edi.

Hayosiz inson bag’ri tosh bo’ladi,
Qilmishin ko’rib ko’ngling g’ash bo’ladi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

Otasi qartayganda ro‘zg‘origa

Aqli butun yigitlar bosh bo‘ladi.

Shoirning “Oqpadar” she‘ri voqeband asar. Mamlakatda ahyon-ahyonda uchrab turadigan salbiy hodisa haqida. Ayrim mo‘rt, o‘zining mustaqil fikri, gapi yo‘q yigitlar ota-onasi qartayganda xotinini gapiga kirib, bo‘ysinib shaharga yoki xotinining ota-onasini ko‘chib ketayotgan yoshlarning qiliqlari, xulqlari to‘g‘risidagi fojeaviy feleton. Afsuski, hayotda xotini chizgan chizig‘idan chiqa olmaydigan ota-onasini turmush o‘rtog‘iga almashtirib yuborayotgan yigitlarni borligi ham bor gap.

Oqpadar chol-kampirni tashlab ketdi.
Ko‘ksin o‘rtab, ko‘nglini g‘ashlab ketdi,
Sovuq suvga qo‘l urmas tannozi,
Yetaklab qayoqqadir boshlab ketdi. [5]

Bu she‘rni to‘ylarda so‘z ustalari tomonidan ko‘p bora o‘qilishiga sabab ayrim yigitlar uylanganlaridan keyin xotinini gapidan chiqa olmay, ota-onasi xizmatini qilmay, faqat xotini buyrug‘ini, aytganini bajaradiganlar ham hayotda borligi uchun shoir bundaylarni oqpadar deb ataydi. Oqpadar – otasi oq qilgan, la‘natlagan, yuz o‘g‘irgan ma‘nolarida keladi. Ota farzandidan osonlikcha yuz o‘g‘irmaydi. Bu she‘r To‘ra Sulaymonning keng xalq o‘rtasida mashhur bo‘lishiga yana bir sabab xalos. Bu she‘rni yanada mashhur bo‘lishiga kuy bastalanib, qo‘shiq qilib kuylanishidir.

Shoirning “Oqpadar” she‘rini komik artist Nazrullo Yoqub o‘g‘li birinchi bo‘lib kuyga solib, qo‘shiq qilib ijro qilgan. Keyinchalik O‘zbekiston xalq hofizi Faxriddin Umarov ham qo‘shiq qilib kuylagan.

“Alhazar” to‘plamida shoirning bir necha odob-axloqqa, halollikka oid “Oykumush” turkumida “Ayrim to‘yxatlarga o‘xshatma”, “Palaqmon”, “Bola tug‘dim boshi yo‘q”, “To‘g‘anoq”, “Moltopar”, “Mashoyihlardan qolgan gap”, “Savodsiz”, “Ko‘chirmachidan”, “Oltin qafas”, “Topqir edim- toptalib qolmay” hajviyalari nihoyatda qiziqarli hayot, mustaqil turmush, halollik, poraxo‘rlik, nopoklik, savodsizlik, bilimsizlik, farosatsizlik kabi eng dolzarb o‘nlab masalalar qamrab olinganligi bilan ham ahamiyatlidir.

To‘ra Sulaymonning “Alhazar” to‘plamidagi “Sen so‘rama, men aytmay”, “Alhazar”, “Yo‘liqdim”, “Tashladim”, “Oltin qafas”, “Gapdan gap”, “Mushmas” kabi achchiq, kinoyali, kulgili, nimkosa tagidagi gaplari aks etgan qatralari nihoyatda dolzarb masalalarni qamrab olgan. Bu to‘plam o‘quvchi, talaba - yoshlar uchun axloq fanidan darslik vazifasini bajaradi. Bu asarlar To‘ra Sulaymonni hayotni yaxshi biladigan tarbiyachi, pedagog shoirligidan dalolat beradi.

Guliston shahrida To‘ra Sulaymon nomida yozgi anfiyatr qurilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, Guliston shahridagi ko‘chalardan biriga To‘ra Sulaymon nomi berilgan. Guliston davlat universitetida “To‘ra Sulaymon o‘quv xonasi”, ijodkor talabalar o‘rtasida “To‘ra Sulaymon stendiyasi” tashkil etilgan. “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohibi, “Kitobxon talaba” Respublika bosqichi g‘olibi, “Yil talabasi” g‘olibi, shoir Yorqinjon Hayitboyev To‘ra Sulaymon nomli stendiyaning birinchi sohibi bo‘lgan. Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi Turg‘un Ahmedov qishlog‘ida shoir yashagan hovli “To‘ra Sulaymon uy-muzeyi”ga aylantirilmoqda. [6.59]

To‘ra Sulaymonning yuzlab she‘rlari xalqimizning sevimli san‘atkorlari Faxriddin Umarov, Sherali Jo‘rayev, Oxunjon Madaliyev, Abdurauf Olimov, Toshpo‘lat Matkarimov, Dilmurod Axmedov, Asatullo Xoliqov, G‘iyos Boytoyev, Shomahmud Shorasulov, Dilshod Raxmanovlar tomonidankuy bastalanib qo‘shiq qilib kuylanmoqda. To‘ra Sulaymon mazmunli-maqsdadli, falsafiy she‘rlari, dostonlari, maqolalari bilan maktab o‘quvchilari, talabalar- yoshlarimiz bilimni, ma‘naviyatini, ma‘rifatini o‘stirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

2024-yil Sirdaryo viloyatida To‘ra Sulaymon yili deb nomlandi. Ulug‘, sevimli, yurtdosh shoirning 90 yillik to‘yi munosabati bilan viloyatdagi maktablarda, litseylarda, kollejlarda, texnikumlarda, oliy o‘quv yurtlarida uchrashuvlar, suhbatlar, sport musobaqalari, ilmiy konferensiyalar o‘tkazish rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, To‘ra Sulaymondan yigirma beshta kitoblari, bir necha dolzarb mavzulardagi maqolalari, hikoyalari ma‘naviy meros sifatida qoldi.

Muqaddas qo‘shiq kuychisi, Guliston davlat universiteti professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon 1934-yil 1-fevralda Jizzax viloyati, Baxmal tumani Aldashmon qishlog‘ida tug‘ilgan. Taxminan uch-to‘rt yoshlarida ota-onasi quloq qilingani sababli Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumaniga ko‘chib kelishgan. Aldashmon bulutlarga yaqin, tog‘li, fayzli, nihoyatda go‘zal qishloq. Ayniqsa, bahor, yoz oylarida nihoyatda fusunkor bo‘ladi. Ob-havosi toza, bahor Sirdaryoga nisbatan salkam bir oy keyin, kech boshlanadi.

Tog‘lari qoyali, bog‘lari bolli,
Og‘ushi yoz bo‘yi salqin, soyali.
Soyi, sayhonlari suqsur, so‘nali,
Behishtga bergusiz manzil, ma‘vosi
Baxmal samosida bulbul navosi.

Baxmal tumani mamlakatimizning eng fayzli, inson hissiyatlarini uyg‘otuvchi jannatmakon maskanlaridan biri.

Aldashmon, Qo‘ng‘irga saratonda kel,
Shikor etmoq bo‘lsang, qahratonda kel.

Yaxshi niyat, yaxshi o‘y, paymonda kel,
Mehmondan boshlanar gapning sirasi,
Baxmal tog‘larida bulbul navosi.

To‘ra Sulaymonning ona Vatani haqidagi “Baxmal bog‘larida” she‘rini o‘qigan har bir inson bu go‘shani ko‘rishni istab, sevib qoladi, go‘zalligiga maftun bo‘ladi. To‘ra Sulaymon she‘rlari oddiy, sodda, har qanday inson o‘qisa tushunadigan qilib yozilgan. Shoir ona-yurtini Aldashmonni, Sirdaryoni yaxshi ko‘radi. Nafaqat yaxshi ko‘radi, balki e‘zozlaydi, hurmatlaydi. Shuning uchun ijodkorning yetmish-sakson foiz she‘rlari ona-Vatan, ona-yurti go‘zalligi, urf-odatlarini, insonlarining fe‘l-atvorlari, mardliklari, adolatparvarliklari haqidadir.[7]

Shoirning “Ota makon” she‘ri ona-yurtiga, Vatani, xalqimizga madhiya desa bo‘ladi.

Toshlarin tavof qil, tuprog‘ini o‘p,
Gardin ko‘zga surtib tug‘rosini o‘p,
Har sahar yukinib bayrog‘ini o‘p,
Bu Ota Makondir,
Bu Ona Yurtdir.

To‘ra Sulaymon ijodining o‘ziga xosligi shundaki, oddiy so‘zlar tizmasiga katta, zarvorli yuk yuklashni yaxshi biladi. Sodda, o‘ynoqi, mazmunli bu satrlarini barcha yosh-u qari baravariga tushuna oladi. Shoir she‘rxonlarni bugungi kundagi salohiyatini yaxshi bilgani uchun ham juda sodda, tushunarli qilib yozadi.

Azaldan ardoqli, or-nomusli el,
To‘qson to‘qqiz bo‘vli, biy, bo‘lisli el,
Sabr-qanoatli, qut, qomusli el,
Bu Ota-Makondir, Bu Ona-Yurtdir,
Bu qadim Turondir-jon ichra jondir.

Shoir Ona yurti, Ota Makonini tarixini, o‘tmishini yaxshi biladi. “Boshing qo‘yib topin ostonasiga, Zog‘ yo‘lata ko‘rma Ark qal‘asiga, Hamisha tayyor tur himoyasiga, Bu Ota Makondir, bu Ona Yurtdir”, deb bong uradi shoir. Mana Vatanni sevish, vatanparvarlik belgisi. To‘ra Sulaymonda ona yurtiga nisbatan benihoyat katta mehr-muhabbat bor. Shoirning avtobiografik xarakteridagi “Davlat odami” asarini o‘qigan kitobxon insonga ona yurt qanchalik zarur, ahamiyatli, qimmatli, e‘zozli ekanligini sabablarini kengroq, yorqinroq tushunganday bo‘ladi. Chunki shoir Vatansizlikni, “kelgindi”likni boshidan kechirgan.

Bizga ma‘lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin ramzlarimizni o‘zgartirish zaruriyati tug‘ildi. O‘zbekiston madhiyasini yaratish bo‘yicha tanlov e‘lon qilindi. Mamlakatimizdagi minglab ijodkorlar qatori To‘ra Sulaymon ham ona-yurtini madh etib o‘ndan ortiq asarlar yaratdi. Shoir taxminan besh yuzga yaqin she‘rlar yozgan bo‘lsa, ularning to‘qson foizi ona-yurt haqidadir. Shoirning ayniqsa, “Muqaddas qo‘shiq” she‘rida ifodalangan g‘oyalarning ulug‘vorligi, sermazmunlilik, vaznining yengilligi, satrlarining soddaligi, tushunariligi jihatdan boshqa she‘rlaridan ajralib turadi. Shoirning “Faxriya” she‘rini o‘qigan har qanday insonni sergaklantiradi, hayratlantiradi, mamlakat go‘zalligidan, fusunkorligidan o‘rtantiradi.

Chiroyda Tong yulduzi bilan yonma-yon o‘lka,
Har bir tamal toshining o‘zi bir doston o‘lka,
Kechmishi, kechirmishi dunyoga ayon o‘lka,
Jon fido qilsa arzir jannat makonim mening.

Yoki:

Sen muqaddas beshigim, onam, ona tilimsan,
O‘z aytar qo‘shig‘imsan, ertam, ezguligimsan.
Men seningsiz yasholmam, ko‘kday manguligimsan,
Boladay ko‘zga yaqin Sir, Zarafshonim mening.

To‘ra Sulaymonning yigirma to‘rt qatorli she‘rida yoshlar butun O‘zbekistonni tarixi, buguni, kelajagi haqidagi bilimga, ma‘lumotga ega bo‘lishi mumkin. Shoirning ulug‘ligi, o‘lmasligi, unutilmasligining belgilaridan biri yurt tarixini yaxshi bilishi, g‘ururlanishi va yoshlarga o‘git berishi bilan ham ahamiyatlidir.[8]

Xulosa: To‘ra Sulaymon o‘zini Ergash Jumanbulbulni shogirdi sifatida ko‘radi. “Ergash Jumanbulbul o‘g‘li el kezadi” turkumida “Yetolmadim”, “Tangriga tavallo”, “Yig‘lar I”, “Yig‘lar II”, “Soxtadan soxta”, “Xolinda I”, “Xolinda II”, “Aylanay II”, “Bo‘ldi”, “Ustivor”, “Imtixon”, “Biri Sirdaryo bo‘lsa, ul biri Zarafshondir” kabi asarlar yaratib, haqiqatan ham ulug‘ shoirga shogird ekanligini isbotladi. Yurtimiz yutuqlaridan quvonib, kamchiliklaridan kuyinib asarlar yaratdi. Ayniqsa, To‘ra Sulaymonning otashli, ko‘plab tilshunos va boshqa ko‘plab ...shunos olimlar ayta olmagan, hammani oyoqqa qalqitadigan, ziyolilarni o‘ylantirib yurgan, o‘zbek tili muommalari, o‘zbek tiliga hurmatsizlik, nutq madaniyati, savodsizlik haqidagi dolzarb maqolalari ko‘pchilikni e‘tiboriga tushdi. “Til-o‘zagimizning, o‘zligimizning o‘ziga bekligimizning bosh belgisi” nomli maqolasi radio tili, televideniye tili, notiqlik san‘ati, og‘zaki nutq, nutq madaniyati, qisqasi muomila tili haqidagi eng dolzarb masalaga bag‘ishlangan edi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 2 ***

“Endi o‘zimizning sof o‘zbekona iboralarimiz, atamalarimiz o‘rniga g‘aliz, qo‘pol, haqoratimiz birikmalarning aytilayotganiga, yozilayotganiga e‘tibor bersangiz bormi?” To‘ra Sulaymon bu maqolasida ulug‘ tilshunos olimday fikr yuritadi. Til ilmining bilimdoni ekanligini ko‘rsatadi.

“O‘zbekiston xalq shoiri, Guliston davlat universiteti professori sifatida men ham, qo‘-y-e, -e, menga nima deb chillaxonaga kirib ketib, ko‘zga ko‘zoynakni yopishtirib, to‘rtko‘z bo‘lib olib bo‘lar-bo‘lmas jo‘qiyona shig‘irlarni yozib, yo ilmiy ishlar bilan shug‘ullanib (sadag‘asi ketay o‘sha shig‘orlarning bilan palag‘da ilmiy ishlarini deydi odam bo‘lsa, koshki), ko‘kragimni zaxga berib yotsam bo‘lar edi. Gap ana shu menga nima-a-a-ya deyishda! Bu ketishda tilimizning ahvoli nima kechadi deb men o‘ylamasam, siz qayg‘urmasangiz, u esa qilar ishni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib tijoratchilikka urib ketsa (hijolat bo‘lmasdan), alaloqibat nima bo‘ladi?!” deb bong uradi shoir. Ijodkor jamiyatda faolligi bilan ajralib turadi. Hayotdagi yutuqlardan xursand bo‘lib kamchiliklardan kuyina bilib, oddiy kishilardan kamida o‘n qadam oldinda yurishi zarur bo‘ladi. Bizning To‘ra Sulaymon mana shunday ilg‘or fikrlaydigan olim-shoir edi. To‘ra Sulaymonning “Bir kaft zar, bir hovuch gavhar” maqolasi katta axloqshunos-faylasuf olim, donishmand ekanligini ko‘rsatuvchi asardir.

Andishasiz odamni odam deb ayta ko‘rma,
Gap qotar bo‘lsa magar, ortingga qayta ko‘rma.

yoki:

Keksalik mo‘ralab eshiq qoqmoqda,
Bolalik qaytadan qaytarilmoqda...
Bizdan erta kunga nelar qolmoqda?
Umr o‘tmoqdadir, umr o‘tmoqda.

Shoirning “Umr o‘tmoqdadir daryo misol” she‘ri har qanday insonni o‘tgan umriga, yoshligiga, orqasiga qarashga majbur qiladi. Umr o‘qar daryo, uni mazmunli, maqsadli, foydali o‘tkazishga da‘vat qiluvchi bu she‘rni katta bir hayot haqidagi asar desa bo‘ladi.

To‘ra Sulaymon - baxshi shoir.

To‘ra Sulaymon-yozuvchi.

To‘ra Sulaymon – dostonchi, baxshi.

To‘ra Sulaymon – tarbiyachi.

To‘ra Sulaymon – tarjimon.

To‘ra Sulaymon – tilshunos, adabiyotshunos.

To‘ra Sulaymon – axloqshunos – faylasuf.

To‘ra Sulaymon – tuproqshunos olim.

To‘ra Sulaymon – oqibatli, mehribon do‘st, eng asosiysi, katta harflarda yoziladigan INSON edi.

To‘ra Sulaymon – vatan, ona yurt kuychisi. To‘ra Sulaymon - tarbiyachi. Shoirning “Alhazar” to‘plamidagi “Sen so‘rama, men aytmay”, “Oqqadar”, “Alhazar”, “Yo‘liqdim”, “Tashladim”, “Oltin qafas”, “Gapdan gap”, “Mushmas” kabi asarlari To‘ra Sulaymon iqtidorini, iste‘dodini ko‘rsatuvchi, isbotlovchi kitobxonning his-tuyg‘usini uyg‘otuvchi, tarbiyalovchi asarlar sirasiga kiradi.

To‘ra Sulaymonning “Iltijo”, “Yovqochdi”, “Sarvinoz”, “Jahonnoma”, “Gulshan”, “Gul bir yon, chaman bir yon” kabi o‘ttizga yaqin to‘plamlari xalqimizning ma‘naviy mulkiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti 2021.
2. Mahmudov. R. Yurak ehtiyoji. (suhbat) Monografiya. “Odamlar – mening kutubxonam”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1998.
3. Mahmudov R. Xalq shoiri. Monografiya. “Tafakkurning olmos qirralari”. Toshkent, 1996.
4. To‘ra Sulaymon. Saylanma. Toshkent. “Sharq” nashriyoti. 2020.
5. To‘ra Sulaymon “Sensiz yolg‘iz g‘arib bo‘ldim...” Toshkent. “Movaunnahr” nashriyoti. 2017.
6. Mahmudov. R. To‘ra Sulaymon. Risola. Guliston. 2004.
7. Mahmudov R. To‘ra Sulaymon. Risola. Guliston “Ziyo” nashriyoti 2005.
8. Mahmudov R. To‘ra Sulaymon. Monografiya. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008.
9. Mahmudov, R. J. (2020). Problems of studying the scientific heritage of Hussein Wayz Kashifi. Bulletin of Gulistan State University, 2020(3), 60-66.
10. Mahmudov, R. J. (2021). Socio-political, spiritual and moral views of Zainiddin Vasifi. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 55-63.

Muallif:

Mahmudov Ravshanbek - Guliston davlat universiteti professori, falsafa fanlari nomzodi.

E-mail: ravshanbek.jalilovich@mail.ru

УДК:336.371

IMPACT OF PRIVATE LOANS ON PRIVATE BUSINESS AS A FACTOR OF EXPANDING SMALL BUSINESS OPPORTUNITIES

IMTIYOZLI KREDITLARNING XUSUSIY TADBIRKORLIKKA TA'SIRI, KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHNI OMILI SIFATIDA

ВЛИЯНИЕ ЧАСТНЫХ КРЕДИТОВ НА ЧАСТНЫЙ БИЗНЕС КАК ФАКТОР РАСШИРЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА

Мирзаева Шахноза Маматовна

Гулистон давлат университети. 120100. Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 4-мавзе.

E-mail: mirzaeva-sh2024@gmail.com

Abstract. Small and medium-sized enterprises (SMEs) are the backbone of economies around the world, and they have a significant impact on employment and innovation development. However, the financing of small and medium-sized businesses remains one of the most urgent problems today, which is especially noticeable in developing countries. We can cite preferential loans as one of the methods of financing the small business sector. With its favorable conditions, preferential loans serve as a good tool for financing the small business sector, and have emerged as a powerful tool for expanding the capabilities of small businesses and developing private entrepreneurship. This article focuses on the impact of the preferential lending system on private entrepreneurship and their role in small business development.

Key words: Small business, entrepreneurial activity, preferential loans, financing methods.

Annotatsiya. Kichik va o'rta korxonalar (KO'B) butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotning tayanchi bo'lib, ish bilan ta'minlash, innovatsiyalar rivojlanishida kichik va o'rta korxonalarni sezilarli ta'siri bor. Biroq, kichik va o'rta biznes sohasini moliyalashtirish bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda bu ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'zga tashlanadi. Kichik biznes sohasini moliyalashtirish usullaridan biri sifatida imtiyozli kreditlarni keltirishimiz mumkin. Imtiyozli kreditlar o'zining qulay shart-sharoitlari bilan kichik biznes sohasini moliyalashtirishda yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi, kichik biznesning imkoniyatlarini kengaytirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kuchli vosita sifatida maydonga chiqdi. Ushbu maqolada imtiyozli kreditlash tizimini xususiy tadbirkorlikka ta'siri va ularni kichik biznes rivojlantirish ro'li haqida to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik faoliyati, imtiyozli kreditlar, moliyashtirish usullar.

Аннотация. Малые и средние предприятия (МСП) являются основой экономики во всем мире и оказывают значительное влияние на занятость и инновационное развитие. Однако финансирование малого и среднего бизнеса остается сегодня одной из наиболее актуальных проблем, что особенно заметно в развивающихся странах. В качестве одного из способов финансирования сектора малого бизнеса можно назвать льготное кредитование. Благодаря своим выгодным условиям льготные кредиты служат хорошим инструментом финансирования сектора малого бизнеса, а также стали мощным инструментом расширения возможностей малого бизнеса и развития частного предпринимательства. В данной статье речь идет о влиянии системы льготного кредитования на частное предпринимательство и его роли в развитии малого бизнеса.


Ключевые слова: Малый бизнес, предпринимательская деятельность, льготные кредиты, методы финансирования.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqarorlashtirish, har tomonlama iqtisodiy o'sish erishish, iqtisodiyotni xususan bozor iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiruvchi eng optimal usullaridan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda [1-5]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni barqarorligi ta'minlash, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va bozorlarimizni iste'mol tavarlari bilan to'ldirish, innovatsiyalarni qabul qilish va iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda. Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.

Imtiyozli kreditlar, shuningdek, imtiyozli yoki subsidiyalik kreditlar sifatida ham tanilgan, hukumatlar, notijorat tashkilotlari yoki rivojlanish moliya institutlari tomonidan maqsadli tarmoqlarni, jumladan, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etiladigan moliyaviy vositalardir. An'anaviy kreditlardan farqli o'laroq, imtiyozli kreditlar odatda past foiz stavkalari, uzoqroq to'lash muddatlari va yanada moslashuvchan shartlarga ega bo'lib, ularni moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladigan tadbirkorlar uchun ochiq qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatidagi eng muhim to'siqlardan biri bu boshlang'ich kapitalning yetishmasligi. Imtiyozli kreditlar tadbirkorlarni o'z biznesini boshlash yoki kengaytirish uchun zarur mablag' bilan ta'minlash orqali bu bo'shliqni bartaraf etadi. Imtiyozli kreditlar pastroq foiz stavkalari va yengillashtirilgan garov talablari bilan moliyalashtirishni taklif qilish orqali kichik biznesga asbob-uskunalar, inventarizatsiya, marketing va boshqa muhim jihatlarga sarmoya kiritish uchun zarur bo'lgan kapitaldan foydalanish imkonini beradi.


Imtiyozli kreditlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga, balki o'sish va kengayishiga ham yordam beradi. Tadbirkorlar ushbu mablag'lardan texnologiyani yangilash, qo'shimcha xodimlarni yollash, yangi bozorlarni o'rganish yoki mahsulot takliflarini diversifikatsiya qilish uchun foydalanishlari mumkin. Buning natijasida kichik korxonalar o'z mahsuldorligini, raqobatbardoshligini va daromadlarini oshirishi, umumiy iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishi mumkin.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar kesimida aholining faollik darajasi. (6)

O'zbekiston Respublikasi viloyatlar kesimida aholining faollik darajasi so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda Jizzax viloyatida faol aholi 73% ni, Sirdaryo viloyatida esa 70,6% ni tashkil qiladi. 2016-2022 yillarda Jizzax viloyatida aholining faolligi 10,5%ga o'sganligi grafikimizda yaqqol namoyon bo'lgan. (1-rasm) Taxlilni chuqurroq davom ettirsak Respublikamizda oxirgi besh yilda bu ko'rsatkich 1,2%ga oshgan va 2022-yilda 73,7%ni tashkil qiladi. Innovatsiyalar tadbirkorlik muvaffaqiyatining markazida yotadi. Imtiyozli kreditlar tadbirkorlarga innovatsion g'oyalar, tadqiqot va ishlanmalar, mahsulot xizmatlarni yaxshilash uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Bu ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish, noyob biznes modellarini yaratish yoki barqaror amaliyotlarni yo'lga qo'yish bo'ladimi, arzon moliyalashtirishdan foydalanish tadbirkorlarni o'z sohalarida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi viloyatlar kesimida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi 2023-yilda jami bandlikdagi ulushi 74,1 % (foiz)ni, Sirdaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich 72,5 % (foiz) ni, Toshkent viloyati jami bandlikdagi ulushi 70,3% (foiz)ni tashkil qiladi (2-rasm). Taxlilni chuqurroq davom ettirsak Respublikamizda oxirgi besh yilda bu ko'rsatkich, Sirdaryo viloyati bandlik ulushi Toshkent viloyatining bandlik ulushidan 2,1% (foiz)ga yuqoriligi grafikimizda namoyon bo'lgan. Kichik biznes, ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan iqtisodlarda yoki norasmiy sektorlarda ish o'rinlarini yaratishda muhim vositadir. Imtiyozli kreditlar orqali tadbirkorlarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali hukumatlar va tashkilotlar bandlik imkoniyatlarini rag'batlantirishi, qashshoqlikni kamaytirishi va inklyuziv o'sishni rag'batlantirishi mumkin. Kichik biznesning kengayishi va rivojlanishi natijasida ular nafaqat o'z korxonalarida, balki ta'minot zanjirlari va mahalliy hamjamiyatlarda ham ish o'rinlari yaratib, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar va barqarorlikni ta'minlamoqda.



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi. (7)

Tadbirkorlik tabiatan xavflarni o'z ichiga oladi va an'anaviy moliyalashtirish variantlariga kirish yuqori foiz stavkalari va qat'iy to'lov shartlari tufayli bu risklarni kuchaytirishi mumkin. Imtiyozli kreditlar tadbirkorlarni arzon sarmoya va moslashuvchan to'lov jadvallari bilan ta'minlash orqali moliyaviy zaifliklardan himoya qiladi. Bu defolt va bankrotlik xavfini yumshatib, kichik biznesga iqtisodiy noaniqliklarga bardosh berish va uzoq muddatli barqarorlikka erishish imkonini beradi.

Imtiyozli kreditlar kichik biznes uchun ko'plab imtiyozlar bersa-da, ularning samaradorligi turli omillar, jumladan, ariza berish jarayonlarining shaffofligi, tegishli monitoring mexanizmlari va barqaror moliyalashtirish manbalariga bog'liq. Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlikka imtiyozli kreditlarning ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun moliyaviy savodxonlik, salohiyatni oshirish va bozorga kirish kabi masalalarni hal etish zarur.

Xulosa.

